

ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

UIF: 6.1

SJIF: 5.7

SIS: 1.9

Cite Factor: 0.89

ASI-Factor: 1,3

ISI Factor: 0.96

2023/04

VOLUME 4

ISSUE 4



*We increase scientific
potential together!*

ARES.UZ

Exact Sciences
Natural Sciences
Technical Sciences
Pedagogical Sciences
Medical Sciences
Social and Humanitarian Sciences





ISSN 2181-1385

VOLUME 4, ISSUE 4

APRIL, 2023



www.ares.uz

EDITOR-IN-CHIEF

G. Mukhamedov

Professor, Doctor of Chemical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

EDITORIAL BOARD

U. Khodjamkulov

Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Botirova

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

B. Eshchanov

Associate Professor, Doctor of Physical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Madayeva

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

R. Bekmirzayev

Professor, Doctor of Physical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

G. Nurshiyeva

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Kazakhstan

I. Tursunov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Gaffarova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

Y. Safronova

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

G. Ruzmatova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

N. Shermuhamedova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

B. Khusanov

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

K. Tulantayeva

Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, National University of Kazakhstan

O. Naumenko

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Science and Technology MISIS

M. Rakhimshikova

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University

Kh. Paluanova

Associate Professor, Doctor of Sciences in Philology, Uzbekistan State World Languages University

M. Gulyamova

Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State World Languages University

N. Makhmudova

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University

M. Sultonov

Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

N. Zolotyx

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

J. Kholmuminov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State University of Oriental Studies

A. Kholmakhmatov

PhD in Political Sciences, Ministry of Higher and Secondary Specialized Education

O. Hayitov

Professor, Doctor of Psychological Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

D. Karshiyev

Associate Professor, Candidate of Physical Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute

T. Shevchenko

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

R. Ikramov

Associate Professor, Candidate of Juridical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

C. Nasritdinov

Associate Professor, Chirchik Higher School of Tank Command-Engineering

Z. Yakhshiyeva

Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

B. Yuldashev

Associate Professor, Tashkent Paediatric Medical Institute

Y. Islamov

Associate Professor, Candidate of Biological Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute

S. Allayarova

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Djumabekov

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University

K. Toshov

Senior Teacher, PhD, National University of Uzbekistan

T. Khojiyev

Associate Professor, PhD, National University of Uzbekistan

A. Shofkorov

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

I. Ergashev

Professor, Doctor of Political Sciences, National University of Uzbekistan

J. Davletov

Senior Teacher, PhD in Philosophical Sciences, Urgench State University

A. Makhmudov

Doctor of Philosophy in Economical Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

A. Yuldashev

PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University

S. Pirmatov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Tashkent State Technical University

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 4, ISSUE 4, APRIL, 2023

D. Otajonova

Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

F. Rajabov

Associate Professor, PhD in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

J. Namozov

Associate Professor, PhD in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

N. Umarova

Associate Professor, PhD in Psychological Sciences, Tashkent State Pedagogical University

S. Toshtemirova

PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

U. Shermatova

PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Akhunova

Associate Professor, PhD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

N. Juraeva

Senior Teacher, PD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Iskhakova

Associate Professor, Candidate of Agricultural Sciences, National University of Uzbekistan

U. Rustamov

Acting Associate Professor, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

I. Mambetov

PhD in Philological Sciences, Karakalpak State University

Z. Sanakulov

Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

D. Sharipov

Senior Scientific Researcher, PhD in Technics, Tashkent University of Information Technologies

O. Jabborova

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Tojiyeva

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University

A. Yekabsons

Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

E. Makhkamov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical University

A. Seytov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical University

A. Tursunov

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Navoi State Mining Institute

N. Bobomuradov

PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport

U. Kasimov

Professor, Doctor of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

Sh. Otajonov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, National University of Uzbekistan

L. Sobirova

PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport

Sh. Kurbanov

Associate Professor, PhD in Technical Sciences, Karshi Engineering-Economic Institute

B. Salimov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State Transport University

R. Khudayberganov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State Transport University

M. Vafoeva

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Samarkand State University

K. Inakov

Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

G. Rashidova

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Jizzakh branch of National University of Uzbekistan

K. Mamadaliev

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

Sh. Muradkasimova

Senior teacher, Doctor of Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of World Languages

T. Kuyliyev

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Tashkent State Agrarian University

N. Soatova

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

S. Eshonkulova

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Imomova

Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Karshi State University

N. Beketov

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

P. Turapova

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

D. Niyazova

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University

B. Ramazonov

Associate Professor, PhD in Biological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

N. Berdaliyev

Associate Professor, PhD in Political Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering

N. Sultonova

Associate Professor, PhD in Philosophical Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering

N. Yuldosheva

Associate Professor, PhD in Philology, Karshi State University

A. Narmanov

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

M. Achilova

Senior teacher, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

Editorial Secretary: T. Madalimov

YUMSHOQ BUG‘DOYNING AGROEKOLOGIK RAQOBAT NAV SINOVIDA MAHSULDORLIK HAMDA SIFAT KO‘RSATKICHLARI

Z. M. Ziyayev, A. B. Elmurodov, A. E. Xakimov, S. K. Baboev
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti
igebr_anruz@mail.ru

ANNOTATSIYA

Yumshoq bug‘doy nav-namunalari ustida 2020 – yilda o‘tkazilgan nazorat tajriba natijalaridan kelib chiqib, eng yuqori mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan navlar raqobat sinovi uchun tanlab olindi. Tanlab olingan navlar ikki xil tuproq iqlim sharoitida o‘rganildi va andoza sifatida shu hududda yuqori hosil berib kelayotgan navlar olindi. Mazkur maqolada, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida olib borilgan raqobat nav sinov tajribasi asosida, yangi navlarni standart navlarga qiyosan bir xil sharoitlarda har tomonlama o‘rganish va baholash ishlari natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mahsuldorlik, ANOVA, hosildorlik, boshqoq, agroekologik sinov, raqobat.

ABSTRACT

Based on the results of a 2020 control experiment on soft wheat variety-samples, varieties with the highest productivity indicators were selected for competition testing. The selected varieties were studied in two different soil climates, and by default varieties were obtained that were giving high yields in the same area. In this article, on the basis of competitive varietal Test experience conducted in Tashkent and Fergana regions, the results of comprehensive study and evaluation of new varieties in the same conditions as standard varieties are presented.

Keywords: productivity, ANOVA, productivity, spike, agroecological test, competition

KIRISH

Har qanday seleksion dasturning asosiy talabi mahsuldorligi yuqori genetik potensialga ega bo‘lgan navlar yaratishdan iborat. Yumshoq bug‘doyda navning hosildorligini mahsuldor poyalar soni, boshqoq kattaligi, boshqoqchalar soni, boshqoq va boshqoqchalardagi don soni, 1000 dona don vazni, boshqoq va o‘simlikning mahsuldorligi ta‘minlaydi. Hosildor navni tanlashda o‘simliklarning mahsuldorlik qonuniyatlarini va uning tarkibiy qismlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Bunday ishlar dunyo



olimlari tomonidan ko'plab olib borilmoqda. Turli mualliflar tomonidan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki belgilarning irsiylanish harakteri duragaylashga jalb etilayotgan navning genetik xususiyatlariga, tadqiqot olib borilayotgan hududning tabiiy iqlim sharoitlariga bog'liq [1; 2]. Shuning uchun ham bir sharoitda va populyatsiyada olingan ma'lumotlarni boshqa sharoit va populyatsiyaga qo'llash ijobiy natija bermaydi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIA

Boshodagi boshochalar soni hosildorlikning samaradorligini bildiradi. Boshodagi don soni va 1000 ta don vazni belgilari esa tashqi muhit bilan o'zaro bog'liqdir. Ko'p hollarda boshoch uzunligi bilan boshochalar soni o'rtasida ijobiy bog'liqlik bo'lib, o'z navbatida boshoch zichligi bilan chambarchas bog'liqdir [4].

2021-yilda raqobat nav sinovi ko'chatzori institutning Do'rmon tajriba xo'jaligi va Farg'ona viloyatining Bag'dod filiali tajriba dalalarida olib borildi. Ma'lumki bug'doyning gullash davrida haroratning yuqori bo'lishi boshodagi don sonining kamayishiga va natijada hosildorlikni 20 foizga pasayishiga olib keladi. Mazkur davr uchun eng maqbul o'rtacha kunlik harorat 16-20°C, namlik yetarli bo'lganda esa 23°C hisoblanadi. Juda past harorat o'simlikning boshochlash-pishish davrini o'tishini sekinlashtiradi, haroratning ko'tarilishi va havo namligini kamayishi don olishini tezlashishiga va uning sifatini yomonlashishiga olib keladi.

Don to'lishish davrida yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi va haroratning past bo'lishi don to'lishish davrining uzayishiga sabab bo'ladi. Don to'lishish davri uchun maqbul harorat 26 °C hisoblanadi, past harorat esa don pishishi davrining uzayishiga bog'liq bo'ladi. Haroratning yuqori bo'lishi va havoni nisbiy namligining pasayishi, ya'ni havoning quruq bo'lishi donning tezda pishishiga sabab bo'ladi, oqibatda don burishgan va hosildorlik nisbatan kamayadi.

Toshkent viloyati Do'rmon tajribasida ekilgan bug'doy raqobat ko'chatzorining o'suv davri va mahsuldorlik ko'rsatkichlari. Aynan donli ekinlar rivojlanishining shu davrida yuqori haroratga ta'sirchanligi yuqori darajada bo'ladi. Har ikkala mintaqa sharoitida tajriba olib borilgan yilda urug' ekilib, sug'orilgandan so'ng 7-10 kunda to'liq unib chiqishi qayd qilindi. Unib chiqish – boshochlash davri Toshkent viloyati sharoitida esa 152.7-155.3 kuni tashkil etdi. Statistika tahlillarining ko'rsatishicha unib chiqish va boshochlash kuni bo'yicha genotilar o'rtasida ishonarli farq yo'qligini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval. Toshkent viloyati Do‘rmon tajribasida ekilgan bug‘doy raqobat ko‘chatzorining o‘sov davri va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ANOVA statistik taxlillari

№	Genotiplar	Boshq-lashgach a bo‘lgan kun	Pishishga -cha bo‘lgan kun	O‘simlik poya balandligi, sm	Oxirgi bo‘g‘in uzunligi, sm	Boshq uzunligi, sm	Boshqochalar soni, dona	Boshq og‘irligi, gr	1000 ta don vazni, gr	Hosil kg / 10 m ²
1	BEZOSTAYA 100 (andoza)	153.3	194.7	103.3	38	9.67	19	2.10	41.57	5.29
2	KB-20-YT-IR 9808	155.3	193	101.3	37.33	9.67	16.33	1.96	41.2	4.99
3	KB-20-YT-IR 9812	155	197.7	109.3	40.33	11	19	2.21	41.6	6.96
4	KB-20-YT-IR 9815	154	198.3	111.3	37	12	21.33	1.89	41.63	7.18
5	KB-20-YT-IR 9816	156	196	109.3	37	10.33	21	1.84	39.93	6.90
6	KB-20-YT-IR 9818	154.7	195.3	103.3	40	11	18.67	2.11	40.57	6.45
7	KB-20-YT-IR 9820	154.7	196.3	106.7	36.67	10.67	18.33	1.79	40.27	4.80
8	KB-20-YT-IR 9825	153.7	195	105	34.67	9.67	17.33	1.88	39	6.20
9	KB-20-YT-IR 9829	154	193.3	102	34	8.67	17.33	1.91	39.67	5.78
10	KB-20-YT-IR 9841	155.3	194.7	96.3	31.67	10.67	18	1.70	40.4	6.30
11	KB-20-YT-IR 9842	153.7	196	93.7	30.33	10	18.67	1.87	40.97	6.52
12	KB-20-YT-IR 9843	153	194.7	96	33.67	9.67	17.67	2.12	37.83	5.51
13	KB-20-YT-IR 9846	152.7	195.7	104	36.67	10.67	18.67	1.93	40.07	6.16
14	KB-20-YT-IR 9847	154	194.3	99.3	37.33	8.67	17	2.11	40.3	6.44
15	KB-20-YT-IR 9821	153.3	194.3	103.7	36	11.33	20.67	1.97	42.13	6.73
	P (>F) 0.05 %	0.062	0.367	0.027	0.103	0.021	0.017	0.043	0.101	<.001
	LSD_{0.05}	2.2	3.9	9.7	6.07	2.4	2.6	0.21	2.45	0.650
	CV	0.86	1.20	5.64	10.08	3.44	8.56	1.04	3.63	6.33

Shuningdek Toshkent viloyati iqlim sharoitida olib borilgan tadqiqotlarda unib chiqish pishish ($P>0.367$) va oxirgi bo‘g‘in uzunligi ($P>0.103$) belgilari orasida genotiplar statistik jihatdan ishonarli farqlanmadi. O‘simlik poya balandligi, boshq uzunligi, boshqochalar soni, boshq og‘irligi va don hosildorligi belgilari orasida genotiplar statistik jihatdan ishonarli tarzda farqlanishi kuzatildi. Pishish fazasi bo‘yicha nav namunalarda 193-198.3 kunning tashkil qilib asosan o‘rtapishar navlar guruhiga kirishi qayd qilindi. Boshq uzunligi genotiplarda KB-20-YT-IR 9829 nav namunasida 8.67 sm ni tashkil qilgan bo‘lsa andoza Bezostaya 100 navida esa 9.67 sm ni va eng yuqori ko‘rsatkich KB-20-YT-IR 9821 nav namunasida 11.33 sm tashkil etdi. Shuningdek boshqochalar soni ko‘rsatkichi bo‘yicha eng kam KB-20-YT-IR 9808 nav namunasida 16.33 donani va andoza Bezostaya 100 navida 19 dona hamda eng yuqori ko‘rsatkich KB-20-YT-IR 9815 namunasida 21.33 donani tashkil etdi. Boshq og‘irligini yuqori bo‘lishi bu har gektar maydondan olinadigan pirovard hosilga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq va bu muhim qimmatli xo‘jalik belgilaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarda boshq og‘irligi 1.70-2.21 gr ni va barcha namunalarda o‘rtacha 1.83 gr ni tashkil etdi. Tajribada o‘rganilgan 14 ta namunalardan 12 namunalarning hosildorligi

bo'yicha andozan navdan yuqori ekinligi aniqlandi. Eng yuqori hosildorlik KB-20-YT-IR 9815 namunasida 7.18 t/ga hisobida hosil olindi. Andoza navida esa bu ko'rsatkich 5.29 t/ga ni tashkil etib KB-20-YT-IR 9815 namunasidan 1.89 t/ga hosil kam berganligini aniqlandi. Shuningdek tadqiqotlardagi nav namunalardan quyidagilar KB-20-YT-IR 9812 (1.67 t/ga), KB-20-YT-IR 9816 (1.61 t/ga), KB-20-YT-IR 9821 (1.44 t/ga), KB-20-YT-IR 9818 (1.16 t/ga), KB-20-YT-IR 9847 (1.15 t/ga) andoza navdan yuqori hosil berganligini kuzatildi.

2-jadval.


Farg'ona viloyatida bug'doy raqobat ko'chatzorining o'suv davri va mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha ANOVA statistik taxillari.

№	Genotiplar	Boshqalas h-gacha bo'lgan kun	Pishish-gacha bo'lgan kun	O'simli k poya balandligi, sm	Oxirgi bo'g'in uzunligi, sm	Boshq uzunligi, sm	Boshq -chalar soni, dona	Boshq og'irligi, gr	1000 ta don vazni	Hosil kg / 10 m ²
1	BEZOSTAYA 100 (andoza)	156	207	102	34.67	9.33	16.67	1.92	39.37	4.54
2	KB-20-YT-IR 9808	162	204	105.33	37	9.67	16.67	1.77	41.17	4.98
3	KB-20-YT-IR 9812	159.7	209	105.33	38	12	20.33	1.87	43.23	6.34
4	KB-20-YT-IR 9815	159.7	207	105	37	10	19.67	2.12	41.63	5.05
5	KB-20-YT-IR 9816	159.3	206.7	103.33	35	10.33	20.33	1.93	41.1	6.79
6	KB-20-YT-IR 9818	162	209	102	43.67	10	19.33	2.11	40.83	5.72
7	KB-20-YT-IR 9820	163.7	206.7	97.67	33	11	18.67	1.97	40.67	5.33
8	KB-20-YT-IR 9825	160.7	206.3	106	35	10.67	19.33	2.0	41.03	5.57
9	KB-20-YT-IR 9829	161.3	207.3	95.67	33	9.67	18	1.95	40.97	5.43
10	KB-20-YT-IR 9841	159	206.7	96	29.67	10	16.67	2.21	38.93	4.76
11	KB-20-YT-IR 9842	161	207	90.67	29.33	10.33	18.67	1.89	41.77	6.08
12	KB-20-YT-IR 9843	151.7	195.3	92.67	30.33	10	17	1.84	38.2	5.74
13	KB-20-YT-IR 9846	160.3	208	93.33	30	9.67	17.33	2.12	41.47	5.38
14	KB-20-YT-IR 9847	160	205.3	92.67	35.67	8.33	17.33	1.81	41.2	5.33
15	KB-20-YT-IR 9821	159.3	206.7	93.67	31	11.33	20.67	1.84	41.93	5.93
	P (>F) 0.05 %	0.294	0.247	<.001	<.001	0.138	0.013	0.023	<.001	<.001
	LSD_{0.05}	3.2	8.1	6.714	5.7	1.99	2.577	0.14	1.643	0.43
	CV	2.70	2.35	4.06	9.98	11.72	8.35	1.14	2.40	4.65

Boshq uzunligi bo'yicha ($P > 0.138$) statistik jixatdan

ishonarli farqlanmadi **2-jadval**. Buning sabab fikrimizcha namunalarni tanlashda boshqoqlash va pishish muddatlari bo'yicha erta hamda kechpiishar navlarni tanlanmaganligidir. Raqobat nav sinovidagi barcha namunalar o'rtapishar navlar guruhiga kirishi kuzatildi. O'simlik poya balandligi bo'yicha andoza navi 102 sm ni tashqil qilib qolgan namunalarda eng past ko'rsatkich 92.67 sm ni eng yuqori ko'rsatkich esa 2 ta namunada KB-20-YT-IR 9808 hamda KB-20-YT-IR 9812 105.33 sm ni tashqil etdi. Umuman ikki xudduda xam KB-20-YT-IR 9808 namunasi yotib qolishga chidamsiz ekanligini kuzatdik. Albatta bu esa o'z navbatida hosilning kamayishiga olib keldi. Boshqochalar soni bo'yicha 16.67-20.67 dona ni hamda boshqoq og'irligi bo'yicha 1.77-2.21 gr ni tashkil qildi. Boshqoq og'irligi va 1000 ta don vazni bo'yicha ikki hudduda ham andoza nav bilan katta farq kuzatilmadi. Toshkent viloyatida 1000 ta don vazni bo'yicha 37-41.3 gr ni, Farg'ona viloyatida tajribalarda 38.2-43.2 gr ni tashkil qildi. Tadqiqotlarda ayrim namunalarga tashqi muhitning ta'siriga ta'sirchan ekanligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan KB-20-YT-IR 9815 va KB-20-YT-IR 9841 namunalari hosildorlik ikki hududda keskin farqlanlangi aniqlandi (**1-diagramma**). Toshkent va Farg'ona viloyatlari ob-havo sharoitidan katta farq qilmasada namunalar ikki hududda ham hosildorligi bilan farq aniqlandi. Farg'ona viloyatida olib borilgan taqdiqotlarda andoza navida hosildorlik 4.54 t/ga ni tashkil etgan bo'lsa barcha namunalar andoza navga nisbatan yuqori hosil berganligi aniqlandi va bu statistik tahlil natijalarida o'zini isbotini topdi.

1- diagramma. Raqobat nav sinovida o'rganilgan nav namunalarning agroekologik nav sinovidagi hosildorligi. (t/ga)



Tahlillar shuni ko'rsatdiki KB-20-YT-IR 9816, KB-20-YT-IR 9842 va KB-20-YT-IR 9812 bug'doy namunalari ikki

hududda ham barqaror hosil berganligini aniqlandi. KB-20-YT-IR 9808 va KB-20-YT-IR 9820 bug‘doy namunalari ikki hudud natijalariga ko‘ra andoza navi bilan teng yoki kam hosil berganligi aniqlandi.

3-jadval. Raqobat sinovi ko‘chatzorining don sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ANOVA statistik taxlillari

№	Genotiplar	Toshkent				Farg‘ona			
		Oqsil miqdori %	Kleykovina miqdori %	IDK	Sedimen tatsiya	Oqsil miqdori %	Kleykovina miqdori %	IDK	Sedimen Tatsiya
1	BEZOSTAYA 100 (andoza)	13.93	26.83	89.9	53.43	14	27.8	108.1	56.27
2	KB-20-YT-IR 9808	14.57	28.77	93.87	59.13	14.3	29.07	88.97	55.67
3	KB-20-YT-IR 9812	14.4	27.93	85.77	63.17	14.87	28.63	88.37	62.27
4	KB-20-YT-IR 9815	13.93	27.5	99.47	54.67	15.07	30.23	113.13	49.3
5	KB-20-YT-IR 9816	14.17	29.2	86.7	51.87	14.15	30.47	89.4	52.47
6	KB-20-YT-IR 9818	14.4	27.77	93	60.63	15.03	28.73	86.27	54.9
7	KB-20-YT-IR 9820	14.4	28.43	79.5	59.1	14.83	27.27	109.03	57.2
8	KB-20-YT-IR 9825	13.77	28.03	73.67	51.3	13.93	29.63	72.57	55.1
9	KB-20-YT-IR 9829	15.5	28.8	81.33	57.5	15.27	29.87	79.4	57.57
10	KB-20-YT-IR 9841	14.9	29.33	79.53	58.97	15.27	29.83	90.77	60.27
11	KB-20-YT-IR 9842	14.5	28.37	81.67	59.17	14.73	30.03	112.4	56.4
12	KB-20-YT-IR 9843	14.17	27.77	82.13	55.53	14.47	29	66.57	57.87
13	KB-20-YT-IR 9846	13.83	27.33	84.33	52.1	15.07	30.37	93.5	62.23
14	KB-20-YT-IR 9847	13.4	27.67	79.3	50.73	14.1	29	111.7	53.07
15	KB-20-YT-IR 9821	14.7	27.23	93.17	54.13	14.9	29.77	58.63	58.77
	P (>F) 0.05 %	<.001	0.667	0.163	0.04	<.001	<.001	<.001	0.549
	LSD_{0.05}	0.492	2.391	11.53	4.562	0.455	1.149	7.717	11.23
	CV	2.06	5.09	6.50	5.96	1.86	2.34	5.06	10.64

XULOSA

Yumshoq bug‘doy doni texnologik xususiyatlari bo‘yicha uch guruhga bo‘linadi: kuchli, o‘rta sifatli va kuchsiz. Kleykovina bug‘doy donining asosiy qimmatbaho tarkibiy qismi bo‘lib, uning oziqlilik, texnologik va tovarlik darajasini belgilaydi.

ANOVA statistik tahlillarining ko‘rsatishicha ikkita hududda ham barcha o‘rganilgan genotiplarning oqsil miqdori bo‘yicha statistik jixatdan namunalarda o‘rtasida yuqori darajada ishonarli farq borligi kuzatildi (**P<001**). Toshkent viloyatida olib borilgan taqdiqotlarda oqsil miqdori 13.4-15.5 % ni tashkil etib andoza navida bu ko‘rsatkich 13.93 % ni tashkil etdi. Tadqiqotlarda o‘rganilgan namunalarning 60 foizi oqsil miqdori bo‘yicha andoza navdan ustun ekanligi kuzatildi (**3-jadval**). Farg‘ona viloyatida bir nechta

namunalar KB-jumladan 20-YT-IR 9815, KB-20-YT-IR 9818, KB-20-YT-IR 9841 va KB-20-YT-IR 9846 namunalari oqsil miqdori bo'yicha 1-1.5 % foiz yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. KB-20-YT-IR 9829 namunasi esa ikki hududda ham oqsil miqdori 15.5 foizni tashqil etdi. Tahlillari shuni ko'rsatdiki Farg'ona viloyatida Toshkent viloyatidagi xuddi shu namunalariga nisbatan oqsil miqdori bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa oqsil miqdorining hosildorlik bilan teskari korrelyatsiya bog'lanishiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Xuddi shu qonuniyat asosida kleykoviga miqdorini bilan ham mos kelishini ko'rishimiz mumkin ya'ni Farg'ona viloyatidagi namunalarda kleykovina miqdori sezilarli ravishda yuqori ekanligi tajribalarda tasdiqlandi. Don tarkibidagi kleykovina ko'rsatkichi bo'yicha tahlil natijalari o'rganilganda, o'rtacha kleykovina ko'rsatkichi andoza naviga nisbatan nav va namunalarining deyarli barchasi ikkala mintaqada ham nisbatan yuqori bo'lganligi aniqlandi hamda keyingi bosqichda chatishtirish ishlarida donor sifatida qo'llash uchun tavsiya qilindi. IDK va sedimentatsiya ko'rsatkichlari doirasida keskin farqlanish kuzatilmadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotdan ko'rish mumkinki tadqiqotlarda o'rganilayotgan nav namunalardan oqsil miqdori bo'yicha davlat andozlari talabiga javob beradigan kuchli bug'doy navlarni yaratishda foydalanish mumkin.

REFERENCES

1. Ali Erkul, Aydin UNAY, Cahit Konak. Inheritance of yield and yield components in a bread wheat (*Triticum aestivum L.*) cross // Turkish Journal of Field Crops, 2010. 15(2), – P.137-140.
2. Fethi B., Mohamed E.G., Epistasis. Genotype-by environment interaction of grain yield related traits in durum wheat. // Plant Breeding and Crop Sci. 2010. V.2. № 2, – P. 24-29.
3. Шиндин И.М. Наследование количественных признаков гибридами мягкой яровой пшеницы в условиях дальнего востока // Вестник КрасГАУ. 2008. № 4, – С. 66-70.
4. Ковтун В.И., Ковтун Л.Н. Озерненность масса зерна с колоса и масса 1000 зерен в повышении урожайности озимой мягкой пшеницы // Известия Оренбургского государственного аграрного университета. 2015. № 3, – С. 27-29.



XROMLI OQOVA SUV VA CHIQINDI ERITMALARINI ELEKTROKIMYOVIY TOZALASH USULLARI

Shaxnoza Shannon qizi Odilova

Jizzax politexnika instituti, assistent

odilovashaxnoza0108@gmail.com;

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xromli oqova suvlarni va chiqindi eritmalarini glitserin ishtirokida elektroliz qilishda xromning oqim samaradorligini oshirish va optimal jarayon sharoitlarini aniqlash usullari tahlil qilingan. Olti valentli xrom ionlari yuqori zaharli chiqindilar bo'lib, metallurgiya, galvanik, charm sanoati oqava suvlarida hosil bo'ladi. Tadqiqot obyekti sifatida elektrokaplama xrom sexidan olingan namunaviy chiqindi eritmasi va uch atomli spirt - glitserin ishlatilgan. Eritmalardagi xrom ionlarining tarkibini aniqlash uchun fotokolorimetrik tadqiqot usulidan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: elektroliz, oqova suv, chiqindi eritma, xrom ionlari, glitserin, ksilitol, sorbitol, tok zichligi, oqim samaradorligi.

ABSTRACT

This article analyzes the methods of improving the flow efficiency of chromium and determining the optimal process conditions in the electrolysis of chromium wastewaters and waste solutions in the presence of glycerol. Hexavalent chromium ions are highly toxic wastes and are formed in metallurgical, galvanic, leather industry wastewater. A sample waste solution from an electroplating chrome shop and triatomic alcohol - glycerin were used as research objects. Photocolorimetric research method was used to determine the content of chromium ions in solutions.

Keywords: electrolysis, wastewater, waste solution, chromium ions, glycerin, xylitol, sorbitol, current density, current efficiency.

KIRISH

Olti valentli xrom ionlari yuqori zaharli chiqindilar bo'lib, metallurgiya, galvanik, charm sanoati oqava suvlarida hosil bo'ladi. Oqova suvlari va chiqindi eritmalarining tarkibida olti valentli xrom ionlarini kamaytirish turli usullar bilan amalga oshiriladi. Ular asosan ikkita katta guruhga bo'linadi: kimyoviy usul va elektrokimyoviy usul. Xrom (VI) birikmalaridan tozalashning nisbatan samarali usullari



oksidlanish-qaytarilish jarayonlariga asoslangan reaktiv usullar hisoblanadi. [1-2]. Biroq, bu usullarning bir qator muhim kamchiliklari ham mavjud bo'lib, bular reaktivlarning yuqori iste'moli bilan ajralib turadi, katta miqdordagi loy konlarining shakllanishi yuzaga keladi va texnologik asbob-uskunalarni korroziyadan himoya qilish choralari uchun katta moddiy xarajatlarni talab qiladi, chunki ular yuqori kislotali muhitda amalga oshiriladi. Xromatli oqava suv va eritmalarni elektrokimyoviy tozalash usullari, o'z navbatida, katodli qaytarilish, elektrodializ va elektrokoagulyatsiyaga bo'linadi. Shu bilan birga, shuni alohida ta'kidlash kerakki, xrom ionlarining elektrokimyoviy qaytarilishida xromning oqim samaradorligi juda past (14-16%). Shuning uchun chiqindi suvlarni tozalashni tavsiya etilgan usulda borish qiyin bo'lgan, 50 m³/soat gacha bo'lgan oqava suvlar hosil bo'ladigan, kimyoviy reagentlarni muntazam olib kirish qiyin bo'lgan joylarda amalga oshirish tavsiya etiladi [3-5]. Qaytarilish jarayonida elektr energiyasining asosiy qismi ionlarning qutblanishi, eritmadagi ba'zi aralashmalarning cho'kishi va elektrolitlar qarshiligi kabi nomaqbul jarayonlarga sarflanadi. Anodlarning elektrokimyoviy erish tezligi oqim zichligi oshishi va pH ning kislotalilik ortishi yo'nalishi bo'yicha o'zgarishi ortishi bilan aniqlandi. Anodning erish tezligining mutlaq qiymatlari 1 dan 10 mg/min gacha. dm² [6-8].

METODOLOGIYA

Bir qancha olimlar ko'p atomli spirtlarning xrom ionlarini kamaytirishga ta'sirini o'rganish uchun tajribalar o'tkazganlar [9]. Glitserin, ksilitol, sorbitol kabi turli xil ko'p atomli spirtlarning xrom (VI) ionlarining kamaytirishga ta'sirini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqorida keltirilgan ko'p atomli spirtlar ichida glitserin darajasini oshirish uchun eng yaxshi usul hisoblanadi. Olti valentli xrom ionlarini elektrokimyoviy kamaytirish jarayonida tozalash.

Ayrim tadqiqotchilarning tadqiqotlarida xrom (III) ionlarining ko'p atomli spirtlar va sulfat kislota bilan potentsiometrik usulda kompleks hosil bo'lish jarayonlari keltirib o'tilgan [11-13].

Glitserin bilan ishqoriy muhitda xrom (III) ionlari tetragidroksil kompleksi shaklida kompleks birikma hosil qilishi ko'rsatilgan.



Yuqoridagi tadqiqotchilar, shuningdek, H₂SO₄ : gl = 1:1 nisbatda tadqiqotning fizik-kimyoviy usullaridan foydalangan holda sulfat kislotaning glitserin bilan murakkab birikmasini hosil qilishni aniqladilar.

Elektroliz jarayonida xrom (VI) ionlarining kamaytirish

mexanizmini yoritish, xromning joriy samaradorligini oshirish, xrom elektrolizida sarflangan elektrolitlarni utilizatsiya qilish ushbu tadqiqotning muhim jihatlari hisoblanadi.

Xrom ionlarining kamayishi bevosita eritmaning kislotaligiga bog'liq. Eritmaning kislotaliligi olti valentli xromni standart elektrolitdan metallga qaytarishda katta rol o'ynaydi [11]. Ushbu tadqiqotning maqsadi xromli oqava suvlarni glitserin ishtirokida elektroliz qilishda xromning joriy samaradorligini oshirish va optimal jarayon sharoitlarini aniqlashdan iborat [14].

Tadqiqot obyekti sifatida elektrokaplama xrom sexidan olingan namunaviy chiqindi eritmasi va uch atomli spirt - glitserin ishlatilgan. Eritmalardagi xrom ionlarining tarkibini aniqlash uchun fotokolorimetrik tadqiqot usuli qo'llanildi.

NATIJALAR

Xromning oqim samaradorligini oshirishni o'rganish va standart elektrolitda olti valentli xromni elektrokimyoviy usulda kamaytirish uchun optimal sharoitlarni yaratish uchun quyidagi sharoitlarda elektroliz o'tkazildi: elektrolitlar hajmi - 200 ml, olti valentli xrom ionlarining konsentratsiyasi - 50 mg/l, katod - grafit, vaqt - 1,0 soat.

Elektrolizdan oldin va keyin xrom (VI) va xrom (III) ionlarining konsentratsiyasi KFK-3M fotokolorimetrida fotokolorimetrik usulda aniqlandi. Olti valentli xromning elektrokimyoviy qaytarilishining optimal sharoitlarini aniqlash uchun turli katod tok zichligida tajribalar o'tkazildi (1-jadval).

1-jadval

Tok zichligining xromning oqim samaradorligiga ta'siri

$V = 200 \text{ ml}$, $S_{Cr} = 50 \text{ mg/l}$, katod - grafit, vaqt - 1,0 soat.

№	Tok zichligi, A/dm	Xromning oqim samaradorligi, %
1	0	0
2	0.5	0,2
3	1.0	1,8
4	1.2	4,5
5	1.4	10,7
6	1.6	14,0
7	1.8	15,8
8	2.0	16,0
9	2.2	16,0
10	2.4	16,1

11	2.6	16,1
12	2.8	16.0
13	3.0	16,1

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, laboratoriya sharoitida 1,8-2,0 A/dm² tok zichligida pasayish jarayoni eng yuqori rentabellik bilan davom etadi. Oqim zichligining yanada oshishi xromning oqim samaradorligiga biroz ta'sir qiladi va elektrolitning haddan tashqari qizib ketishiga olib keladi [10].

Neytral muhitda pasayish jarayoni sodir bo'lmaydi, sulfat kislota konsentratsiyasining 2% gacha ko'tarilishi bilan xrom oqimining samaradorligi oshadi, kislota konsentratsiyasining yanada oshishi xrom oqimi samaradorligining oshishiga ta'sir qilmaydi (2-jadval).

2-jadval

Xromning oqim samaradorligiga sulfat kislota konsentratsiyasining ta'siri

V = 200 ml, S_{Cr} = 50 mg/l, i = 2,0 A/dm², katod - grafit, vaqt - 1,0 soat.

No	Konsentratsiya H ₂ SO ₄ , %	Xromning oqim samaradorligi, %
1	0	0
2	0,5	1
3	0.8	4
4	1,0	6
5	1.2	9
6	1.4	10
7	1.6	14.5
8	1.8	15.5
9	2.0	16
10	2.2	16
11	2.4	15.9
12	2.6	16.0
13	2.8	16.0
14	3.0	16.1
15	3.2	16.1

Qaytarilish jarayonida sulfat kislota ko'p bo'lishi bilan, mavjud bo'lgan organik qaytaruvchi vositaning yonishi tufayli eritmaning qorayishi paydo bo'ladi.

Tarkibida xromat bo'lgan eritmalarini elektroliz qilish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki [15], 1 soat ichida olti valentli xrom ionlari konsentratsiyasini 50 mg/l dan 41-42 mg/l gacha pasaytirish jarayoni va shunga mos ravishda uch valentli xrom ionlari tarkibining

ko'payishi 1 soat ichida sodir bo'ladi. 8-9 mg/l (3-jadval). Keyinchalik, xrom (VI) va xrom (III) ionlaridan metall xromni bir vaqtning o'zida kamaytirish jarayoni davom etadi.

3-jadval

Vaqtga nisbatan Xromning oqim samaradorligi o'zgarishi

$V = 200 \text{ ml}$, $S_{Cr} = 50 \text{ mg/l}$, $H_2SO_4 = 2 \%$, $i = 2,0 \text{ A/dm}^2$, katod - grafit,

№	Vaqt, min	Xromning oqim samaradorligi, %
1	0	0.0
2	5	3.0
3	10	5.0
4	15	6.0
5	20	8.0
6	25	10.0
7	30	12.5
8	35	14.5
9	40	15.0
10	45	15.8
11	50	16.0
12	55	16.1
13	60	16.1

Ma'lumki, ko'p atomli spirtlar ko'plab metallar [14] bilan, xususan, xrom (VI) ionlari bilan elektroliz paytida hosil bo'lgan uch valentli xrom bilan murakkab birikmalar hosil qiladi, bu esa chiqish oqimini oshiradi. Glitserinning turli konsentratsiyasining xrom (VI) ionlarining tiklanish jarayoniga ta'sirini o'rganish natijasida glitserinning optimal konsentratsiyasi va xrom chiqishining nisbatan ortishi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Glitserin miqdorining Xromning oqim samaradorligiga ta'siri

$V = 200 \text{ ml}$, $S_{Cr} = 50 \text{ mg/l}$, $H_2SO_4 = 15 \text{ g}$, $i = 15 \text{ A/dm}^2$, katod - grafit

№	Vaqt, daqiqa	Xromning oqim samaradorligiga %
1	0	0.0
2	0.2	1.0
3	0.4	7.0
4	0.6	9.0
5	0.8	10.0
6	1.0	11.0

7	1.2	12.5
8	1.4	14.5
9	1.6	22.0
10	1.8	23.2
11	2.0	23.4
12	2.2	23.3
13	2.4	23.4

4-jadvaldagi elektroliz natijalari shuni ko'rsatadiki, elektrolitda glitserin borligi kamaytirilgan xrom metall miqdorini 18-2,0% gacha oshiradi va shunga mos ravishda tokning samaradorligi 23,4% gacha oshadi.

Glitserin ishtirokida xrom (VI) oksidi bo'lgan eritma ustida o'tkazilgan titrlash tajribalari ham xrom tetragidroksid-gliserat kompleksining hosil bo'lishini ko'rsatadi. Xrom oksidi eritmasini titrlashda cho'kma hosil bo'lmaydi va eritma rangi jigarrangdan sariq ranggacha o'zgaradi, bu esa anionli akvakomplekslar hosil bo'lishini ko'rsatadi [12].

Olingan tadqiqotlar natijalari xromning oqim samaradorligini 16 dan 23,1% gacha oshirish va jarayon uchun maqbul sharoitlarni aniqlash imkonini berdi. Aniqlanishicha, 11-12 A/dm² oqim zichligida jarayon optimal davom etadi va sulfat kislotasi taxminan 4-5 g/l konsentratsiyada olti valentli xromning maksimal qisqarishiga yordam beradi. Bir soat ichida xrom ionlarining asosiy miqdori kamayishi aniqlandi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, xromning ko'p atomli spirt, xususan, glitserin ishtirokida elektrokimyoviy qaytarilishi xromning oqim samaradorligini ma'lum darajada oshiradi (23,4% gacha). Olti valentli xrom ionlaridan chiqindi eritmalarni tozalash uchun elektrokimyoviy usullardan foydalanish, metall va elektr energiyasini iste'mol qilishiga qaramay, ifloslangan eritmalarni tozalash imkonini beradi. Ushbu usulning jihozlari ixcham, samarali, foydalanish va saqlash uchun qulay.

REFERENCES

1. Maltseva V. S., Tatarenko Y. Y., Nekrasova I. S. // Sanoat oqava suvlarini tozalash usullari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya ma'ruzalari, Moskva, 2003. 2-qism. M, - 2004. - P. 217-218.
2. Xrom(VI) ionlarini elektrokimyoviy qaytarilishning optimal sharoitlarini aniqlash // O'zbekiston kimyo jurnali, 2017 yil 3-son,

3-8-betlar.

3. Ermidi V.P., Iztleuov G.M. Xrom (VI) ionlaridan chika suvlarni tozlash // Xalqaro talabalar ilmiy byulleteni. - 2015 yil. 3-son.
4. Kolesnikov V.P., Wilson E.V. Kombinatsiyalangan inshootlarda oqava suvlarni tozalash uchun texnologik jarayonlarning zamonaviy rivojlanishi: Ed. Rossiya Federatsiyasining uy-joy kommunal xo'jaligi akademigi V.K. Gordeeva-Gavrikov. Rostov-na-Donu: Yug nashriyoti, 2005. 217 p.
5. V. I. Aksenov, tahrir. Sanoat korxonalarining suv xo'jaligi. Kitob 1. M.: "Issiqlik muhandisi", 2005.-279 p.
6. Ermidi V.P., Iztleuov G.M. Xrom (vi) ionlaridan chika suvlarni tozlash // Xalqaro talabalar ilmiy byulleteni. - 2015. No 3-3.-335 b.
8. Shestakov I.Y., Raeva O.V., Nikiforova E.M., Eromasov R.G. Suvni xrom ionlaridan elektrokimyoviy ta'sir va koagulyatsion yo'l bilan tozlash // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. - 2013. - No 3. - 216 b.
9. Busarev A.V., Selyugin A.S., Sundukova E.N., Tuxbatullin R.F. XROM saqllovchi oqava suvlarni tozalash masalasi bo'yicha // Fundamental tadqiqotlar. - 2016. - 6-1-son. - p. 36-41 - bet. 71-72.
10. Erkabaev F.I., Ismailova N.A. Tarkibida xromatli chiqindi eritmalar va oqava suvlardan foydalanish // "Kimyoviy texnologiya" jurnali, 2018 y.
11. Odilova, S. S. Q., & Odilov, N. E. O. (2021). Muqobil yonilg'ilardan motor yonilg'isi sifatida foydalanish istiqbollari. Academic research in educational sciences, 2(1).
12. Исломов, Ш. Э., & Одиллов, Н. Э. Ў. (2022). Автомобил транспорти мажмуаси иштирокида атрофмуҳит сифатининг техноген ўзгариши. Academic research in educational sciences, 3(5), 479-486.12.
13. Nurmukhammad, O. (2021). Safety methods at gas filling stations for cars. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences,1(1),27-36.
14. Одиллов, Н. Э. (2021). Особенности эксплуатации двс газобаллонных автомобилей. Academic research in educational sciences, 2(12), 238-244.
15. Odilov, N. (2020). The analysis of the development of gas cylinder supply system. Academic research in educational sciences, (3).



TOPONIMLARINING LUG‘AVIY-MA’NOVIY TASNIFI

Najeebullah Esmati

Afg‘oniston Islom Respublikasining Juzjon davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida tadqiqotchisi

najeeb.esmati@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada toponimlarning tasnifi Afg‘oniston Islom Respublikasining Taxor viloyati toponimlari misolida amalga oshirilgan. Ilmiy ishda, mazkur viloyatning toponimlari lug‘aviy-ma‘naviy xususiyatiga ko‘ra nasniflanib, o‘rganilgan. Tadqiqotda toponimlari o‘rganilayotgan hudud tarixi, toponimlarining vujudga kelishi va ularning grammatik xususiyati masalasiga ham e‘tibor qaratilgan. Ilmiy ishning obyekti va predmeti Taxor viloyatidagi toponimlar majmuidan iborat bo‘lib, metodologik asosini onomastika sohasida atoqli otlarni o‘rganishda ishlatilgan ilmiy qarash, tahlil va tadqiq etish usullari tashkil etadi. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, Afg‘oniston ilm-fanining onomastika sohasi va onomastik izlanishlarning shakllanib, rivojlanishiga asos bo‘ladi va onomastik materiallarning jamlanib va tasnifining amalga oshirilishi ishimizning amaliy ahamiyatini tashkil beradi. Bu tadqiqotning natijalari tadqiqotchilar hamda ta‘lim tizimida shu mutaxassislikni o‘rganayotgan muhassillar uchun katta ahamiyatga ega. Shuningdek, onomastikasi bo‘yicha, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv lug‘atlar, onomastik lug‘atlar tayyorlashda material vazifasini ham o‘taydi.

Kalit so‘zlar: Taxor, toponim, toponimik aniqlagich, lug‘aviy-ma‘naviy tasnif, onomastik tizim, obyekt.

ABSTRACT

In this article, the classification of toponyms is carried out on the example of the toponyms of Takhar province of the Islamic Republic of Afghanistan. In this scientific work, the toponyms of this province were classified and studied according to their lexical-semantic features. The article focuses on the history of the area whose toponyms are being studied, the emergence of toponyms and their grammatical features. The object and subject of the scientific work is a set of toponyms in Takhar province. The methodological basis of our research is the scientific approach, analysis and research methods used in the study of famous names in the field of onomastics. The theoretical and practical significance of the results of the research is that it forms the basis



for the formation and development of the field of onomastics of Afghanistan science and onomastic research, and a summary classification of onomastic materials has been carried out. The results of this study are of great importance for researchers and students studying this specialty in the educational system. It also serves as a material for onomastics, textbooks and training manuals, educational dictionaries, onomastic dictionaries.

Keywords: Takhar, toponym, toponymic indicator, lexical-semantic classification, onomastic system, object.

KIRISH

Toponimika fani uzoq tarixga ega fanlardan biri. Bu onomastika fani doirasiga kiradigan muhim sohalaridan bir sanaladi. Toponimika fani geografiya, geologiya, tarix, tilshunoslik va etnografiya fanlarining tutashgan nuqtasida paydo bo'lgan va ular bilan chambarchas aloqada bo'lib rivojlanadi. Onomastika fani yangi bo'lishiga qaramay ko'pgina mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda o'z o'rnini va mavqeyini topishga qodir bo'lgan. Lekin, ayrim sabablarga ko'ra Afg'onistonda bu fanning hozirga qadar o'rnini bo'sh. Bu mamlakatda onomastik birliklarning tilshunoslik nuqtai nazardan o'rganilishi to'g'risida deyarli ko'zga ko'rinarli ilmiy ishlar bajarilmagan.

Maqolamiz obyekti bo'lgan Taxor viloyati Afg'oniston Respublikasining shimoli-sharqida joylashgan viloyatlaridan biri. Bu viloyat toponimlarini geografik nuqtai nazardan o'rganish o'tgan asrdan boshlangan bo'lsa-da, tilshunoslik nuqtai nazardan hozirga qadar o'rganilmagan. Ushbu ilmiy ishimiz bu bo'shliqni to'ldirish yo'lidagi tashlangan ilk qadamlardan biri desak ham xato qilmagan bo'lamiz. Qayd qilib o'tish lozimki, bundan avval bu mavzuga doir muallifning bir necha maqolasi va "Taxor viloyati onomastikasi: bu viloyat onomastik birliklarining lingvo-onomastik tadqiqi" nomli magistrlik dissertatsiyasi e'lon qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Toponimika termini (yun. *topos* - joy va *onyma* - ism, nom) - onomastikaning joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari yig'indisi - *toponimiya*, alohida olingan joy nomi esa *toponim* deb ataladi.[Enazarov, 2021: 186]

Toponimlar xalqlarning tarixiy o'tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tillarning o'tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy

markazlar, savdo yo'llari va sh. k. geografiyasini tavsiflashga yordam beradi. Ularning amaliy transkripsiyasi, ularning dastlabki asosga ko'ra hamda bir xil yozilishi, boshqa tillarda berilishi Toponimika fanining amaliy jihati hisoblanadi.[Madrahimov, 2010; Hakimov, 2016]

Toponimlar ham til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari tilning qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, joy nomlarida har bir millat tiliga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik unsurlar ko'proq o'z ifodasani topadi. Joyning tabiiy geografik sharoiti, aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Toponimlar haqidagi ilmiy tadqiqotlarda, oddiylikdan murakkablik sari borish kuzatiladi. Masalan, qadimgi davrdan to XIX asrgacha toponimlar xalqona fikrlar bilan talqin etilgan bo'lsa, XX asrdan boshlab, xususan, shu asrning oxiri va XXI asrning boshlari, ya'ni, so'nggi 40-45 yil ichida ingliz, rus, o'zbek va boshqa bir qator xalqlarning olimlari tomonidan toponimlar haqidagi bilimlar jamlanib, umumlashtirilib, Toponimika nomli fan sohasining nazariy, ilmiy va amaliy asoslari ishlab chiqildi va bu sohada bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi. Bunda Ingliz olimlaridan I. Raven, Jr. McDavid, M. Kaups, George R. Stewart, Adrian Room va boshqalar hamda rus olimlaridan V. A. Nikonov, A. V. Superanskaya, A. P. Dulzon, E. M. Murzayev, V. N. Toporov, O. N. Trubachev va o'zbek olimlaridan E. Begmatov, Z. Do'simov, S. Qorayev, Q. A. Abdumurotov, T. Nafasov kabi olimlarning xizmatlari katta.

Taxor viloyati Afg'oniston mamlakatining viloyatlaridan biri. Bu viloyatning markazi Toluqon deb ataladi. Ma'muriy jihatdan bu viloyat Toluqon shahri va 16 ta tuman (ulusvollik) hamda 2000 (ikki ming)ga yaqin qishloqlardan iborat. Bu viloyatning aholisini, asosan, o'zbek, tojik, pushtun va boshqa etnik guruhlari tashkil etadi.[عارض، ۲۰۰۰: ۴۷؛ غبار، ۱۳۴: ۱۷۱؛ شورماچ نورستانی، ۱۳۵۰: ۲۹۸؛ یمین، ۱۳۸۶: ۱۴۳-۱۳۹]

Taxor viloyati uzoq tarixga ega bo'lib, shimoldan Tojikiston Respublikasi, janubdan Panjshir viloyati, sharqdan Badaxshon viloyati, g'arbdan Qunduz va Bag'lon viloyatlari bilan tutashgan. Shuningdek, bu viloyatning umumiy kengligi 12376 kvadrat kilometrdan iborat.[دولت آبادی، ۱۳۸۱: ۱۷۴-۱۷۰]

Taxor Afg'onistonning eng qadimiy viloyatlaridan biridir. Bu viloyat tarix davomida turli nomlar bilan atalib, turli ma'muriy

hududlarga qaram bo'lib kelgan. Bu hudud bir paytlar *Taxoriston* (*Taxariston*, *Toxariston*, *Tuxariston*, *To'xoriston*) deb atalgan bo'lsa, keyinroq, *Toluqon* nomi bilan ham shuhrat qozongan. Keyinchalik bu hudud Qatag'an viloyati territoriyasiga kiritilgan.[۱۴-۱۳ : ۲۰۰۰، عارض،] Keyingi ma'muriy bo'linmalarda *Taxor* alohida viloyat sifatida tan olingan. Bugungi kunda u Afg'onistonning 34 viloyatlaridan biri.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Toponimlar turli (geografik, fizik, tilshunoslik, tarix va falsafiy) nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Biz mutaxassisligimizdan kelib chiqqan holda, *Taxor* viloyati toponimlarining lug'aviy-ma'noviy tasnifini bu tarzda olib borishni lozim ko'rdik:

Gidronimlar yoki gidrotoponimlar. Bunday toponimlar suv inshootlarining atoqli otlari - nomlaridir.[Kopaev, 2005: 212] Boshqacha qilib aytsak, barcha suv obyektlarining nomlari *gidronimlar* deyiladi. Bularga *daryo*, *kanal/ariq*, *hovuz*, *ko'l*, *chashma/buloq* nomlari kiradi. *Taxor* viloyati gidronimlaridan mana bularni misol keltirdik: *Toluqon daryosi (Tsh)*, *Ko'kcha daryo (Dqt)*, *Bangi daryosi (Bt)*, *Daryoi Namakob (Nt)*, *Daryoi Varsaj-Farxor (Vt, Ft)*; *Rabotariq (Bt)*, *Govmoli (Tsh)*, *Shahravon (Tsh)*, *Bog'iboyon arig'i (Dqt)*, *Archi arig'i (Xt)*; *Sassiqko'l (Xot)*, *Havzi Yug'non (Vt)*; *Chashmayi Bangi (Bt)*, *Chashmayi Sher (Tsh)*, *Chashmayi shari ko'hna (Tsh)*, *Chashmayi Sayyed Sodiq (Xt)*, *Chashmayi Xo'jachangol (Tsh)* kabilar.

Oronimlar. Oronimlar yer yuzasidagi balandlik hamda chuqurliklarning nomlari sanaladi. Ularning jami *oronimiya* deyiladi.[Oxunov, 1989: 5] Bular tabiiy geografik obyektlardir. Ularni yerli aholi turlicha nomlashi mumkin. Shunga ko'ra ular: *etnooronimlar*, *antropooronimlar*, *gidrooronimlar* kabi turlarga egadir.

Taxor viloyati oronimlaridan misollar: *Ambar ko'h (Bat)*, *Siyohbo'z (Ht)*, *Taxti sulaymon (VT)*; *O'rtabo'z (Tsh)*, *Uzunko'tal*, *Ko'hi Toqchaxona (Nt)*, *Ko'hhoi Bangi (Bt)*, *Ko'hhoi ko'r Hotam (Rt)*, *Kalafgon tog'lari (Kt)* va boshqalar.

Dromonimlar. Yo'l, yo'lak, tratval kabilarning nomlaridir. Ular etnomim, antroponim, paraggonim, qishloq nomlari kabilar asosida nomlanadi. Oldinlar odamlarning o'zi dromonimlarga nom berishgan. Bugungi kunda, ular maxsus hokimlik qarori bilan nomlanmoqda.

Dromonim termini grekcha *dromos* so'zidan olingan bo'lib, yo'l, ko'cha, yo'lak ma'nolarini ifodalaydi.

Dromonimlarining yuzaga kelishida *ko'cha*, *yo'l*, *ko'chavog'*, *yo'lak*[Enazarov, 2021] hamda *sarak*, *jodda*, *ko'prik*, *pul* kabi so'zlar toponimik aniqlagichlar vazifasini bajarib keladi. Buni mazkur hudud mikrotoponimlari tizimiga oid alohida xususiyatlardan biri deb bilamiz.

Taxor viloyati hududidagi dromonimlar quyidagi guruhlariga bo'linib o'rganildi:

1) *antroponimlar (asosan, kishi ismi-sharifi)* bilan nomlanib, *ko'cha* va *jodda* so'zlari bilan shakllangan dromonimlar: *Abdulmutallibbek ko'chasi* (Tsh), *Joddayi General Dovud* (Tsh) kabilar;

2) *oykunimlar bilan* nomlanib, *ko'cha* va *sarak* so'zlari vositasida yuzaga kelgan dromonimlar: *Andijoniy ko'chasi* (Tsh), *Bog'imiri saragi* (Tsh), *Qazoq qishloq ko'chasi* (Tsh), *Saraki saroyasang* (Tsh), *Saraki bahorak* (Tsh) singarilar;

3) *turli so'zlar bilan* nomlanib, *sarak* toponimik aniqlagichi bilan vujudga kelgan yo'l nomlari: *Saraki Shahidiy* (Tsh), *Saraki avval*, *Saraki duv*, *Saraki se*, *Sarak chahor* (Tsh) kabilar.

4) *toponimlar va antroponimlar* bilan nomlanib, *ko'prik* va *pul* toponimik aniqlagichlari bilan shakllangan dromonimlar: *Zakkiy ko'prigi* (Bt), *Toluqon ko'prigi*, *Puli shahravon*, *Puli govmoliy*, *Puli ko'kcha* va boshqalar.

5) *qabila va xalq nomi* bilan nomlanib, *ko'cha* toponimik aniqlagichi bilan kelgan dromonimlar: *Lag'moniylar ko'chasi* (Tsh), *Panjsheriylar ko'chasi* (Tsh) kabilar;

6) *paragogenimlar nomi* bilan nomlanib *ko'cha* va *sarak* so'zlari bilan vujudga kelgan dromonimlar: *Bibi Mariyam lisasi ko'chasi* (Tsh), *Abu Usmoni Toluqoniy lisasi ko'chasi* (Tsh), *Saraki qumandoniy* (Tsh), *Saraki viloyat* (Tsh), *Saraki puhantun* (Tsh) va boshqalar.

The article examines the legal foundations of "green" business development in Uzbekistan. The results of the analysis show that such legislation has not been fully formed to date. Green transformation of business is carried out on the basis of state strategies, programs and regulations in the field of ecology and environmental management.

Keywords: economy, "eco-construction", environmentally friendly, green economy.

KIRISH

Zamonaviy dunyoning rivojlanishi sharoitida faqat qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish endi mumkin emas. Keyingi o‘n yilliklarda yil sayin kamayib borayotgan qayta tiklanmaydigan resurslardan foydalanish jahon iqtisodiyotining o‘shida tobora muhim rol o‘ynadi. Bu bugungi kunda ekologik va iqlim muammolarining global miqyosda bo‘lishiga olib keldi. Shunday qilib, turli xil ekologik, iqlim, oziq-



ovqat va iqtisodiy inqirozlar "yashil iqtisodiyot" tushunchasining mashhurligini ta'minlovchi omillarga aylandi. Ushbu yo'nalish doirasida mamlakatlar korxonalar tomonidan resurslarni iste'mol qilish va qayta taqsimlashni tartibga solish, shuningdek ularni keyinchalik tiklashga hissa qo'shishning huquqiy mexanizmlaridan foydalanadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

2012-yilgi Rio+20 konferensiyalari bugungi kunda biz ko'rayotgan yashil iqtisodiyot konsepsiyasining boshlang'ich nuqtasi bo'ldi. Mazkur tadbir doirasida mazkur konsepsiya rivojlanishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri va uning barqarorligini ta'minlash vositasiga aylandi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, yashil tamoyillarni joriy etishga asoslangan barqaror iqtisodiy o'sish g'oyasi birinchi marta 1972 yilda paydo bo'lgan. Shunday qilib, yashil iqtisodiyotning ajdodi Rim klubining "O'sish chegaralari" hisoboti edi. Kelgusida yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi roli Brundtlandning "Bizning umumiy kelajagimiz" hisoboti, Butunjahon Yer sammiti va kun tartibi 21, YUNEPning "Yashil iqtisodiyot sari" hisoboti kabi ishlar bilan mustahkamlandi.

O'zbekistonda "yashil" biznes faoliyatining huquqiy asoslari.

O'zbekiston ham butun dunyo kabi yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga intilmoqda. So'nggi o'n yil ichida mamlakatimizda 25 ga yaqin turli xil hujjatlar (dasturlar, strategiyalar va boshqalar) qabul qilingan bo'lib, ularda mamlakat va iqtisodiyotni yashil o'zgartirishga qaratilgan 154 dan ortiq chora-tadbirlar belgilangan.

O'zbekiston Konstitutsiyasida ekologik barqarorlikning o'rni tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur hujjatda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi maxsus ekologik mexanizmlar kiritilgan. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maxsus ekologik normalar tizimi quyidagilardan iborat: fuqarolarning ekologik qarzi (50-modda); mulkdan foydalanishga qo'yiladigan ekologik talablar (54-modda); davlat ekologik siyosatini amalga oshirish tamoyillarini belgilovchi normalar (55-modda); mahalliy davlat hokimiyati organlarining ekologiya sohasidagi majburiyatlari (100-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga muvofiq fuqarolar atrof-muhitga g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Bu normaning ahamiyati shundan iboratki, birinchidan, fuqarolarning ekologik burchi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan; ikkinchidan, atrof-muhit kontsepsiyasining huquqiy mazmunidan kelib chiqqan holda,



Konstitutsiyaning ushbu normasi nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki fuqarolarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish burchini ham nazarda tutadi.

Qonunimizning 54-moddasida mulkdor o'z mol-mulkiga ixtiyoriy egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi, deb belgilangan. Mulkdan foydalanish ekologik vaziyatga zarar yetkazmasligi, fuqarolarning, shaxslarning va davlatning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi kerak.

Davlat ekologik siyosatining asoslari Konstitutsiyaning 55-moddasida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, boshqa tabiiy boyliklar jahon mulki bo'lib, ulardan oqilona foydalanish zarur, ular davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha Harakatlar strategiyasi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish va iqtisodiyotga yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish, bu ishlab chiqarish sohasida ekologik fikrlashni oshirishga (tabiiy resurslardan oqilona foydalanish) va ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirishga yordam beradi;

- investisiya loyihalarini tanlashda "yashil" mezonlarni joriy etish va "yashil" byudjetlashtirishga o'tish;

- iqtisodiyotning yashil transformatsiyasi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik, davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, xalqaro moliya institutlarini jalb qilish;

- ilg'or xorijiy tajribani o'rganish hamda yetakchi ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali "yashil" iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash va yashil kasblarni rivojlantirishning zamonaviy standartlarini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Parij kelishuvi doirasida yangilangan NDC [5] bo'yicha o'z majburiyatlarini oshirdi va 2030 yilga borib YaIM birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 2010 yildagi 10 foiz o'rniga 35 foizga kamaytirishni maqsad qilib qo'ygan.

XULOSA

Markaziy Osiyo davlatlarini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda "yashil" biznes tushunchasi mamlakatlar qonunchiligida rasman mustahkamlanmagan, ularning faoliyatini tartibga soluvchi maxsus huquqiy hujjatlar ham mavjud emas. Shunday qilib, "yashil" biznes faoliyatini huquqiy tartibga solish ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlar, dasturlar va strategiyalarda belgilangan chora-tadbirlar va mexanizmlar asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, mamlakatlarning yashil o'zgarishiga oid ixtisoslashtirilgan hujjatlarda yashil yo'nalishga alohida e'tibor qaratilgan.

REFERENCES

1. Рогатных Елена, Сердунь Марина. Зеленая экономика и ее влияние на экономическое развитие в XXI веке // Российский внешнеэкономический вестник. 2022. №3. Стр. 21. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-iee-vliyanie-na-ekonomicheskoe-razvitiye-v-hhi-veke>.
2. База публикаций ОЭСР. URL: www.oecd.org/publications/
3. База публикаций Всемирного банка. URL: www.worldbank.org/en/research/brief/publications
4. Концепция по переходу к зеленой экономике РК. URL: <https://ecounion.kz/?p=686#:~:text=Концепция%20>
5. Обновленный определяемый на национальном уровне вклад 2021. Республика Узбекистан. URL: https://unfccc.int/sites/default/files/NDC/2022-06/Uzbekistan_Updated%20NDC_2021_RU.pdf
6. Eshpulatov, D. (2022). Analysis of the organizationaleconomic mechanism to improve the sustainability of economic growth in agriculture. science and innovative development, 5(6), 104–122. Retrieved from <https://indep-ilm.uz/index.php/journal/article/view/340>
7. Сатторкулов, О. Т. Механизм осуществления инвестиционной политики в условиях инновационной экономики / О. Т. Сатторкулов, Д. Б. Эшпулатов, Г. О. Турдикулова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 9 (299). — С. 64-66. — URL: <https://moluch.ru/archive/299/67473/> (дата обращения: 01.04.2023).
8. Qaxxorovna, T. G., Djurayevich, Z. A., & Bobomurot o'g'li, N. R. (2023). Qishloq xo'jaligida innovatsion faollikni oshirish. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(2), 80-84.
9. Khahharovna, T. G., & Jumaboevich, M. T. (2022). Fintech Development in the Republic of Uzbekistan. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(1), 71-83.



ZAMONAVIY EKOLOGIK XAVFLARNI BOSHQARISH BO‘YICHA TARTIB-QOIDALARNING IJTIMOYIY-MADANIY JIHATLARI

Xusniddin Akbarovich Alikulov

O‘zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi

husniddinbest@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy ekologik xavflarni boshqarish bo‘yicha tartib-qoidalarining ijtimoiy-madaniy jihatlari yoritilgan. Atrof tabiiy muhitga salbiy antropogen ta’sirlarning oqibatlarini va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari tahlil etilgan. Global ekologik inqirozni minimallashtirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan. Barqaror rivojlanish maqsadlari va ekologik degradatsiyani oldini olishning ustuvor yo‘nalishlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik xavfsizlik, xatarlar, antropogen ta’sir, global ekologik inqiroz, texnogen tizimlar xavfi, ekologik xavflarni baholash, ijtimoiy-madaniy omillar, xavflarni tahlil qilish, ekologik xavf-xatar omillari, barqaror rivojlanish maqsadlari, ekologik muvozanat.

SOCIO-CULTURAL ASPECTS OF MODERN ENVIRONMENTAL RISK MANAGEMENT PROCEDURES

ABSTRACT

The article deals with the socio-cultural aspects of modern environmental risk management procedures. The consequences of the negative anthropogenic impact on the environment and the directions for their elimination are analyzed. The socio-philosophical aspects of minimizing the global ecological crisis are analyzed. The goals of sustainable development and the priorities of preventing environmental degradation are covered from a socio-philosophical point of view.

Keywords: ecological safety, risks, anthropogenic impact, global ecological crisis, risk of technogenic systems, ecological risk assessment, sociocultural factors, risk analysis, ecological risk factors, sustainable development goals, ecological balance.

KIRISH

Global xavflardan biri bu ekologik xavf hisoblanib, uning misolida biz xavfning barcha asosiy xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Dunyoning barcha mamlakatlari unga duchor bo‘ladi va faqat ularning birgalikdagi faoliyati bilan bu muammoni hal qilish mumkin. Ekologik falokat yuz bergan taqdirda dunyodagi hech bir davlat o‘zini himoya qila

olmaydi. Masalan, Chernobil AYESdagi avariya. Portlash Ukraina hududida sodir bo'lgan bo'lsa-da, radiatsiyaviy vaziyatning buzilishi dunyoning ko'plab mamlakatlarida, xususan, Rossiya, Belarussiya, Shvetsiyada sodir bo'ldi va ko'plab mamlakatlarda yuqori nurlanish xavfiga ega bo'ldi. Ushbu o'ziga xos xavfni o'rganish va oldini olish juda muhim, chunki uni amalga oshirishning oqibatlari Yerdagi butun organik dunyoning o'limiga olib kelishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili 12,6 million kishi ekologik xavf-xatarlardan kelib chiqadigan kasalliklardan vafot etadi [1].

Ekologik xavf - bu atrof-muhitga salbiy antropogen ta'sir ko'rsatish natijasida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlar yoki bu o'zgarishlar oqibatlarining yuzaga kelish ehtimolidir. Ular quyidagilarga bo'linadi: sotsiogen, jamiyatning rivojlanishi, faoliyati bilan bog'liq; totalitar jamiyat haqidagi ta'limotga asoslangan geosiyosiy; atrof-muhit ta'siridan kelib chiqadigan ekologik; va mafkuraviy nazariyalarning madaniy hodisalar ustidan hukmronligidan kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XX asr oxirida tabiat tarix mahsuliga aylandi. U.Bekning fikricha, tabiatni jamiyatsiz anglab bo'lmaydi va aksincha. Binobarin, uning tahdidlari ijtimoiy tahdidlarga aylandi [2]. Umumiy qo'rquv tufayli butun organik dunyo, ya'ni hayvonlar va tabiat o'rtasida va odamlar o'rtasida birdamlik mavjud. Ammo, shunga qaramay, zamonaviy davlatlar "atrof-muhitning begonalashuvi" bilan tavsiflanadi. Rasmiy ravishda ular iqtisodiy va ijtimoiy sohaga egalik qiladilar va boshqaradilar, lekin aslida ular nazorat qilinmaydi, chunki yer yuzidagi hayotga savdoni yo'q qiladigan global tahdid mavjud. Demak, ishlab chiqarishni saqlab qolish istagi bilan ko'proq foyda olish istagi o'rtasida qarama-qarshilik mavjud.

Xatarlar haqiqat deb e'tirof etilgan joyda vakolatlarining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzilishi buziladi, siyosat o'z ta'sirini kengaytiradi. Ilgari siyosat ta'sir doirasidan tashqarida bo'lgan narsa bugun shu sohaga tushib qoldi. Hatto xavf-xatarlarni o'z-o'zidan yo'q qilish ham siyosiy xususiyatga ega bo'ladi. Favqulodda vaziyat siyosatining ahamiyati ortib bormoqda. Mas'uliyatni qayta taqsimlash kerak. O'zini xavf-xatardan himoya qilish uchun totalitarizm boshqaruv tendensiyasida namoyon bo'ladi. Xavf kuchaygan sari bu tendensiyaning oldini olish uchun demokratiyaga mutlaqo yangi talablar yaratilmoqda. Ammo hozirgi bosqichda tavakkal jamiyatida post-sanatsiya tendensiyasi ustunlik qilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish faqat ishlab chiqarish jarayonining oxirida, zararli moddalar harakat qilishida namoyon bo'ladi.

Bugungi kundagi ekologik vaziyat, birinchi navbatda, yadroviy va texnogen avariylar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy zarba natijasida global madaniyat bilan bir vaqtda paydo bo'lgan jamiyatda ekologik madaniyatning shakllanishi hali ham davom etayotganligi bilan bog'liq. Shuningdek, iste'molchilarning tabiatga munosabati tufayli atrof-muhitning ifloslanishiga olib keldi. Xavfli jamiyatning paydo bo'lish sabablari, ya'ni modernizatsiya ham ekologik madaniyatning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi. Mehnat intensivligining oshishi munosabati bilan odamlarning bir-biridan begonalashuvi yuzaga keldi. «Ekologik madaniyat bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda sotsiologik yondashuv asosida ilgari surilgan ekologik madaniyat haqidagi mulohazalar ham diqqatga sazovor» [3].

Atrof-muhit sotsiologiyasi jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sirini o'rganish bilan shug'ullanadi. U uchta asosiy muammoni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi: insonning tabiat olamidagi o'rni, unga inson ta'sirining chegaralari mavjudligi va ekologik inqirozning mohiyati. Ikkinchisi eng muhimi, chunki u jamiyatning tabiiy resurslardan mas'uliyatsiz foydalanishi tufayli sayyoradagi hayotni yo'q qilish ehtimoli haqida gapiradi. Odamlarni ekologik pessimizm egallaydi, ular ekologik ofatlardan qo'rqishadi va yo'q joyda xavfni ko'radilar. Demak, ekologik inqiroz, eng avvalo, dunyoqarash inqirozi bilan bog'liq. Atrof-muhit xavfini ilmiy jihatdan ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Odamlar xavf-xatarlarga turlicha munosabatda bo'lishadi. A.V.Baranov ekologik tashvish tashuvchilarining to'rt turini aniqladi. Birinchi tur tabiatni faol himoya qiladigan yuqori darajadagi ekologik tashvishga ega. Ikkinchi tur ekologik vaziyat haqida qayg'uradi, lekin uni o'zgartirish uchun hech narsa qilmaydi. Uchinchi tur atrof-muhit holatidan xavotirda, lekin ekologik vaziyat yaxshilanishiga ishonadi, shuning uchun u ba'zan o'zini ekologik qoidalarni buzishga yo'l qo'yadi. To'rtinchi tur atrof-muhit holatida xavf tug'dirmaydi va ekologik muammolar haqida o'ylamaydi [4].

Hozirgi vaqtda birinchi turdagi odamlar juda kam, shuning uchun ekologik madaniyatni rivojlantirish juda muhimdir. A.K.Marshak uning ikki turini ajratadi: universal va funksional-iste'molchi. Birinchisi, uzoq tarixiy an'anaga ega bo'lgan jamiyatga xosdir. Unda ekologik vaziyat yaxlit tizim sifatida, butun sivilizatsiya darajasida ko'rib chiqiladi. Ikkinchi tip yangi davlatlarga xos bo'lib, u deviant etnomadaniyat va sotsiomadaniyat o'laroq vujudga kelgan va sivilizatsiyaning halokat davri boshlangan paytda paydo bo'lgan. Jamiyat taraqqiyotining sivilizatsiya bosqichlariga ko'ra ekologik madaniyat qabilaviy, jamoaviy, etnik, diniy, individual, sayyoraviy va institutsional shakllariga ajratiladi. Shuningdek, A.K.Marshak ekologik madaniyatning ikki

turini belgilaydi: ko‘paytirish, jamiyatni shu ekologik madaniyatda saqlashga harakat qiladigan va rivojlanayotgan, ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan. Bu turlar ekologik madaniyatning tuzilishi va dinamikasini bildiradi [5].

NATIJALAR

Ekologik muammolarni tubdan hal etish ko‘p jihat va yo‘nalishlarga ega bo‘lgan mas‘uliyatli ekologik siyosat sharoitidagina mumkin. Ushbu qoidalardan biri ekologik xavf tushunchasi bo‘lib, u har qanday iqtisodiy faoliyat natijasida atrof-muhitga ta‘sir miqdorini minimallashtirishni anglatadi. Bunda atrof-muhit uchun xavf darajasi asosiy masala hisoblanadi. Ekologik xavf tushunchasini birinchi navbatda, inson hayoti va atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan omillar majmuasini aniqlash kerak. Shunga asoslanib, turli xil yechimlardan eng mos keladigani tanlanadi. Ekologik xavf - bu insonning hozirgi yoki rejalashtirilgan faoliyati natijasida atrof-muhitning buzilishi yoki beqaror, o‘zgaruvchan vaziyatga duchor bo‘lish ehtimolidir.

Ekotizimlar o‘z-o‘zidan rivojlanadi, tizimning tabiiy muvozanati va barqarorligini buzadigan omillar mavjud bo‘lmaganda to‘ldiriladi va normallasadi. Muvozanatni buzuvchi xavfli manbalar sifatida tabiat hodisalari (zilzilalar, suv toshqini), hayvonot dunyosi (epidemiya, epizootiya), shuningdek, antropogen omillar (halokatlar, falokatlar) bo‘lishi mumkin. Ekologik xavf - bu inson xatosi, insoniyat jamiyatining harakatlari natijasida hayotning buzilishi ehtimoli. Biror kishi yaxshilashga harakat qilganda, u ko‘pincha teskari natijaga erishadi. Bir tizimni takomillashtirish uchun boshqa tizimlarning imkoniyatlarini hisobga olmaydi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy iqlim o‘zgarishi va uning xavf-xatarlari, siyosiy va iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda, dunyoda eng yuqori darajalarda muhokama qilinadigan masalalar qatoriga kiradi. Atrof-muhit muhofazasi chegara bilmaydi. Bu hamma uchun umumiy vazifa. Atrof-muhitni muhofaza qilishda individual yondashuv ayniqsa muhimdir. Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish yo‘llaridan biri uy-joylarda energiyaga bo‘lgan talabni kamaytirish, energiya tejash chora-tadbirlarini amalga oshirish va energiya samaradorligini oshirishdir. Ko‘pgina G‘arb mamlakatlarida, shu jumladan AQSHda issiqxona gazlari deyarli yo‘q va energiya xarajatlari bo‘lmagan uylarda yashash urfga aylandi. Hatto energiya tejaydigan aholi punktlari ham barpo etilmoqda. Ushbu turdagi uy-joyga ega bo‘lish uglerod chiqindilarini kamaytirishga hissa qo‘shadigan narsalardan biridir.

Yuqumli kasalliklar xavfini to‘g‘ri boshqarish barqaror rivojlanishni rejalashtirishning muhim tarkibiy qismidir. So‘nggi 20 yil ichida ko‘plab viruslar va infeksiyalar global sog‘liqni saqlash va iqtisodiy tizimlarga katta miqyosda zarba berdi. Biroq, alohida

davlatlar tomonidan barqaror rivojlanish ustuvorliklarini belgilashda umumiy strategiya bilan bir qatorda, pandemiya xavfi va bioxilma-xillikning yo'qolishi o'rtasidagi jiddiy bog'liqlik hisobga olinmaydi. Jahon taraqqiyoti siyosatidagi ushbu jiddiy kamchilikni ta'kidlash uchun Rim Sapiyenza universitetining Biologiya va biotexnologiya bo'limining biologik xilma-xillik bo'yicha tadqiqotchisi Moreno Di Marko boshchiligidagi olimlar yuqumli kasalliklar tarqalishiga antropologik ta'sir ko'rsatadigan tadqiqot natijalarini e'lon qildi.

MUHOKAMA

Tadqiqotning maqsadi insonning biologik xilma-xillikning buzilishi va atrof-muhitdagi nomutanosibliklarga ta'sirini ta'kidlash hamda bu omillarning biologik hayotga salbiy oqibatlarini yanada jiddiy va izchil tushunishni ta'minlashdir. Qayd etilishicha, so'nggi yillarda yuzaga kelgan keskin vaziyatlar va pandemiyalar, aniqrog'i – Ebola, Sars, Zika, MERS, H1N1 va boshqalar. Ko'proq bunday viruslarning paydo bo'lishi aslida o'xshash xususiyatlarga ega aylanma jarayonning bir tomoni sifatida insonning tabiatga salbiy ta'siri bilan chambarchas bog'liq [6].

Bu keng ko'lamli ekologik o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ekin maydonlarini sun'iy ravishda ko'paytirish va chorvachilikni (ayniqsa, biologik xilma-xillik yuqori bo'lgan mamlakatlarda) faollashtirish hisobiga o'rmon maydonlarining qisqarishiga olib keldi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ushbu faoliyat natijasida atrof-muhit, odamlar va yovvoyi tabiat o'rtasidagi bog'liqlik va aloqa o'rnatilib, patologik infeksiyalar xavfi ortadi. Bo'lim va boshqa xorijiy tahlil markazlari a'zosi, tadqiqot bo'limi rahbari Di Markoning Amerika Fanlar Akademiyasi jurnalida chop etilgan maqolasida epidemiya xavfi ortib borishi va inson omilining atrof-muhit o'zgarishiga yuqori ta'siri o'rtasidagi bog'liqlik ta'kidlangan [7].

Xuddi shu paytni o'zida, barqaror rivojlanishning pandemiya tahdidlarini ham hisobga olish muhimdir. Shuningdek, bu xatarlar yovvoyi tabiatning yashash joylari mavjudligi bilan emas, balki o'sha hududlarda va shu tariqa bioxilma-xillik hududlarida antropogen ta'sirlarning kengayishi, biologik xilma-xillikning o'zgarishiga olib kelishi bilan izohlanishi ta'kidlanadi. Jarayonlar o'rtasidagi ushbu munosabatlarning borishi va hal etilishiga hozirgi befarqlik barqaror rivojlanish sa'y-harakatlari samarali bo'lishi uchun hal qilinishi kerak bo'lgan siyosiy to'siqni keltirib chiqaradi. Unda, birinchi navbatda, oziq-ovqat va energiya ishlab chiqarish va umuman, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda atrof-muhit va bioxilma-xillik va epidemiya xavfi o'rtasida yuqori o'zaro bog'liqlik mavjudligini tan olish muhimligi ta'kidlanadi. Qayd etilishicha, bu xavf-xatarlar yovvoyi tabiatning yashash joylari mavjudligi bilan emas,

balki bu hududlarda va shu tariqa bioxilma-xillik hududlarida antropogen ta'sirlarning kengayishi, u yerdagi bioxilma-xillikning o'zgarishiga olib kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot rahbarining so'zlariga ko'ra, ko'plab tadqiqotlarga qaramay, bioxilma-xillikni saqlamasdan turib, inson salomatligini asrash mumkin emas. Afsuski, tabiatdagi bioxilma-xillikni muhofaza qilish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan davlatlar tomonidan hamon ikkinchi darajali maqsad sifatida qaralmoqda. Biroq, uzoq muddatli bumerang effektiga ega bo'lgan rivojlanish siyosatini amalga oshirish hali ham xavf tug'diradi. Shunday qilib, tadqiqot biologik xilma-xillikni hisobga olmaydigan qishloq xo'jaligi siyosati qonuniydir, vabo xavfini atrof-muhitdagi keyingi o'zgarishlarning mumkin bo'lgan oqibati yoki SARSda bo'lgani kabi COVID-19 tarqalishining sababi sifatida e'tiborga olmaydi. Shuningdek, noqonuniy yovvoyi hayvonlar turlarining savdosi bilan bog'liq qo'zg'atuvchilarning yuqish xavfini hisobga olmaslik mavjud natijalarga olib keluvchi asosiy omillardir. G'arbiy Nildagi Berkli Kaliforniya universiteti doktoranti Felisiya Kissing tomonidan 2010-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Di Marko o'ziga xos patogenga ega hayvonlar jamoasida inson faoliyatining o'zgarishi xavfini ko'rsatish uchun amaliy misol keltiradi. Virus turli turdagi qushlar tomonidan odamlarga chivin chaqishi orqali yuqishi tushuntiriladi. Ta'kidlanishicha, antropogen ta'sir tufayli ekotizimdagi qush turlari sonining kamayishi viruslarning odamlarga yuqishi xavfini oshiradi. Shuning uchun antropogen ta'sirga duchor bo'lgan ekotizimlarda virusni tashuvchi qushlar ustunlik qiladi. Bu ular olib yuradigan viruslarning chivinlar orqali odamlarga yuqishi xavfini oshiradi. Aksincha, turli xil qush turlariga boy ekotizimlarda viruslarning tarqalishi kamayadi, bu esa o'z navbatida chivinlar va bilvosita odamlar tomonidan yuqtirish ehtimolini kamaytiradi [8].

Tadqiqot direktori Moreno di Markoning ta'kidlashicha, atrof-muhit va epidemiya xatarlari o'rtasidagi munosabatlar dunyoning muhim davrida juda yuzaki bo'lgan va yuqumli xavflarni kamaytirish bo'yicha shoshilinch choralar barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning bir qismi bo'lishi kerak. ustuvor bo'lish Tadqiqotga ko'ra, global dunyoni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlardan himoya qilish va ofatdan keyingi qadamlarni qo'yish o'rniga, tegishli ko'p tarmoqli va qo'shma tadqiqotlar o'tkazish va profilaktika choralarini ko'rish uchun tegishli strategiyalarni qabul qilish muhimroqdir [9].

2015-yilda BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan qabul qilingan va 2030-yilgacha amalga oshirilishi rejalashtirilgan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadini o'z ichiga olgan 2030-yilgacha



Barqaror rivojlanish dasturi dunyodagi mavjud iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarni minimallashtirishga qaratilgan. Uchta global ijtimoiy tengsizlikdan tashqari, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini nolga tushirish strategiyasini amalga oshirish, shu orqali atrof-muhitning misli ko'rilmagan darajada keng miqyosda degradatsiyasiga olib kelgan antropogen ta'sirlarning tabiatga etkazilgan zararni bartaraf etish ustuvor vazifalardan iborat.

Aholi zichligi ortib borayotganiga teskari proporsional oziq-ovqat va boshqa resurslarning tanqisligi, aksincha, Oziq-ovqat va qazib olinadigan yoqilg'ilarni ko'p iste'mol qilish bugungi kunda dunyodagi ekologik va ijtimoiy-siyosiy muammolarning asosidir. Shu munosabat bilan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi maqsadlariga erishish uchun bioxilma-xillikni saqlash, oziq-ovqat xavfsizligi va iqlim o'zgarishi kabi omillar dinamikasini hisobga olish zarur. Insonning atrof-muhitga ta'siri salbiy oqibatlarga olib kelgani kabi, aksincha, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan global muammolar ko'rinishida namoyon bo'lib, inson hayotidagi salbiy ko'rsatkichlarni aks ettiradi [10].

Hozirgi vaqtda 65 ta davlat tomonidan yakunlangan Global sog'liqni saqlash xavfsizligi kun tartibi kelgusi besh yil davomida dunyo aholisi salomatligi uchun yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi, u inson salomatligini muhofaza qilish va mavjud kasalliklar va xavflarning oldini olish uchun tegishli profilaktika strategiyalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Garchi jahon hamjamiyati SARS va shunga o'xshash yuqumli kasalliklarning davomi sifatida 2003-yilda paydo bo'lgan hozirgi COVID-19 virusi bilan kurashayotgan bo'lsa-da, pandemiya allaqachon global miqyosda katta iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Birinchi infeksiya qayd etilganidan beri olti hafta ichida 40 mingdan ortiq odam kasallangani va birinchi navbatda mingdan ortiq odam vafot etgani shular jumlasidan. Tez tarqalish hududini kengaytirish va qurbonlar sonini oshirish, shuningdek, jahon iqtisodiyotiga 150 milliard AQSH dollariga yaqin zarar yetkazilishi, umuman, bunday yuqumli kasalliklar, viruslar va ularning tashuvchilari sonini kamaytirish nuqtayi nazaridan, natijalarni to'g'ri baholash sabablari shakldagi turli omillarning o'zaro bog'liqligi kontekstda ko'rib chiqilishi kerak. Ushbu yo'nalishda inqirozdan keyingi tahlillarni o'tkazish va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimolliklarning oldini olish uchun davlatlarning tizimli yondashuvini qo'llash, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, Inson va atrof-muhitning o'zaro ta'siri va bu ta'sirlarni to'g'ri o'lchash hozirgi sharoitda dunyo aholisi salomatligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan yangi muammolardan himoya qilishning eng muhim shartlaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, jarayonlarni to'g'ri, sinxron va tizimli



boshqarish uchun ushbu sohada global xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlatlarning birgalikdagi harakatlari juda muhim.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ekologik xavflardan butunlay xalos bo'lish mumkin emas, lekin siz ularni kamaytirishga harakat qilishingiz va yangilarining paydo bo'lishining oldini olishingiz mumkin. Bu esa barcha davlatlar o'z sa'y-harakatlarini birlashtirib, butun dunyo manfaatlari yo'lida harakat qilsagina amalga oshishi mumkin. Bu juda muhim, chunki hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlar zararli ishlab chiqarishni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish orqali faqat o'z hududlarini himoya qilishga harakat qilmoqdalar.

REFERENCES

1. <https://news.un.org/ru/story/2019/01/1348082>; Международная конференция сети Всемирной организации здравоохранения стран Восточной Европы по проблемам комплексного управления здоровьем работающих (1; 2003; Уфа). Первая международная конференция сети Всемирной организации здравоохранения стран Восточной Европы по проблемам комплексного управления здоровьем работающих, 21-25 сентября 2003 года, Уфа, Республика Башкортостан, Россия: [Материалы конф.]. - Уфа: Уфим. науч.-исслед. ин-т медицины труда и экологии человека, 2003. - 305 с.
2. Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну/Пер. с нем. В.Седельника и Н.Федоровой; Послесл. А.Филиппова. - М: Прогресс-Традиция, 2000. - 384 с.
3. Nigmatov A.I. Ekologiya: asosiy atama va iboralarning izohli lug'ati. - T., 2002, 15-16 betlar.
4. Кузнецова К.М. Экологические риски в концепции общества риска // Развитие общественных наук российскими студентами. Краснодар, 2017. С. 41-45.
5. Маршак А.Л. Глобальная экологическая культура общества как фактор формирования социальной толерантности // Общество и право, 2003. № 1. С.38-51.
6. https://naked-science.ru/article/biology/deyatelnost-cheloveka-nazvali-glavnoy?alm_mvr=0
7. https://naked-science.ru/article/biology/deyatelnost-cheloveka-nazvali-glavnoy?alm_mvr=0
8. https://static.iea.ras.ru/news/Sovremennaya_evropeyskaya_antropologiya.pdf
9. https://static.iea.ras.ru/news/VkA_3_51.pdf
10. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/about/development-agenda/>



O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY ISHNI TASHKIL ETISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Maftuna Subhanovna Abbasova

Samarqand davlat universiteti

Zarina Nigmatullo qizi Murodullayeva

Samarqand davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy ishni tashkil etish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida aholini ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi hamda ijtimoiy ishni tashkil etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik tahlil qilingan. AQSH, Isroil, Gruzziya, Kanada, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Serbiya kabi xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy ish to‘g‘risidagi qonunchiligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ish, ijtimoiy hodisa, ijtimoiy xodim, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, hodisani boshqarish, qonun.

ABSTRACT

This article analyzes the system of providing social services to the poor in Uzbekistan in terms of organizing social work and social support, as well as legislation governing relations related to the organization of social work. The legislation on social work of foreign countries such as USA, Israel, Georgia, Canada, Great Britain, Finland, Serbia has been studied.

Keywords: social work, social phenomenon, social worker, social service, control of phenomena, law.

KIRISH

Ijtimoiy ish o‘z hayotiy muammolarini mustaqil hal etishga, ko‘p holatlarda yashashga qiynalgan insonlarga yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyatning o‘ziga xos turidir. Jahon tajribasida aholining zaif qatlamlari – qariyalar, imkoniyati cheklangan insonlar, muammoli oilalar, qiyin hayotiy muammolarga duch kelgan insonlar, shu jumladan bolalarga yordamni malakali mutaxassislar – ijtimoiy ishchilar tashkil etadilar va amalga oshiradilar. Bu soha ijtimoiy jihatdan muhim bo‘lgan professional soha bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlash vazifasini bajaradi, shuningdek

davlatning zamonaviy ijtimoiy siyosatini amalga oshirishini, zaif aholi qatlamlariga ijtimoiy xizmatlarning sifati va ommabopligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. [3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonda ijtimoiy ishni tashkil etish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida aholini ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi yaratilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy ish sifatini oshirish, shu jumladan, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, yetim bolalar, og'ir turmush sharoitiga tushib qolgan bolalar va oilalar bilan bog'liq ishlarni talab darajasiga keltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlari kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-sonli Farmonida O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi Qonuni loyihasi qonunchilik tashabbusi huquqi asosida bir guruh deputatlar hamda YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasining ko'magida halqaro mutaxassislarni jalb etgan holda ishlab chiqilgan hamda 2022-yil 6-iyundan 21-iyungacha Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali (regulation.gov.uz)da jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan.

Ijtimoiy ishni olib boruvchi ijtimoiy xodimlar inson hayotining farovonligini ta'minlash borasida ehtiyojmand shaxslarga hamda oilalarga xizmatlar ko'rsatish va bolalarni himoya qilish tizimida muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya qilgan holda, ijtimoiy xodimlar boshqa soha mutaxassislari bilan birgalikda muammolarni bartaraf etish va ularga yechim topishda, shuningdek, bolalarni tarbiyalash va salohiyatini rivojlantirish masalalarida shaxslarga va oilalarga bevosita yordam beradilar.

MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Aholining qarishi (keksayishi) munosabati bilan o'sib borayotgan ehtiyojlar, surunkali kasalliklarga chalingan ko'plab odamlar sonining ortishi, murakkab va ko'plab ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar, o'smirlar va katta yoshdagi shaxslarning ruhiy salomatliklaridagi ehtiyojlarini qondirilishiga bo'lgan talablarning oshishi ijtimoiy xodimlarga bo'lgan ehtiyojlarning ortib borishini yuzaga keltirmoqda.

AQSH, Isroil, Gruzuya, Kanada, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Serbiya kabi xorijiy mamlakatlar qonunchiligini o'rganish shuni ko'rsatdiki, xalqaro kontekstda ijtimoiy ish butun aholini ijtimoiy himoya tizimining muhim qismi hisoblanadi.

Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida professional ijtimoiy xodimlar insonlarni muhim maqsadlarga yo'naltiradigan, hayoti uchun zarur qarorlar qabul qilishlarida yaqindan maslahat beradigan va ularning o'z insoniy salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beradigan malakali kuch hisoblanadi.

Gruziyaning "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi qonuni ijtimoiy ishning asosiy tamoyillarini, ijtimoiy xodimning huquqiy maqomi, ijtimoiy kafolatlari, vazifalari, huquq va majburiyatlari, ijtimoiy xodim tomonidan amalga oshiriladigan choratadbirlarni belgilaydi. Qonunning maqsadi – inson tomonidan o'z hayotini muvaffaqiyatli tarafga yo'naltirish, jamiyatga barqaror integratsiyalashuviga ko'mak berish orqali uning mustaqilligi va munosib hayotini ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy ish tizimini shakllantirishdan iborat.

Isroilda qonunning maqsadi ijtimoiy ish amaliyotini tartibga solish, Isroilda inson va jamiyat farovonligi va hamjihatligiga ko'maklashishdir. Qonun ijtimoiy soha xodimlarining faoliyati, mas'uliyati, ta'limi va attestatsiyasini tartibga soladi.

Kanadada ijtimoiy xodimlarning faoliyati me'morlar, shifokorlar, muhandislar, ergoterapevtlar, fizioterapevtlar va ruhshunoslar kabi tartibga solinadi.

Buyuk Britaniyada esa ijtimoiy xodimlar faoliyatini tartibga soluvchi ijtimoiy ish me'yoriy qoidalari ifodalangan "Bolalar va ijtimoiy ish to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Finlyandiyaning "Ijtimoiy ta'minot to'g'risida"gi qonunida "Ijtimoiy ish" atamasi ijtimoiy ta'minotning professional xodimlari tomonidan ijtimoiy muammolarni boshqarish, maslahat berish, tadqiq qilish va alohida shaxslar va oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralarni anglatadi.

Serbiyada "ijtimoiy xizmatlar" bolalar va oilalarning hayotiy ehtiyojlarida minimal xavfsizligi va mustaqilligini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

"Ijtimoiy ish to'g'risida"gi Qonun loyihasi 8 bob, 38 moddadan iborat bo'lib, unda asosiy tushunchalar - deinstitsializatsiya, ijtimoiy ish, ijtimoiy xodim, ijtimoiy xizmatning yordamchi xodimlari, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, Ijtimoiy xodimning axloq kodeksi, ijtimoiy ish amaliyoti standarti, paraprofessional ijtimoiy xodimlar, hodisani boshqarish;

davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va prinsiplari;

ijtimoiy ish sohadagi tegishli organlarning vakolatlari;

ijtimoiy xodimning faoliyati - ijtimoiy xodimning vazifalari, bolalar farovonligi va himoyasini ta'minlash borasidagi ijtimoiy ish, ta'lim muassasalari tizimida (maktabgacha, maktab, kasb-hunar) ijtimoiy ish, Sog'liqni saqlash, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish, huquqni muhofaza qilish sohalardagi ijtimoiy ish, nogironligi bo'lgan

shaxslar bilan ijtimoiy ish, mahalliy hamjamiyatdagi ijtimoiy ish, internat muassasalarida ijtimoiy ish, aholining turli toifalari bilan ijtimoiy ish, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar oluvchilarning huquq va majburiyatlari, ijtimoiy ishning shakllari, turlari va boshqalar keltirilgan.

Qonun loyihasida vazirliklar va idoralarning majburiyatlarini, ijtimoiy xizmatlar xodimlariga qo'yiladigan talablarni belgilash me'yorlari nazarda tutilgan.

Qonun loyihasida ijtimoiy xodimning faoliyati bilan bog'liq huquq va majburiyatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra ijtimoiy xodim - ehtiyojmand jismoniy shaxs va oilalarga, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatuvchi "ijtimoiy ish" mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis.

Tegishli malakaga ega, o'z faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xodim quyidagi vazifalarni bajaradi:

aholining ijtimoiy ish faoliyati haqida xabardorligini oshiradi;

mahalliy hamjamiyatni safarbar qilib, ehtiyojmand aholi qatlamlari, shu jumladan, bolalar va oilalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatadi;

ilmiy yondashuvni qo'llagan holda, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydi;

uydagi ayollarga va bolalarga nisbatan zo'ravonlik, vasiylikning yo'qolishi, ruhiy-faollashtiruvchi dori vositalarini iste'mol qilish, g'ayriqonuniy harakatlar natijasida nizolar, ruhiy salomatlikning yomonlashuvi va boshqa muammolarni aniqlash mexanizmlaridan foydalangan holda profilaktika tadbirlarni amalga oshiradi;

shaxs, bola yoki oilaning ehtiyojlarini aniqlab, uni tegishli xizmatlarga yo'naltirgan holda xizmatlar oluvchining holatini, shu jumladan ruhiy salomatlik holatini baholashni amalga oshiradi va rehabilitatsiya xizmatlarini tashkillashtiradi;

ehtiyojmand shaxslar, oilalar huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy ish sohasidagi huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish uchun takliflar beradi;

bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarda yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarning sabablarini aniqlash, ehtiyojlarini tahlil qilish orqali tegishli choralar, dasturlarini ishlab chiqadi va hal etish yo'llarini belgilaydi;

ishsizlik, nogironlik, baxtsiz hodisa natijasida vafot etish, qarilik va boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot, pul kompensatsiyalari, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy xizmat va yordam choralari amalga oshirish rejasini ishlab chiqadi;

xavflarni kamaytirish (bartaraf etish) va aholining ehtiyojmand qatlamlari faoliyatini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy ishning samarali va asosli usullarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazadi.

Shuningdek, ijtimoiy xodim o'z vazifalarini bajarish uchun tasdiqlangan usullar va texnologiyalardan foydalanadi. Ularga

hodisani boshqarish, shu jumladan shaxslar, oilalarning ehtiyojlarini baholash, xizmat ko'rsatish rejasini tuzish, ularning taqdim etilishi va erishilgan yutuqlari monitoringi, hodisa bilan ishni yakunlash; nogironligi bo'lgan shaxslar va bolalarning faoliyat imkoniyatlarini baholash va amalga oshirishda yordam berish; xalqaro amaliyotda ijtimoiy ish sohasida qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi sharoitlariga moslashtirilgan boshqa vositalar kiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ish alohida olingan bir vazirlik vakolatiga muvofiq, deb qarash noto'g'ri hisoblanadi. Zero ijtimoiy xodimlar tomonidan hal qilinadigan muammolar murakkab va multisektoral bo'lib, tegishli idora va tashkilotlarning muvofiqlashmagan faoliyatlari kutilayotgan natijalar bermaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi aholini ijtimoiy himoya qilishni rivojlantirishda muhim bosqich bo'ladi, ijtimoiy ish turlarini kengaytirishga, shaxs va oilani qo'llab-quvvatlash bo'yicha ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga ko'mak beradi. Qonun nafaqat ijtimoiy ishlarni bajarish jarayonini tartibga solish, balki uning himoyaga muhtoj (ehtiyojmand) shaxslar, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'sirini tizimli tahlil qilish va shaxslar, oilalarning og'ir turmush sharoitidan chiqib ketishlari bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlari kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5570490>.
2. Ijtimoiy xizmat. D.Raxmonov. Uslubiy qo'llanma. Samarqand: SamDUNashri, 2007. - 164 b.
3. Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O'quvqo'llanma. - Samarqand: SamDUNashri, 2020. - 268 b.
4. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik. A.V.Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev; T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 168 b.
5. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlarimilliy bazasi.
6. <https://regulation.gov.uz> – Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali.

AHOLINING KUNLIK DAROMADLARI, O'RTACHA KUNLIK ISH HAQI VA ISHSIZLARNING O'RTACHA YOSHI O'RTASIDAGI BOG'LANISHINING KO'P OMILLI KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI

Ikrom Abdurashitovich Shukurov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi

ikrom.shukurov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aholining jon boshiga kunlik o'rtacha daromadlari, kunlik o'rtacha ish haqqi va ishsizlarning o'rtacha yoshi to'g'risidagi statistik ma'lumotlari asosida ko'p omilli korrelyatsion va regression tahlil olib borish natijasida ilgari surilgan farazlarga xulosa berilgan. Ushbu tadqiqotda Samarqand shahri Shodiyona mahallasidagi 30 ta oila bo'yicha statistik ma'lumotlar so'rovnoma asosida tahlil uchun olindi. Maqolada o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanishlar Fisher kriteriyasi hamda elastiklik koeffitsiyentlari yordamida baholangan hamda xulosalar berilgan. Ushbu xulosalar natijasida ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlik darajalari aniqlanib, tahlil qilingan holda ko'p omilli regressiya tenglamalari parametrlarini eng kichik kvadratlar usulidan foydalangan holda ko'p omilli regressiya tenglamasi aniqlanib, tuzilgan regressiya tenglamasidagi ta'sir etuvchi omillarning asosiy omilga nisbatan muhimligi to'g'risida asoslangan taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: bandlik, ishsizlik, ish haqqi, daromad, ko'p omilli regressiya, korrelyatsiya, korrelyatsion bog'lanish, regression modelning ahamiyatini baholash, Fisher mezoni, elastiklik koeffitsiyenti, o'rta qiymat, o'rtacha kvadratik chetlanish.

ABSTRACT

This article summarizes the hypotheses put forward as a result of conducting a multi-factor correlation and regression analysis based on statistical data on average daily income per capita, average daily wage and average age of the unemployed. In this study, statistical data on 30 families in Shodiyona neighborhood of Samarkand city were collected for analysis based on a questionnaire. In the article, the relationships between variables were evaluated using Fisher's criterion and elasticity coefficients, and conclusions were given. As a result of these conclusions, the levels of correlation between indicators were determined and analyzed, the parameters of multifactor regression equations were determined using the least squares method, and the importance of the influencing factors in the regression equation compared to the main factor has been determined. Based suggestions and opinions are given.

Keywords: employment, unemployment, salary, income, multifactor regression, correlation, correlational link, estimation of significance of regression model, Fisher criterion, coefficient of elasticity, mean value, mean square deviation.



2022-yilning birinchi choragida O'zbekiston aholisining real daromadlari o'sishi 3,3 foizgacha sekinlashdi. Ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 7,7 foizga teng bo'lgandi. Aholining daromadlar tarkibida pul o'tkazmalarining ulushi kamaydi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga umumiy daromad 3,2 mln so'mgacha ko'tarildi.

Yanvar-mart oylarida aholining umumiy daromadlari 114,2 trln so'mga yetdi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'sish nominalda 15,9 foizni, real ko'rsatkichda (inflyatsiyani hisobga olgan holda) 5,4 foizni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021 yilning birinchi choragidagi xuddi shu ko'rsatkichlarga — 22,1% va 9,8% nisbatan pasaygan.

2022 yilning ilk uch oyida aholi jon boshiga umumiy daromadlar 3,2 mln so'mgacha ko'tarildi. Nominal ko'rinishda tushumlar 13,6 foizga, real qiymatda 3,3 foizga (iste'mol narxlarini hisobga olgan holda) o'sdi. Bu ko'rsatkichlar ham 2021 yilning birinchi choragiga — 19,8% va 7,7% nisbatan kamroq hisoblanadi. [11]

Jon boshiga kunlik o'rtacha daromad, bir kishining o'rtacha kunlik ish haqqi va ishsizlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni statistic usullar orqali tahlil qilishni masalasini ko'rib chiqamiz.

Samarqand shahri Shodiyona mahallasidagi 30 ta oila bo'yicha jon boshiga kunlik o'rtacha daromad (y), bitta ishlovchining o'rtacha kunlik ish haqi (x_1) va ishsizlarning o'rtacha yoshi (x_2) haqida so'rovnoma asosida to'plandi. To'plangan statistik ma'lumotlarni qayta ishlab, quyida 1-jadvaldagi o'rtacha qiymat, o'rtacha kvadratik chetlanish hamda chiziqli juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari aniqlab olindi.

1-jadval

Belgilar	O'rtacha qiymat	O'rtacha kvadratik chetlanish	Chiziqli juft korrelyatsiya koeffitsienti
Jon boshiga kunlik o'rtacha daromad, ming so'm, y	86,8	11,44	-
Bitta ishlovchining o'rtacha kunlik ish haqi, ming so'm, x_1	54,9	5,86	$r_{yx_1} = 0,8405$
Ishsizlarning o'rtacha yoshi, yosh, x_2	33,5	0,58	$r_{yx_2} = -0,2101$ $r_{x_1x_2} = -0,1160$

Ushbu tadqiqotda quyidagi savollarga javob izlaymiz:

- Standartlashtirilgan va oddiy shakldagi ko'pomilli regressiya tenglamasini tuzish;

- xususiy elastiklik koeffitsientini hisoblash, ularni β_1 va β_2 bilan taqqoslash, ular orasidagi farqni tushuntirish;

- chiziqli xususiy korrelyatsiya koeffitsientini va ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash, ularni juft korrelyatsiya koeffitsienti bilan taqqoslash va oralaridagi farqni tushuntirish;

- Fisherning umumiy va xususiy F-kriteriyasini hisoblash.

y ning x_1 va x_2 omil belgilar bilan chiziqli ko'p omilli regressiya tenglamasi $y = a + b_1x_1 + b_2x_2$ ko'rinishga ega[1]. Uning parametrlarini hisoblash uchun o'zgaruvchilarni standartlashtirish usulidan foydalanamiz va tuzilishi kerak bo'lgan tenglamani standartlashtirilgan masshtabda yozamiz:

$$t_y = \beta_1 t_{x_1} + \beta_2 t_{x_2}.$$

β_1, β_2 –koeffitsientlarning qiymatlarini quyidagi formulalar bilan hisoblaymiz:

$$\beta_1 = \frac{r_{yx_1} - r_{yx_2} \cdot r_{x_1x_2}}{1 - r_{x_1x_2}^2} = \frac{0,8405 - 0,2101 \cdot 0,116}{1 - 0,116^2} = \frac{0,8161}{0,9865} = 0,8273.$$

$$\beta_2 = \frac{r_{yx_2} - r_{yx_1} \cdot r_{x_1x_2}}{1 - r_{x_1x_2}^2} = \frac{-0,2101 + 0,8425 \cdot 0,116}{1 - 0,116^2} = \frac{-0,1126}{0,9865} = -0,1141.$$

Koeffitsientlarning qiymatlarini o'rinlariga qo'yib quyidagi tenglamani olamiz[4]:

$$t_y = 0,8273t_{x_1} + 0,1141t_{x_2}.$$

Oddiy shakldagi tenglamani tuzish uchun b_1 va b_2 parametrlarni hisoblash uchun β_i dan b_i ga o'tkazadigan formuladan foydalanamiz:

$$\beta_i = b_i \frac{\sigma_{x_i}}{\sigma_y}; \quad b_i = \beta_i \frac{\sigma_y}{\sigma_{x_i}}.$$

$$b_1 = 0,8273 \frac{11,44}{5,86} = 1,6151; \quad b_2 = -0,1141 \frac{11,44}{5,80} = -2,2505.$$

a parametrning qiymatini hisoblaymiz:

$$a = \bar{y} - b_1\bar{x}_1 - b_2\bar{x}_2 = 86,8 - 1,6151 \cdot 54,9 + 2,2505 \cdot 33,5 = -73,52.$$

Yuqoridagilardan foydalanib oddiy ko'rinishdagi regressiya tenglamasini yozamiz:

$$y_{x_1x_2} = -73,52 + 1,62x_1 - 2,25x_2$$

x_1 va x_2 o'zgaruvchilarning y ga nisbiy ta'sir kuchini tavsiflash uchun o'rtacha elastiklik koeffitsientini hisoblaymiz[2]:

$$\bar{E}_{yx_j} = \bar{b}_j \frac{\bar{x}_j}{\bar{y}}$$

$$\bar{E}_{yx_1} = 1,62 \frac{54,9}{86,8} = 1,03\%, \quad \bar{E}_{yx_2} = -2,25 \frac{33,5}{86,8} = -0,87\%$$

O'rtacha ish haqi (x_1) 1 %ga o'zgarishi bilan jon boshiga o'rtacha daromadni (y) o'zining o'rtacha darajasiga nisbatan 1,03 %ga ko'payishiga olib keladi; ishsizlarning o'rtacha yoshi (x_2) 1 yoshga o'sganda jon boshiga o'rtacha daromad o'zining o'rtacha darajasidan 0,87 %ga kamayadi.

Ko'rinib turibdiki o'rtacha ish haqining jon boshiga o'rtacha daromadga ta'sir kuchi, ishsizlarning o'rtacha yoshini ta'sir kuchiga nisbatan katta ekan.

Bog'lanish kuchi haqidagi xuddi shunday xulosaga β_1 va β_2 lar qiymatlarining modullarini taqqoslash natijasida ham kelimiz[5]:

$$|\beta_1| = |0,8273| > |\beta_2| = |-0,1141|.$$

\bar{E}_{yx_j} va β_i larni taqqoslashda olingan natijaga omillarning ta'sir kuchlaridagi farqlanishni quyidagicha tushunish kerak: elastiklik koeffitsienti o'rtachalarning nisbatidan kelib chiqadi, ya'ni $\bar{E}_{yx_j} = \bar{b}_j \frac{\bar{x}_j}{\bar{y}}$,

β_i - koeffitsientlar esa o'rtacha kvadratik chetlanishlar nisbatidan kelib chiqadi

Chiziqli xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari rekkurent formulalar yordamida hisoblanadi:

$$r_{yx_1x_2} = \frac{r_{yx_1} - r_{yx_2}r_{x_1x_2}}{\sqrt{(1 - r_{yx_2}^2) \cdot (1 - r_{x_1x_2}^2)}} = \frac{0,8405 - 0,2101 \cdot 0,116}{\sqrt{(1 - 0,2101^2)(1 - 0,116^2)}} = 0,8404,$$

$$r_{yx_2x_1} = \frac{r_{yx_2} - r_{yx_1}r_{x_1x_2}}{\sqrt{(1 - r_{yx_1}^2) \cdot (1 - r_{x_1x_2}^2)}} = \frac{-0,2101 + 0,8405 \cdot 0,116}{\sqrt{(1 - 0,8405^2)(1 - 0,116^2)}} = -0,2092,$$

$$r_{x_1x_2y} = \frac{r_{x_1x_2} - r_{yx_1}r_{yx_2}}{\sqrt{(1 - r_{yx_1}^2) \cdot (1 - r_{yx_2}^2)}} = \frac{-0,116 + 0,8405 \cdot 0,2101}{\sqrt{(1 - 0,8405^2)(1 - 0,2101^2)}} = 0,1144.$$

Agar juft va xususiy korrelyatsiya koeffitsientlarini taqqoslab ko'rsak omillar orasidagi bog'lanish ($r_{x_1x_2} = -0,116$) kuchsiz bo'lganligi sababli juft va xususiy korrelyatsiyalar bir biridan kam farq qiladi degan xulosaga kelimiz.

Juft va xususi korrelyatsiya koeffitsientlari asosida olingan xulosalar ustma-ust tushadi:

$$r_{yx_1} = 0,8405; \quad r_{yx_2} = -0,2101; \quad r_{x_1x_2} = 0,1160;$$

$$r_{yx_1x_2} = 0,8404; \quad r_{yx_2x_1} = -0,2092; \quad r_{x_1x_2y} = 0,1144.$$

r_{yx_j} va β_j koeffitsientlarni qo'llab chiziqli ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsientini hisoblaymiz:

$$R_{yx_1x_2} = \sqrt{r_{yx_1} \cdot \beta_1 + r_{yx_2} \cdot \beta_2} = \sqrt{0,8405 \cdot 0,8273 + 0,2101 \cdot 0,1141} = \sqrt{0,7193} = 0,8481.$$

y ning x_1 va x_2 omillarga bog'liqligi yuqori deb baholanadi, jon boshiga o'rtacha daromadning 72% variatsiyasi modelda hisobga olingan omillar: o'rtacha ish haqi va ishsizlarning o'rtacha yoshi variatsiyasi bilan tavsiflanadi. Modelga kiritilmagan boshqa omillar u ning umumiy variatsiyasining 28%ni tashkil etadi.

Umumiy F-kriteriya regressiya tenglamasining va bog'lanish zichligi ko'rsatkichi ($R^2 = 0$)ning statistik ahamiyatligi haqidagi H_0 gipotezani tekshiradi:

$$F_{\text{haq}} = \frac{R_{x_1x_2}^2}{1 - R_{yx_1x_2}^2} \cdot \frac{m}{n - m - 1} = \frac{R_{x_1x_2}^2}{1 - R_{yx_1x_2}^2} \cdot \frac{n - m - 1}{m} = \frac{0,7193}{0,2807} \cdot \frac{27}{2} = 34,6;$$

$$F_{jadv} = 3,4; \quad \alpha = 0,05.$$

F_{jadv} va F_{haq} larni taqqoslaganda, $F_{jadv} = 3,4 < F_{\text{haq}} = 34,6$ bo'lganligi sababli H_0 gipotezani rad etish kerak degan xulosaga kelamiz. $1 - \alpha = 0,95$ ehtimollik bilan tenglamani va haqiqatda x_1 va x_2 omillarni ta'siri natijasida hosil bo'lgan bog'lanish zichligi ko'rsatkichi $R_{yx_1x_2}$ ni statistik ma'nodorligi haqida xulosa qilamiz.

F_{x_1} va F_{x_2} xususi F-kriteriya x_1 va x_2 omillarni ko'p omilli regressiya tenglamasida ishtirokini statistik ahamiyatligini va bir omilni ikkinchi omildan so'ng tenglamaga kiritish maqsadga muvofiqligini baholaydi, ya'ni F_{x_1} x_1 omilni modelga x_2 omil kiritilgandan so'ng tenglamaga kiritish maqsadga muvofiqligini baholaydi. Mos ravishda F_{x_2} x_2 omilni modelga x_1 omil kiritilgandan so'ng kiritish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

$$F_{x_1\text{haq}} = \frac{R_{yx_1x_2}^2 - r_{yx_2}^2}{1 - R_{yx_1x_2}^2} \cdot \frac{n - m - 1}{1} = \frac{0,8481^2 - 0,2101^2}{1 - 0,8481^2} \cdot \frac{30 - 2 - 1}{1} = 64,9.$$

$$F_{jadv} = 4,21; \quad \alpha = 0,05.$$

F_{jadv} va F_{haq} larni taqqoslab, $F_{jadv} = 3,4 < F_{x_1\text{haq}} = 64,9$ bo'lganligi sababli x_1 omilni modelga x_2 omildan so'ng kiritish kerak degan xulosaga kelamiz. R_y^2 ni x_1 omilni qo'shimcha

kiritish hisobiga o'sib borishi muhim emasligi haqidagi H_0 gipotezani rad etamiz va x_1 omilni x_2 omildan so'ng kiritish maqsadga muvofiqligi statistik ma'qullanganligi haqidagi xuloaga kelamiz. x_2 omilni x_1 omildan so'ng modelga kiritish maqsadga muvofiqligini F_{x_2} tekshiradi[8].

$$F_{x_2\text{haq}} = \frac{R_{yx_1x_2}^2 - r_{yx_1}^2}{1 - R_{yx_1x_2}^2} \cdot \frac{n - m - 1}{1} = \frac{0,8481^2 - 0,8405^2}{1 - 0,8481^2} \cdot \frac{30 - 2 - 1}{1} = 1,234.$$

$F_{x_2\text{haq}}$ ning qiymatini kichikligi x_2 omilni modelga x_1 omildan so'ng kiritilishi hisobiga $r_{yx_1}^2$ ning o'sishi statistik ma'noga ega emasligini ko'rsatadi. Bundan kelib chiqqan holda, x_2 omil(ishsizlarning o'rtacha yoshi)ni modelga kiritish maqsadga muvofiq emasligi haqidagi H_0 gipoteza tasdiqlanadi. Bu esa o'rtacha daromadni o'rtacha ish haqiga bog'lanishini ifodalovchi juft regressiya modeli etarlicha statistik ma'noga ega, ishonchli va uni x_2 -ishsizlarning o'rtacha yoshi omilini kiritib yanada yaxshilashni zaruriyati yo'qligini ko'rsatadi[10].

REFERENCES

1. Абдуллаев О.М., Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Эконометрика. Учебник. –Т.: "Fan va texnologiya". 2007. – 612 с.
2. Абдуллаев О.М., Жамалов М.С. Эконометрическое моделирование. Учебник. –Т.: Fan va texnologiya. 2010. – 612 с.
3. Айвазян С.А. Прикладная статистика и основы эконометрики. Учебник. – М. ЮНИТИ, 2007. – 345 с.
4. Валентинов В.А. Эконометрика: Учебник. –М.: ИТК «Дашков и К°», 2009. – 367 с.
5. Greene W.H. Econometric Analysis. Prentice Hall. 7th edition, 2011.–1232 p.
6. Christopher Dougherty. Introduction to Econometrics. Oxford University Press, 2011. – 573 p.
7. Gujarati D.N. Basic Econometrics. McGraw-Hill, 5th edition, 2009. – 922 p.
8. Кремер Н.Ш. Эконометрика: Учебник.–М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. –562с.
9. Nasritdinov G. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. 252 b.
10. Шукуров И.А., Парная регрессия и корреляция, Universum: Технические науки, научный журнал, Выпуск:5(86), май 2021 г. Часть 1.
11. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/04/29/total-income/>

FAROSAT ILMI: FALSAFIY TAHLIL

Gulchehra Ne'matovna Navro'zova

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti professori

premium.progress@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada farosat ilmi haqidagi qarashlar falsafiy tahlil etilgan. Farosat haqida Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Kalobodiy, Abdulqodir Giloniy, Bahouddin Naqshband, Muhammad Porso, YA'qubi Charxiy asarlarida keltirilgan ta'riflar va hozirgi zamon olimi M. Bekmurodovning bu ilmga doir g'oyalari keltirilgan. Farosat ilmi zohirga qarab botinni anglash, ichki tuyg'ularni mohiyatini fahmlash ekanligi asoslangan va uning hozirgi kun uchun ahamyati ko'rsatilib, uni joriy etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Farosat ilmi, anglash, fahmlash, bilish, zohir, botin, imoniy farosat.

ABSTRACT

The article philosophically analyzes the views on the science of farosat. The definitions given in the works of Farabi, Abu Ali ibn Sina, Kalabadi, Abdul Qadir Gilani, Bahauddin Naqshband, Muhammad Porso, Yakubi Charkhi and the modern scientist M. Bekmurodov are presented about this science. The science of farosat is based on understanding the internal, understanding the essence of internal feelings through a look at the external, its significance for today is shown, and proposals for its implementation are given.

Keywords: science of wisdom, consciousness, perception, cognition, external, internal, religious insight.

KIRISH

Tasavvufning zamonaviy ilm-fandagi eng ko'p o'rganilayotgan tomonlari axloqiy-irfoniy jihatlaridir. Chunki tasavvuf ta'limoti inson ma'naviyati va ma'rifati mukammal bo'lishi yo'llarini o'rgatadi. Hozirgi jamiyatimizda eng qadrlanadigan kishilar fahm-farosatli insonlardir. Ammo ular kundan-kunga kamayib bormoqda. Bunga sabab ta'lim va tarbiya jarayonida farosat ilmini o'qitish va shu ruhda tarbiyalash masalalari e'tibordan tashqariga qolmoqda.

Mutafakkirlar va tasavvuf ahli ma'naviy merosida farosat ilmiga maxsus e'tibor berilgan. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy,



Kalobodiy, Abduqodir Giloniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso, YA'qubi Charxiy, va boshqalarning ma'naviy merosidagi farosatli bo'lish, chiroyli xulqli bo'lish, o'zlikni anglash, ichki, botiniy poklik, qalb pokizaligi, nafs tarbiyasi kabi tushunchalar inson tushunchasi bilan uyg'unlik kasb etadi. Shu ma'noda ham ularning irfoniy, axloqiy, ma'naviy va ma'rifiy mohiyatini o'rganish, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida foydalanish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Yangilanish, ma'naviy islohotlar davrida farosat ilmi haqidagi konseptual g'oyalarni kompleks tadqiqotlarga tortish muhimdir. Globallashuvning salbiy ta'siri natijasida axloqsizlik, ma'naviy qashshoqlik insonni insonga qarshi qilib qo'yayotgani, insonni nafs girdobiga tortayotgani bunday qarashlar tizimini yanada chuqurroq o'rganishni taqazo etadi. Tasavvuf ta'limoti inson botinni poklash, qalbning, ruhning sharaflanishiga erishish yo'llarini tadqiq etadi. Chunki inson qalbi Allohning jilvagohi, manzil-makoni, u ko'zgu kabi toza va musaffo bo'lsa, Alloh nuri, Alloh ilmu hikmati unda shuncha tiniq aks etadi. Farosat ilmi kabi ilohiyot ruhi bilan sug'orilgan tasavvufiy ta'limotlarda zohiriy va botiniy olam uyg'unlashib, Alloh, tabiat va insonning yagonaligi haqidagi dunyoqarash yuzaga chiqadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Naqshbandiylikka oid manbalarda laduniy [12:301], ya'ni ilohiy ilm quyidagi uch yo'l bilan: 1. Vahiy orqali payg'ambarlarga; 2. Ilhom orqali muqaddas shaxslar – valiylarga; 3. Intuitsiya (farosat) orqali so'fiylarga berilishi ko'rsatilgan. Laduniy ilm hol ilmining eng yuksagidir. U barcha botindagi mohiyatlarning asl ma'nosiga yetishga yordam beradi.

Laduniy ilmning payg'ambarlarga beriladigan vahiy ko'rinishi payg'ambarlik Muhammad s.a.v. vafotlari bilan to'xtagan. Avliyolarga ilhom orqali beriladigan nuru fayz ham xos kishilargagina nasib qiladi. Ammo laduniy ilmning farosat ko'rinishi hozirgi kunda ham sog'lom, poklangan, halol luqma iste'mol qiladigan, imonli, mehnatsevar, ilmu ma'rifatli kishilarga berilishi va tarbiyalanishi mumkin.

Farosat arab tilidagi firosat so'zidan olingan "Farhangi zaboni tojik" da bu so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: "tezii fahm, idrok, ziraky, hush zehny" [10:434] mazmuni fahmlashning tezligi, idrok, ziyraklik, zehning o'tkirligi. "فراست" "firosat" [11:247], farosat, idrok narsalarning mohiyatini anglash degan mazmundagi ta'rif ham bor. Manbalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, farosat zohiriy ishlar bilan botiniy ishlarga hujjat qilish, dalil keltirishga aytiladi. Shuningdek farosat qaramasdan, hujjat ko'rmasdan turib, qalbdan voqe'

bo'ladigan ma'lumotdir. Ma'lum bo'ladiki, farosat botinni idrok etishdir.

Tarixiy manbalarda farosat ilmini egallagan shaxslarga sohibi tadbir, donishmand hamda "Ilmi simiyo", ya'ni botiniy ilmlardan Ollohning so'zlari, go'zal ismlarining sirlarini ochishni puxta biladigan inson deb ta'riflangan. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham shunday insonlardan biri bo'lib, farosat ilmini yaxshi fazilat sifatida ta'riflagan va uni ikki turga: fikriy va xulqiy toifalarga ajratib, quyidagicha tasniflagan: "Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik, fahm-farosatlilik, zehnlilikni yuzaga keltiradi. Xulqiy fazilat esa intiluvchi quvvatga kirib, iffat, shijoat, saxiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi" [5:399].

Qomusiy mutafakkir Abu Ali ibn Sino farosat ilmiga quyidagi ta'rifni bergan: "Farosat ilmi foydasi naqd bo'lgan ilmlardandir. Sen bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning o'zlari yashirib yurgan fe'l- atvorlarini bildiradi. Mana shu farosatning bildirilishi natijasida o'z bilishing bilan unga bog'lanib qolarsan yo undan yuz o'girarsan. Farosat ilmi sening o'zingni aslingda bor bo'lgan instiktiv yaratilmalarning, o'zgartirilmagan tabiatlaringni ko'z o'ngingda keltirib qo'yadidi. Agar senga farosatning tuzatuvchi qo'li tegsa, sen juda o'tkir bo'lib ketasan" [2:219]. Abu Ali ibn Sinoning farosat ilmiga berilgan yana quyidagi ta'rifi ham mavjud: "Farosat deb, sezgidan keladigan ishoraning asl ma'nosiga tezda yetishmoqqa aytiladi" [2:219]. Agar seni bir kishi aldoqchi yo'ldan ozdirib, tuzog'iga tushira olsa, aldanasan. Ibn Sino farosat-mantiq ilmi mohiyati haqida fikr yuritayotganligini tushunish qiyin emas. U bilishda faqat hissiy bilish bosqichi emas, balki aqliy bilish bosqichida to'la bilimga ega bo'lishiga ishora qiladi. U o'z davrida inson nafsini tiyganda, har qanday xayol, hissiyotlarga berilmaganda, inson ilm bilan shug'ullanishi mumkin, degan xulosaga keladi.

Vatandoshimiz Abu Bakr Kalobodiy "at-Taarruf" asarining oltmish oltinchi bobida "farosat" [8:40] (sezish, his qilish) haqida fikr yuritib, basiratni (ichki ko'ngil ko'zi) ushbu tushuncha orqali tahlil qilishga harakat qiladi. Abu Bakr Kalobodiy qarashlarida "Farosat"- basirat ko'zi bilan g'aybni ko'rish, pinhoni kashf qilishdir. Boshqacha aytganda, ruhning ilohiy bir quvvat bilan anglab tafakkur etishi tufayli g'aybiy ma'nolarni bilish, bunga farosati aqliya, kashf qilishlik yoki sirning oshkor bo'lishi ham deyish mumkin.

Qodiriya tariqati asoschisi Abdulqodir Giyloniyning fikrlari ham farosat tushunchasining mohiyatini tushuntirishda muhimdir. U "Futuhul g'ayb" asarida shunday yozadi: "...Farosat ilmi bu Alloh bergan qalb ko'zi bilan nima to'g'ri va nima egriligini, nima yaxshi va nima yomonligini ilg'ay olish ilmidir. Bu ilmni Alloh taolo o'zi suygan bandalariga bergay. Binobarin, senga biror yumush topshirilsa bu ishni qanchalik

to'g'ri ekanligini obdon mushohada qil, so'ngra xulosa chiqar! Yoxud o'zingga shunday savol ber: "Bu Allohning buyurganimi?!" Darhaqiqat, bu Parvardigorning sinovi va qudratining nishonasidir. Sen bu savdoda ziyrak tur va atrofingda nimalar bo'layotganini bilishga intil. Darhaqiqat, bu dunyo ishlarini hammayam tushunavermaydi, hamma bandasigayam ayon emas. Bu savdoning mohiyati va ma'nosi faqat U tanlagan va saralagan ma'rifat sohiblarigagina – Avliyo va Abdollarga ayondir. Shunday ekan, kayfiyatingni shu yo'sin mosla, zero sinov qaydayu, buning ajri qayda bilmaysan, shunchaki Alloh taoloning puxta o'ylagan va bir tizimga solingan rejasi asosida tegirmon aylanmoqda..." [1:172]. Demak, farosat tushunchasining axloqiy va irfoniyl jihatdan tushunish, halol va haromni fahmlash, yaxshilik va yomonlikni bilish ma'nosida tushunish ham mumkin. Biroq, insonning bilimlari, martabalari oshib borgan sari farosat nima ekanligini anglay boradi. Giyloniyl fikricha, farosatning haqiqati va ma'rifatini valiylar, abdollar yaxshiroq tushunadilar.

Bahouddin Naqqshbandning "Maqomot"da farosat haqida aytgan fikrlari keltirilgan. U kishi aytgan edilar: "Murshid har kuni tolibning holidan xabardor bo'lishi, farosat yoki so'rab surishtirish bilan uning ahvolini bilib turishi zarur" [3:122]. Bahouddin: "O'zgalarning ko'nglini bilib olish darveshlarga qayerdan paydo bo'ladi?" degan savolga quyidagicha javob berganlar: "Ko'zi ochiqlik va anglab olish farosat nuri orqali bo'lib, Haq suhonahu buni darveshlarga ato qiladi" [3:139]. "Maqomot"da Bahouddin Naqqshband hayotidan keltirilgan naqlarda u kishining botin ilmidan xabardorliklari ma'lum bo'ladi. Naql qilinishicha, kunlarning birida Bahouddin ko'ngillarida ustozlari Sayyid Amir Kulolga mayl paydo bo'lganini sezadilar. Botinlardagi bu hissiyotni farosat ila anglab, ustozlarini xizmatlariga boradilar. Darhaqiqat, Amir Kulol xumdonga olov qo'yish uchun o'tin terishlari kerak bo'lgan. Bahouddin vaqtida ustozlarini xizmatlariga borganlar va buning shukronasini qilganlar.

Xoja Muhammad Porso o'zining "Tahqiqot" asarida tasavvufning kategoriyalari xususida to'xtalib, farosat haqida ham yozgan. Muhammad Porso farosatni ziyraklik, sezgirlik, "topqirlik" mazmunida ishlatadi. Xoja Muhammad Porso asaridagi farosat tushunchasining tahlili ko'rsatidiki, farosat deganda u quyidagi ikki ma'noni anglagan: 1) biror narsaning tashqi ko'rinishi, shakli, zohiri va belgilariga qarab, ichkarisi, ichki xususiyati, mohiyatini bilish, zohirga qarab botinni bilish; 2) g'aybiy ishlarni tafarrus, ya'ni fahm, idrok, ichki sezgi va topqirlik bilan kashf etish haqidagi qarashlarini bayon qiladi.

Xoja Muhammad Porsoning fikriga ko'ra, "farosat bu-qalb ko'zi, qalb nazari, qalb nigohi bo'lib, uch turlidir: Birinchisi:

“farosati bahriya”, uni ajratuvchi yoki aqliy farosat, deb uqtiradi. Chunki, inson farosati bilan oq va qorani, yaxshi va yomonni ajratib oladi. O‘zini qanday tutishni, xatti harakatlarini tartibga soladi. Ikkinchisi: “farosati istedloliy” bu inson fikrini hodisalarning sabablari va umumiy qonuniyatlari asosida dalilovchi farosat. Uchinchisi: “farosati qalbiy”, qalbiy farosat, bu qalb nazari bilan ko‘rish, tanish, bilishdir.

Muhammad Porso “Faslul-xitob” asarida shunday yozadi: “Farosat ilmi shuki o‘tganlar shamollaridan bir shamol va karam jazabalaridan bir jazaba, yo‘l yuruvchiga qabul yuzasidan yetadi. G‘aflat pardasi haqiqat ko‘zi bilan o‘rtadan ko‘tariladi. Uning diydasi Ahadiyat nuri bilan surmalanadi. Bunday ilm g‘oyat izzatli bo‘lib, ulug‘ligidan faqat “xitob” (“qat’iy qaror”) yo‘li bilan hosil qilinadi va harflaru kalimalar kiyimiga sig‘maydi. Kim Allohni tanisa tili aylanmay qoladi. Orif o‘z ma‘lumotlari mohiyatidan ibora topa olmay qoladi. Kim buni zavqini topmas ekan, bilmaydi” [6:238]. Xoja Muhammad Porsoning ma‘naviy merosida “Farosat” axloqiy barkamollikning eng yuqori darajasi sifatida talqin qilinadi. Albatta, so‘fiyona kamolot anglash, bilish, irfon tarzida ichki intuitiv bilish o‘ziga xos ramz, ishorat, holatlar bilan ifodalanadi. Solikning haqiqatdan g‘aflatda qolmasligi uning farosatiga bog‘liq bo‘ladi. Biroq uning ma‘naviy-axloqiy mohiyati inson borlig‘ining tub negizlarini ko‘rsatib beruvchi omil bo‘la oladi. Inson bilimli, aqlli, hamma narsani tushinadigan sifatlarga ega bo‘lishi mumkin, lekin farosati bo‘lmasa hammasi bekor.

Farosat ilmdan yuqori turadigan ne‘matdir. Hamma ham ilmdan nasiba olishi mumkin ammo, farosat Allohdan bandalarga beriladigan lutfdir. YA‘qubi Charxiy “Risolai unsiya” asarida Bahouddin Naqshband ilmni ikki xil qalb ilmi va til ilmiga tavsiflaganini yozgan [13:13]. Qalb ilmi botin ilmi bo‘lib, farosat uning bir ko‘rinishidir. YA‘qubi Charxiyning “Risola dar manoqib va aqoid” asarida podshohlarning davlatni boshqarishiga oid o‘nta shartni yozganligini faylasuf olim Zoirov Erkin aniqlagan. Manbaning tarjimasida yozilishicha: “O‘ninchi shart farosatdirki, uning podshoh va hukmdorlarga bo‘lishi vojibdir. Bo‘layotgan har bir hodisaning hadiga, voqealarning ma‘nolariga nazar qilsin, har bir hukmning fahm va aqliga hozir qilib, basirat orqali haqiqatni ajrata olsin. Lozim narsalarga, kerakli hatlarga va sabablarga boqsin. Mohiyatni tushunsin. Xufiya ishlarning sirlarini farosat nuri bilan anglasin. Bu ma‘noda har kimning gap-so‘zlariga ishonmasin, chunki hodisalar benihoyadir” [14:233]. Asarda YA‘qubi Charxiyni farosat ilmini ikkiga shar‘iy va hukmiyga bo‘lganligi yozilgan. Shar‘iy farosat nafsni yoqimsiz xulqlardan tozalash, qalbni esa yaramas sifatlardan poklashdir. Bunday kishida yaqin nuri paydo bo‘lishi, uning basirat ko‘zidan jaholat va g‘aflat pardalari ko‘tarilishi, har bir narsaning zamiriga

Alloh nuri orqali qarashi imkoniyati paydo bo'ladi. Bu oliy darajaga yetgan kishi nokas va nojins insonlardan yuksakda turadi. Hukmiy farosat odamlar bo'lgan muloqotda uning kimligini ko'zi bilan mushohada qilishdir. Chunki insonning har bir a'zosi uning botin holatidan ma'lumot beradi.

Farosat ilmi haqida M. Bekmurodovning o'quv qo'llanmalari nashrdan chiqdi. Unda M. Bekmuradov Farosat ilmiga quyidagicha ta'rifni berganlar: "Farosat ilmi insonning tashqi ko'rinishga qarab uning ichki dunyosida yuz berayotgan jaryonlar qanday fikr- qarashlarga egaligi, nimani va qanday narsalarni o'ylayotganini anglashga qaratilgan, bir so'z bilan aytganda, odamni zohiriga qarab botinini o'rganuvchi yuz berayotgan jarayonlar qanday o'zgarishlarshga olib kelishini asosli bashorat qiladigan fandır" [4:12,13]. Bekmuradov M. Fikricha, farosat ilmi o'z rivojida sotsiologiya, psixologiya, falsafa, pedagogika, xiromantiya, frenologiya, semiotika, iqlim, rang, tovush, hid bilan bog'liq hodisalarni maxsus o'rganuvchi fanlarga tayanadi. Asarda farosat ilmi shaxsning ma'naviy, ijtimoiy-intellektual taraqqiy etganlik darajasi, insonning o'zidagi hayotiy ehtiyojlarini qondirish ko'lamini aniq belgilay olish mezonini va nihoyat hayotda yashash va faoliyat yuritish sifatining eng muxim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lishi va bu ilmning markazida anglash yotishi haqidagi g'oyalari juda ham to'g'ridir.

Farosat ilmi madrasa ta'limining integrativ funksiyasini bajargan, ya'ni, o'rganilayotgan turli yo'nalishdagi darslar mazmunini uyg'unlashtiruvchi fan sifatida alohida o'rin tutgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Balx, Qo'qon, Hirot va Bag'dod oliy madrasalarida Farosat ilmi talabalarga to'rt yil mobaynida o'tilib, ikki vazifa ijrosi, ya'ni ilmiy hamda hayotiy masalalar bo'yicha nostandart holatlarga eng maqbul yechimlar topa olish va o'tilgan fanlarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlovchi imtihon tarzida, ya'ni yakuniy davlat va jamiyat sinovi shaklida tashkil etilgan. Farosat ilmi fanidan muvaffaqiyatli o'ta olmagan bitiruvchi o'z hisobidan yana bir yil madrasada qolib alohida dastur asosida tahsil olishga majbur bo'lgan. Mabodo talaba ikkinchi marotaba ham Farosat ilmidan yetarli darajada salohiyat namoyon eta olmasa, unga qayta imtihon topshirish huquqi berilmagan va umumiy ma'rifati nisbatan sust deb hisoblangan chekka qishloq maschidiga sufi lavozimiga tayinlanib jo'natilgan. Sufi lavozimida faoliyat yuritgan shaxsga esa masjid imomi lavozimiga kutarilish huquqi berilmagan. Shu tariqa Farosati sust xodimning yuqoriroq lavozimga ko'tarilib, jamiyatga keltirishi mumkin bo'lgan zararining oldi olinishi uchun ma'naviy huquqiy asos yaratilgan [4:8,9].

Farosat uch turga bo'linadi: iymoniy farosat, kasbiy farosat, xilqiy farosat. Iymoniy farosat faqat mo'min bandalarda bo'ladi. Mo'minlarning ichidan ham Allohning nuriga musharraf

bo'lganlargina sazovordirlar. Imon qancha kuchli bo'lsa, farosat ham shu darajada o'tkir bo'ladi. Qalb - mo'minning ko'zgidir. Zero, Giyloniy o'z asarlarida Payg'ambarimiz alayhissalomning "Mo'minning farosatidan qo'rqing, chunki u Allohning nazari bilan boqadi" [7:31] degan hadisni misol keltirganlar. Bu holatda qalb o'zida hamma narsaning to'liq va haqiqiy aksini ko'rsatadigan ko'zguga aylanadi. Ular Allohning nuri ila haq va botilni, halol va haromni, toat bilan ma'siyatni farqlaydilar. Alloh man etgan chegaralarni aslo buzmaydilar. Payg'ambarlar, avliyolar va solih bandalar iymoniy farosat sohibidirlar. Odamlar Alloh nuri bilan qaraydigan mo'minlarga ozor berishdan saqlanmoqlari kerak.

Kasbiy farosat "Muktasab", ya'ni kasb qilib erishiladigan farosat nafaqat mo'minlar balki, boshqalarda ham bo'ladi. U imonni taqozo etmaydi. Ko'p o'qib-o'rganish, mashq qilish va riyozat bilan yuzaga chiqadi. Buni ko'proq kashfiyotchilar, daholar, mashhur siyosatdonlar hayotini va ular amalga oshirgan ishlarda kuzatsa bo'ladi.

Xilqiy farosat inson miyasi katta yoki kichik bo'lishi, burmalarining qay darajada ko'p bo'lishi uning aqlli va salohiyatli ekanligini ko'p jihatdan belgilab beradi. Inson miyasining og'irligi taxminan 1400 gramm va undagi neyron hujayralar 16 milliardga yaqindir. Odam zoti boshqa jonzotlardan miyasining hajmi va og'irligi borasidan farq qiladi, ajralib turadi. Demak, inson farosatli yoki farosatsiz bo'lishi mumkin ekan. Shuning uchun tariqatlar, tasavvuf allomalari farosatning inson ma'naviy olamining asosi sifatida ko'ra olganlar. Uning mavjudligi insonda zehn o'tkirligi, sezgirlik, ziyraklikni oshirar ekan. Farosat axloqiy komillik, ma'nvaiy yetuklik asosi sifatida talqin etiladi.

Farosat fitriy, ya'ni tug'ma bo'ladi. Shuningdek ota-ona, ustoz tarbiyasi bilan kasbiy farosat hosil bo'ladi.

Manbalarda farosatni ziyoda qiladigan quyidagi amallar ko'rsatilgan: 1.Zohirni sunnatga ergashishi;2.Botinni Allohni muroqabasi, ya'ni Allohni nazoratini yodda tutishni davomiy etishi; 3.Ko'zni haromdan to'sish; 4.Nafsni ortiqcha istaklardan tiyish; 5.O'zini halol yeyishga odadlantirish.

Naqshbandiya ta'limotida "Dil ba Yoru, dast ba kor" – "Qalb Olloh bilan, qo'l ishda" shiori asosida amal qilinishi insonni imonli va halol mehnatga o'rgatadi. Farosat haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, insonni imoni qancha mustahkam bo'lsa, fahmu farosati ham shuncha kuchli bo'ladi. Halol mehnat jarayonida kasbiy farosat yuksaladi. Naqshbandiya ta'limotidagi 11 rashhaga amal qilish natijasida inson hushyor, ogoh, ziyrak bo'lib, botiniy quvvatlarni idora qila oladi. Ular ham insonni fahmu farosatli bo'lishiga yordam beradi.

Farosat ilmi insonga haqiqatni anglash uchun zarurdir. Bu ilm insonni haqiqatni anglashiga to'sqinlik qiluvchi hijoblar, pardalarni ko'tarilishiga yordam beradi [9:122,127]. Hijoblar ko'tarilishi natijasida inson g'aflatdan chiqib, mushohada maydoniga kiradi, hushyor bo'ladi. Hijoblar haqida Hujviriy "Kashf-ul-mahjub" asarida batafsil yozgan. Bahouddin Naqshband ham hijoblarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Farosat ilmi hol ilmining yuksak ko'rinishi bo'lgan laduniy, ya'ni ilohiy ilmning vahiy va ilhomdan keyingi bosqichidir. Inson holati poklanib, ilohiylik sifatlarini egallaganda farosat ilmi namoyon bo'ladi.
2. Farosat ilmi botin ilmi bo'lishi bilan birga zohir ilmiga juda bog'langan. Bu ilm zohirni ko'rib, anglash, fahmlash va xulosalash ilimidir.
3. Farosat ilmi intuitiv bilish jarayonining maxsuli bo'lib, hissiy va aqliy bilish bosqichlarining mahsuli va ular bilan mustahkam o'zaro aloqadorlikdadir.
4. Farosat ilmi zohirni ko'rib botinni anglash, shaklga qarab, mazmunni bilish hodisani kuzatib mohiyatni fahmlash bilan birga inson botinidagi his tuyg'ularning anglashga aytiladi.
5. Tasavvuf ta'limotlari xususan Naqshbandiya kamolot yo'li nazarya va amaliyoti insonni farosat ilmidan bahramand qilish nazarya amaliyotini yaratgan va u hozirgi kungacha zaruriydir.
6. Farosat ilmi haqidagi mutafakkirlar va tasavvuf ahli ilm va amalini mukammal o'rganib, ta'lim tarbiya tizimiga joriy etish yaxshi natija beradi.

Takliflar

1. Yosh avlodni ma'naviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash uchun ta'lim sifatini yuksak darajaga ko'tarish kerak. Buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridan oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda Farosat ilmini o'qitishni fan sifatida kiritish lozim.
2. Farosat ilmiga oid madrasalarda bo'lgan fan dasturlarini olib ular asosida har bir ta'lim bosqichiga mos dasturlar tayyorlash kerak.
3. Farosat ilmini egallay olmagan kishilarga shu sohada ishlash huquqi berilmasligini joriy etish lozim.

Umumiy xulosa qilib aytganimizda, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Rennessans poydevorini qurish uchun fahmu farosatli ilmu ma'rifatli yosh avlodni tarbiyalash zarur. Bu vazifani amalga



oshirishda Bahouddin Naqshbandning ilm haqidagi g‘oyalarining ahamiyati kattadir.

REFERENCES

1. Abdulqodir Giloniy. Futuh al-g‘ayb. Arab tilidan ingliz tiliga Oftob -ad-din Ahmad tarjiması. Muharrir prof S. M.Sayyid. Hindiston. Bxavan nashriyoti. 2002. 275 b.
2. Abu Ali ibn Sino. Men anglagan dunyo. T.: “Sharq” nashriyoti, 2012 yil. 219 b.
3. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband / Forsiydan tarjimon, so‘z boshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 335 b.
4. Bekmurodov M. Farosat ilmi. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2022. 192 b.
5. Ma’naviy tarbiya: XrestomatiY. T.: Turon zamin ziyo. 2014. 402-bet.
6. Muhammad Porso. Faslu-l-xitob. Qo‘lyozma. Tarjimon Namozov Bobir. – Buxoro: Kogon, Naqshbandiya tariqati muzeyi fondi. Inv. 42. 268- b.
7. Muhyiddin Abu Muhammad Abdulqodir Giloniy. Rabboniylikni anglash. Tarjimon: To‘lqin Iyso o‘g‘li T.: “Sharq” nashriyot – matbaa -aksiyadorlik kompaniyasi, 2015.368 b.
8. Namozov B. Abu Bakr Kalobodiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslari. T.: “Fan”, 2009. 78- b.
9. Navro‘zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma’naviy merosi. – T.: Fan, 2021. – 244 b.
10. Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. Москва: Нашриёти “Советская Энциклопедия”, 1969. 949 с .
11. Фарҳанги тафсири забони тожики. Душанбе: Дониш, 2008. 247 с.
12. Faxruddin Ali Safiy. “Rashahot”. (Obi hayot tomchilari). Tabdil va so‘ng so‘z muallifi: Mahmud Hasaniy. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2003. 536 b.
13. Яъқуб Чархий. Рисолаи унция (Дўстона суҳбат). Таржимон ва шарҳлар муаллифи С. Раҳмонов. – Самарқанд: “Самарқанд давлат чет тиллар университети” нашриёти, 2022. 78 б.
14. Яъқуби Чархий. Рисола дар манокіб ва ақоид. Ўз.Р. ФА. Шарқшунослик институти қўлёмалар фонди. № 54-78 / ВИИ-45 в.

DEVELOPMENT OF METAL – ORGANIC FRAMEWORKS, SURFACE ABSORBENT OF BIOLOGICAL POLLUTANTS, INCLUDING HEAVY METALS

Mohammad Javid Stanikzai

Chemistry Department, Education Faculty, Logar Institute of Higher Education,
Logar, Afghanistan

m.javidstanikzai@yahoo.com

ABSTRACT

The global level of environmental pollution with metals has increased greatly in the last two centuries. The presence of some heavy metals in aquatic ecosystems is a constant threat to the health of human societies. Many of these metals, such as chromium (Cr), copper (Cu), iron (Fe) and cobalt (Co) are essential for plants, living organisms and the human body. While large amounts of these metals are toxic and dangerous for living cells. Porous coordination polymers or metal-organic frameworks (MOFs) are a new class of crystalline and microporous materials that include inorganic secondary structural units connected by organic parts in the form of three-dimensional arrays through coordination bonds. Evaluation of the relationship between the structure and performance of metal-organic frameworks is an interesting topic discussed in this work. The metal-organic framework, $\{[\text{Zn}_2(\text{OH})(\text{AZPY})(\text{BDC})_{1.5}]\cdot\text{H}_2\text{O}\}_n$ was successfully chemically saturated. The surface adsorption efficiency of the considered framework for some heavy metal ions was investigated in order to investigate the effect of the type of functional groups in different pillars in the adsorption process. The results showed that the framework with the Omid factor group showed a better result.

Keywords: Environmental pollution of aquatic ecosystem, Porous coordination polymer of metal-organic frameworks, Surface adsorption of heavy metals removal

INTRODUCTION

The global level of environmental pollution with metals has increased greatly in the last two centuries. The presence of some heavy metals in aquatic ecosystems is a constant threat to the health of human societies. Many of these metals such as chromium (Cr), copper (Cu), iron (Fe) and cobalt (Co) are essential for plants, living organisms and the human body [1]. While large amounts of these metals are toxic and dangerous for

living cells. Minor amounts of heavy metals such as cadmium, lead, copper and chromium, which are usually present in contaminated soils, can be harmful to microbes and plants as well [2]. in such a way that they can aggravate the symptoms of iron deficiency and as a result cause their growth to slow down. In addition, heavy metals can combine with sulfhydryl groups of proteins and cause a decrease in enzyme activity. Cadmium and lead show severe toxicity even in low concentration [3]. While determining the exact amount of heavy metal ions in environmental samples is highly desirable, it faces two main problems: 1- the effects of interaction with the background 2- the usual low concentrations of heavy metal ions that may be lower than the limit to recognize many analytical techniques [4].

Porous coordination polymers or metal-metal frameworks (MOF) are a new class of crystalline and microporous materials that include inorganic secondary structural units that are connected by organic parts in the form of three-dimensional arrays through coordination bonds [5].]. This field of research has attracted the attention of many researchers in the last two decades. Metal-organic frameworks have many structural variations and have high pore volumes. So far, many metal-organic frameworks with a surface area greater than 1000 m²/g have been reported [6]. These compounds, having properties such as versatility and inherent flexibility, the possibility of placing chiral centers in organic parts and placing various functional groups in the frameworks, have a superior position compared to other crystalline solids. These frameworks are used in many fields, including gas storage, catalysts, sensors, electrical conductivity, luminescence, and drug release due to their diverse and interesting structures and favorable physical and chemical properties. [7,8] One of the most attractive applications of these frameworks is in the field of trapping heavy metal ions, during this process, heavy metal ions are chelated between the metal ion and the functional group in the ligand in the metal-organic framework. The shape and size of the pores lead to high selectivity, which ultimately causes surface adsorption of the guest. In this article, two topics are discussed. 1: Synthesis of metal-organic frameworks with different functional groups 2: Investigating the effects of different functional groups on the performance and efficiency of surface adsorption [9].

EXPERIMENTAL PART

All materials used, zinc (II) nitrate 6A, 1,4-benzenedicarboxylic acid and AZPY were obtained from Sigma Aldridge. First, we prepare a mixture of 0.045 grams of benzene dicarboxylic acid along with 0.081 grams of salt on nitrate and 0.05 grams of AZPY in 100 ml



of a mixture of water and ethanol solvents in a ratio of 1:1. After mixing in a stirrer for 15 minutes, transfer the resulting mixture to a suitable volumetric flask and put it in the reflux system for 48 hours at a temperature of 80 degrees Celsius.




Figure 1 Chemical structure of APY and 1,4-BDC

Then remove the resulting sediment from the reflux system and after washing with solvent put it at 120 degrees Celsius for 2 hours to dry.

After that standard solution (1000mg/L) of ions, Fe(II) Cu(II), Cd(II), Co(II), Pb(II) Cr(III), by dissolving a specific amount of nitrate salts The solid phase extraction of heavy metal ions was carried out with the following steps: First, 100 ml of metal ions solution was added to a 200 ml beaker containing 10 mg of MOF as an adsorbent. The pH value of the solution was adjusted to 8. After stirring the solution for 10 minutes to accelerate the adsorption of analytes on the MOF, the solution was centrifuged at 6000 rpm for 2 minutes. Then the adsorbent was separated from the solution. The analytes adsorbed by the adsorbent were mixed with 200 μ L of The detergent containing 0.4 methyl ethylene diamine tetraacetic acid (EDTA) was separated. To check the adsorption capacity of MOF, 3 mg of the desired framework was added to 15 ml of metal ion solutions at different concentrations in the range of 200-200 ml. added grams per liter and then the pH was adjusted to about 6. The solution was stirred for 15 minutes at room temperature, when the equilibrium point was reached, the adsorbent was separated by a centrifuge and the concentration of the remaining ions in the solution was determined by ICP-OES.

RESULTS AND DISCUSSION

Thermal analysis (TGA) of the synthesized framework can be seen in Figure 2x. In the range of 150-300, no significant weight loss was seen, which indicates that their pores were free of any guest molecules. Above this temperature, the desired framework begins to decompose. The prepared framework is immersed in water and some organic solvents such as ethanol, acetonitrile and dichloromethane for at least 24 hours at room temperature to determine if they are stable in these solvents.




Figure 2. Thermal analysis (TGA)

In infrared spectroscopy (FT-IR) analysis, the bond (C-H) related to AZPY appeared in the region of CM-11504. Among the carboxyl-COO-related ship bonds appeared in the CM-1 region of 1586. In the region CM-1 186 onwards, the presence of zinc element is visible.




Figure 3. Spectrum analysis (FT-IR)

Wide-angle X-ray scattering (WAXS) experiments showed that the framework structure of the compound was preserved by removing the water molecule upon reheating WAXS. on a sample shows a pattern (Figure 4, curve b), which, despite the line broadening, shows that the structure of the sample closely matches that calculated from the single crystal fraction data (Figure 5, curve a) after heating Up to 250 °C, the WAXS pattern of the material showed that it was still crystalline (Figure 4, curve c) and retained the same diffraction lines as the sample. Before heating (Figure 4, curve b), although the peaks shifted to a lower degree of observation The shift of the diffraction lines showed an increase in the unit cell parameter upon heating. At 250 °C this may be caused by small structural changes, for example, the rotation of the phenyl rings of the 1,4-BDC ligand, which during Removal of water without loss of crystalline state are located in the channel.




Figure 4. X-ray analysis

To obtain the highest sensitivity and precision, the equilibrium time of the adsorption process must be determined. For this purpose, subsequent experiments were performed to change the extraction time by changing the time in the range of 2-20 minutes. It was observed that there is an increase in the extraction efficiency with an increase in the extraction time from 2-10 minutes, while no improvement in the efficiency was observed with a further increase in the time. Therefore, the time of 10 minutes was used for further experiments. This fast absorption process can be attributed to the short diffusion path of metal ions and the high porosity and surface area of the Fler-Al framework, which cause the equilibrium to be reached in a shorter contact time. The effect of adsorption time was also investigated and it was found that after 2 minutes, no significant change in efficiency and adsorption occurs. (Figure 5)




Figure 5. Effect of time on extraction efficiency

CONCLUSION

Here, we investigated the adsorption behavior of metal-organic frameworks that have different functional groups in their pillar structure for the adsorption of some heavy metal ions. For this purpose, the centered framework was synthesized using a chemical method so that their differences are in the type of functional group (imine or amide) and quynyl or

naphthalene group in their pillar structure. The results showed that the presence of amide and quinyl groups in the pillar makes it more inclined to absorb metal ions compared to the framework with imine and naphthalene groups. This can be attributed to the basicity of the Omid group compared to the imine group, which leads to the interaction of metal cations with the coordination sites in the framework. On the other hand, the increase of electron resonance in the functional groups by the naphthalene group compared to quinyl decreases the absorption ability of the considered framework.

REFERENCES

- 1- Soylak, M.; Ercan, O. Selective separation and preconcentration of copper (II) in environmental samples by the solid phase extraction on multi-walled carbon nanotubes. *Journal of hazardous materials* 2009, 168, 1527-1431.
- 2- Rao, Z; Feng, K; Tang, B.; Wu, P. Surface decoration of amino-functionalized metal-organic framework/graphene oxide composite onto polydopamine coated membrane substrate for highly efficient heavy metal removal. *ACS Applied Materials & Interfaces* 2016.
- 3- Cai, X.; Li, J.; Zhang, Z.; Yang, F.; Dong, R., Chen, L Novel Pb ion imprinted polymers based on ionic interaction via synergy of dual functional monomers for selective solid-phase extraction of Pb in water samples. *ACS applied materials & interfaces* 2013, 6, 305-313.
- 4- Duran, C.: Gundogdu, A.; Bulut, V. N.; Soylak, M.; Elei, L. Sentürk, H. B.; Tufekci, M. Solidphase extraction of Mn (II), Co (II), Ni (II), Cu (II), Cd (II) and Pb (II) ions from environmental samples by flame atomic absorption spectrometry (FAAS). *Journal of Hazardous Materials* 2007 146,347-355
- 5- Huang, K.; Li, B.; Zhou, F., Mei, S.; Zhou, Y., Jing, T. Selective solid-phase extraction of lead ions in water samples using three-dimensional ion- imprinted polymers. *Analytical chemistry* 2016.
- 6- Wang, P.; Du, M.; Zhu, H.; Bao, S.; Yang, T.; Zou, M. Structure regulation of silica nanotubes and their adsorption behaviors for heavy metal ions: pH effect, kinetics, isotherms and mechanism. *Journal of hazardous materials* 2015, 286, 533-544.
- 7- Mo. Q: Wei, J.; Jiang, K.; Zhuang, Z.; Yu, Y. Hollow α -Fe₂O₃ Nanoboxes Nanoboxes Derived from Metal- Organic Framework and Its Superior Ability to Fast Extraction and Magnetic Separation of Trace Pb ACS Sustainable Chemistry & Engineering 2016.
- 8- Thurman, E. M. Solid-phase extraction: principles and practice. *Chemical analysis*; 147 1998.
- 9- Zhang, H.; McDowell, R. G.; Martin, L. R.; Qiang, Y. Selective Extraction of Heavy and Light Lanthanides from Aqueous Solution by Advanced Magnetic Nanosorbents. *ACS applied materials & interfaces* 2016, 8, 9523-9531.



FINGERPRINT AUTHENTICATION ALGORITHM AND METHODS OF ITS IMPROVEMENT

Javlonbek Bahodir ugli Uralov

Graduate student of TATU Urganch Branch named after Muhammad al-Khorazmi

uralovjavlonbek0001@gmail.com

Kamola Erkinovna Saurova

Graduate student of TATU Urganch Branch named after Muhammad al-Khorazmi

kamolaerkinovna@gmail.com

ABSTRACT

The main goal of this article is to study the algorithm of the fingerprint authentication method, which is one of the widely used biometric authentication methods today, and to determine ways to improve it.

Keywords: biometric, authentication, identification, deep learning, verification.

АННОТАЦИЯ

Основной целью данной статьи является изучение алгоритма метода аутентификации по отпечатку пальца, который на сегодняшний день является одним из широко используемых методов биометрической аутентификации, и определение путей его усовершенствования.

Ключевые слова: биометрия, аутентификация, идентификация, глубокое обучение, проверка.

INTRODUCTION

Biometric authentication refers to the use of unique biological characteristics, such as fingerprints, facial recognition, iris patterns, or voice recognition, to authenticate or identify individuals. It is a secure method of authentication because biological characteristics are difficult to replicate or forge, and they are unique to each individual. Biometric authentication is widely used today in various applications, including access control, time and attendance tracking, banking and finance, and law enforcement.

The use of fingerprints as a means of identification can be traced back to ancient Babylon, where fingerprints were used on clay tablets for business transactions. However, it wasn't until the

late 19th century that the scientific study of fingerprints, known as dactylography, was developed.

The credit for the modern use of fingerprints as a means of identification goes to Sir Francis Galton, a British scientist who was interested in using fingerprints for forensic purposes. In 1892, he published a book titled "Fingerprints," which presented a comprehensive study of the subject and proposed a classification system that is still used today. Around the same time, another British scientist named Edward Henry developed a fingerprint classification system that was based on Galton's work but was simpler and more practical. This system, known as the Henry Classification System, became widely adopted by police agencies and is still used in some countries today.

The use of fingerprints in criminal investigations became more widespread in the early 20th century, and by the 1920s, most major police agencies had established fingerprint bureaus. Today, fingerprints remain one of the most important means of identifying individuals in law enforcement, and fingerprint technology has advanced significantly, with the development of digital fingerprint scanners and sophisticated computer algorithms for matching fingerprints. [3]

FINGERPRINT ALGORITHM

The process of matching fingerprints is typically done through an algorithm that analyzes various features of the fingerprint and compares them to a database of known fingerprints. Here is a simplified overview of the algorithm used for fingerprint recognition: [1]

Image acquisition: A digital image of the fingerprint is captured using a scanner or other imaging device.

Pre-processing: The image is cleaned and enhanced to improve the contrast and clarity of the fingerprint ridges and valleys.

Feature extraction: The algorithm identifies specific features of the fingerprint, such as ridge endings, bifurcations, and ridge direction, and generates a set of numerical values that represent these features.

Template creation: The set of numerical values is used to create a unique digital template that represents the fingerprint.

Matching: The template is compared to a database of known fingerprints to find a match. The database may contain hundreds of thousands or even millions of fingerprints.

Verification: If a match is found, the algorithm performs a verification process to confirm that the fingerprint belongs to the

individual in question. This may involve comparing the fingerprint to additional images or using other biometric data, such as facial recognition, to confirm the individual's identity.

Decision: Based on the results of the verification process, the algorithm produces a decision, indicating whether the fingerprint matches a known record and whether the individual's identity has been confirmed.

Fingerprint recognition algorithms are constantly evolving, with researchers working to improve accuracy, speed, and reliability. Some newer algorithms incorporate machine learning techniques to improve performance and adapt to new types of fingerprints and imaging devices.[5]

FINGERPRINT AUTHENTICATION ALGORITHM PROBLEMS

While fingerprint recognition technology is generally considered reliable, there are several problems associated with relying solely on fingerprints for identification. Here are some of the main problems of fingerprint recognition:

False positives: In some cases, the algorithm may match a fingerprint to the wrong individual, resulting in a false positive identification.

False negatives: In other cases, the algorithm may fail to match a fingerprint to the correct individual, resulting in a false negative identification.

Fingerprint alterations: Fingerprint recognition can be affected by changes to the fingerprint due to injury, age, or other factors, which can make it more difficult to accurately identify an individual.

Security vulnerabilities: Fingerprint recognition systems can be vulnerable to hacking or other forms of tampering, which can compromise the security of the system and result in false identifications.

Privacy concerns: The use of fingerprints for identification raises concerns about privacy, as individuals may be reluctant to have their fingerprints collected and stored in a database.[4]

To address these problems, many fingerprint recognition systems now incorporate additional biometric data, such as facial recognition or iris scanning, to reduce the likelihood of false identifications. Additionally, strict security protocols and regular maintenance of fingerprint recognition systems can help ensure accuracy and prevent fraud or hacking attempts. Finally, it is important to carefully consider the privacy implications of using fingerprints for identification and to ensure that appropriate safeguards are in place to protect individuals' privacy.

METHODS OF IMPROVING THE FINGERPRINT AUTHENTICATION ALGORITHM

Improving the algorithm of fingerprint recognition is an ongoing area of research, and there are several approaches that have been proposed to improve accuracy and performance. Here are some ways that the algorithm of fingerprint recognition can be improved:

Using deep learning: Deep learning algorithms have shown promise in improving the accuracy of fingerprint recognition. By training a neural network on a large dataset of fingerprints, the algorithm can learn to identify patterns and features that may be difficult for traditional algorithms to detect.

Incorporating additional biometric data: Combining fingerprint recognition with other biometric data, such as facial recognition or iris scanning, can improve accuracy and reduce the likelihood of false positives or false negatives.

Enhancing image quality: Improving the quality of the fingerprint image can improve the accuracy of the algorithm. This can be done through image enhancement techniques, such as noise reduction or contrast enhancement, or by using high-quality imaging devices.

Dealing with damaged or partial fingerprints: Some individuals may have damaged or partial fingerprints, which can be difficult for the algorithm to match. Newer algorithms are being developed that can handle these types of fingerprints more accurately.

Optimizing parameters: Fine-tuning the parameters of the algorithm, such as the threshold for matching, can improve the accuracy of the algorithm. This can be done through extensive testing and optimization on large datasets of fingerprints.

Overall, improving the algorithm of fingerprint recognition requires a combination of advanced technology, careful analysis, and testing. With ongoing research and development, the accuracy and performance of fingerprint recognition algorithms will continue to improve, making this technology even more reliable and useful in a variety of applications.

CONCLUSION

In conclusion, fingerprint recognition is a powerful biometric technology that is widely used today in various applications, including law enforcement, access control, time and attendance tracking, border control, and banking and finance. Fingerprint recognition

algorithms have evolved significantly in recent years, incorporating machine learning and other advanced techniques to improve accuracy and performance. However, there are still challenges associated with relying solely on fingerprints for identification, such as false positives, false negatives, and privacy concerns. As a result, many systems now use a combination of biometric data to reduce the likelihood of errors and enhance security. With ongoing research and development, fingerprint recognition technology will continue to improve and be an essential tool for many industries in the years to come.

REFERENCES

1. Biometrics Institute: <https://www.biometricsinstitute.org/>
2. National Institute of Standards and Technology (NIST): <https://www.nist.gov/topics/biometrics>
3. International Biometrics+Identity Association (IBIA): <https://www.ibia.org/>
4. IEEE Biometrics Council: <https://ieee-biometrics.org/>
5. Fingerprint Recognition -An Overview:
<https://www.sciencedirect.com/topics/computer-science/fingerprint-recognition>
6. Nitin Kaushal, Purnima Parashar Kaushal - Human Identification and Fingerprints: A Review, January 2011, Journal of Biometrics & Biostatistics 2(4)



DUNYONING BARQAROR RIVOJLANISHIGA GENDER ASSIMETRIYASINING SALBIY TA'SIRI

Nilufar Maxsudovna Koshanova

dotsent v.b, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

koshanovanilufar512@gmail.com

Nazokat Shuhratjon qizi Ismoilova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

10. Тимохин Ю.В., Адам О.В., Антонов Э.И., Кошкальда Л.И., Паламарчук Н.В. Надежность высокооборотных насосов. Сборник научных трудов. Горная механика. Выпуск 1, часть 2., Донецк, 1991. - С. 81-87.

AYOLLAR O‘RTASIDA O‘ZBEKISTON CHEMPIONATI 2022-YILGI MAVSUM BIRINCHI DAVRA BAHSLARIDA “SEVINCH”, “SO‘G‘DIYONA” VA “BUNYODKOR” JAMOALARINING TEXNIK USULLARI ANIQLIGI TAHLILI

Nafosatxon Xayrullo qizi Xabibullayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Xotin-qizlar sporti” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Javlonbek Abdukaxor o‘g‘li Zulxaydarov

Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarini tadbiiq etish markazi tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati 2022-yilgi mavsum 1-davrasida darvoza tomon berilgan zarbalarining aniqlilik samaradorligi taxlil qilingan. Bu orqali soha mutaxassislari uchun o‘yin jarayonida darvozaga tomon zarba berish ko‘rsatkichlari va ahamiyati, bu jabhada kuzatiladigan muammolar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: aniq zarbalar, ayollar futboli, zarbalar taxlili, ayollar futboli muammolari, zarba aniqligi indikatorlari.

ABSTRACT

In this article, the effectiveness of the accuracy of shots to the goal in the 1st round of the 2022 season of the Uzbekistan Women's Championship is analyzed. In this way, the indicators and importance of hitting the goal during the game, as well as the problems observed in this front, are described for experts in the field.

Keywords: clear shots, women’s football, analysis of shots, problems of women’s football, indicator of clear shots.

KIRISH

Prezidentimizning 2019-yil 4-dekabr sanasidagi “O‘zbekistonda futbolni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5887 sonli farmonida ham mamlakatimizda futbolni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ayollar futbolini rivojlantirish, ayollar futbol jamoalarini infratuzilmalarini takomillashtirish, ayollar o‘rtasida chempionat va birinchi liga musobaqalarida raqobatbardosh jamoalarni

yaratish, yurtimizda yosh qizlar orasida futbolga qiziqishlarini orttirish borasida bir qator vazifalar belgilangan va bu orqali ayollar terma jamoasi uchun nomzodlarni shakllantirish terma jamoa va klublar o'rtasidagi xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritish asosiy maqsad qilib olingan [1]. Ushbu farmon samarasi o'laroq ayol futbolchilarning qo'lga kiritayotgan yutuqlari hajmi tobora ortib bormoqda. Bunda mashg'ulotlar jarayonida ko'proq yosh futbolchi qizlarning jalb qilinishi soxa mutaxassislari uchun katta ma'suliyat yuklaydi. Ayniqsa, yosh qizlarning sportda o'z o'rnini topishida ayol murabbiylarning o'rni juda katta [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har xil yoshdagi xotin-qizlarning futbol bilan shug'ullanishi asosan ikkita maqsadga qaratilgan bo'lib, birinchi navbatda salomatlikni yaxshilash va kelgusi avlodni ham sog'lom qilib tarbiyalash bo'lsa, yana bir tomondan ular ham huddi erkaklar singari futbol orqali yurtimiz sharafini himoya qilish va shon-shuhratini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish hisoblanadi. Bundan tashqari ayollar futbolida ham yaqin yillarga qaraganda moliyaviy tomondan e'tibor ham ancha yaxshilangan va bu orqali xotin-qizlarimiz soxa orqali yaxshigina daromad topish imkoniga ega bo'lmoqda.

Bunday imkoniyatlarga ega bo'lish barobarida xotin-qizlarimizga ham turli jismoniy, ruxiy, texnik va taktik jihatdan bir qator talablari mavjud hisoblanadi. Bu soxada o'z o'rnini egallashi va yillar davomida raqobatbardosh muhitda statusini saqlab qolish uchun ayollarimizdan tinimsiz mehnat va kundalik turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishi talab etiladi [6].

Yuksak sport natijalariga erishish ko'p jihatdan ayol futbolchilarning texnik usullarning hilma-xil vositalarini qanchalik to'liq bilishiga, raqib jamoaning futbolchilariga qarshilik ko'rsatishlariga, o'yin jarayonida charchoq orta borayotgan sharoitda o'yin faoliyatidagi turli vaziyatlarda texnik-taktik harakatlarni mohirlik bilan samarali qo'llay bilishiga hamda o'yin jarayonida standart vaziyatlar, darvoza tomon zarba berishning aniqligi. Futbolda darvoza tomon beriladigan zarbalarning kuchli, aniq va samarali bo'lishi uchun mashg'ulot jarayonida har tomonlama tayyorgarlik ko'rish talab etiladi [4].

Darvoza tomon zarba berish aniqligi samaradorligini yuqori bo'lishi jamoaning hujumdagi taktik harakatlarni samarali yakunlashning asosi hisoblanadi. Shu sababdan darvoza tomon berilayotgan zarbalarning aniqlilik samaradorligi yuqori bo'lishi natija yaxshi bo'lishi uchun dolzarb bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi: Ayollar futboli yetakchi jamoalarining O‘zbekiston chempionati baxslarida darvoza tomon zarbalar aniqligini taxlil qilish.

Tadqiqot ishi yetakchi ayollar futbol jamoalari “Sevinch” “So‘g‘diyona-w” “Bunyodkor-w” ning O‘zbekiston chempionati 2022-yilgi mavsum 1-davra baxslaridagi o‘yinlarda darvoza tomon berilgan zarbalarning aniqligi samaradorligi tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqotdan olingan ma‘lumotlarning o‘rtacha qiymatlari har bir jamoa uchun alohida jadvalda yoritib o‘tildi. 1-jadvalda “Sevinch” PFC jamoasining 1-9 tur doirasida o‘tkazgan o‘yinlarida jamoa a‘zolari tomonidan darvoza tomon berilgan zarbalar soni aniqligi ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra jamoa 1-turda “Neftchi-w” ga qarshi o‘yinda 18 ta zarbadan 10 ta aniq va 6 ta noaniq zarba bergan. Yana 2 ta zarba raqib a‘zolari tomonidan blokga uchrigan. 2-tur “Navbaxor-w” jamoasiga jami 22 ta zarba berilgan, shulardan 14 ta aniq, 6 ta noaniq va 2 ta to‘silgan zarba bo‘lgan. 3-tur “So‘g‘diyona-w” darvozasiga yo‘llangan 14 ta zarbadan 7 tasi aniq darvozaga yetib brogan. 6 zarba noaniq bo‘lsa, 1ta zarba raqib tomonidan to‘siqqa uchrigan. 4-tur “Qizilqum-w”ga qarshi 19 ta zarbani 9 tasi aniq, 5 tadan noaniq va to‘silgan zarbalar berilgan. 5-turdagi raqib “Lokomotiv-w” darvozasiga jami 21 ta zarba (11 ta aniq, 8 ta noaniq va 2 ta blok) berilgan. 6-tur baxslarida sevinchchilar “Paxtakor-w” darvozasiga 24 ta zarba yo‘llashdi (12 ta aniq, 8 ta xato va 4 ta blok). 7-tur “Metallurg-w” jamoasiga qarshi jamoaning zarbalar borasida eng sermaxsul o‘yini bo‘ldi. Shu kuni 31 ta zarbbadan 15 tasi darvoza tomon aniq yetib brogan bo‘lsa, 12 ta zarba tehnik xatoliklarga uchradi va 4 ta zarba metallurgchilarning to‘sig‘iga uchradi. 8-tur “AGMK-W” darvozasiga 20 ta zarba (8/4/3) va 9-tur “Bunyodkor”ga qarshi baxsda 15 ta zarbadan 8 ta aniq va 4 ta noaniq zarba bo‘lsa 3 ta zarba to‘siqqa ega bo‘ldi.

2-jadvalda “So‘g‘diyona-w” jamoasining o‘yinlarda ko‘rsatkichlari ma‘lumotlari berilgan. 1-turda jamoa “AGMK-w” ga qarshi qiyin kechgan baxsda jami 12 ta zarba yo‘llab 6 tasi aniq va 5 ta noaniq va 1 ta blok zarba bo‘ldi. 2-tur “Neftchi-w” bilan baxsda 18 ta zarbadan 13 ta aniq, 3 ta noaniq va 2 ta to‘silgan zarba yo‘llashdi. 3-tur “Sevinch” bilan markaziy baxsda jamoa 11 zarba berdi (5/3/3). 4-tur O‘yinida “Lokomotiv-w” ga 25 ta zarba (15/8/2). 5-turda “Metallurg-w” jamoasi darvozasiga jami yo‘llangan 34 ta zarbaning 19 tasi manzilga aniq yetib borib, 7 ta zarba noaniq yo‘llanib, 8 ta zarba to‘siqqa uchradi. 6-tur “Bunyodkor-w” darvozasi 14 bor o‘qqa tutildi, shundan 7 ta aniq, 5 ta noaniq va 2 ta blok zarba. 7-tur “Navbaxor-w” ga qarshi 17 ta zarbadan 9 ta aniq, 6 ta noaniq va 2 ta noaniq zarba yo‘llandi. 8-tur “Qizilqum-w” jamoasiga qarshi 24 ta zarba berilib, 11 ta aniq, 7 ta noaniq va 6 ta to‘siq zarba bo‘lgan.



9-tur "Paxtakor-w" ga qarshi o'yinda jami 21 ta zarba (12/8/1) berilgan.

3-jadvalda "Bunyodkor-w" jamoasining o'yinlardagi ko'rsatkichlari berilgan. Jamoa 1-turda "Navbaxor-w" ga qarshi baxsda 23 ta zarba (12/7/4), 2-tur "Qizilqum-w" ga qarshi 16 ta zarba (9/5/2), 3-tur "Paxtakor-w" darvozasiga jami 15 ta zarba yo'llandi (10/4/1). 4-tur "AGMK-W" darvozasiga 12 zarba (6/5/1) va 5-tur "Neftchi-w" ga qarshi 14 ta zarba (8/4/2). 6-tur "So'g'diyona-w" bilan baxsda 12 zarbadan 6ta aniq, 3 tadan noaniq va blok zarbalar. 7-tur "Lokomotiv-w" darvozasi 23 bor o'qqa tutilib, mos ravishda 14-7 va 2 ta aniq, noaniq va blok zarbalar berildi. 8-tur "Metallurg-w" bilan baxsda jamoa 20 bor zarba berib, 13 ta aniq va 7 ta noaniq amalga oshirildi. 9-tur "Sevinch-w" bilan baxs 16 ta jami zarba 6 ta aniq 8 ta noaniq va 2 ta blok zarba berilgan.

1-jadval

"Sevinch" PFC ning ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionati 1-davra baxslarida darvoza tomon berilgan zarbalar ko'rsatkichlari taxlili natijalari.

Raqib jamoalar		O'yin natijasi	Zarbalar soni	Aniq zarbalar		Noaniq zarbalar		To'silgan zarbalar	
				soni	%	soni	%	soni	%
1	Neftchi-w	6:0	18	10	55.5	6	33.3	2	11.2
2	Navbaxor-w	9:0	22	14	63.6	6	27.2	2	9.2
3	So'g'diyona-w	1:1	14	7	50	6	42.8	1	7.2
4	Qizilqum-w	5:1	19	9	47.4	5	26.3	5	26.3
5	Lokomotiv-w	5:0	21	11	52.8	8	38	2	9.2
6	Paxtakor-w	5:0	24	12	50	8	33.4	4	16.6
7	Metallurg-w	7:1	31	15	48.3	12	38.7	4	13
8	AGMK-w	6:0	20	14	70	6	30	0	0
9	Bunyodkor-w	1:1	15	8	53.3	4	26.6	3	20.1
Jami		45:4	184	100	54.3	61	33.1	23	12.6

2-jadval

"So'g'diyona-w" jamoasining ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionati 1-davra baxslarida darvoza tomon berilgan zarbalar ko'rsatkichlari taxlili natijalari.

Raqib jamoalar		O'yin natijasi	Zarbalar soni	Aniq zarbalar		Noaniq zarbalar		To'silgan zarbalar	
				soni	%	soni	%	soni	%
1	AGMK-w	1:0	12	6	50	5	41.6	1	8.4
2	Neftchi-w	5:0	18	13	72.2	3	16.6	2	11.2

3	Sevinch	1:1	11	5	45.6	3	27.2	3	27.2
4	Lokomotiv-w	8:0	25	15	60	8	32	2	8
5	Metallurg-w	11:1	34	19	56	7	20.5	8	23.5
6	Bunyodkor-w	2:1	14	7	50	5	35.7	2	14.3
7	Navbaxor-w	3:0	17	9	52.9	6	35.3	2	11.8
8	Qizilqum-w	5:0	24	11	45.8	7	29.2	6	25
9	Paxtakor-w	5:0	21	12	57.1	8	38.1	1	4.8
	Jami	41:3	176	97	55.1	52	29.5	27	15.4

3-jadval


“Bunyodkor-w” jamoasining ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati 1-davra baxslarida darvoza tomon berilgan zarbalar ko‘rsatkichlari taxlili natijalari.

	Raqib jamoalar	O‘yin natijasi	Zarbalar soni	Aniq zarbalar		Noaniq zarbalar		To‘silgan zarbalar	
				soni	%	soni	%	soni	%
1	Navbaxor-w	7:0	23	12	52.2	7	30.5	4	17.3
2	Qizilqum-w	4:3	16	9	56.2	5	31.2	2	12.6
3	Paxtakor-w	3:0	15	10	66.6	4	26.6	1	6.8
4	AGMK-w	3:2	12	6	50	5	41.6	1	8.4
5	Neftchi-w	3:1	14	8	57.1	4	28.5	2	14.3
6	So‘g‘diyona-w	1:2	12	6	50	3	25	3	25
7	Lokomotiv-w	7:0	23	14	60.8	7	30.4	2	8.8
8	Metallurg-w	5:1	20	13	65	7	35	0	0
9	Sevinch	1:1	16	6	37.5	8	50	2	12.5
	jami	33:10	141	84	59.5	50	35.4	17	12.1

NATIJARAR

Birinchi davra davomida 9 ta o‘yinda “Sevinch” PFC jami 184 ta zarbani darvoza tomon yo‘llagan va ulardan 100 tasi manzilga aniq yetib brogan bo‘lsa, jamoa hisobida 1-davra yakunida 45 ta gol mavjud bo‘ldi. Aniq zarbalar ko‘rsatkichi 54.3% ni tashkil etdi. 61 ta zarba noaniq yo‘llanib umumiy zarbaning 33.1% ni tashkil etdi. 23 ta zarba umumiy zarbaning 12.6 foizi raqiblar tomonidan to‘shiga erishildi. “So‘g‘diyona-w” 9 ta baxsda jami 176 marotaba zarba yo‘llagan va 97 tasi manzilga aniq yetib borib, 41 ta zarba golga aylangan. Aniq zarbalarning ulushi 55.1 % ni tashkil etdi. Jamoa tomonidan berilgan 52 ta zarba (29.5 %) noaniq yo‘llangan. 27 ta zarba (15,4 %) esa raqiblar tomonidan to‘shiga erishilgan. “Bunyodkor-w” jamoasida jami 141 ta zarba va ulardan 84 tasi aniq (59,5 %), 33 ta gol kiritildi. 50 ta zarba (umumiy zarbaning

35.4 % i) noaniq yo‘llangan. 17 ta zarba esa raqiblar blokiga uchragan.



1-rasm. Yetakchi ayollar futbol jamoalarining solishtirma ko‘rsatkichlari.

XULOSA

O‘zbekiston chempionatining 3 ta eng kuchli hisoblangan “Sevinch” PFC, “So‘g‘diyona-w” va “Bunyodkor-w” jamoasining o‘yinlarini taxlil qilganda shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, eng yetakchi hisoblangan jamoalarimizda ham darvoza tomon zarba berish aniqligi bo‘yicha muammolar mavjud. Eng yuqori aniqlilik ko‘rsatkichi qayd etilgan “Bunyodkor-w” jamoasida 59,5 % ni tashkil etdi. Qiziqarli jihati shundaki “Bunkodkor-w” bu 3 jamoa ichida eng kam darvoza tomon zarba bergan jamoa hisoblanadi: 141 ta zarba. Solishtirib ko‘radigan bo‘lsak, sevinch va so‘g‘diyona jamoalarida mos ravishda 184 va 176 tadan zarba qayd etilgan.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabr sanasidagi “O‘zbekistonda futbolni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5887 sonli farmoni.
2. Жавлонбек Абдуқохор ўғли Зулхайдаров. Футболчиларни тайёрлаш жараёнидаги мусобақалар фаолияти

кўрсаткичларини таҳлил қилишнинг ахамияти. Academic research in educational sciences (ares), volume 2, issue 10,764-770.

3. Абдулахатов А.Р. Зулхайдаров Ж.А. Профессионал футболчиларни жисмоний тайёргарлиги бўйича моделлаштириш меъёрлари. Муғаллим , 1(1)2022, 106-110.

4. Зулхайдаров Ж.А. Юқори малакали футболчиларни махсус чидамкорлигини ривожлантириш. Интернаука.23(199) 2021г. 55-56.

5. Zulxaydarov J.A. O'zbekistonda stritbol-sport turini rivojlantirish. PROSPECTS FOR THE NATIONAL SPORT DEVELOPMENT OF – KURASH. April 8-9. chirchiq-2022.

6. J.A.Zulxaydarov, S.D.Abduraximov. Ayollar futbolini rivojlantirishning istiqbollari. Academic research in educational sciences (ARES), volume 3, issue 11,588-593.



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA ELEKTRON XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH

Bun'et Muratovich Abduraimov

Samarqand davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida elektron xizmatlarning rivojlanishi sur'ati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, sanoat korxonalari, raqamli korxonalar, xalqaro sifat tizimi, raqamli transformatsiya.

ABSTRACT

The article examines the pace and factors affecting the development of electronic services at industrial enterprises in the context of the development of the digital economy in Uzbekistan.

Keywords: digitalization, industrial enterprises, digital enterprise, international quality system, digital transformation.

KIRISH

Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarida faoliyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi, birinchi navbatda menejment-boshqaruvi tizimida global o'zgarishlar ro'y bermoqda, bu esa umumiy olganda sifat menejmenti tizimini modernizatsiya qilishni istisno etmaydi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish barcha biznes jarayonlarini takomillashtirishni talab qiladi, boshqaruvda "additiv"- "yangidan-yangi zamonaviy" usullardan foydalanish o'z navbatida jarayonlarning murakkabligini sezilarli darajada kamaytiradi va ularning sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya nafaqat jarayonlarni boshqarish texnikasi va texnologiyasidagi o'zgarishlarni, balki raqamli fikrlashga asoslangan yangi raqamli madaniyatni shakllantirish zarurligini ham anglatadi, bu esa o'z navbatida inson kapitalini boshqarish yondashuvlarining o'zgarishi bilan bog'liq.

Sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya qilish sharoitida sifat menejmenti tizimini innovatsion rivojlantirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– soxaga doir me'yoriy-texnik hujjatlarga asoslangan xolda belgilangan yo'nalishlarda monitoring va nazorat o'tkazish orqali sifatni doimiy ravishda yaxshilab borish;



- raqamli fikrlash va xodimlarni raqamli jalb qilish asosida raqamli madaniyatni shakllantirish;
- axborot texnologiyalari va yangi usullarni qo‘llash asosida qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish jarayon sifatini boshqarish;
- xodimlarni axborot texnologiyalaridan foydalanishda uzluksiz o‘qitish va “raqamli kompetensiya”larni rivojlantirish orqali yangi kadrlar salohiyatini shakllantirish;
- sifat menejmenti tizimining faoliyatini tartibga soluvchi elektron hujjat aylanishi asosida yagona axborot maydonini yaratish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Shu sababli, raqamli transformatsiya jarayonining amalda qo‘llanilishi sanoat korxonalarini rivojlantirishning yangi bosqichiga xamda texnologik yondashuv talablarini hisobga olgan holda sifat menejmentida jarayonlarni tarmoqlar kesimida raqamli boshqaruvga o‘tishiga yordam beradi. Boshqaruv jarayonlarida raqamli modernizatsiyaning qo‘llanilishi, sifat menejmenti tizimining innovatsion rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugunki kunda raqamli dunyo asta-sekin har bir xonadonga, maxalla va jamiyatga, shuningdek, barcha davlat va tijorat tashkilotlariga, qolaversa inson xayotiga kirib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida jamiyatimiz turmush tarziga, iqtisodiyotimizga misli ko‘rilmagan ta’sir ko‘rsatmoqda.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston respublikasida 2021 – 2022 yillardagi “Iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish” hajmi tahlil qilingan. (1-jadval).

(1-jadval)


Iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish/ Manufacture of industrial products by type of economic activity

mlrd. so‘m / billion soums

Ko‘rsatkichlar	Indicators	2021 yil	2022 yil
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m	Volume of industrial production, billion soums	2 685 832,11	3 317 171,13
Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	Mining and quarrying	261 442,56	326 127,77
Ishlab chiqaradigan sanoat	Manufacturing industry	2 212 352,21	2 740 401,91

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	Manufacture of food products	294 106,29	348 799,36
Ichimliklar ishlab chiqarish	Beverage production	59 235,96	91 737,26
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	Manufacture of tobacco products	12 798,75	17 831,10
To`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	Manufacture of textiles	304 290,59	380 827,79
Kiyim ishlab chiqarish	Manufacture of wearing apparel	77 352,08	94 963,92
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	Manufacture of leather and related products	11 500,51	12 658,57
Yog`och va po`kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to`qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	Manufacture of wooden and cork products, (except furniture), products made of straw and plaiting materials	12 388,73	14 492,12
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	Manufacture of paper and paper products	14 970,34	23 692,01
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	Printing and Playback of Recorded Materials	8 051,15	13 970,51
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	Manufacture of coke and refined petroleum products	67 465,93	82 369,53
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	Manufacture of chemical products	167 817,07	204 172,78
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	Manufacture of basic pharmaceutical products and preparations	19 717,04	23 864,18
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	Manufacture of rubber and plastic products	42 079,59	50 204,46
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	Manufacture of other non-metallic mineral products	117 400,49	125 145,62
Metallurgiya sanoati	Metallurgical industry	600 282,36	689 860,62
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	Manufacture of fabricated metal products, except machinery and equipment	58 282,73	67 189,98
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	Manufacture of computers, electronic and optical products	38 327,21	35 115,85
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	Manufacture of electrical equipment	61 563,81	76 596,74

Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	Manufacture of machinery and equipment, not elsewhere classified	23 409,10	33 242,94
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	Manufacture of motor vehicles, trailers and semi-trailers	177 722,75	304 073,80
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	Manufacture of other transport equipment	6 782,33	8 545,68
Mebel ishlab chiqarish	Furniture manufacture	15 425,17	17 533,61
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	Manufacture of other finished products	10 802,73	12 598,38
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	Repair and installation of machinery and equipment	10 579,46	10 915,11
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	Power supply, gas, steam and air conditioning	193 018,69	233 036,75
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	Water supply, sewerage, collection and recycling of waste	19 018,57	17 604,77



(1-rasm)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda 2021 – 2022 yillarda “Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish” hajmi dinamik tarzda o'zgargan

(1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda 2021 yilda sanoat mahsuloti hajmi jami: 2685832 mlrd.so'mni, shu jumladan, tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 261442 mlrd.so'mni, ishlab chiqaradigan sanoat 2212352 mlrd.so'mni, elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 193018mlrd.so'mni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish 19018 mlrd.so'mni tashkil bo'lsa, 2021 yilda esa jami 3317171 mlrd.so'mni, shu jumladan, tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 326127 mlrd.so'mni, ishlab chiqaradigan sanoat 2740401 mlrd.so'mni, elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 233036 mlrd.so'mni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish 17604 mlrd.so'mni tashkil qildi, ya'ni sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 24%ga oshgan. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalarni sanoat sohasiga joriy qilinishi mamlakat ravnaqiga kelgusida katta hissa qo'shadi.

NATJALAR VA MUHOKAMA

Yaqin 10 yillikda ishlab chiqarish, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda «smart» aqlli texnologiyalarning qo'llanilishi xech kimga sir emas albatta. So'nggi yillarda sanoat korxonalarining raqobat muhitida omon qolishiga imkon beradigan raqobatbardoshlikning ahamiyati keskin oshdi. Qeskin raqobat sharoitida zamonaviy korxonalar bozor holatiga tezda javob berishlari kerak. Buning uchun tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga o'z vaqtida javob berishga imkon beradigan va tashkilotning ichki jarayonlarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtiradigan strategiyalarni ishlab chiqish kerak .

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri bu mahsulotlarni yuqori sifatli qilib ishlab chiqarilishi xisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o'z navbatida ishlab chiqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi, buning uchun albatta ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida bir maromda sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirib borishga to'g'ri keladi.

Agar boshqaruvchi-menejerlar sifatga hayot tarzi sifatida qarashmasa, sifatni yaxshilashga bo'lgan xarakatlarni amalga oshirish qiyin bo'ladi. Aynan shuning uchun mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha ishlar boshliqdan tortib ijrochigacha bo'lgan barcha personal-xodimlar uchun eng muhim faoliyat bo'lib xisoblanadi.

Raqamli korxonalar (Digital Enterprise)-bu axborot



texnologiyalaridan (IT-information technology) o'z faoliyatining barcha sohalarida: ishlab chiqarish, biznes jarayonlari, marketing va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda raqobatdosh ustunlik sifatida foydalanadigan tashkilot. Bunda an'anaviy tarzda faoliyat yuritib kelayotgan tashkilotlar raqamli transformatsiya yo'lidan o'tib, "raqamli fikrlash" qobiliyatiga ega kompaniyaga aylanmoqda.

Bunday korxonalar tomonidan bozorga taklif etilayotgan mahsulotning o'zi ham "raqamlashtirilgan" bo'ladi. Shunga ko'ra, biznes va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tobora zarur bo'lib bormoqda. Hujjatlar oqimini kuzatish, me'yoriy-texnik hujjatlarni boshqarish kabi jarayonlar korxonaning xususiyatlariga va u ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning hayotiy sikliga qarab sanoat korxonasi raqamlashtirish jarayonining bir qismiga aylanib boradi. Sifat menejmenti raqamli korxonaning ichki jarayonini o'rganganligi sababli, korxonaning raqobatdosh ustunliklaridan foydalanish sifat menejmenti tizimini raqamlashtirish jarayonini takomillashtirishning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib xisoblanadi.

Shu munosabat bilan sanoat inqilobini boshdan kechirayotgan zamonaviy iqtisodiyotda sifat menejmenti tizimlarining samaradorligini hisobga olish kerak. Axborot texnologiyalari mutaxassislari va sifatli mutaxassislarning vazifalari nafaqat bir-biriga mos keladi, balki kundalik ishlarida bir-birini to'ldiradi. Bu, ayniqsa, korxonalarda axborot tizimlari va texnologiyalarini qayta tashkil etish yoki kompleks joriy etish bilan bog'liq vazifalarni hal qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday muammolarni hal qilishning asosiy bosqichi ishlab chiqarish bosqichlarini tavsiflash bo'lib, keyinchalik tashkilotning sifat menejmenti tizimining asosini tashkil etadi. Bunday jarayonlar va ishlab chiqarish bosqichlari tashkilotning asosidir. Qoida tariqasida, tashqi muhit o'zgarganda, bu jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish vositalari o'zgaradi va jarayonlarning o'zi o'zgarmaydi yoki ahamiyatsiz o'zgaradi.

XULOSA

Shunday qilib, xulosa tariqasida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan mehnat unumdorligi, uning sifati, korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatlarning sifati tegishli o'zgarishlarga uchraydi va bu o'zgarishlar nafaqat alohida jarayonlarning, balki umuman korxonaning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-sonli qarori



2. Саликов Ю.А. Совершенствование организации процессов производства в условиях инновационного развития системы менеджмента качества [Текст]: / Ю.А. Саликов, И.В. Каблашова // Вестник Воронежского государственного университета инженерных технологий. 2016. - № 4 (70). - С. 488.
3. Управление финансами промышленности: учебное пособие/ В.М. Семенов, Н.В. Василенкова. – М.: Финансы и статистика; ИНФРА – М, 2010.- 320с.
4. Вдовин, С.М. Система менеджмента качества организации: Учебное пособие / С.М. Вдовин, Т.А. Салимова, Л.И. Бирюкова. - М.: Инфра-М, 2018. – С.58.
5. Василенкова Н.В. «Повышение качества электронных услуг в условиях цифровой экономики», Международная научно-практическая конференция. 2021. -83с.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2021 – 2022 уу. Ma'lumotlari. // <https://www.stat.uz>



МЕТОДЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ ОДНОМЕРНЫХ ВРЕМЕННЫХ РЯДОВ

Сарвиноз Фазлиддиновна Фахриддинова

Самаркандский институт экономики и сервиса, ассистент

sarvinozfakhriddinova@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье выражаются методы экстраполяции которые основываются на предположении о неизменности факторов, определяющих развитие изучаемого объекта, и заключаются в распространении закономерностей развития объекта в прошлом на его будущее.

Ключевые слова: моделирование, экстраполяция, методы моделирования, прогнозирование, статистические формулы, метод наименьших квадратов, краткосрочное прогнозирование, периодическая компонента, циклическая компонента, временные ряды, тенденция среднего уровня.

ВВЕДЕНИЕ

В зависимости от особенностей изменения уровней в ряду динамики приёмы экстраполяции могут быть простыми и сложными.

Первую группу составляют методы прогнозирования, основанные на предположении относительного постоянства в будущем абсолютных значений уровней, среднего уровня ряда, среднего абсолютного прироста, среднего темпа роста.

Вторая группа методов основана на применении статистических формул, описывающих тренд и их можно разделить на два основных типа: на адаптивные и аналитические.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Адаптивные методы прогнозирования основаны на том, что процесс реализации их заключается в вычислении последовательных во времени значений прогнозируемого показателя. К ним относятся методы скользящий и экспоненциальной средних, метод гармонических весов, метод авторегрессионных преобразований. В основу аналитических методов прогнозирования положен принцип получения с помощью метода наименьших квадратов оценки детерминированной компоненты f_t .

Одним из наиболее распространенных методов краткосрочного прогнозирования является экстраполяция.

Типичным и наиболее применимым приемом экстраполяции является прогноз по одномерному временному ряду. Динамика одномерных временных рядов в общем случае складывается из четырех компонентов:

- 1) тенденции, характеризующей долговременную основную закономерность развития исследуемого явления;
- 2) периодического компонента;
- 3) циклического компонента;
- 4) случайного компонента, как результата влияния множества случайных факторов.

Под тенденций понимают некоторое общее направление развития, долговременную эволюцию. Тенденцию ряда динамики представляют в виде гладкой, которая аналитически выражается некоторой функцией времени, называемой трендом. Тренд характеризует основную закономерность движения во времени, свободную в основном от случайных воздействий. Под трендом обычно понимают регрессию на время. Отклонение от тренда есть влияние случайных факторов. Исходя из этого уровни временного ряда описываются следующим уравнением:

где $f(t)$ - статистическая составляющая, характеризующая основную тенденцию явления во времени; ε_t - случайная составляющая.

Во временных рядах можно наблюдать тенденции трех видов: тенденция среднего уровня; тенденция дисперсии; тенденция автокорреляции.

Тенденция среднего уровня аналитически можно выразить в виде функции $f(t)$. Тенденция дисперсии - это изменения отклонений эмпирических значений временного ряда от значений, вычисленных по уравнению тренда. Тенденция автокорреляции - это тенденция изменения связи между отдельными уровнями временного ряда.

Наиболее распространенным и простым способом моделирования тенденции социально-экономического явления является сглаживание временного ряда. Существуют различные приемы сглаживания, но суть их одна - замена фактических уровней ряда расчетными.

Наибольшее распространение имеют линейные тренды, общая формула которых имеет вид:

$$\bar{y}_t = \sum_{\tau=-q}^s a_{\tau} y_{t+\tau} \quad (1)$$

где \bar{y}_t - сглаженное значение уровня на момент t ;

a_τ - все, приписываемого уровня ряда, находящемуся на расстоянии τ от момента t ;

s - число уровней после момента t ;

q - число уровней до момента t .

В зависимости от того, какие значения принимают веса a_τ сглаживание по формуле (1) будет выполнено либо с помощью скользящих средних, либо экспоненциальных средних.

Процесс выравнивания состоит из двух основных этапов: выбора типа кривой, оценивания параметров кривой. Существуют различные приемы, позволяющие выбрать форму кривой. Наиболее простой путь - это визуальный, на основе графического изображения временного ряда.

1) Полиномы:

$$\bar{y}_t = a_0 + a_1 t \text{ - первой степени (2)}$$

$$\bar{y}_t = a_0 + a_1 t + a_2 t^2 \text{ - второй степени (3)}$$

$$\bar{y}_t = a_0 + a_1 t + a_2 t^2 + a_3 t^3 \text{ - третьей степени (4)}$$

$$\bar{y}_t = a_0 + a_1 t + a_2 t^2 + \dots + a_k t^k \text{ - } k\text{-й степени (5)}$$

2) различные экспоненты:

$$\bar{y}_t = a_0 a_1^t \text{ (6)}$$

$$\bar{y}_t = a_0 a_1^{b_1 t + b_2 t^2} \text{ (7)}$$

$$\bar{y}_t = b + a_0 a_1^t \text{ - модифицированная экспонента (8)}$$

3) Логистические кривые:

$$\bar{y}_t = \frac{k}{1 + a_0 e^{-a_1 t}} \text{ (9)}$$

где e - основание натурального логарифма.

4) Кривая Гомперца:

$$\bar{y} = k a_0^{a_1^t}$$

Другой путь выявления формы кривой заключается в применении метода последовательных разностей.

$$\Delta_{t^1} = y_t - y_{t-1}; \Delta_{t^2} = \Delta_{t^1} - \Delta_{t-1}^1; \Delta_{t^3} = \Delta_{t^2} - \Delta_{t-1}^2 \dots \text{ (10)}$$

Расчет этих разностей ведется до тех пор, пока разности не будут приблизительно равными.

Экстраполяция по среднему абсолютному приросту.

Прогноз определяет ожидаемые варианты экономического развития исходя из гипотезы, что основные факторы и тенденции прошлого периода сохраняется на

период прогноза. Подобная гипотеза выдвигается исходя из инерционности экономических явлений и процессов. Прогнозы на основе экстраполяции рядов динамики как и любые статистические прогнозы, могут быть либо точечными, либо интервальными.

Экстраполяцию в общем виде можно представить в виде определенного значения функции

$$y'_{t+l} = f(y_i, l, a_j) \quad (11)$$

где y'_{t+l} - прогнозируемое значение ряда динамики;

l - период упреждения;

y_i - уровень ряда, принятый за базу экстраполяции;

a_j - параметр уравнения тренда.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Наиболее простым методом экстраполяции одномерных рядов динамики является применение средних характеристик данного ряда: среднего уровня, среднего абсолютного прироста и среднего темпа роста.

При экстраполяции социально-экономических явлений на основе среднего уровня ряда используется принцип, при котором прогнозируемый уровень принимается равным среднему значению уровней ряда в прошлом,

$$y'_{t+l} = \bar{y} \quad (12)$$

В данном случае экстраполяция дает прогностическую точечную оценку. Точное совпадение этих оценок с фактическими данными - явление маловероятное. Следовательно, прогноз должен быть дан в виде «вилки», интервала значений.

$$y'_{t+l} \pm t_\alpha S_{\bar{y}},$$

где t_α - табличное значение t критерия Стьюдента с $n-1$ степенями свободы и уровнем вероятности P ; $S_{\bar{y}}$ - средняя квадратичная ошибка средней. Значение ее определяется по формуле:

$$S_{\bar{y}} = \frac{S}{\sqrt{n}}$$

Экстраполяция по среднему абсолютному приросту.

Она может быть выполнена в том случае, если считать общую тенденцию развития явления линейной.

$$\sigma_{\text{ост}}^2 = \rho^2, \quad \text{где } \rho^2 = \frac{1}{2} \cdot \frac{\sum \Delta_i}{n}$$

где $\sigma_{\text{ост}}^2$ - остаточная дисперсия;

Δ_i - общий прирост показателя от начального уровня до конечного y_i .

Для нахождения интересующего нас прогнозного значения уровня y'_{t+l} необходимо определить средний абсолютный прирост $\bar{\Delta}$. Затем, зная уровень ряда динамики, принятый за базу экстраполяции y_i , записать интересующую нас экстраполяционную формулу следующим образом:

$$y'_{t+l} = y_i + \bar{\Delta}l.$$

Экстраполяция по среднему темпу роста может осуществиться в случае, когда есть основания считать, что общая тенденция ряда динамики характеризуется показательной кривой. Прогнозируемый уровень ряда в этом случае определяется следующей формулой:

$$y'_{t+l} = y_i + T_p^{-l},$$

где, \bar{T}_p - средний темп роста. Все три способа экстраполяции тренда являются простейшими способами.

REFERENCES

1. Shodiyev T.Sh. va boshqalar. Ekonometrika. –Т.: TDIU, 2007. -270 b.
2. В.Ю.Ходиев, Т.Ш.Шодиев, В.В.Беркинов. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. – Toshkent. TDIU, 2017.-144 b.
3. Кремер Н.Ш., Путко Б.А. Эконометрика: Учебник. – М.: ЮНИТИ-Москва, 2010. – 328 с.
4. А.Р.Хашимов va boshqalar. Iqtisodiy matematika. –Toshkent. “Fan va texnologiyalar”. 2018.352 b.

РЕГУЛЯРИЗАЦИЯ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧИ КОШИ ДЛЯ СИСТЕМЫ УРАВНЕНИЙ ТЕОРИИ УПРУГОСТИ В БЕСКОНЕЧНОЙ ОБЛАСТИ

К. Х. Усанов

Самарканд, Сам ИЭС

АННОТАЦИЯ

В работе обсуждается задача продолжения решения системы теории упругости в области по её значениям и значениям её напряжений на части границы, т.е. задача Коши для системы Ламе.

Ключевые слова: математика, задача Коши, система Ламе, Матрица Карлемана.

Пусть R^2 вещественное Евклидово пространство, D - область в R^2 с кусочно-гладкой границей ∂D и S -гладкий часть ∂D .

Пусть $x = (x_1, x_2)$, $y = (y_1, y_2)$ – точки из R^2 и $U(x)$ удовлетворяет в области D однородной системе уравнений Ламе :

$$L U(x) = 0, \quad (1)$$

где $L = \mu \Delta + (\lambda + \mu) \text{grad div}$, Δ – оператор Лапласа, λ, μ – постоянные Ламе, такие что, $\mu \neq 0$, $\lambda \neq -2\mu$.

Положим

$$\begin{aligned} U(y) &= f(y), \\ T(\partial_y, n)U(y) &= g(y), \quad y \in S \end{aligned} \quad (2)$$

где $f(y) = (f_1(y), f_2(y))$ и $g(y) = (g_1(y), g_2(y))$ – заданные непрерывные вектор-функции на S , $T(\partial_y, n)$ – дифференциальный оператор, с компонентами

$$T_{ij}(\partial_y, n) = \mu \delta_{ij} \frac{\partial}{\partial n} + \lambda n_j(y) \frac{\partial}{\partial y_j} + \mu n_j(y) \frac{\partial}{\partial y_i}, \quad i, j = 1, 2 \quad \text{где, } \delta_{ij} \text{ – символ Кронекера.}$$

Требуется продолжить $U(y)$ в D , исходя из заданных f и g .

В настоящей работе приводится метод решения, основанный на функцию Карлемана [1].

Исходя из функции Карлемана задачи Коши для уравнения Лапласа, построена матрица Карлемана задачи Коши для систем уравнений теории упругости в ограниченных областях работах [2,3], а для многомерной случаи в специальных неограниченных областей задача рассмотрена в работе [2].

Определение 1. Матрицей Карлемана задачи (1), (2) называется (2×2) – матрица $\Pi(y, x, \sigma)$ удовлетворяющая следующим двум условиям:

$$1) \Pi(y, x, \sigma) = \Gamma(y, x) + G(y, x, \sigma),$$

где σ - положительный числовой параметр, матрица $G(y, x, \sigma)$ по переменной y удовлетворяет системы (1) всюду в D , $\Gamma(y, x)$ -матрица фундаментальных решений системы теории упругости.

$$2) \int_{\partial D \setminus S} (|\Pi(y, x, \sigma)| + |\Gamma(\sigma_y, n)\Pi(y, x, \sigma)|) ds_y \leq \varepsilon(\sigma),$$

где $\varepsilon(\sigma) \rightarrow 0$, при $\sigma \rightarrow \infty$ равномерно по x на компактных подмножествах D ; здесь и далее $|\Pi|$ – означает евклидово норму матрицы $\Pi = \|\Pi_{ij}\|$, т.е.

$$|\Pi| = \left(\sum_{i,j=1}^m \Pi_{ij}^2 \right)^{1/2}, \text{ в частности } |U| = \left(\sum_{i=1}^m U_i^2 \right)^{1/2}, \text{ для вектора } U = (U_1, \dots, U_m).$$

Определение 2. Вектор-функция $U(y) = (U_1(y), \dots, U_m(y))$ называется регулярной в D , если она непрерывна вместе со своими частными производными второго порядка в D и первого порядка на $\bar{D} = D \cup \partial D$.

Теорема 1. Всякое регулярное решение $U(x)$ уравнения (1) в области D определяется формулой [4]

$$U(x) = \int_{\partial D} (\Gamma(y, x) \Gamma(\partial_y, n) U(y) - U(y) \{ \Gamma(\partial_y, n) \Gamma(y, x) \}) ds_y, x \in D.$$

Нетрудно заметить, что из определения матрицы Карлемана и известной интегральной формулы Грина, в последней формуле, фундаментальное решение $\Gamma(y, x)$ можно заменить матрицей Карлемана. Следовательно имеет места.

Теорема 2. Всякое регулярное решение $U(x)$ уравнения (1) в области D определяется формулой

$$U(x) = \int_{\partial D} (\Pi(y, x, \sigma) \Gamma(\partial_y, n) U(y) - U(y) \{ \Gamma(\partial_y, n) \Pi(y, x, \sigma) \}) ds_y, x \in D, \quad (3)$$

где $\Pi(y, x, \sigma)$ – матрица Карлемана.

Пусть $K(\omega)$, $\omega = u + iv$, (u, v -вещественные) - целая функция, принимающая на вещественной оси вещественные значения и удовлетворяющая условиям.

$$K(u) \neq 0, \sup_{v \geq 1} |v^p K^{(p)}(\omega)| = M(p, u) < \infty, p = 0, 1, 2, u \in \mathbb{R}^1$$

Положим $\alpha = |y_1 - x_1|$.

Функцию $\phi(y, x)$ при $\alpha > 0$ определим следующим равенством:

$$-2\pi K(x_2)\phi(y, x) = \int_0^\infty \operatorname{Im} \frac{K(i\sqrt{u^2 + \alpha^2} + y_2)}{i\sqrt{u^2 + \alpha^2} + y_2 - v_2} \frac{u du}{\sqrt{u^2 + \alpha^2}}, \quad (4)$$

С помощью функции $\phi(y, x)$ построим матрицу

$$\Pi(y, x) = \|\Pi_{ij}(y, x)\|_{2 \times 2} = \left\| \frac{\lambda + 3\mu}{2\mu(\lambda + 2\mu)} \delta_{ij} \phi(y, x) - \frac{(\lambda + \mu)}{2\mu(\lambda + 2\mu)} (y_j - x_j) \frac{\partial}{\partial y_i} \phi(y, x) \right\|_{2 \times 2} \quad (5)$$

Пусть теперь D - бесконечная область из R^2 , лежащая внутри слоя наименьшей ширины, определяемого неравенством $0 < y_2 < h$, $h = \frac{\pi}{\rho}$, $\rho > 0$.

Причём ∂D состоит из гладкого куска S и $y_2 = 0$. Будем предполагать, что для некоторого $b_0 > 0$ площадь ∂D удовлетворяет условию роста

$$\int_{\partial D} \exp(-b_0 \exp \rho_0 |y_1|) ds_y < \infty, \quad 0 < \rho_0 < \rho, \quad (6)$$

При $\sigma \geq 0$ в (4)-(6) положим

$$K(\omega) = \exp \left(\sigma \omega - b \operatorname{ch} \rho_1 \left(\omega - \frac{h}{2} \right) - b_1 \operatorname{ch} \rho_0 \left(\omega - \frac{h}{2} \right) \right),$$

где $\omega = y_2 + iv$, $\rho_0, \rho_1 \in (0, \rho)$, $0 < x_2 < h$, $b > 0$, $b_1 > b_0 \left(\cos \rho_0 \frac{h}{2} \right)^{-1}$.

Возьмем $\phi(y, x, \sigma) = \phi(y, x)$ и $\Pi(y, x, \sigma) = \Pi(y, x)$. В [1] доказана следующая.

Лемма 1. Функция $\phi(y, x, \sigma)$ представима в виде

$$\phi(y, x) = \frac{1}{2\pi} \ln \frac{1}{r} + g(y, x, \sigma), \quad r = |y - x|$$

где $g(y, x, \sigma)$ - некоторая функция, определенная для всех значений y, x и гармоническая по переменной y во всём R^2 .

Из этой леммы получим, что матрица $\Pi(y, x, \sigma)$ является матрицей Карлемана задачи (1), (2).

Предположим, что $U(x) \in A(D)$ и

$$|U(y)| + |T(\partial y, n)U(y)| \leq M, \quad y \in \partial D. \quad (7)$$

В этих предположениях верна формула (7), где

$$K(\omega) = (\omega - x_2 + 2h)^{-1} \exp \sigma \omega, \quad \omega = i\sqrt{u^2 + \alpha^2} + y_2,$$

Введем обозначение

$$U_\sigma(x) = \int_S [\Pi(y, x, \sigma) \{T(\partial y, n)U(y)\} - U(y) \{T(\partial y, n)\Pi(y, x, \sigma)\}] ds_y, \quad x \in D.$$

$$A_\rho(D) = \{U(x) \in A(D) : |U(y)| + |T(\partial y, n)U(y)| \leq \exp(0(\exp |y_1|)), y_1 \rightarrow \infty, y \in D\}.$$

Теорема 3. Пусть $U(x) \in A_\rho(D)$ удовлетворяет граничному условию (7).

Тогда $|U(x) - U_\sigma(x)| \leq MC(\rho, x)\sigma \exp(-\sigma x_2), x \in D,$

где $C(\rho, x) = C(\rho) \int_{y_2=0} \frac{ds_y}{r^3}.$

REFERENCES

1. Ярмухамедов Ш. О задаче Коши для уравнения Лапласа. ДАН СССР, 1977, т. 235, №2, ст.281-283.
2. Махмудов О. И., Ниёзов И. Э. Задача Коши для системы уравнения теории упругости в бесконечной области// Узбекский математический журнал. 2006. №4. с.44-53
3. Makhmudov O., Niyozov I. The Cauchy problem for the Lamé system in infinite domains in R^m // Journal of Inverse and Ill-Posed Problems.V14.N9.2006.pp.905-924(20).
4. Купрадзе В. Д., Бурчуладзе Т. В., Гегелия Т. Г. и др. Трёхмерные задачи математической теории упругости и терм упругости. Классическая и микро полярная теория. Статика, гармонические колебания, динамика. Основы и методы решения. М.: Наука, 1976.



ALMASHINGAH MOCHEVINA BIRIKMALARI. SINTEZI, XOSSALARI VA QO'LLANILISH SOHALARI

Manzura O'razmatovna Yusupova

Urganch davlat universiteti dotsenti
manzurayusupova7037@gmail.com

Komila Allayarovna Babajanova

Urganch davlat universiteti magistranti

R. Udabboev

N. Xudoyberganova

Urganch davlat universiteti talabalarii

ANNOTATSIYA

Maqolada almashingan mochevina birikmalarini sintez qilishning asosiy usullari, mochevinani alkillash reaksiyalari va uning funksional guruh tutgan turli birikmalar bilan ta'sirlashishi bo'yicha adabiyot ma'lumotlari ko'rib chiqilgan. Almashingan mochevinalarning har bir olinish usuli bo'yicha reaksiya sharoitlari tavsiflangan va sintez qilingan mahsulotlar unumi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada biologik faol birikmalar sifatida almashingan mochevina birikmalaridan amaliyotda foydalanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha materiallar mavjud.

Kalit so'zlar: almashingan mochevinalar, pestitsidlar, o'simliklarni o'stirish regulyatorlari, organik izosianatlar, nitromochevina, aminlar.

ABSTRACT

In the article, the main methods of synthesizing substituted urea compounds, the alkylation reactions of urea and its interaction with various compounds containing a functional group are reviewed. The reaction conditions for each method of obtaining substituted ureas are described and the efficiency of the synthesized products is given. Also, the article contains materials on the main directions of practical use of substituted urea compounds as biologically active compounds.

Keywords: substituted ureas, pesticides, plant growth regulators, organic isocyanates, nitrourea, amines.

KIRISH

Hozirgi vaqtda almashingan mochevina birikmalariga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu birikmalarga bo'lgan qiziqish ularning fan va texnikaning turli sohalarida keng doirada qo'llanilishi bilan bog'liq. Ular pestitsidlar va o'simliklarni o'stirish regulyatorlari sifatida keng qo'llaniladi, yoqilg'i va moylarga, polimer materiallarga samarali qo'shimchalar, dori vositalari va to'qimachilik sanoatida gidrofob qo'shimchalar sifatida ishlatiladi [1]. Mochevina birikmalari kosmetika sanoatida va qurilish materiallari va mebel ishlab chiqarishda yopishtiruvchi aralashmalarga qo'shimchalar sifatida ham keng qo'llaniladi [2]. Almashingan mochevina birikmalari katalitik xossalarni hosil qilganligi uchun organokatalizda foydalaniladi [3]. 1,3-Almashingan mochevina birikmalarining eng afzal va istiqbolli qo'llanilishi tibbiyot sohasi hisoblanadi, chunki ular keng doiradagi biologik faollikni namoyon etadi [4,5].

Dori vositalarining rivojlanishida alohida o'rinni funksional adamantan hosilalari egallaydi, ularga qiziqish doimiy ravishda ortib bormoqda [6]. Adamantan hosilalari orasida 1,3-almashingan mochevina birikmalari katta ahamiyatga ega. Masalan, 1-(adamant-2-il) mochevina hosilalari metabolik sindrom, diabet, semizlik, yog' almashinuvining buzilishi, glaukoma, osteoporoz, depressiya, immunitetning buzilishi, gipertoniya va boshqa kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ishlatilishi mumkin.

1(2)-Adamantil radikali tutgan mochevina birikmalari in vitro insonda eriydigan epoksid gidrolazani (hsEH) samarali ravishda ingibirlash qobiliyatiga ega. Ushbu turdagi ingibitorlar yallig'lanishga qarshi dori vositasi sifatida, gipertoniya va boshqa qon-tomir kasalliklari va onkologik kasalliklarni davolashda yuqori samaradorlikni namoyon qiladi [7]. Shu bilan birga, farmakofor tarkibidagi adamantil (Ad_1 -1-adamantil; $Ad_{(2)}$ - 2-adamantil) guruhlarning alohida ahamiyatga ega ekanligi, bu ularning fermentlarni ingibirlash imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Mavjud $Ad_{1(2)}$ guruhini o'z ichiga olgan mochevina birikmalari samaradorligini pasaytiradigan bir qator kamchiliklarga ega. Ma'lum bo'lgan 1,3-almashingan mochevinalarning suvda yomon eruvchanligi va yuqori haroratda eruvchanligi ularning biologik faolligini pasaytiradi hamda ulardagi metabolizmning tezlashish in vivo samaradorligini pasaytiradi (B.D. Hammock, U.C. Davis). Mochevina strukturasi har xil turdagi ko'priklar, shuningdek, $Ad_{1(2)}$ guruhidagi o'rinbosarlarning kiritilishi ingibitorlik xususiyatlarining yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

ADABIYATLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi vaqtda almashingan mochevina birikmalariga potensial katalizatorlar sifatida qo'llanilishi sababli ham qiziqish ortib bormoqda. Mochevina hosilalari amid vodorod atomlari NH-bog'ining proton akseptor bilan kompleks hosil bo'lishida ishtirok etishi sababli kimyoviy o'zgarishlar uchun samarali katalizator sifatida qo'llaniladi. Tarkibida elektronoakseptor o'rinbosarlari bo'lgan mochevina birikmalaridagi vodorod atomlarining kislotali tabiati sababli, ular turli proton akseptorlar, masalan, karbonil birikmalari bilan barqaror kristallar hosil qiladi [8].

Xiral mochevina hosilalari nukleofil birikish uchun iminlar va karbonil hosilalarining enantiosektiv faollashishida katalizator sifatida juda foydali ekanligi isbotlangan [9]. Biroq, bu organik katalizatorlarning asimmetrik sintezda keng qo'llanilishiga qaramasdan, ularni metallorganik reagentlar bilan birgalikda foydalanish yetarli darajada o'rganilmagan.

Mochevina va uning hosilalari Klyayzen qayta guruhlanish va Dils-Alder reaksiyalari kabi turli reaksiyalar uchun, katalizator sifatida qo'llanilgan [10, 11].


So'nggi vaqtlarda bir yoki ikkita adamantil guruhi tutgan 1,3-almashingan mochevina birikmalariga qiziqish ortib bormoqda. Bunday birikmalar nafaqat biologik faolligi [12, 13], balki diadamantil guruhlarini tutgan mochevina birikmalarini boshqa diadamantil guruhlarini o'z ichiga olgan birikmalar bilan bo'lgani kabi, β -siklodekstrin supramolekulyar polimerlar uchun monomer sifatida foydalanish imkoniyati borligi sababli ham qiziqish uyg'otadi. [14].

Hozirgi vaqtda adabiyotlarda almashingan mochevinalarni sintez qilish usullari, xususiyatlari va ulardan foydalanish bo'yicha juda ko'p ma'lumotlar mavjud. Ularning sintezidagi asosiy usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:


- 1) Aminobirikmalarning organik izosianatlar bilan o'zaro ta'sirlashishi;
- 2) Aminlar va alkilgalogenidlarning ishqoriy metall sianatlari bilan o'zaro ta'sirlashishi;
- 3) Birlamchi va ikkilamchi aminlarning fosgen bilan ta'sirlashishi;
- 4) Aminlarning mochevina va nitromochevina bilan o'zaro ta'sirlashishi;
- 5) Mochevinaning turli birikmalar bilan o'zaro ta'sirlashishi;
- 6) Aminlarning almashingan mochevinalarga karbonillanishi;
- 7) Kislota amidlaridan almashingan mochevinalar sintezi (Goffman qayta guruhlanish).

Olinish usullarining qulayligi va mahsulotning yuqori unumda hosil bo'lishi sababli eng keng tarqalgan usullardan biri izosianatli usul hisoblanadi. Ushbu usul bilan ham simmetrik, hamda nosimmetrik mochevinalarni olish mumkin.

Tegishli aminlarni fosgenlash natijasida simmetrik dialkil-, diaril- va alkilarilmochevinalar hosil bo'ladi. Fosgenni anilinning to'yingan suvli eritmasi orqali o'tkazib, Goffman birinchi bo'lib difenilmochevinani olgan:




Aminning fosgen bilan reaksiyasi ikki bosqichda davom etishi aniqlangan, bunda ajralib chiqqan vodorod xlorid amin bilan bog'lanib, aminning gidroxlorid tuzini hosil qiladi:




Mochevinani aminlarning gidroxlorid tuzlari bilan taxminan 180°C haroratda qizdirish yoki ularning suvli eritmasini qaynatish, 50-80 % unum bilan almashingan mochevinalar hosil bo'lishiga olib keladi. Bu usulning kamchiligi, fosgen zaharli komponent hisoblanadi.

Suvli eritmalarda mochevina gidrolizlanib ammiak va karbonat anhidridni hosil qilganligi sababli, undan mineral o'g'it sifatida ham foydalanish mumkin.

Mochevina tarkibidagi karbonil uglerod atomi kuchsiz elektrofil hisoblanadi, ammo spirtlar ammiakni mochevinadan siqib chiqaradi va uretanlarni hosil qiladi:



Mochevinaning aminlar bilan o'zaro ta'sirlashishi shu reaksiyalar sinfiga kiradi va reaksiya natijasida alkilmochevinalar hosil bo'ladi:



Mochevinaning reaksiyaga kirishish qobiliyati nukleofil xossaga ega bo'lgan azot atomlari bilan bog'liq va mochevina tarkibidagi karbonil uglerod atomi kuchsiz elektrofil hisoblanadi. Shu munosabat bilan, mochevinada quyidagi reaksiyalar borishi tavsiflanadi:

- gidroliz;
- nitrat kislota bilan o'zaro ta'sirlashishi;
- ammiak bilan kondensatsiyalanishi (guanidinlar hosil bo'lishi);
- alkillanish;
- atsillanish;
- siklizatsiya.

O'rinbosarlar – almashingan mochevina birikmalarida qo'shimcha reaksiya markazlari hisoblanadi.



Adabiyotlarda N,N'-dinitromochevina (DNM) nitromochevinaning mos alkil hosilalarini olishda birlamchi aminlar bilan juda oson ta'sirlashgan [15]. Biroq, DNM ning o'zaro ta'sirlashishi dimetilamin, dialkilamin [16] va uchlamchibutilaminlar [17] bilan sodir bo'lmagan. Asosiy reaksiya mahsulotlari DNM ning dialkilamin (uchlamchibutilamin) tuzlari bo'lib, ular qizdirilganda ham barqaror bo'lgan. Uzoq vaqt qaynatilganda tuzlar dialkilnitromochevina va uchlamchibutilnitromochevina hosil bo'lmasdan butunlay parchalangan. Reaksiyaga dialkilaminlarning (uchlamchibutilamin) ortiqcha miqdorda kiritilishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatmagan [16, 17].

Alkil- va dialkilmochevinalar biologik faol birikmalar sifatida qiziqish uyg'otadi. Uchlamchibutilnitromochevina mochevina nitrohosilalarining organik sintez nuqtayi nazaridan qiziqish uyg'otadi, chunki u elektrofilga oson almashinadigan uchlamchibutil guruhini tutgan, uni uchlamchibutilmochevinani nitrolash orqali olish mumkin [18].


Monoalkilmochevina alkilaminning xlorid kislotali tuzidan 40°C haroratda, doimiy aralashirilgan holda, kaliy sianatning suvli eritmasi bilan aralashtirib olingan. Reaksiya jarayonida aralashmaning harorati 70-80°C ga yetganda, aralashtirish to'xtatilib sovutilgan va spirt qo'shilib kaliy xlorid ajratilgan. Spirtli eritma kondensatlangandan keyin rangsiz kristallar hosil bo'lgan. Kaliy sianatga nisbatan nazariy unum 75-80 % ni tashkil qilgan. Dialkilmochevina alkil izosianatning alkilamin bilan oddiy efirdagi reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan. Boshlang'ich komponentlar oddiy efirda eritilib, reaksiya aralashmasini aralashtirish bilan darhol ekzotermik reaksiya boshlangan va rangsiz kristallar ajratib olingan. Unum nazariyga yaqin [19]. Maqsadli mahsulotlarning yuqori unumiga qaramay, bu usul qayta ishlab chiqarilganda xavfli hisoblanadi, chunki ekzotermik reaksiyani boshqarish qiyin yoki efir yonishi mumkin. Uchlamchibutilmochevina sintezi nitromochevinaning ikki-uch baravar ortiqcha uchlamchibutilamin bilan suvli muhitda yoki mochevinaning bosim ostida ortiqcha uchlamchibutilamin bilan o'zaro ta'sirlashishi orqali amalga oshiriladi. Toza uchlamchibutil mochevina olish uchun uchlamchibutilaminning ortiqcha miqdori xalaqit beradi.

Ko'rsatilganki, alkil- va dialkilmochevinalarning hosil bo'lish unumi organik erituvchining tabiatiga bog'liq bo'lib, organik erituvchining dielektrik o'tkazuvchanligi qanchalik yuqori bo'lsa, maqsadli mahsulotning unumi shunchalik yuqori bo'ladi. Masalan, dioksan, dixlormetan va geksandagi nitromochevinaning ammoniyli tuzi parchalanmasdan barqaror saqlanadi, suvli organik eritmalarda gazzimon mahsulotlarga butunlay

parchalanadi. Bu usul birlamchi va ikkilamchi alkil mochevinalarni keng doirada olish imkonini beradi.

Adabiyotlarda N,N'-dinitromochevinaning (DNM) aminlar bilan reaksiyasi natijasida ham simmetrik, ham nosimmetrik 1,3-dialmashingan alkilmochevinalar olingan. Barcha reaksiyalar suvda amalga oshirilgan. Diuchlamchimochevinadan boshqa, barcha simmetrik dialkilmochevinalar 90°C haroratda, DNM : amin = 1: 4 molyar nisbatda to'g'ridan-to'g'ri DNM orqali olingan [20].

1,3-Almashingan mochevina birikmalarini olish mochevinani sulfat-nitratli aralashma bilan nitrolash orqali osonlik bilan olinadigan N,N'-dinitromochevinaning nitroamino guruhini alkil (aril) birikmadagi aminoguruh bilan nukleofil almashinish reaksiyasiga asoslangan. Hosil bo'lgan nitramid sintez sharoitida suv va azot(I)-oksidini hosil qilish bilan parchalanadi:



DNM benzilamin bilan o'zaro ta'sirlashganda reaksiya oraliq mahsulotlar, DNM ning mono- va dibenzilammoniy tuzlarini cho'kishi bilan borishi aniqlangan. Reaksiya massasini qizdirish davom ettirilganda 1,3-dibenzilmochevina hosil bo'lgan. N,N'-dinitromochevinaning furfuril-, izopropil-, butil-, izobutil- va allilamin kabi aminlar bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida reaksiya jarayonida cho'kmaga tushmaydigan gigroskopik DNM tuzlari hosil bo'lgan. Biroq, DNM uchlamchibutilamin bilan reaksiyaga kirishganda, faqat DNM ning diuchlamchibutilammoniyli tuzi olingan. Uzoq vaqt qaynatilganda tuz 1,3-diuchlamchibutilmochevina hosil bo'lmasdan parchalangan va reaksiyaga aminning ortiqcha miqdorda kiritilishi reaksiyaning borishiga ta'sir qilmagan. Shuning uchun, 1,3-diuchlamchibutilmochevina sintezi uchun mochevina va uchlamchibutilamin boshlang'ich birikma sifatida olingan. Reaksiya avtoklavda 8 atm bosimda 1 soat davomida olib borilgan. Reaksiya tugagandan so'ng, hosil bo'lgan cho'kma filtrlangan va suvdan qayta kristallangan. Uchlamchibutilmochevina qo'shimcha mahsulot sifatida ajratib olingan. Nosimmetrik 1-metil-3-uchlamchibutilmochevina ikki bosqichda olingan: birinchi bosqichda DNM ni metilamin bilan reaksiyaga kiritish orqali oraliq birikma, metilnitromochevina olingan, keyin olingan va ajratilgan birikmaga uchlamchibutilamin qo'shilgan.

MUHOKAMA

Almashingan mochevina birikmalarini sintez qilishning qulay usuli aminlarning nitromochevina bilan reaksiyasi bo'lib, u

mochevina kabi qizdirilganda parchalanib izosian kislotasi va nitramidni hosil qiladi.

Nitroguruh elektronoakseptor xususiyatga ega bo'lgani uchun nitromochevina mochevinaga qaraganda tezroq parchalanadi. Birlamchi va ikkilamchi aminlarning nitromochevina bilan reaksiyasi natijasida 80-90% unum bilan ularga mos almashingan mochevina birikmalari olingan. Nitromochevinaning ekvimolekulyar miqdori bilan suvda monoalkil-, dialkil- va alkilarilamidlarning o'zaro ta'sirlashishi natijasida 75-95% unum bilan turli almashingan mochevinalar olingan.

Almashingan mochevinalarni sintez qilish usullari bo'yicha adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish ularning xilma-xilligini ko'rsatadi, ammo ularning ko'pchiligi ulardan foydalanishni cheklaydigan ma'lum kamchiliklarga ega. Masalan, amid usuli past unum bilan tavsiflanadi, aminlarning fosgenlanishi yuqori unum bilan almashingan mochevina birikmalarini olish imkonini beradi, lekin fosgenning yuqori toksikligi u bilan ishlashni juda qiyinlashtiradi. Xom ashyoning mavjudligi va amalga oshirish qulayligi nuqtayi nazaridan, almashingan mochevina birikmalari sintezining qulay usuli mochevina yoki nitromochevinaning aminlar bilan reaksiyasi hisoblanadi, ammo bu usul ham ma'lum cheklovlarga ega, chunki ishlatiladigan aminga qarab, mono- yoki N,N'-almashingan mochevinalar hosil bo'ladi. Birorta mochevina hosilalarini olish usulini tanlashda bu barcha kamchiliklar va cheklovlarni hisobga olish kerak.

XULOSA

Biologik faol preparatlar (gerbitsidlar, fungitsidlar, o'simliklarni o'stiruvchi preparatlar, gipoglikemik preparatlar va boshqalar) sintezida oraliq mahsulot sifatida qo'llaniladigan almashingan mochevina birikmalarini olishning asosiy usullari ko'rib chiqildi.

Adabiyot ma'lumotlaridagi alkil-, aril- va geteroarilmochevinalarni olishning qulay usullari tahlil qilindi. Biologik faol birikmalar sintezida qo'llaniladigan almashingan mochevina birikmalari sintezining asosiy tamoyillari ko'rsatildi.

REFERENCES

1. Кучерявый В.И. Синтез и применение карбамида. / В.И. Кучерявый, В.В Лебедев. Л: Химия, 1970, с. 448.
2. Albèr C. Effects of water gradients and use of urea on skin ultrastructure evaluated by confocal Raman microspectroscopy / C. Albèr, B. D. Brandner, S. Björklund, P. Billsten, R.W. Corkery, J. Engblom // *Biochimica et Biophysica Acta (BBA)-Biomembranes*. – 2013. – Vol. 1828. – P. 2470- 2478.
3. Bis- and Tris-Urea H-Bond Donors for Ring-Opening Polymerization: Unprecedented Activity and Control from an



Organocatalyst / K. V. Fastnacht [et al.] // ACS Macro Letters. – 2016. – Vol. 5 (8). – P. 982- 986.

4. Structure based molecular docking studies on some 1,3-disubstituted urea derivatives as anti-tubercular agents / S. Agarwal [et al.] // International journal of pharmaceutical sciences and research. – 2016. – Vol. 7. – P. 228.

5. Combinatorial Effects of Aromatic 1,3-Disubstituted Ureas and Fluoride on In vitro Inhibition of Streptococcus mutans Biofilm Formation. / Kaur, G. [et al.] // Frontiers in Microbiology – 2016. – Vol. 7. – P. 1-13.

6. Wanka L. The lipophilic bullet hits the targets: medicinal chemistry of adamantane derivatives / Wanka, L., Iqbal, K., Schreiner, P. R. // Chemical reviews. – 2013. – Vol. 113. – P. 3516.

7. Design, synthesis and anti-tuberculosis activity of 1-adamantyl-3-heteroaryl ureas with improved in vitro pharmacokinetic properties / E. J. North [et al.] // Bioorganic & Medicinal Chemistry. – 2013. – Vol. 21(9). – P. 2587-2599.

8. Ni B. Design and synthesis of pyridinium chiral ionic liquids tethered to a urea functionality / B. Ni, Q. Zhang, A. D. Headley // Journal of Organik Chemistry. – 2006. – Vol. 71. – P. 9857–9860.

9. Connon S. J. Organocatalysis mediated by (thio)urea derivatives/ S.J. Connon // Chemistry–A European Journal. – 2006. – Vol. 12. – P. 5418–5427.

10. Wittkopp A. Metal-free, noncovalent catalysis of Diels-Alder reactions by neutral hydrogen bond donors in organic solvents and in water / A. Wittkopp, P. R. Schreiner // Chemistry–A European Journal. – 2003. – Vol. 9. – P. 407–414.

11. Schreiner P. R. H-bonding additives act like lewis acid catalysts / P.R. Schreiner, A. Wittkopp // Organic letters. – 2002. – Vol. 4. – P. 217–220.

12. Synthesis and antimicrobial activity of sulphamethoxazole-based ureas and imidazolidine-2,4,5-triones / M. Krátky [et al.] // Chemical Papers. – 2015. – Vol. 69(8). – P. 1108-1117.

13. Synthesis and biological evaluation of 1-(2-(adamantane-1-yl)-1H-indol-5-yl)-3-substituted urea/thiourea derivatives as anticancer agents / Hu, H., [etal.] // RSC Advances. – 2017. – Vol. 7(81). – P. 51640–51651.

14. External stimulus-responsive supramolecular structures formed by a stilbene cyclodextrin dimer/ P. Kuad [et al.] // Journal of the American Chemical Society. – 2007. – Vol. 129 (42). – P. 12630–12631.

15. Ильясов Д.С., Ильясов С.Г. Разработка метода получения производных алкилмочевины // Ползуновский вестник. – 2015. – № 4. – С. 126-130. (1-7 adabiyot)

16. Ильясов С.Г., Лобанова А.А., Попов Н.И., Сатаев Р.Р. // Журнал органической химии. – 2002. – V. 38. – P. 1739.

17. Ильясов Д.С., Ильясов С.Г. Исследование взаимодействия динитромочевины с t-бутиламином // Ползуновский вестник. – 2013. – № 3. – С. 15–19.

18. Ильясов С. Г., Чикина М.В. Ползуновский вестник. – 2009. – № 3. – С. 11–13.

19. Shiino K. J. Ind. Explos. Soc. Japan. – 1968. – V. 29, № 5. – P. 343–346.

20. Синицына А.А., Ермошина В.А., Ильясов С.Г. Синтез 1,3-дизамещенных мочевины // Южно-Сибирский научный вестник. -2018. – № 4. – С. 50-54.

DARSDAN TASHQARI VAZIYATLARDA O‘TKAZILADIGAN PSIXOLOGIK USULLAR MAZMUNI

Gulhayo Faxriddin qizi Akmalova

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari mashg'ulotlar mazmunini psixologik baholash ushbu maqolada ko'rib chiqildi. Kichik sinf o'quvchilariga tabiatshunoslik va matematika bo'yicha bilim berish ayniqsa qiyin. Jumladan, endigina boshlang'ich sinfga qabul qilingan o'quvchilar ayniqsa matematika fanining nazariy asoslarini o'zlashtirishda o'qituvchi uchun bir qancha murakkab vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Mazhur holatga esa birinchi sinf o'quvchilarning hisoblash fanidan boshlang'ich tayyorgarlik darajalarining farqli ekanligi asos qilib ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: metodik o'yinlar, ishtiyoq, geometrik shakllar, romb, to'rtburchak, psixologik mashg'ulotlar, mantiqiy o'yinlar.

KIRISH

Buyuk chex pedagogi va olimi Ya.a.Komenskiy inson o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlarni ketmat-ket hamda bosqichma-bosqich, shuningdek tizimlashtirilgan holda o'rganish haqida o'zning ma'lum va mashhur "Buyuk didaktika" asarida shunday yozadi: Bizni o'rab turgan tabiatda jamiki mavjud narsalar o'zaro bir-biril uzviy bog'liq bo'lib, ushbu mutanosiblik ta'lim jarayonida ham o'z isbotini topgandir. Xususan, dastlabki bir bilim o'zidan keyingi mantiqan bog'langan bilimga shubhasiz yo'l ochmog'i hamda o'zaro bir-birini to'ldirib aloqadorlikda bo'lishi kerak deb hisoblaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya masalalari umumiy o'rta ta'lim bosqichida dastlabkisi bo'lganligi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'ziga xos ma'suliyat bilan yondashishni taqozo etadi. Ushbu mas'uliyat quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi:

1. Har bir fan doirasida dars mavzulari va o'quvchilar bilim hamda o'zlashtirish darajalaridan kelib chiqib, ko'rgazmali vositalardan foydalanish jarayonida;
2. Dars davomida esa darsning belgilangan asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, didaktik materiallarni qo'llash jarayonida.

Ta'lim bu o'quvchilar uchun dars jarayonida beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning ongli o'zlashtirilgan hamda



mustahkamlangan rejali shaklidir.

Yetuk boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tajribasi shu narsani ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich sinf ,matematika darsliklaridagi barcha mavzularda psixologik usullardan foydalanish mumkin. Hatto, «o'nlik» mavzusidagi birinchi darslarda ham didaktik o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari katta:

Masalan: 1). «Qo'shningni top» o'yinida 1-sinf o'quvchilari «o'nlik» mavzusidagi bir xonali raqamlar ketma- ketligida har bir (1 va undan boshqa) raqamning har ikk tomondagi qo'shnilarini topish bo'yicha amaliy ishlarni bajaradilar. o'qituvchi raqamlar to'plamidan biror (masalan, 4) sonni olib, o'quvchilarga ko'rsatib, o'quvchilarga bu (5) raqamning o'ng va chap tomondagi qo'shnilari qanday raqamlardan iborat bo'lishini so'rab, ularni topib, raqamlar qatoriga qo'yib bo'sh joylarni to'ldirish kerakligini so'raydi. Mazkur o'yinni individual yoki kichik-kichik guruhlar tashkil etgan holda ham tashkil etsa bo'ladi. Ushbu didaktik o'yindan maqsad qilingan asosiy ta'limiy maqsad, birinchi sinf o'quvchilarining bir xonali sonlar raqamlardan iborat bo'lishligini va sonlar ikki va undan ortiq raqamlardan tuzilishi kerakligi xususida dastlabki tasavvurlarni uyg'otishdan iboratdir. Rivojlantiruvchi maqsad esa ularni o'ngdan chapga va chapdan o'ngga qarab sanash, hisoblash ko'nikmalarini mustahkamlagan holda malakaga aylantirishdir.

«Do'konda» o'yini ikkinchi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning «100 lik» sonlari ichida og'zaki hamda yozma hisoblash ko'nikma va malakalarini mustahkamlash orqali ularga ta'limiy va iqtisodiy tarbiya berishga mo'ljallangan didaktik o'yindir.

Mazkur o'yindan ko'zlangan asosiy maqsad, ikkinchi sinf o'quvchilari bilan 100 soni va yuzliklar xonasini tashkil etuvchi birliklar haqidagi umumiy tushunchalarni aniq hamda keltirilgan sonlar misolida o'rganish va o'zlashtirishdan so'ng mustahkamlashdan iboratdir.

Ushbu o'yin davomida o'quvchilar do'kondan bir nechta o'yinchoqlar xarid qilishi va ularning umumiy qiymati 100 miqdoridan oshib ketmasligi talab qilinadi. Bu o'yinning yechimi turfa xil va variantbop bo'lganligi sababli ham o'yin yanada hayajonli va qiziqarli bo'ladi.

- «o'xshashlarini nomma-nom ayt», nomli o'yinda to'rtinchi sinf o'quvchilari planimetrik geometrik figuralar ichida o'zaro mutanosiblarini ajratib, ularning nomlarini to'liq talaffuz etish orqali geometrik figura va shakllar to'g'risidagi bilimlarining qanchalik to'g'ri va mustahkam ekanligini aniqlab oladilar. Masalan, sinf partasi ustidagi uchburchak, to'rtburchak, doira, yarim doira aylanalar (yarim aylana), ko'pburchaklar va boshqalar o'zaro aralashgan yoki yonma-yon bo'ladi. o'quvchilar esa ularni turma-tur,

nomma-nom ajratishlari kerak.

Bu o'yindan ko'zlangan ta'limiy maqsad ham o'ziga xos bo'lib, o'yin so'ngida yaqqol namoyon bo'lishi bilan ahamiyatlidir. o'quvchilar bu geometrik shakllar qanday rang va qanday kattalikda bo'lishidan qat'iy nazar bir nom ostida atalishini va ularning har biri alohida o'z nomlari (kvadrat, rom, trapetsiya, parallelogramm, to'g'ri to'rtburchak) yordamida atalishini guruh bo'lgan holda topishadi.

o'yin davomida bolalarning yuz-u ko'zidan tabassum arimaydi va har biri o'yinga singib juda katta ishtiyoq bilan qatnashishadi.

Bir so'z bilan aytganda, psixologik ta'sirga asoslangan usullar orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari, ishtiyoqlari namoyon bo'lib, dars samaradorligi hamda natijadorligi yuqori bo'ladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llaniladigan har bir o'yindan, albatta, muayyan didaktik maqsadlar nazarda tutiladi. Qo'llaniladigan o'yinlarning eng muhim ahamiyati ham ana shunda bo'lib, ushbu maqsadlar o'zaro uyg'un hamda bir-birini to'ldirgan holda bo'ladi.

Psixologik ta'sirga ega o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan maktabgacha ta'lim muassasalarida o'ynaladigan ijodiy psixologik mashg'ulotlar va o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi suhbat asosida og'zaki yo'l bilan tushuntiradigan va o'quvchilardan birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan psixologik treninglardan ham tamomila farq qiladi. Psixologik usullardan o'qitish, o'rgatish maqsadlari ko'zlanadi, ularda ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar o'zaro uyg'un va bir-birini to'ldirgan holda olib borilishi, ayniqsa o'ziga xosdir. Bolalar g'olib chiqish niyatida jiddu jahd bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqlarni bajarishga odatlanib qolishadi, natijada ularda didaktik vazifalarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Yuqori turdagi usullar har bir darsning maqsadlarini, har bir topshiriqdan ko'zlangan maqsad va vazifalarni yaxshiroq anglab olishga yordam beradi.

Psixologik usullar ta'lim va darslarning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining oratorlik qobiliyati hamda o'quvchilar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrok qilishda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) mutanaosiblik tug'iladi. Bu esa o'qituvchi tomonidan aytilgan topshiriqlarni o'quvchilar o'ylab bajarishiga va o'sha aytilgan vazifalarni tushuntirib berishlariga, ya'ni psixologik usullar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari mustaqil bajarishlariga imkoniyat yaratadi. Psixologik usullarning bu tarzda amalga oshirilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini kuzatish hamda tahlil qilish uchun qulay vaziyatlarni taqdim qilishi bilan xarakterlidir.

Psixologik usullar bolaning tafakkur doirasidan tashqari uning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatib, unda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat va qiziqishni paydo qilib tarbiyalab boradi.



o'quvchilar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan bajaradilar. Darsda tashkil qilinadigan o'yin boshlanishini esa diqqat bo'lib kutadilar, natijada ushbu holat ularning tasavvur doiralari ham ko'chib beixtiyor navbatdagi dars soatining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda o'quvchilarning aksariyat qismi yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida butun bir sinf masala yechadi, «Zanjircha»da esa 10nafargacha, «Do'koncha»da esa 8-12 nafar, «Narvoncha» da esa deyarli barcha o'quvchilar masala hamda misol yechadilar.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari bevosita aniq bir harakatlar bilan ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo -ishoralar yordamida bilvosita qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini hisoblaydilar yoki barmoqlari yordamida sanashga tushib ketishadi. Xayolot olamlarida tasavvur qilish uchun bir zum tek qolishadi, tinglash uchun diqqat qilishadi va hakovolar. «Eng yaxshi hisobchi», «Kim aniqroq va tezroq» kabi psixologik mashg'ulotlar va o'yinlarda esa hattoki chetdan kuzatib sinfdoshlarining qanchalik epchil hamda hisoblash ko'nikmalarini tahlil qilib boradilar. Bu esa o'qituvchi uchun yordam bo'lib uning jamoa bilan qaror qabul qilishi tezlashadi.

Bizga ma'lumki, bolalar o'qishning o'zidagina to'liqligicha rivojlana olmaydilar, balki ular o'yin jarayonida gina nazariy bilimlarini mustahkamlab imtihondan o'tkazib olishadi, o'zaro hamjihat bo'lishga, jamoaviy ishlashga, natija uchun har biri astoydil kirishishga o'rganadilar.

Psixologik usullarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, psixologik usullar o'zaro hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam berar ekan, chunki har bir o'yinda oxirgi natija muhim bo'lib g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq, bu esa o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy hamda izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq?», «Bo'sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Ko'rganni eslab qolish diktanti» singari psixologik topshiriqlar o'tkazish paytida o'quvchilarning sinf xonasida jimjitlik hukm surishiga, o'quvchilarning o'zlarini nazorat qilishlariga, partadan ohista turib turib, shovqin qilmay doskada hoziru nozir bo'lishlariga, so'ng o'rinlariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, topshiriqlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga diqqat bilan e'tibor qilishlariga erishiladi.

Bundan tashqari, o'yin o'tkazilayotgan vaqtda o'yinqaroq bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini qila boshlaydilar, o'qituvchining o'yin shartlarini ko'rsatib berishini kutmaydilar ham, qoidalarni o'zlari bajonidil va mustaqil



bajaradilar. Psixologik usullar vaqtida o'quvchilarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha taqsimot qilish qobiliyatlari shakllanib boradi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, psixologik usullar bolalarda do'stlik, oliyanoblik, mehnatsevarlik fazilatlarini tarbiyalash va o'stirishga yordam beradi. «Kim turgan saf yaxshiroq», «Zanjircha», «Narvoncha», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin» singari ruhiy ta'sirga ega o'yinlar o'tkazilayotganda o'quvchilar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf yoki jamoa, qator va so'ngida esa o'z sinflarining nomi uchun bellashadilar.

odatda o'quvchilar o'yin davomida bir-birlariga yoki jamoadoshlariga dalda bo'lib turadilar, agar jamoadoshlari topshiriqni to'g'ri uddalay olsa, undan behad mamnun bo'ladilar va u bilan faxrlanishni boshlaydilar.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, o'yin o'tkazilayotgan paytda o'quvchilarda hasad, asabiylashish, odobsizlik qilish holatlari kabilar uchramaydi.

Psixologik usullar kreativ shaxsni, shuningdek ruhan sog'lom, aqlan yetuk shaxslarni tarbiyalashga katta yordam beradi, chunki har bir o'yin, uning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga o'zgacha yondashuv bilan birgalikda aqliy tafakkur hamda tarbiyaviylikni talab qiladi. Bu esa uni hal qilishda ijodiy tafakkurni keltirib chiqaradi.

Psixologik mashg'ulot va o'yinlarda tirishqoqlik, kreativlik, matonatlilik, sabrlilik, ma'suliyatlilik singari eng kerakli irodaviy fazilatlar tarkib topadi hamda toblanib boradi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida berilgan misollarning barini yechish kerak, aks holda, oxirgi sonning birinchisiga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlab bo'lmaydi.

Eng ahamiyatlisi esa psixologik va didaktik o'yinlar o'qituvchini o'quvchilarga ham qalban ham ruhan yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida oddiy pedagoggina bo'lmay, balki chinakam do'st va hamfikrga ham aylanadi.

XULOSA

Ta'lim jarayonida psixologik usullar mohiyati va ahamiyatini chuqurroq, shu bilan birgalikda aniqroq tasavvur qilish maqsadida mazkur maqolada qo'llaydigan ta'lim shakllari, o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari singari tushunchalarning tavsifiga va ularning mazmunini ochib berishga to'xtalib o'tishilishi zarur hisoblanadi.

o'yin - bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan va ularning kundalik hayotlarida ajralmas qismga ega bo'lgan faoliyatdir. o'yin sinfda o'tilgan o'quv jarayonini mustahkamlash uchun



ajoyib imkoniyatdir. Tajribalar shuni isbotlaganki, o‘yin kichik yoshdagi o‘quvchilarning kerakli hayotiy ehtiyoji va talabidir.

Didaktik o‘yin - ta‘lim beruvchi usul bo‘lib, mazkur usul muayyan ta‘limiy maqsadlarga qaratilgan bo‘ladi, ya‘ni o‘tilgan o‘quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uning mohiyatini ochib berishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinni o‘tkazishda muayyan maqsad, albatta, ko‘zlanadi. Didaktik topshiriq darsga qo‘yiladigan umumiy maqsadning yuzaga chiqishida asosiy vosita bo‘lin xizmat qiladi. Har bir didaktik o‘yinning o‘ziga xos qoidalari bo‘lganligi sababli ushbu qoidalarga amal qilinmasa, o‘yinning o‘yin sifatidagi dolzarbligi, binobarin, o‘yinning ta‘lim-tarbiyaviy, psixologik, mantiqiy ahamiyati o‘z ma‘nosini yo‘qotadi.

o‘yin qoidalari o‘yin topshirig‘iga kiritilib, o‘qituvchining bolalarga o‘yinning qanday o‘ynalishini, kim g‘olib chiqqan hisoblanishini va hokazolarni tushuntirish tarzida beradigan topshirig‘I bo‘lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 06/22/113/0330-son
2. o‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta‘lim to‘g‘risida. o‘RQ-637-son. 2020 yil 23 sentyabr. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
3. Interfaol metodlardan foydalanish // Boshlang‘ich ta‘lim, 2008. №11, 2631 bet
4. Sherimbetova Z.Sh. [Boshlang‘ich sinflardagi o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari: psixol.](#) fan. nomz. diss... Toshkent, 2007. – 160 b.
5. Jumaev M.E., Tadjieva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. - Toshkent: o‘qituvchi, 2006.

МОДЕЛИРОВАНИЕ ВЕРОЯТНОСТНЫХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ В СИСТЕМЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ МАТЕМАТИКИ WOLFRAM|ALPHA

З. С. Ганиева

Самаркандский институт экономики и сервиса, ассистент

АННОТАЦИЯ

Рассмотрены некоторые возможности облачной технологии Wolfram|Alpha, использование вложенных функций компьютерного моделирования на примере раздела теории вероятностей, а также приведены примеры конкретных компьютерных имитационных моделей по курсу теории вероятностей, которые могут быть легко получены в системе компьютерной математики Wolfram|Alpha.

Результаты, полученные в данном онлайн сервисе в виде моделей, например, могут быть использованы в дальнейшем при проектировании электронных учебно-методических комплексов.

Ключевые слова: высшее образование, теория вероятностей, Wolfram|Alpha, методика преподавания.

ABSTRACT

Some possibilities of Wolfram|Alpha cloud technology are considered, the use of nested computer modeling functions on the example of the section of probability theory, and examples of specific computer simulation models in the course of probability theory, which can be easily obtained in the Wolfram|Alpha computer mathematics system, are given.

The results obtained in this online service in the form of models, for example, can be used in the future when designing electronic educational and methodological complexes.

Keywords: higher education, probability theory, wolfram alpha, teaching methods.

ВВЕДЕНИЕ

Раздел теории вероятностей является важной составляющей математической подготовки будущих выпускников экономистов, управленцев и других специалистов. Между тем, в последнее время наблюдается значительное сокращение учебного времени, отводимого в высших учебных заведениях на изучение

математики. Применение информационных технологий является одним из решений указанной проблемы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

«Основной отличительной особенностью деятельности человека в системе «человек – компьютер» является то, что значительная часть умственных действий и операций выносится во внешний план и там автоматизируется» . [1]. Потому обращают все большее внимание на привлекательность использования сервисов компьютерной математики. Необходимо отметить, что речь идет вовсе не о полной замене лекционного или практического занятия использованием системы. Академик П.С. Краснощеков указывал, что необходимо «взвешенно подходить к внедрению информационных технологий в образование [2]. Целесообразно будет, если системы компьютерной математики будут использованы на занятиях для нематематических направлений подготовки студентов. Однако, системы компьютерной математики могут быть использованы не только для закрепления знаний. При изучении раздела теории вероятностей и математической статистики часто основное внимание уделяется рассмотрению элементов комбинаторики, основным теоремам о вероятностях, формулам Бернулли и ее приближениям. «При таком подходе, как правило, не уделяется достаточно внимания имеющему первостепенное прикладное значение аппарату случайных величин». [6] В результате основные трудности будут заключаться «в понимании того, как именно с помощью этого аппарата описываются и исследуются реальные явления и процессы» [6] .


Одним из популярных сервисов, используемых в преподавании математики является Wolfram|Alpha. Рассмотрение исследовательского и дидактического потенциала данной системы является важной педагогической задачей, связанной с повышением качества прикладной математической подготовки бакалавра. [7, 8]

Wolfram|Alpha представляет собой вычислительную машину знаний. Это онлайн сервис, построенный на базе системы компьютерной математики Wolfram Mathematica с огромной библиотекой алгоритмов и базирующийся на NKS-подходе к построению ответов на запросы. Основу NKS подхода составляют тезисы, изложенных Стивеном Вольфрамом в книге «A New Kind of Science». Утверждается, что «природу вычислений необходимо изучать экспериментально», а сами результаты имеют большое значение для понимания окружающего мира,




который предполагается дискретным. [9] Таким образом, вычислительная наука описывается как пересечение математических, инженерных и научно-эмпирических традиций. [10]

Рассмотрим некоторые примеры использования сервиса Wolfram|Alpha для моделирования экспериментов по теории вероятностей. Для начала рассмотрим самый простой эксперимент с бросками монет. Для имитационного моделирования бросков нескольких монет (в примере использовано 5 монет) достаточно ввести в строку ввода запроса: 6 coin tosses. В результате появится окно с информацией по распределению, которое получается в данной задаче. При этом, в данном окне есть раздел Example, который содержит конкретный пример бросков монет и который можно менять случайным образом, для чего необходимо просто щелкнуть по кнопке Flip again (скриншот_1). При этом, помимо собственно экспериментальных данных данное окно содержит и всю информацию о распределении, например, гистограмму распределения, ряд распределения.



Скриншот_1

Нажимая на правую кнопку flip again можно видеть изменения сочетаний монет скриншот_2:



Скриншот_2


Можно смоделировать число перестановок из элементов множества (a,b,c):

Скриншот_3

Например, число комбинаций 2 из пяти заданных элементов, задается командой combinations 2 of 5:


Скриншот_4

Посмотрим как решается задача о бросках пяти игральных кубиков введя в строку «5 dice» (Скриншот_5)



Скриншот_5

Нажав на кнопки More statistics и Exact forms можно получить полную информацию о случайной величине и вероятности (в рациональных числах):




Скриншот_6

Для задачи с заданным математическим ожиданием $M(X)=0,1$ и дисперсией $D(X)=1,3$ непрерывной случайной величины, можно ввести команду «normal distribution,




mean=0,1, sd=1,3» можно получить полную информацию о величине:



Скриншот_7

Если нажать на кнопку Show formulas и inner (здесь выберем заполнение правой части графика – Left_tail), то получим скриншот_б, где информация будет видоизменена:



Скриншот_8

Все результаты запросов Wolfram|Alpha можно скачать в виде интерактивных приложений в формате CDF, которые потом можно вставить в качестве отдельных элементов,

используемых в качестве демонстрационного материала. При этом данные элементы сохраняют полную интерактивность и могут также использоваться для целей имитационного моделирования при изучении соответствующих разделов курса теории вероятностей.

ВЫВОДЫ

Развития компьютерных технологий способствуют внедрению в практику преподавания сервисов компьютерной математики. Их можно использовать в целях математического моделирования процессов при обучении экономическим и управленческим специальностям.

Сервис Wolfram|Alpha обладает интересными возможностями, позволяющими использовать его в качестве инструмента математического моделирования. В статье рассмотрены некоторые модели экспериментов, которые можно использовать при изучении разделов теории вероятностей.

REFERENCES

1. Пестова М. С. Информационные технологии при изучении теории вероятностей // Концепт. – 2013. – № 01 (январь). – ART 13010. – 0,4 п. л. – [URL: <http://ekoncept.ru/2013/13010.htm>].
2. Краснощеков П. С. Компьютеризация... будем осторожны! // Математика в высшем образовании. – 2007. – № 5. – С. 65–74.
3. Олейников А.И., Рашевская Н.В., Рашевский Н.А. О компьютерном моделировании в курсе теории вероятностей и математической статистики // Теория и методика обучения математике, физике, информатике. 2003. Т. 3. № 1 (7). С. 216-220.
4. Драгныш Н.В. Использование методов имитационного моделирования для преподавания курса «Теория вероятностей и математическая статистика» // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2011. № 12. С. 26-29.
5. Муханов С.А., & Муханова А.А. (2019). Использование сервиса Wolfram|Alpha при моделировании вероятностных экспериментов. Современное педагогическое образование, (2), 67-69.
6. Gray, Lawrence (2003). "A Mathematician Looks at Wolfram's New Kind of Science". Notices of the AMS.

O‘ZBEK TILIDA SHAXS MA’NAVIYATI TUSHUNCHALARINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR TASNIFI

Gulbahor Nomozovna Tojiyeva

Qarshi davlat universiteti dotsenti

tojiyevagulbakhor@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek tilida shaxs ma’naviyati tushunchalarini ifodalovchi leksemalar tahlilga tortilgan. Shaxs ma’naviyatini anglatuvchi leksemalarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, shakliy strukturasi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, izohli lug‘atlarda shaxs ma’naviyatini ifodalovchi leksemalarning tavsifi keltirilgan bo‘lib, ularning lug‘atlardagi izohi, statistik ma’lumotlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: leksema, ma’naviyat, lug‘at, o‘zbek milliy tafakkuri, leksikografik dalillar, axloqiy qadriyatlar, “ma’naviyat” kategoriyasi, leksik kategoriyalar.

KIRISH

Ma’naviyat, avvalo, inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha sifatida baholanadi. Insonning ma’naviy yetukligiga qarab uning aqliy salohiyatiga, dunyoqarashiga, hulq-atvoriga, egallagan bilimlarining amaliyotga tatbiqi, ya’ni aqliy ko‘nikmalarining atvorida aks etishiga baho berish mumkin. Insonning ruhiy olamining yetukligi u o‘zlashtirgan ma’naviy barkamollikka eltuvchi manbaalar bilan tanishganligi va ularda aks etilgan qarashlarning o‘zida mujassamlashtirganlik darajasiga qarab baholanadi. Ruhiiy va aqliy olamning qanchalik yuksak ekani ma’naviy yetuklikning darajasiga qarab belgilanadi. Ushbu me’zonlar jamiyatdagi shaxslarning ma’naviy salohiyati tahlil qilinishi natijasida shakllangan. “Ma’naviyat” kishilarning axloqiy, diniy, falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy tasavvurlarini o‘z ichiga oluvchi keng tushunchadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Ma’naviyat” sistemaviylik tabiatiga ega semantik kategoriya bo‘lib, uning mohiyati tarkibiy qismlarini aniqlash yo‘li bilan ochiladi. E’tibor beradigan bo‘lsak ma’naviyat tushunchasi ostida muomala qilish madaniyati, insof, adolat, vijdon, yolg‘on, rost, or-nomus, halol va harom kabi ko‘plab tushunchalar birlashib kelib, umumiy ma’naviyat



semantik kategoriyasi ostida yaxlidlashadi. Ushbu tushunchalarning har birining mazmun ko‘lami mavjud va ular alohida kelganda o‘z ma‘nosini ifodalash bilan birga ma‘naviyatning ma‘lum bir semasini o‘zida mujassamlashtirib, o‘sha maydon ostida ma‘naviyatning bir semasini ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu tushunchalarning integral va differensial semalari ham farqlanadi. Misol uchun halol va harom tushunchalarini olganimizda ushbu tushunchalar ma‘naviyatning ma‘lum bir semasini ifodalab, inson hulqida, ongida aks etishi, ularning mohiyati anglashilishi va ma‘nan barkamolligiga olib kelishining ma‘lum bir maydonini to‘ldirishga xizmat qilib kelishi tushuniladi. Ular mazmun ko‘lamidagi salbiylik hamda ijobiylik ottenkalari, xususiyatlari ushbu leksemalarning semantik maydonida farqliliklarni belgilashga olib keladi. Biz bu o‘rinda halol va harom tushunchalarining mazmun-mundarijasidagi semantik jihatlarga to‘xtalmoqchi emasmiz. Faqatgina lingvistik va leksikografik talqinlarida integral va differensial tafovutlar mavjudligi va ular turlicha asoslanishini ta‘kidlamochimiz. Biz bu borada ishning keyingi qismlarida to‘xtalishimizni inobatga olib ushbu o‘rinda keng to‘xtalmaymiz.

Aslida ma‘naviyat semasi ostida birlashgan tushunchalarning har biriga mustaqil leksik birlik sifatida to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu tushunchalar inson hulq-atvorini yuksalishiga xizmat qiluvchi birliklar sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan bir qatorda ushbu tushunchalarda namoyon bo‘luvchi hislatlarning shaxsda aks etishi, ma‘naviyat kategoriyasi ostida birlashgan tushunchalar birma-bir mujassamlashishi insonning ma‘naviy salohiyatining yuksalib borishiga olib keladi. Shuni ham ta‘kidlash joizki, ma‘naviyat semantik maydonida birlashgan tushunchalar tizimlilik xususiyatiga ega bo‘lib, ular, albatta, biri ikkinchisini taqozo etadi. Shu sababdan ham ular bir-birini to‘ldirish barobarida shaxsni ham yetuklikka va ma‘naviy barkamollikka eltadi.

Ma‘lumki, o‘zbek milliy tafakkurida “ma‘naviyat” tushunchasi ming yillar davomida barqaror tarzda xalq dunyoqarashining tarkibiy qismi sifatida mustahkam o‘rin olgan. O‘zbekiston hududida istiqomad qilgan kishilarning katta qismi ma‘naviyat tushunchasi ostida birlashgan assotsiatsiyalar asosida insonlar yodida saqlanishi bejiz emas. Tarixga nazar solganimizda, avvalambor, xalq og‘zaki ijodi namunalari ma‘naviyatli shaxs sifatida gavdalantirilgan ko‘plab qahramonlar yuksak ahamiyat kasb etgan. Savol tug‘ilishi mumkin, ma‘naviyat xaqida ma‘naviyatli shaxs haqida nimadir yozish yoki ma‘naviyatni badiyatda ifodalash nimaga borib taqaladi? Bu real hayotda ma‘naviyatli kishilar bilan munosabatda bo‘lishi natijasida shakllanishi barchamizga ma‘lum. Bunday asarlarni mutolaa qilgan xalq

vakillarida ma'nan yetuklik yuksalishi tabiiy hisoblanadi. Tariximizda xalq og'zaki ijodi namunarida ta'riflangan ma'nan etolonlik darajasiga olib chiqilgan shaxslar o'quvchini ham ma'nan yetuklikka undaydi. Aytish mumkinki, millatimizda mavjud ma'naviyatlilik ma'nan yetuk kishilarning ko'pligi, ta'sir doirasining yuksak ekani hamda xalqimizning bu jihatga befarq emasligidadir. Badiiy adabiyot namunalarida ham ma'naviyat suvi bilan sug'orilgan g'oyalar, ma'naviy hislatlar bilan to'yintirilgan qahramonlarni ko'plab uchratamiz. Bularning barchasi xalqimiz ongida qator ma'naviyat assotsiatsiyalarini shakllantirgan.

Shunga qaramay, yaqin o'tmishimizda uning rasmiy lisoniy ifodasi mavjud emas, hatto nutqda ham qo'llanmas edi. Shu bois o'tgan asrda yaratilgan qomus va ensiklopedik lug'atlarda uning mohiyatiga tavsif beruvchi talqin va izohlarni ko'rmaymiz. Jumladan, 1981 yilda nashrdan chiqqan 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham ma'naviyat leksemasi berilmagan, biroq unga genetik jihatdan aloqador bo'lgan ma'naviy leksemasining izohlanganligida bir necha mafkuraviy va gnoseologik hamda kognitiv asoslar bor. Lug'atda ma'naviy so'zining ikki ma'nosi va ma'naviyat so'zi keltirilmagan holda ma'nan so'ziga izoh beriladi:

MA'NAVIY (a) 1 Kishining ichki ruhiy hayotiga oid. Ma'naviy ehtiyojlar. Ma'naviy yordam. Yosh sovet o'qituvchisining har bir ishi zag'chako'z domlaga ma'naviy jihatdan ham, moddiy jihatdan ham zarba edi. P.Tursun, O'qituvchi.

2 ayn. **axloqiy** Kishining ma'naviy qiyofasi.

MA'NAN [a] rvsh 1 Ma'naviy jihatdan, ruhan. Uning (Yusufbek hojining) har bir ra'yiga Normuhammad qushbegi qonunan majbur bo'lmasa-da, ma'nan bir majburiyat his etar edi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Ma'nan va jisman ezilgan ...Anvar ...go'yo hushsiz kabi boshini ikki qo'li orasiga olib, sandal ustiga engashdi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

2 Ma'no jihatdan, ma'nosiga ko'ra. Ma'nan bir xil so'zlar.

Ushbu leksikografik dalillar ko'rinadiki, istiqlolgacha bo'lgan o'zbek rasmiy leksikonida ma'naviyat leksemasi o'ta passiv darajada bo'lib, ijtimoiy tor qatlam nutqi va tafakkuridagina mavjud edi. Garchi bu leksema qo'llanmasa-da, uning denotati – ya'ni borliqdagi ifodalanmishi mavjud edi. Biz yuqorida ma'naviyat so'zining qo'llanilishiga e'tibor qaratdik. Tarixan ma'naviyat tushunchasi xalqimiz ongida chuqur joy olganligi haqida ham fikrlarni bayon qildik. Aytish mumkinki, rus bosqini davrlarida ma'naviyatga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada pasaydi. Ammo qayd etish joizki, XX asr boshlarida qator ijodkorlar tomonidan ma'nan yuksaklikka undovchi ko'plab asrlar dunyo yuzini ko'rdi. Mustamlakachilik yillarida xalqning ta'lim olish

darajasi sezilarli darajada pasaydi yoki aholining o'sish ko'rsatkichiga mos ravishda oshirilib borilmadi. Bu esa xalqimiz dunyoqarashida ma'naviyat tushunchasining yetarlicha o'sishiga to'sqinlik qildi. Umuman ushbu leksemaning ma'no talqinlarida o'zgarishlar sodir bo'lib, uning mazmun-mundariyasi kambag'allashtirilib kelindi. Aslida xalq ongida yuksak ahamiyat kasb etishi lozim bo'lgan tushuncha istiqloq yillariga qadar onda-sonda murojaat qilinuvchi birlikka aylantirildi. Manbaalarda berilishi esa yuqorida qayd etilganidek oddiy tushuncha sifatida mohiyati to'la ochilmay aks ettirildi. Shunday bo'lsa-da ushbu tushuncha aholining ma'lum bir qatlami doirasida saqlanib, ularning hayotida o'z mohiyatini yo'qotmay keldi. Keyingi davrlarda ushbu holatlar barham topa boshladi. "Ma'naviyat" umumiy semali til birliklari, uning tarkibiga kiruvchi behad katta miqdordagi lisoniy ifodalar – so'zlar, maqollar, matallar, iboralar ming-ming yillar davomida xalqimiz shuurida sayqallanib, boyib borar, yozma adabiyot, xalq og'zaki ijodida faol qo'llanar edi. Yangi davr izohli lug'atlaridagi quyidagi talqinlar fikrimizning dalilidir:

“MA’NAVIYAT [a. معنویت - axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar | Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh. k. tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Gazetadan. .. ma'naviyatimizga ta'sir etuvchi jihatlar shunchalik ko'pki, ularni sanab, sanog'iga yeta olmaymiz. Gazetadan. Zero, naqshbandiya ta'limoti – ma'naviyatimiz sarchashmalaridan biri hisoblanadi. Gazetadan. Ajdodlarimiz falsafasi ham ma'naviyatimizdir. Gazetadan. Biz talabalarga Sharq ma'naviyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni haqida o'rgatamiz. Gazetadan.

Modomiki, ma'naviyat insoniyatning ajralmas bo'lagi ekan, insoniyat ma'naviyatsiz mavjud bo'lmas ekan, uni lug'atlarga shunchaki kiritmaslik orqali mahv etib bo'lmaydi.

Ma'naviyat ifodasi o'zbek tilining yangi izohli lug'atlarida o'zgacha talqinlarda, o'zbek milliy psixologiyasini inobatga olgan holda tavsiflanmoqda.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”	Ma'naviyat leksemasining qo'llanishi
1-jild	1
2-jild	13
3-jild	5

Bu holat ma'naviyat leksemasining o'zbek ijtimoiy ongida qanchalik faol va ustuvor bo'lib borayotganligini ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida ushbu tushunchaning

mundarijasida mohiyatan butunlay yangilanish sodir bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Uzoq davrlardan beri sayqallanib kelayotgan tushuncha qaddini tikladi va talqin tavsifida kengayish yuz berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy dunyoqarashdagi tub o‘zgarishlar, insonning o‘zini va borliqni idrok etish usulining yangi sifat bosqichiga ko‘tarilayotganligi, milliy ma’naviyat va merosga munosabatning yangicha tus olayotganligi, “milliy o‘zlik” tushunchasining qadriyat darajasiga ko‘tarilayotganligi, taraqqiyotning tayanch hodisasi ifodasi sifatida anglanayotganligi, ma’naviyat hodisasiga munosabatni butkul o‘zgartirishni taqozo etmoqda. Albatta, jahon ayvonida munosib mavqe va rutbaga ega bo‘lish faqat texnik-texnologik va iqtisodiy omillar bilan emas, balki ma’naviyatni saqlash va rivojlantirish, milliy qadriyatlarni umuminsoniy ideallar bilan mos taraqqiy ettirish asosidagina sodir bo‘lishini nafaqat anglab yetish, balki unga amaliy yondashish zarurligini taqozo etmoqda.

Milliy ma’naviy tutumlar haqida faylasuf va tilshunoslar, adabiyotshunos va etnograflar ko‘plab nazariy tadqiqotlar yaratishgan. Masalan, L.A.Stepanyuk “Система базовых моральных ценностей как основа нравственного становления личности” nomidagi asarida quyidagi asosiy axloqiy qadriyatlarni sanaydi: добро (ezgulik), совесть (vijdon), долг (burch), ответственность (mas’uliyat), справедливость (adolat).

P.YE.Matveyev muhim axloqiy qadriyatlar sifatida ezgulik, birlik va ozodlikni ajratadi. A.I.Titarenko “Моральные ценности и личность” kitobida inson axloqiy tutumlarini ifodalaydigan дружба (do‘stlik), свобода (ozodlik), любовь (sevgi), добро (ezgulik), чест (vijdon) tushunchalarini farqlagan. V.A.Kondrashov esa совесть (vijdon), справедливость (adolat), единство (birlik) tushunchalarini ajratib ko‘rsatgan.

“Mavzuviy falsafiy lug‘at”da ezgulik, baxt, adolat, sevgi tayanch axloqiy tushunchalar sifatida belgilangan. E’tibor qilinsa, “ezgulik” giperonimik (uya) tushuncha, u qatordagi boshqa barcha tushunchalarni qamrab olsa-da, ular bilan bir paradigmaga qo‘yilgan. Bu holat umumiy va xususiy tushunchani tenglashtirishdan boshqa narsa emas.

Turli lug‘at va boshqa manbalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, har qanday tilda quyidagi yaxlit tushunchalarni “ma’naviyat” kategoriyasining tarkibiy qismlari, tayanch ma’naviy tushunchalar sifatida ajratish mumkin:

- vijdon;
- muhabbat;
- farosat;

- fidoyilik;
- axloq;
- nafsni tiyish;
- samimiyat;
- takomillashuv.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, xalq tili tarixiy taraqqiyot o'zanida qaror topgan, qattiq obyektiv qonuniyatlar tishlaridan omon chiqqan til. Uning go'zalligi sun'iy ravishda o'rnatilgan qat'iy meyoriy qoidalar zanjiridan ozodligida, hududiy o'ziga xosliklarga ega, goh behad nozik, gohida anchayin dag'al, dag'alligi ham xalq ibosi va hayoti bilan o'ralganligida. "Adabiy til esa ana shu xalq tilining, aytish mumkinki, yagona ko'rkli va komil "farzandi"dir. O'zbek adabiy tili o'zbek xalq tili zaminida tarkib topgan, u xalq tilining tegishli qonuniyatlar asosida mezonlashtirilgan, sayqallangan, oro berilgan shaklidir. O'zbek adabiy tilining shakllanish asosi ham, boyish va oziqlanish manbai ham ayni shu xalq tilidir. Adabiy tilimizning tanti tirgagi, sinoatli sarchashmasi qamrovi sarhad bilmas xalq tilidir. Bugungi o'zbek adabiy tilimizning boyligi va favqulotda ifoda imkonlariga egaligi aslida xalq tilimizning rasoligi va ravonligi bilan izohlanadi".

O'zbek adabiy tilida o'zbek ma'naviyatini ifodalaydigan katta miqdordagi leksik-frazeologik va paremiologik boylik mujassam. Har bir so'z, har bir qo'shimcha, fonetik tovlanish va variantlar, tilning chayir mantig'ini namoyon qiluvchi betakror sintaktik qurilmalar xalq ruhiyatini zohir qiladi, xalq ma'naviyatini ko'rinuvchi go'zallikka aylantiradi.

Ma'naviyatga, avvalo, insonga xos o'zgartirib bo'lmaydigan barqaror ichki sifatlar sifatida qarash holatlari ko'proq uchraydi. Uning mohiyatini ilohiy, hodisasini esa har bir insondagi ruhiy kuch, tug'ma diyonat, vijdon, insof, iymon deb tushunadilar. E'tibor qiling, ma'naviyat va qadriyat aslida ilohiy hodisa, u oila, millat, xalq, davr qadriyatlari orqali namoyon bo'ladi.

Ma'naviyat tushunchasi doirasidagi leksik birliklar o'z semantik maydoni doirasida ma'naviyatsizlikni ifodalovchi birliklarni ham qamrab olishini qayd etish joiz. Ayrim olimlar ma'naviyatsizlik ma'naviyatning tarkibiga kirmaydi va undan tashqarida deb biladilar. Masalan, faylasuf A.Erkayev ana shunday fikrda: "Ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish va undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl



insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan yaxlitligidir... Ma'naviyat bu shunchaki insoniy xislatlar majmui emas, fazilatlar majmuidir”.

Bu holatni boshqa mualliflarning qarashlarida ham ko'ramiz: “Inson ongli faoliyatining, tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma'naviyat bo'la olmaydi. Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy, ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlarigina ma'naviyat deb ataladi”.

Nutqimizda ma'naviy qashshoq, ma'naviy tubanlik, ma'naviy tanazzul kabi birikmalarning mavjudligi ma'naviyat so'zi salbiy ma'no bildiruvchi atov birliklar bilan birga kelib, ma'naviyatsizlikni ham qamrab olishini ko'rsatadi. Masalan, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da bashara leksemasining bir ma'nosi sifatida “3 ko'chma Kishining ma'naviy qiyofasi” ma'nosi ham berilgan va quyidagi misollar bilan dalillangan: Odamlarning “har ikki dunyosi” uchun ham go'yo jonkuyarlik qilgan bu xudo vakili [Zag'chako'z] xurjunini to'ldirib, shaharga borganda, asl basharasini ko'rsatar edi. P.Tursun, O'qituvchi. G'ofir tobora avjiga chiqar, boyning haqiqiy basharasini ochishda davom etar edi. K.Yashin, Hamza.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek adabiy tilida ma'naviy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar katta qismni tashkil etib, ularda xalqning ma'lum madaniy qarashlari ifodalangan. Mustaqillik yillarida ma'naviy tushunchalarning mazmun-mundarijasida anchagina o'sish sodir bo'lganligini, xalq hayoti va dunyoqarashining ma'naviy yuksalishi sezilarli darajada oshganligini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan bog'liq holda ma'naviy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar mazmunida ham o'sish sodir bo'lib ular anglatgan tushunchalar xalqimiz ongida chuqur o'rin egallay boshladi. Shuningdek, istiqloq yillarida bunday tushunchalarning leksikografik talqinida ham mohiyatan o'zgarishlar ko'zga tashlanib, ularning tavsifi va talqinida ma'nan barkamollikka undovchi jihatlar kengroq aks ettirildi.

REFERENCES

1. Zikrillayev F. Ma'naviyat – aql-idrok mahsuli // “Ishonch”, 1995, 28 iyul
2. Matveyev P.YE. Moralniye sennosti: monogr. – Vladimir: Vladim. gos. un-t, 2004. – 190 s.
3. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B .26.
4. Moralniye sennosti i lichnost / pod. red. A.I. Titarenko, B.O. Nikolaicheva. – M.: Izd-vo MGU, 1994. – 175 s.



Oddiy bug'doy (*Triticum aestivum* L.) tabiiy duragaylanish va *T. turgidum* ssp o'rtasida xromosomalarning ikki baravar ko'payishi natijasida olingan. Sintetik geksaploid bug'doy turli xil fotoperiod va vernalizatsiya sharoitlariga yaxshi moslashgan, balki sho'rlangan, past pH muhiti, alyuminiy va sovuq sharoitlarda ham o'z avlodlariga qaraganda mustahkamroq o'sishi bilan mashhur asosiy ekinga aylandi [1].

Sintetik geksaploid bug'doy tizmalarining aksariyati qattiq bug'doy (*T. turgidum* ssp. *Durum* AABB) va *Aegilops tauschii* (DD) ni chatishtirish orqali yaratilgan. Aksariyat hollarda diploid turi qattiq bug'doyni changlatish uchun ota-ona sifatida ishlatiladi. O'zaro chatishtirish natijasida F_1 avlodlar olishda kamroq muvaffaqiyatga erishish mumkin. Chunki, ayrim hollarda turlararo chatishtirishdan (*durum* Ae. *tauschii*) olingan embrionlar rivojlanishi mumkin, lekin endospermlar rivojlanmaydi. Shunday qilib, changlatishdan 2-3 hafta o'tgach, embrionni yashovchanligini saqlab qolishni o'tkazish kerak [1]. Bu jarayon davomida embrionlar yetilmagan urug'lardan ajratiladi va to'g'ri rivojlanishi uchun shakar va tuz kabi ozuqa moddalari bo'lgan agar muhitiga o'tkaziladi.

O'tgan asrning 80- yillari o'rtalaridan boshlab butun dunyo bo'ylab 1500 dan ortiq sintetik bug'doy shakllari, shu jumladan 900 tasi Ae *tauschii* asosida olingan. 2003 yilda Ispaniya Carmona [2] nomi ostida CIMMYT sintetik bug'doy hosilasini oldindan ro'yxatdan o'tkazdi. Shu bilan birga, Xitoy ham birinchi sintetik olingan navni ro'yxatdan o'tkazdi.

Mujeeb-Kazi, Delgado va boshqalar sintetik bug'doydan seleksiyada foydalanishning an'anaviy strategiyasi, sintetik bug'doyni eng yaxshi moslashuvchan bug'doy navlari bilan chatishtirib, so'ngra bekkrosslarni va D genom donoridan qimmatli rekombinatsiyalar bilan sintetik bug'doy liniyalarini oladilar.

Ae. tauschii oddiy bug'doyning D subgenomidan, xususan, asosiy barg kasalliklari, zararkunandalarga chidamliligi va donning biokimyoviy tarkibi jihatidan ancha yuqori sanaladi. Dunyo aholisining taxminan chorak qismi temir (Fe) tanqisligidan kelib chiqqan sog'liq muammolaridan aziyat chekmoqda [3]. Oddiy bug'doy don mahsulotlarini iste'mol qiladigan odamlar uchun yetarli miqdorda Fe va rux (Zn) ni ta'minlamaydi. Sintetik geksaploid bug'doy mikronutrientlarga boy "biofortifikatsiya" bug'doyini rivojlantirish uchun muhim manba sifatida qabul qilingan [4]. Bir nechta sintetik geksaploidlar mikroelementlar va makroelementlarning yuqori konsentratsiyasiga ega [5].

Cooper, Ogonnaya, Van Ginkel, Gill va boshqa olimlar bug'doy seleksiyasi uchun istiqbolli boshlang'ich manbalar tanlab olishda bug'doyning 1000 dona massasi, mahsuldorligi, qurg'oqchilikka chidamliligi va yuqori sifat ko'rsatkichlariga e'tibor qaratganlar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sintetik geksaploid bug'doy genotiplari abiotik stresslarga bardoshlilik va mahsuldor ekanligi aniqlangan.

Ae. tauschii ko'plab kasalliklarga chidamli genlar uchun qimmatli manba hisoblanadi. Sintetik geksaploid bug'doyning mavjudligi ko'plab patogenlarga yangi chidamli genlarini izlash imkoniyatini beradi. Sintetik bug'doyda barg zangiga Lr32 [6], poya zangiga Sr33, Sr45 va Yr28 sariq zang kasalliklariga chidamli yangi genlar borligi aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sintetik bug'doy oddiy bug'doyni yaxshilashda abiotik stressga chidamlilik uchun yangi genetik o'zgarishlarning potentsial manbasi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sintetik bug'doy qurg'oqchilik sharoitida oddiy bug'doy otalariga nisbatan 45% gacha hosildorlikni oshirishi mumkin [7]. Avstraliyada yomg'irli sharoitda ota-ona liniyalari va mahalliy standart navlari bilan solishtirganda hosildorlikning 8% - 30% gacha yuqori bo'lishi aniqlandi [8]. Xuddi shunday hosildorlik Hindiston, Pokiston, Ekvador va Argentinada ham kuzatildi. Ushbu sintetik tizmalar qurg'oqchilik muhitida tuproqqa chuqurroq o'sib kirishi mumkin bo'lgan kuchli ildiz tizimiga ega. Sintetik bug'doy mum pishish fazasida 35-40 ° C gacha bo'lgan yuqori haroratlarga bardosh berishi aniqlangan.

Sintetik geksaploid bug'doy oddiy bug'doy navlariga nisbatan pastroq hosildorlikka ega bo'lsa-da, u odatda yuqori don hosildorligiga aylanishi mumkin bo'lgan yuqori yer usti biomassasini ko'rsatadi. Bu biomassa hosil indeksi va don vaznini ham oshirishi mumkin. Hosildorlikni oshirish uchun sintetik geksaploid bug'doy tizmalari boshqachalar soni yoki boshqadagi urug'lar soni bo'yicha ham yuqori kombinatsiyalash qobiliyatiga ega. Sintetik bug'doy populyatsiyalaridan olingan urug'lar soni ko'paygan navlarni tanlash natijasida hosildorlikni oshirish mumkin. Sintetik bug'doy genotiplari oddiy bug'doyning ota-ona navlariga qaraganda 11% gacha yuqori hosil berishi aniqlangan [9].

Sintetik bug'doy foydali genetik resurs bo'lib, undan zarur bo'lgan agronomik ahamiyatga ega genlarni oddiy bug'doyning mahsuldorligini yaxshilash uchun foydalanish kerak. Sintetik bug'doy tetraploid va diploid qarindoshlaridan qo'shimcha genetik resurslar kiritilganligi sababli kengroq genetik asosni ifodalaydi. Genomika va funksional genomika tadqiqotlari bizga sintetik geksaploid bug'doy o'sish kuchining molekulyar asoslarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

XULOSA

Keyingi tadqiqotlarda sintetik geksaploid bug'doy biotik va abiotik stress omillariga chidamli, shuningdek, yaxshi hosil potensialiga ega qimmatli genetik manba sifatida tan olingan hamda bugungi kunda undan seleksiya jarayonlarida keng ko'lamda foydalanilmoqda.

REFERENCES

1. Aili Li, Dengcai Liu, Wuyun Yang, Masahiro Kishii, Long Mao. Synthetic Hexaploid Wheat: Yesterday, Today, and Tomorrow. *Engineering* 4 (2018) 552–558
2. Masood R, Ali N, Jamil M, Bibi K, Rudd JC, Mujeeb-Kazi A. Novel genetic diversity of the alien D-genome synthetic hexaploid wheat ($2n = 6x = 42$, AABBDD) germplasm for various phenology traits. *Pak J Bot* 2016;48 (5):2017–2
3. McLean E, Cogswell M, Egli I, Wojdyla D, de Benoist B. Worldwide prevalence of anaemia, WHO vitamin and mineral nutrition information system, 1993–2005. *Public Health Nutr* 2009;12(4):444–54.
4. Calderini DF, Ortiz-Monasterio I. Grain position affects grain macronutrient and micronutrient concentrations in wheat. *Crop Sci* 2003;43(1):141–51.
5. Thomas J, Nilmalgoda S, Hiebert C, McCallum B, Humphreys G, DePauw R. Genetic markers and leaf rust resistance of the wheat gene Lr32. *Crop Sci* 2010;50(6):2310–7.

6. Casey LW, Lavrencic P, Bentham AR, Cesari S, Ericsson DJ, Croll T, et al. The CC domain structure from the wheat stem rust resistance protein Sr33 challenges paradigms for dimerization in plant NLR proteins. *Proc Natl Acad Sci USA* 2016;113(45):12856–61.
7. Trethowan RM, Mujeeb-Kazi A. Novel germplasm resources for improving environmental stress tolerance of hexaploid wheat. *Crop Sci* 2008;48 (4):1255–65.
8. Dreccer AF, Borgognone AG, Ogbonnaya FC, Trethowan RM, Winter B. CIMMYT-selected derived synthetic bread wheats for rainfed environments: yield evaluation in Mexico and Australia. *Field Crops Res* 2007;100(2– 3):218–28.
9. Del Blanco IA, Rajaram S, Kronstad WE. Agronomic potential of synthetic hexaploid wheat-derived populations. *Crop Sci* 2001;41(3):670–6.



G. HIRSUTUM L. TURIGA MANSUB G'O'ZANING NAV VA TIZMALARDA BA'ZI MORFO-XO'JALIK BELGILARINING KO'RSATKICHLARI

YE. O. Aliqulov, O. R. Ergashev, J. SH. Shavqiyev, SH. A. Saitjanov

Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada Toshkent viloyatida joylashgan dala sharoitlarida yetishtirilgan o'rta tolali (*G. hirsutum* L.) g'o'zaning nav va tizmalarida o'simliklar bosh poyasi balandligi, hosil shox va ko'saklari soni ko'rsatkichlarining tahliliy natijalari keltirilgan. Tajribada Yulduz g'o'za navida bosh poya balandligi, T-1391 tizma va Namangan-77 navida hosil shoxlari, T-1336 va T-1391 tizmalarida esa ko'sak soni ko'rsatkichlari boshqa namunalarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *G. hirsutum* L., g'o'za, nav, tizma, morfo-xo'jalik belgilar.

ABSTRACT

The article presents the results of the analysis of the main stem height, the number of yielding branches and the number of bolls per plant in Upland cotton (*G. hirsutum* L.) varieties and lines grown in experimental field conditions of Tashkent region. In the experiment, it was found that the height of the main stem in the Yulduz cotton variety, the number of harvested branches in the T-1391 line and the Namangan-77 variety, and the number of bolls in the T-1336 and T-1391 lines were higher compared to other varieties and lines.

Keywords: *G. hirsutum* L., cotton, variety, line, morphology.

KIRISH

Jahon qishloq xo'jaligining asosiy ekinlaridan biri bo'lgan g'o'zaning zamon talablariga mos navlarini yaratishda an'anaviy genetik-seleksion usullar bo'yicha ilmiy izlanishlar uzoq yillardan buyon amalga oshirilib kelinadi. Bu borada asosiy paxta maydonini egallagan o'rta tolali g'o'za navlarining tola texnologik ko'rsatkichlari va muhitning stress omillariga chidamliligi yuqori bo'lgan g'o'za genofondi manbalarini qo'llash, madaniy g'o'za turlarining navlari, tizmalari va duragaylarining qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha yuqori va barqaror genotiplarini ajratib olish va seleksiya ishlariga jalb etish asosida ushbu qimmatbaho texnik ekinning istiqbolli navlarini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda genetik-seleksioner olimlarimiz tomonidan ko‘plab g‘o‘za navlari yaratilib, ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmonining 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlariga moslashgan qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi seleksiya navlarini yaratish va joriy etish» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalarni bajarishda o‘rta tolali g‘o‘zaning nav va tizmalarining morfo-xo‘jalik ko‘rsatkichlari yuqori genotiplaridan seleksion istiqbolli ashyolar ajratib olish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Malveaceae oilasiga mansub eng muhim texnik ekinlardan biri bo‘lgan g‘o‘za 4000 dan ortiq turni o‘z ichiga oladi. Ular orasida eng qimmatlisi o‘rta tolali (*Gossypium hirsutum* L.) hisoblanadi. U jahon qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotida katta mavqega ega. Undan ishlab chiqariladigan 1000 dan ortiq mahsulotlar mavjud. Shunday qilib, paxta butun dunyo bo‘ylab fermerlar uchun tijorat ekiniga aylangan. O‘rta tolali g‘o‘zadan muhim tijorat mahsulotlari oqsillar, yog‘lar va tolalar olinadi[2].

Bir qancha olimlar o‘rta tolali g‘o‘za nav va tizmalarining morfo-xo‘jalik ko‘rsatkichlari yuqori genotiplaridan seleksion istiqbolli ashyolar ajratib olgan[2,3,4].

J.Shavqiyev va A.Makamovlar tomonidan g‘o‘zaning *G. hirsutum* L. turiga mansub duragay oilalardan tola uzunligi, 1000 dona chigit va ko‘sak vazni bitta o‘simlikdagi ko‘saklar soni belgisi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichli tizmalar ajratib olingan [4,5,6].

A.Azimov va boshqalar g‘o‘zaning turlararo tizmalaridan o‘simlik mahsuldorligi, tola uzunligi va ko‘sak vazni belgisi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichli istiqbolli nav yaratgan[7].

Bir qancha tadqiqotchilar o‘simlik mahsuldorligi yuqori bo‘lishi uning bosh poya balandligi, ko‘sak soni va vazniga bog‘liqligini aytgan[8,9,10].

Tadqiqot maqsadi: *G. hirsutum* L. turiga mansub nav va tizmalarining ayrim morfo-xo‘jalik belgilarining yuqori ko‘rsatkichlarga ega genotiplarni ajratib olish.

Ushbu tadqiqotlar O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining Do‘rmon tajriba bazasida olib borildi. Bu yer Toshkent shahridan 0,5 km shimoliy-sharqda, 41⁰20 shimoliy kenglikda, 69⁰18 sharqiy uzunlikda, Chirchiq daryosining yuqori trassasida, dengiz sathidan 398 metr balandlikda joylashgan. Tajriba dalasining yeri – gumusi kam, tipik bo‘z tuproq, mexanik tarkibga ko‘ra tuproq o‘rtacha

qumoqli. Yer relyefi bir oz nishabli, sho'rlanmagan, oqpalak (vertitsillez) vilt bilan kuchsiz zararlangan. Yer osti suvlari chuqur (7-8 m) joylashgan. Iqlimi keskin o'zgaruvchan, yozi (iyun, iyul, avgust oylari) yuqori darajadagi issiqligi, qishi esa (ayniqsa dekabr va yanvar oylari) havo harorati kuchli pasayib ketishi bilan xarakterlanadi. Quyoshli kunlar 175-185 kundan, sovuq bo'lmaydigan davr 200-210 kundan iborat. Kuzda, qishda va bahorda yog'ingarchilik, yozda esa havo quruq bo'ladi. Bu esa g'o'zani sun'iy ravishda sug'orishni talab etadi. Agrotexnik tadbirlar bir xil olib borildi. Ma'danli o'g'itlar ekish oldidan ekishda va vegetatsiya davrida 3 marta oziqlantirish yo'li bilan (1- chi oziqlantirish shonalash boshlanganda, 2- chisi ommaviy shonalashda, 3-chisi gullashda) berildi. Mineral o'g'itlarning yillik meyori sof holatda N 250 kg\ga, R₂O₅-180 kg\ga va K₂O-115 kg\ga ni tashkil etdi.

G'o'zaning o'rta tolali *G. hirsutum* L. turiga mansub Yulduz, Niso, Guliston, SS-Bekklaster navlari va T-1336, T-1391 namunalaridan tadqiqot ashyolari sifatida foydalanilib rendomizatsiya usuli bilan 3 qaytariqda, har bir qaytariqda 2 qatorga, har bir qatorga 25 uyaga ekildi.

Ushbu tadqiqotlarni olib borishda genetikaning populyatsion tahlil uslubidan foydalanildi. Ma'lumotlarga matematik statistik ishlov berish B.A. Dospexov uslubi bo'yicha (M. 1985) amalga oshirildi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Tajriba dalasida fenologik kuzatuvlar o'tkazilganda o'rganilayotgan g'o'za shakllarining bosh poyasi balandligi bo'yicha ishonchli farqlanish namoyon bo'ldi. Bunda Yulduz navi populyatsiyasida eng yuqori 120,22±0,73 sm bo'lsa, Guliston navida eng past ko'rsatkichda 110,7±0,67 sm namoyon bo'ldi. Bu belgi bo'yicha populyatsiyaning o'zgaruvchanlik ko'lamini Niso navi va T-1391 tizmasida andoza hamda boshqa shakllarga nisbatan past ko'rsatkichda mavjudligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

G'o'za nav va tizmalarining bosh poya balandligi ko'rsatkichlari

T/r	Namunalar	Bosh poya balandligi (sm)		
		2022 yil		
		X ± m	σ	v
1	Namangan-77 (andoza)	117,91±0,73	4,85	4,12
2	Yulduz	120,22±0,73	4,87	4,05
3	Niso	119,2±0,71	4,78	3,97
4	Guliston	110,7±0,67	4,46	4,03

5	SS-Bekklaster-1	113,9±0,70	4,64	4,07
6	T-1336	119,70±0,75	4,98	4,16
7	T-1391	119,90±0,71	4,68	3,91

Tajriba dalasida fenologik kuzatuvlar o'tkazilganda tadqiqot ashyolarining hosil shoxlari soni T-1391 tizmasi va andoza Namangan-77 navida eng yuqori ko'rsatkichda (mos ravishda 12,20±0,23 dona va 12,20±0,22 dona) bo'lsa, Guliston, Niso va SSB – Klaster-1 navlarida past, Yulduz navida esa andoza naviga yaqin ko'rsatkichlar olindi. Bu belgi bo'yicha populyatsiyaning o'zgaruvchanlik ko'lami o'rganilganida tadqiqot ashyolarining barchasida andozaga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar namoyon bo'lgani aniqlandi.

2-jadval

G'o'za nav va tizmalarining hosil shoxlari soni ko'rsatkichlari

	Namunalar	Hosil shoxlar soni, (dona).		
		2022 yil		
		$X \pm m$	σ	v
1	Namangan-77 (andoza)	12,20±0,22	1,44	11,77
2	Yulduz	11,92±0,23	1,50	12,60
3	Niso	9,85±0,23	1,53	15,57
4	Guliston	9,59±0,22	1,46	15,27
5	SS-Bekklaster-1	9,96±0,20	1,36	13,61
6	T-1336	11,60±0,23	1,50	12,97
7	T-1391	12,20±0,23	1,56	12,76

Tajriba dalasida o'tkazilgan fenologik kuzatuvlarda tadqiqot ashyolari sifatida tanlab olingan g'o'za namunalarining umumiy ko'sak soni T-1391 tizmasida barcha shakllarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda 16,71±0,30 donada bo'lsa, T-1336 tizmasi andoza Namangan-77 naviga juda yaqin va Niso, Guliston hamda SSB – Klaster-1 navlarida past ko'rsatkichlar qayd etildi. Bu belgi bo'yicha populyatsiyaning o'zgaruvchanlik ko'lami o'rganilganida tadqiqot ashyolarining barchasida andozaga nisbatan yuqori ko'rsatkich bshlgani aniqlandi.

3-jadval

G'o'za nav va tizmalarining bitta o'simlikdagi ko'saklar soni ko'rsatkichlari

	Namunalar	Bitta o'simlikdagi ko'saklar soni, (dona).		
		2022 yil		
		$X \pm m$	σ	v
1	Namangan-77 (andoza)	16,32±0,28	1,83	11,18

2	Yulduz	15,81±0,27	1,80	11,36
3	Niso	14,90±0,24	1,61	10,81
4	Guliston	15,31±0,25	1,64	10,69
5	SS-Bekklaster-1	15,81±0,27	1,78	11,29
6	T-1336	16,32±0,26	1,70	10,41
7	T-1391	16,71±0,30	2,00	11,98

XULOSA

Tajribada Yulduz g'oz'ga navida bosh poya balandligi, T-1391 tizma va Namangan-77 navida hosil shoxlar soni, T-1336 va T-1391 tizmalarida esa ko'sak soni ko'rsatkichlari boshqa nav va tizmalarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Bu belgilar bo'yicha populyatsiyaning o'zgaruvchanlik ko'lami nav va tizmalarda turli darajada qayd etildi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармони
2. Shukhrat Khamdullaev, Saidgani Nabiev, Abdulahad Azimov, Jaloliddin Shavkiev, Utkir Yuldashov. Combining ability of yield and yield components in upland cotton (*G. hirsutum* L.) genotypes under normal and water-deficit conditions. *Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology*. 2021; 22(35&36):176-186.
3. Nabiev CM, Usmanov RM, Khamdullaev Sh A, Shavkiev J Sh. Study of physiological indicators of the water balance of plants and morphological signs of leaf of fine-fiber varieties in different irrigation regimes. *Journal of biology of Uzbekistan*.2020; 1:51-58.
4. Shavkiev J., Nabiev S., Azimov A., Chorshanbiev N., And Nurmetov K.H. Pima cotton (*GOSSYPIUM BARBADENSE* L.) lines assessment for drought tolerance in Uzbekistan. *SABRAO Journal of Breeding and Genetics*. 2022. 54 (3) 524-536. <http://doi.org/10.54910/sabrao2022.54.3.6>
5. Макамов АХ, Холмурадова ММ, Хусенов НН, Бойқобилов УА. Шавқиев Ж.Ш.. Ғўза генотипларининг сув танқислигига чидамлигини баҳолаш. *Academic research in educational sciences*.2022: 3 (6): 437-446.
6. Sanaev NN, Gurbanova NG, Azimov AA, Norberdiev TN, Shavkiev JS. Inheritance of the “plant shape” trait of the varieties and introgressive lines of *G. hirsutum* L. in drought conditions. *Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology*.2021; 22 (25-26): 122-129.



7. Азимов АА, Шавқиев ЖШ, Хамдуллаев ША, Чоршанбиев НЭ. Сув танқислигига чидамлилиги турлича бўлган ўрта толали ғўза навларининг физиологик ва морфо-хўжалик белгиларининг қиёсий таҳлили ва белгилари ўртасидаги ўзаро корреляцияси. Results of National Scientific Research International Journal. 2023; 2 (2): 31-53.
8. Шавқиев ЖШ, Хамдуллаев ША, Набиев СМ, Бозоров ТА, Абдишукирова СК, Эшонкулов ЭС. Количество пигментов в листьях растений сортов хлопчатника в условиях оптимального водного режима и засухи. The Way of Science. 2017; 3:16-18.
9. Shavkiev Jaloliddin, Nabiev Saidgani, Abdulahat, Khamdullaev Shukhrat. Economic and physiological traits of pima cotton lines in Uzbekistan and their correlation. Universum: химия и биология.2021; 7 (85(2)): 14-22.
10. Макамов АХ, Норбеков ЖК, Юлдашева ЗЗ, Буриев ЗТ, Шавқиев ЖШ. Сув билан оптимал таъминланганлик ва сув танқислик шароитларида ғўза генотипларининг баъзи морфо-хўжалик белгиларининг кўрсаткичлари. Academic research in educational sciences.2022; 3 (12): 65-75.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING BILIM MALAKASINI TALIS XALQARO DASTURI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Onaxon Mannapovna Jabborova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, (PhD)

Nazokat Tashbadalovna Umarova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim malakasini TALIS xalqaro ta‘lim dasturi asosida takomillashtirish masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: TALIS, xalqaro, dastur, boshlang‘ich, ta‘lim, o‘quvchilar, malaka, takomillashtirish.

KIRISH

Mamlakatimiz ta‘lim tizimining boshlang‘ich bosqichida zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish jarayoni kechmoqda [1]. Chunki boshlang‘ich ta‘lim undan keyingi ta‘lim bosqichlari uchun eng muhim pog‘ona hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining malakasini takomillashtirish va unda TALIS xalqaro dasturiga aoslanish zaruriyat bo‘lib turibdi [2]. Buning uchun mazkur dastur asosida o‘quvchilar malakasini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish muhimdir. Bu o‘rinda e‘tiboringizni ana shunday metodikalardan biri tahliliga tortamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim malakasini TALIS xalqaro dasturi asosida takomillashtirish metodikasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘quv fanlari kesimida bilim egallashi va o‘zlashtirgan bilimlari asosida ijodiy yondashuvini tarkib toptirish muhim o‘rin tutadi va uni o‘quvchilarning bilim malakasini takomillashtirish metodikasi deb ataymiz. Bunda TALIS xalqaro dasturining quyidagi qoidalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) o‘quv fanlarini turkumlashtirib o‘qitish;
- 2) o‘quvchilarning qiziqishiga ko‘ra muayyan fanlar bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim berish;

3) turli mustaqil topshiriqlar asosida o'quvchilarning bilim, malakasini aniqlash.

O'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish YUNESKOning ta'lim dasturlariga kiritilgan. Unda asosiy e'tibor aniq va tabiiy fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga qaratiladi. Ayniqsa, Matematika va Tabiatshunoslik o'quv fanlarini boshlang'ich sinflarda chuqurlashtirib o'qitish tajribasi Germaniya, Fransiya va Amerika ta'lim tizimida o'ziga xos tajribaga ega. Shu jihatdan mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilariga mazkur tabiiy fanlardan tashqari Atrofimizdagi olam kabi o'quv fanlarini chuqurlashtirib o'qitish ularning bilim malakasini kutilgan darajada yuksaltirish imkonini beradi. Shuningdek, milliy ta'lim tizimimiz xususiyatlaridan kelib chiqib boshlang'ich sinf o'quvchilariga Ona tili va o'qish savodxonligi, Texnologiya, Tasviriy san'at hamda Musiqa madaniyati o'quv fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish ularning nafaqat bilim malakasini balki ijodiy layoqatini ham kutilgan darajada rivojlantiradi [3]. Ta'kidlash lozimki, bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quv fanlarini quyidagicha turkumlashtirib o'qitish an'anasining tarkib topa boshlaganligi muhim yondashuv hisoblanadi:

a) gumanitar fanlar turkumi (Ona tili va o'qish savodxonligi, Texnologiya, Tasviriy san'at, Musiqa madaniyati, Jismoniy tarbiya o'quv fanlari);

b) aniq fanlar turkumi (Matematika);

v) tabiiy fanlar turkumi (Atrofimizdagi olam, Tabiatshunoslik o'quv fanlari).

Mazkur o'quv fanlarini shu tariqa turkumlashtirib o'qitish boshlang'ich sinf o'quvchilarining TALIS xalqaro dasturi asosida bilim malakasini yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini TALIS xalqaro dasturi talablari asosida baholash imkoniyatlari kengayadi.

Hozirgi zamon mamlakatimiz maktab ta'limida qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil etish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining muayyan qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv fanlari bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish ularning bilim malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada Toshkent viloyatining bir qator maktablari o'ziga xos tajribalarga ega ekanligini eslatib o'tish joiz. Unda Matematika kabi o'quv fani o'qituvchilari ko'p hollarda qo'shimcha mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlaydi. Aynan mana shunday tajribalardan foydalanish TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini baholashda aniqlik va xolislik tamoyillariga asoslanishni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan barcha umumta'lim maktablarida amaliy to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bunday to'garaklarda turli topshiriqlarni mustaqil bajarish, applikasiya va konstruksiyalar ishlash amalga oshirilmoqda [4]. Shu jihatdan bunday to'garaklar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini qo'shimcha topshiriqlar bajarish bilan rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Chunki o'quvchilar mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayonida darsliklar bilan ishlaydi, o'zlarining imkoniyatlari doirasida ma'lumotlar to'playdi. Natijada ularning bilimdonlik ko'lami kengayadi. Bu hol TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim malakasini baholashda muhim omil hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini baholash ana shunday metodika asosida amalga oshirilsa kutilgan samarani beradi. Bu o'rinda bir vazifani alohida ta'kidlash lozim. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiy ma'noda bilim darajasi bo'yicha qoniqarli ko'rsatkichlarga ega. Biroq ularning ko'pchiligida o'z bilimlaridan foydalanish ko'nikmasi yetishmaydi. Shu sababli o'quvchilar turli ishlanmalar yaratishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, bunday ishlanmalarni yaratish jarayonida ular o'z bilimlaridan foydalanadi va natijada bilim darajasidan foydalanish ko'nikmasi rivojlanib boradi.

TALIS xalqaro dasturining baholash tadqiqotlarida ishtirok etadigan jahon mamlakatlari o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha turli tajribalarga ega. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlarida va Germaniya Respublikasida o'quvchilarning bilim darajasi 100 ballik shkala asosida baholanadi. Rossiya Federatsiyasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlarda esa o'quvchilarning bilim malakasi 5 baho shkalasi asosida baholanadi. Bunda ballik shkalaning afzalligini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki unda o'quvchilarning bilim darajasi foiz hisobida aniqlanadi. TALIS xalqaro dasturi ham aynan ballik shkala asosida o'quvchilarning bilim malakasini darajasini baholaydi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik mutaxassislar TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini baholashga cho'chib munosabatda bo'lishadi. Aslida esa bunday baholash quyidagi ikki imkoniyatni beradi:

birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimdon ekanligi namoyon bo'ladi;

ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasi halqaro miqyosda targ'ibot qilinadi.

Bunday yondashuv TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini har chorakda baholab borish muhim ahamiyatga ega ekanligini namoyon qiladi. Chunki baholash ma'lumotlari asosida qaysi o'quv fanlarini chuqurlashtirib o'qitish indikatorlariga ega bo'linadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning Ona tili va o'qish savodxonligi hamda Texnologiya o'quv fanlari mashg'ulotlarini yanada kuchaytirish o'quvchilarning TALIS xalqaro dasturi talabalariga mosligini keltirib chiqaradi. Chunki xalqaro dasturlarda, jumladan, TALIS xalqaro dasturida asosiy e'tibor o'quvchilarning Savodxonlik va Texnologik ijodkorlik masalalariga qaratiladi. Shu sababli bizningcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining hozirgi bilim darajasini amaliy mashg'ulotlar vositasida kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, malakasini baholash va takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan bunday xalqaro dasturlar asosida ishlash va ta'lim yutuqlarini baholash nisbatan yangi yondashuv bo'lganligi uchun bu borada eng avvalo **tashkiliy metodikani** tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunday metodikani bizning yondashuvimizga ko'ra, quyidagicha shakllantirish mumkin:

a) TALIS xalqaro dasturi qoidalari asosida boshlang'ich sinf darsliklarini takomillashtirish;

b) ushbu xalqaro dastur asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini baholashning mezonlarini tarkib toptirish;

v) mazkur xalqaro dastur asosida olingan ma'lumotlar asosida boshlang'ich ta'lim mazmunini va metodikasini kuchaytirish.

Ushbu xalqaro dastur asosida boshlang'ich sinf darsliklarini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan Milliy dastur asosida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturga asosan 2021-2022 o'quv yillarida 1va 2-sinflarda yangi zamonaviy darslik amaliyotdan o'tkazildi va 2022-2023 o'quv yilidan boshlab, 3 va 4-sinflarga mazkur darsliklar to'liq joriy etildi. Misol uchun, ana shunday zamonaviy darsliklardan biri xalqaro ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan yangi avlod darsligi " Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-sinf o'quv adabiyotidir [5]. Mazkur yangi avlod darsligida xalqaro ta'lim dasturlari qoidalari va xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan o'tgan metodikaga asosan o'quv materiallari joylashtirilgan. Masalan, darslikning 9-sahifasida quyidagi mavzu bo'yicha topshiriqlar berilgan: "matnlarni ajratib ko'rsatilgan

qismlarning ma'nolari". Qisqa ushbu matn berilib, uni tushunish va o'zlashtirish uchun uchta savol qo'yilgan. O'quvchi ushbu savollarga mustaqil ravishda matndan javob topadi va uning javobi to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab matnni o'zlashtirganlik darajasi baholanadi. Bunda matndan tushunishga borish metodikasiga asoslangan. Avvalgi metodikaga ko'ra, avval tushuncha berilib, keyin matnni o'qish topshirilar edi. Shu ma'noda mazkur darslikda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlashi malakasini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur yangi darslik asosida o'quvchilarning bilim darajasini baholash kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini TALIS xalqaro dasturi talablari asosida baholash mezonlarini ishlab chiqish ham muhim hisoblanadi. Shu jihatdan bu mezonlarni o'quvchilarning berilgan matnni ravon va tez o'qish, matnda berilgan mazmunni tushunish va uni tahlil qila olish, matnni yozma yoki og'zaki ravishda hikoya qilib bera olish darajalariga e'tibor qaratiladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini baholash aniq amalga oshiriladi.

TALIS xalqaro dasturi asosida yangi avlod darsliklarini joriy etish va ularning vositasida o'quvchilarning o'zlashtirganlik va bilim malakasini baholash to'g'risidagi olingan ma'lumotlardan kelib chiqilib, boshlang'ich ta'lim mazmuni va metodikasi bo'yicha rivojlantirish tavsiyalari ishlab chiqiladi. Bu tavsiyalarda o'quvchilarning bilim malakasini yanada rivojlantirish, ularga munosib ta'lim muhiti yaratib berish va o'qituvchi hamda o'quvchilar hamkorligining amaliy mexanizmlariga e'tibor qaratiladi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim mazmuni va metodikasini kuchaytirish bo'yicha maqsadli tadbirlar majmui tarkib topadi. Uni amalga oshirish uchun o'quvchilar va o'qituvchilarning tayyorgarligi taqozo etiladi.

E'tibor berilsa, TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini baholash bo'yicha butunlay yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish ana shular bilan belgilanadi. Bundan asosiy maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarining hozirgi bilim darajasini jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda yanada rivojlantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini o'rganish va baholash natijasida o'quv yili davomida muntazam amalga oshirib boriladigan diagnostik jarayon ham yuzaga keladi. Shu sababli mazkur masalaga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining TALIS xalqaro dasturi bo'yicha o'quvchilar malakasini o'rganish, baholash va diagnostika qilish asoslari bilan qurollantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini TALIS xalqaro dasturi asosida baholash metodikasida o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish darajasi muhim o'rin tutadi. Ayni paytda, bu borada o'quvchilarda ijodiy yondashish ko'nikmasining ham shakllanishi mazkur xalqaro dasturning baholash tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish omili hisoblanadi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108-сон “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. // www.ziyonet.uz.
2. Международная образовательная программа TALIS. // www.ziyonet.uz.
3. Жабборова О., Умарова З., Бобоходжаева Л. Бошланғич таълим педагогикаси, инновация ва интеграция. – Тошкент, 2021
4. Жабборова О., Очилов Ф. Болалар педагогикаси. – Тошкент, 2022
5. Азимова И., Мавлонова К., Қуронов С., Шакир Турсун. Она тили ва ўқиш саводхонлиги. 1-синф учун дарслик. Тошкент, 2021.



СВИДЕТЕЛЬСТВА АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ ОБ ЭВАКУАЦИИ ИЗ ЛЕНИНГРАДА И ЖИЗНИ ЭВАКУИРОВАННЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ

Ойбек Анварович Махмудов

к.и.н., старший научный сотрудник Института истории АН РУз

oybek81@yandex.ru

АННОТАЦИЯ

Проблема эвакуации жителей блокадного Ленинграда в Узбекистан в годы Второй мировой войны рассмотрена сквозь призму архивных документов содержащихся в отечественных архивах. Показаны основные проблемы стоящие перед эвакуированными, обустройство их на месте и как проблемы эвакуированных решались властями Узбекистана.

Ключевые слова: Вторая мировая война, блокада Ленинграда, эвакуация, Узбекистан, архивные документы.

ABSTRACT

The problem of evacuation of residents of besieged Leningrad to Uzbekistan during the Second World War is considered through the prism of archival documents contained in domestic archives. The main problems facing the evacuees are shown, their arrangement on the spot and how the problems of the evacuees were solved by the authorities of Uzbekistan.

Keywords: World War II, blockade of Leningrad, evacuation, Uzbekistan, archival documents.

ВВЕДЕНИЕ

Узбекская ССР, как и все республики Советской Средней Азии, принимала эвакуированных ленинградцев, согревая не только жарким южным солнцем, но и теплом человеческих сердец.

Уже летом 1942 г. широко развернулось движение за оказание помощи Ленинграду. На митингах, прошедших в республике, трудящиеся брали шефство над промышленными предприятиями и учреждениями Ленинграда, войсковыми соединениями. На 1 июля 1942 г. фонд помощи героическому Ленинграду и Ленинградской области собрал 120 тыс. руб. [1] Таковую же сумму в фонд помощи ленинградцам перечислили жители Каракалпакской АССР [2].

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Труженики сельхозартели им. Энгельса Наманганского района Наманганской области Узбекистана отправили жителям блокадного Ленинграда 90 пудов риса, 22 барана, 5 коров, 10 пудов шерсти, 100 штук овчин, 50 м. шелка. Член швейной артели 86-летний Мамадали Ташбаев (трое его сыновей находились на фронте), лично послал ленинградцам одного барана. Жители одного из сел Наманганской области Акбаров, Каримов и др. послали в город на Неве 110 м. шелка, 50 платков, 6 пудов шерсти, 50 штук овчин, 10 пудов овощей и фруктов [3].

Примеру наманганцев последовали сельские труженики и руководители других колхозов и совхозов. В августе 1942 г. председатель колхоза Кызыл-Гулистан Сырдарьинского района Алимухамедов отправил в Областной комитет партии, Областной исполнительный комитет, ЦК КП УзССР и Совнарком телеграмму следующего содержания:

«Помощь героическим защитникам Ленинграда и славным бойцам Красной Армии ведущим успешную борьбу против немецких захватчиков, из своего личного дохода внес наличными деньгами 10 тыс. руб.

Прошу последовать моему примеру следующих товарищей: из Сыр-Дарьинского района председателей колхозов Ленин-Абад, Алишева, Ворошилов один- Джултаева, Энгбекчи Жанбаева и Коммунизма – Борухова. Из Мирзачульского района председателя колхоза Кызыл-Дехкан Мухамедова. Из Карасуйского района председателя колхоза 18-й Партсъезд Алимбекова. Из Янгиюльского района председателей колхозов Кагановича Хамракул-ака и председателя колхоза Ахунбабаева» [4].

Узбекистан в годы Великой Отечественной войны принял, по некоторым данным, до 1,5 млн. эвакуированных. Точных данных о количестве эвакуированных из Ленинграда в Узбекистан нет, но по приблизительным подсчетам в период с 1941 по 1944 гг. это несколько сотен тысяч человек. Так, например в августе 1943 г. из Ленинграда прибыл эшелон с 400 детьми – воспитанниками детских домов. Эвакуация осуществлялась как организованно, когда в республику направлялись целые учреждения и организации, так и самостоятельно отдельными гражданами.

В отличие от ряда других союзных республик, краев и областей РСФСР, в Узбекской ССР не был создан специальный орган занимающийся приемом и размещением эвакуированных граждан и учреждений. Этот вопрос курировал как сам председатель СНК УзССР А.А. Абдурахманов и его заместители, так и руководители

соответствующих ведомств и учреждений на местах. Например, по вопросам прописки эвакуированные граждане обращались непосредственно в комиссию прописки при Совнаркоме [5] или к начальниками паспортных столов [6]. Вопрос предоставления помещений эвакуированным организациям решался непосредственно в СНК УзССР [7]. Республика предоставила приезжим более 135 тыс. кв. метров жилой площади [8]. В Узбекистане было размещено более 113 военных госпиталей, где раненные войны поправляли свое здоровье и опять уходили на фронт [9].

Общее количество эвакуированных из всех районов СССР в Узбекистан на 20 декабря 1942 г. составляло 677119 человек [10]. Эвакуированные из Ленинграда начали прибывать в августе 1941 г. Согласно данным архивных документов, на 4 августа 1941 г. из Ленинграда в Узбекистан эвакуировалось 50 человек [11]. Это было только начало блокады. Люди продолжали пребывать...

Эвакуированные, как из Ленинграда так и из других районов СССР, не смотря на все усилия советского и партийного руководства республики, сталкивались с объективными, а порой, к сожалению, субъективными, трудностями. Эвакуированные не редко прибывали без личных вещей и обращались с ходатайствами об оказании материальной помощи, которые соответствующие ведомства республики старались по возможности удовлетворить.

Вот например что говорится в одном из документов:

«Я приехала в г. Ташкент в конце октября 1942 г. с дочерью 13 лет. Приехала без вещей, Прошу оказать мне единовременное пособие в выдаче 2 комплектов спальных принадлежностей (одеяло, простыни, наволочки). Прошу мою просьбу удовлетворить. Очень в этих вещах нуждаюсь. В. Полякова. 15 декабря 1942 г.» [12].

Документы рассказывают о тяжелых условия, в которых находились некоторые эвакуированные из Ленинграда в УзССР, обивая порой пороги кабинетов чиновников и партийных функционеров [13].

Анализ сохранившихся архивных документов позволяет рассеять сложившийся стереотип, согласно которому в годы Второй мировой войны проявления черствости и формализма были невозможны. К сожалению «человеческий фактор» даже в годы войны отменить было невозможно.

Репрессированные в 1938 г. корейцы, переселенные в Узбекистан с Дальнего Востока, сами еще до конца не оправившись от пережитого, принимали эвакуированных. Не богатые корейские колхозы, организованные в местах компактного

расселения, с готовностью принимали у себя обездоленных и обескровленных войной людей, при этом, не всегда имея материальные ресурсы для помощи. Об этом свидетельствуют архивные документы. Вот один из примеров:

«Управление эвакуации и переселения при СНК УзССР

Правление колхоза им. Большевика Средне-Чирчикского района, Ташкентской области просит оказать помощь в получении постельных принадлежностей, как-то: одеяло 40 шт., простыней 50 шт., подушек 20., наволочек 40., полотенце 50 шт., и белья 200 пар. Для эвакуированных, проживающих в 20-ти хозяйствах в нашем колхозе и для детских яслей где находятся дети эвакуированных в количестве 25 человек.

Председатель колхоза Кан М.П.

Секретарь Ким Хын-Су» [14].

Многие узбекистанцы оказывали помощь эвакуированным предоставляя жилье и помогая в получении прописки в Ташкенте. В архивах можно встретить вот такие заявления:

«Заявление

От гр. Исанбиевой А, ул. Лабзак, тупик 4. кв. 40.

Прошу прописать ко мне эвакуированную из Ленинграда семью военнослужащего, главного старшины сверхсрочной службы Левитан Г.Д. – сына Юрия, мать М.Ф. Левитан и сестру Е.Д. Левитан.

Площадью обеспечу, Прошу не отказать в просьбе, т.к. ребенок и мать нуждаются в мед. помощи» [15].

Порой у ленинградцев в республике проживали родственники. Но такие счастливые случаи были скорее счастливым исключением:

«В комиссию прописки при Совнаркоме. 1941 г.

Ташкентский институт инженеров железнодорожного транспорта ходатайствует о прописке в г. Ташкенте по ул. Оборонная № 1 ТАШИИТ в профессорском доме, в квартире зав. кафедры Основы Марксизма-Ленинизма Н.И. Шульгиной ее родственницы А.К. Полевой – жены депутата Ленинградского Гор. Совета, ныне командира Ленинградской армии народного ополчения» [12].

Остро ощущалась нехватка помещений для размещения эвакуированных. Для ее решения в соответствии с Постановлением Совнаркома СССР от 13 сентября 1941 г. «О строительстве жилых помещений для эвакуированного населения» возводились строения упрощенного типа – бараки, полуземлянки, постройки и даже землянки. Одновременно велось строительство типовых домов.

Основная масса эвакуированных, в том числе ленинградцы, обеспечивалась жильем за счет уплотнения местного населения.

В республике, как и в других регионах СССР, для получения эвакуированными продуктов питания были введены специальные талоны [12].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Стоит отметить, что эвакуация из Ленинграда продолжалась даже в 1944 г. уже после снятия блокады. Согласно спискам за 1944 г. в Узбекистан из Ленинграда было эвакуировано 346 человек[14].. Благодаря помощи многонационального народа Узбекистана эвакуированным жителям блокадного Ленинграда удалось не просто выжить физически, но и выстоять морально.

REFERENCES

1. Коммунистическая партия Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. Летопись событий. Ташкент: Узбекистан, 1980. Ч. 5.
2. *Костецкий В.* Вклад Узбекистана в освобождение Ленинграда от фашистских захватчиков // <http://press-unity.com/stati/7049.html>
3. Правда Востока. 1942. 11 июля.
4. Правда Востока. 1943. 28 января.
5. Гусейнова З. М. О. Штейнберг: первый год в Ташкенте // *Opera musicologica*. 2011. № 1 [7].
6. <https://regnum.ru/news/2066031.html>
7. НАУз (Национальный архив Узбекистана). Ф. Р-837. Оп. 32. Д. 2782.
8. НАУз. Ф. Р-837. Оп. 32. Д. 2894. Л. 26.
9. НАУз. Ф. Р-837. Оп. 32. Д. 3420.
10. НАУз. Ф. Р-837. Оп. 32. Д. 3518.
11. ЦГАГТ (Центральный государственный архив города Ташкента). Ф. 10. Оп. 18. Д. 37.
12. ЦГАГТ. Ф. 330. Оп. 1. Д. 3.
13. ЦГАГТ. Ф. 330. Оп. 1. Д. 4.
14. ЦГАГТ. Ф. 330. Оп. 1. Д. 10.
15. ЦГАГТ. Ф. 330. Оп. 1. Д. 9.



DOCUMENTING EASTERN VISAYAN INDIGENOUS TOYS AS EDUCATIONAL ALTERNATIVES TO ADDICTIVE MODERN GADGETRY

Clemelle L. Montallana

Juancho C. Tesado

Dominador L. Pagliawan

Fhaila Donn C. Soniedo

Abuyog Community College, Abuyog, Leyte, Philippines

ABSTRACT

Before the advent of computer technology, children and young people of the Eastern Visayas region in the Philippines engaged themselves in fun games using homemade toys readily available in the immediate environment. These toys could develop physical strength, mental alertness, teamwork, and social interactions when played with. But when the advancing computer technology came with its gadgets that are getting hi-tech over time, plus the numerous digital games that they bring, children became glued to these computerized games, their productive times consumed, their attention stolen, their studies and household duties neglected. Hence, to many of these youngsters, obsession with these gadgets even worsened into addiction. To somehow divert their attention without altering their natural playful tendency, this study was conceived by way of documenting the native toys of old that could generate fun games among children and young people. Using the descriptive method, this qualitative study chose participants across the region aged 40 and above, providing the data on what those toys are and the rules of the games. The results of this study could invite attention to these toys that have been mostly forgotten and ignored. Their retrieval and reintroduction especially in educational institutions could somehow divert the interest among these kids, saving them thus from too much exposure and destructive addiction to modern gadgetry.

Keywords: indigenous toys, gadget addiction, modern gadgetry, children, youths

I. INTRODUCTION

Before the advent of computer technology, children and young people were into beneficial games that developed their physical strength, social well-being, and mental alertness, not to mention the economical side of those games. But when computerized gadgets came, these youngsters became glued to these things (Elhai et al. 2017) depriving themselves of those benefits derived from indigenous toys and games.

And so, as digital technology advanced further, many of these kids even developed addictions to gadgets (Mat Sharif & Omar, 2013). Some of them became frail physically, some had ruined their eyes, and others had developed stomach ulcers from skipping their meals or not eating on time. Not only these but some had

become socially aloof, distant from loved ones, and absent-minded as though they live in a different world (Ranjan et al. 2013). At times, you can't nicely talk to them since they tend to be irritable, in deep thought, or unwilling to entertain a conversation.

These are not good indicators to see upon our future citizens and leaders. These are, in fact, signs of individual and social decadence (Mat Sharif & Omar, 2013). We do not want to have future citizens who are physically frail, mentally unfit, loners and unfriendly, and are glued to gadgets since they can never satisfactorily carry out their tasks, make the right decisions, properly relate to other people, and be productive in their fields of assignment (Zulkefly & Baharudin, 2009). It is for this reason that efforts to rescue them from gadget addiction should be put in place, even if it means putting them in rehabilitation centers. We cannot afford to lose our future generation by allowing them to be devoured by modern gadgetry, their time wasted, and their health ruined.

While attempts to sort of rehabilitate them may prove useful, some alternatives should likewise be introduced. That's where the need for a reintroduction of those old games and toys comes in. Yes, they must be good alternatives to reckon with. There are some others, of course, but since these are youngsters who are still fond of playing, games should form part of these options. If it's done in compulsory manners like required school activities, these youths would have no choice but to engage in said games. In the process, and in the long run, they will learn to appreciate them and eventually play these games at will.

These toys and games are called by many names in various localities—traditional, ethnic, cultural, indigenous, etc. And, believe me, there are so many. That is why youngsters of today will never find them boring to play with since they vary a lot. And what's more, they can be had for free. One may ask them from farmers or those who live in rural areas since these toys are mostly sourced from farmlands. One may take time to create them to get them ready for fun games. But once created, many of these toys can last for some time despite repeated use.

The participants could enumerate what they know about indigenous toys. They can make these themselves, and play with them, knowing that they belong to that older generation whose childhood and youth came prior to the advent of gadgets. They know the rules of the games, too. If only to save our present-day young people from gadget addiction.

A. LITERATURE REVIEW

This section presents the review of literature related to this study and is based on the study's important variables: indigenous toys and modern-day gadgets.

• *Indigenous Toys and Games*

Children and young people are, by nature, universally playful. Play is not just instinctive to them, it also plays an important role in their development that the American Academy of Pediatrics (Ginsburg, 2007) issued a paper on it, the United



Nations High Commission on Human Rights (1989) recognized play as a child's basic right, and the National Association for the Education of Young Children (2009) had rendered play as central to the developmentally-appropriate practices in education.

Despite the importance of play in children's lives, playing time is said to continually decrease over time (Elkind, 2008), as explained by the increase in academic tasks given to them from school. Moreover, the advent of technology-based games led to more confusion about the meaning and nature of play (Lester and Russell 2008). As can be observed further, there has been a massive departure from traditional toys that children used to play with, to the modern-day gadgets that require no playmates but are rather played with individually. Kids nowadays not only abandoned the indigenous toys of old, but they also got addicted to the modern gadgetry (Elhai et al., 2017).

- **Educational Toys**

As common knowledge would have it, any toy that children are playing with could yield educational benefits, even if a child is playing alone. In a recent brain scan study, Salim Hashmi and colleagues used functional near-infrared spectroscopy (FNIRS) to monitor the brains of 33 children (aged 4-8) while they played with toys. The researchers looked for activity in the posterior superior temporal sulcus or PSTS – a brain region associated with social processing and empathy and they witnessed enhanced activity whenever the kids played with a social partner as expected. But this brain activity was also high when kids played alone with a doll, suggesting that children were engaging the social brain during solitary doll play. As the researchers argue, the results are “consistent with the notion that pretend play allows children to practice social interactions even when playing by themselves” (Hashmi et al., 2022).

Ushbu maqolada konchilik korxonalarining eng asosiy tashish transporti hisoblangan konveyer transportining elektr yuritgichini tok datchiklari vositasida himoyalash va avtomatlashtirishning nazariy asoslari hamda samaradorligi yoritib o'tilgan. Tok datchiklarining tuzilishi, ishlash prinsiplari, elektr yuritgichlarni himoya qilish modellari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek ushbu maqolada konveyerlarni himoyalash uchun qo'llaniladigan boshqa tur datchiklar haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tok datchigi, holl effekti, konveyerlar, tezlik rostlagichlar, optimallashtirish vositalari, mikroprotessorli himoya.

ABSTRACT

This article describes the theoretical basis and effectiveness of the protection and automation of the electric conveyor of the conveyor transport, which is considered the main transport of mining enterprises, by means of current sensors. Information about the structure of current sensors, principles of operation, models of protection of electrical conductors is

provided. This article also provides information about other types of sensors used to protect conveyors.

Keywords: current sensor, Hall effect, conveyors, speed adjusters, optimization tools, microprocessor protection.

KIRISH


Konveyer transporti maxsulotlarni tashishda eng ko'p qo'llaniladigan va har tomonlama samarador bo'lgan transport turidir. Konveyerlarning ko'plab turlari, turli sharoitda ishlash uchun mo'ljallangan turlari mavjud bo'lib, bu konveyerlarning qo'llanilish sohasini yanada kengaytiradi. Sanoatning turli tarmoqlarida jumladan konchilik sanoatida ham konveyerlardan keng miqyosda foydalaniladi. Jumladan konchilik korxonalarida hisoblangan boyitish fabrikalarida rudaning yetkazib berishini ta'minlovchi asosiy transport turi bu konveyerlardir. Konchilik korxonalarida tashilayotgan maxsulot parametrlari, o'lchamlari og'irligi, tashish sharoitiga qarab tasmali hamda plastinkali konveyerlardan foydalaniladi. Ushbu yuklarni tashish jarayonida turli qiyinchiliklar va murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa konveyerlarni xavfsiz va samarali eksplotatsiya qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Konveyer transportida tashish masofasi ortgan sari uning havfsizligini ta'minlash va konveyerni himoyalash sxemalari murakkablashib boradi. Konveyerning butun uzunligi bo'ylab texnologik jarayonni to'g'ri borishini ta'minlash qurilmaning samaradorligi oshishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Konveyerning butun uzunligi bo'ylab xavfsizlikni ta'minlash hamda konveyerni himoyalash uchun turli xil datchiklar va himoyalagich qurilmalardan foydalaniladi.

Konveyer transporti katta uzunlikda katta quvvatli elektr yuritgich qo'llanilishini talab qiladi, katta quvvatdagi elektr yuritgichning salt ishlash vaqtidagi energiya istemoli ham sezilarli katta bo'ladi. Yuksiz ishlash vaqtida konveyer transportining foydali ish koeffitsienti nol foizni tashkil etadi shu bois bu vaqtda istemol qilingan elektr energiyasi to'laligicha isrof energiya hisoblanadi. Bu holatni bartaraf etish uchun konveyer transportida yuk bo'lmagan vaqtda uni to'xtatib turish va yuk kelishi bilan uni qayta ishga tushirish maqsadga muvofiqdir. Ammo bu jarayonni qo'lda boshqarish birmuncha murakkab va noqulayliklarni keltirib chiqaradi, shu sababdan ham bu jarayonni avtomatik tarzda amalga oshirish har tomonlama qulay va inson mexnatini yengillashtirishga omil bo'ladi.

Tok datchiklarining qo'llanilishida asosiy etibor uning sezish elementlariga qaratiladi. Tok datchiklari asosiy elementlari sifatida ferromagnit materiallar yoki Holl sensorlari qo'llanilishi mumkin. Yirik quvvatli qurilmalarning himoya qurilmasi sifatida ishlatilganda asosan ferromagnit o'zagli tok datchiklaridan foydalaniladi. Tok datchiklarining qo'llanilish holatlarida u qo'llanilayotgan uskunaning ish holati muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ish holatini Aktiv-induktiv yuklamaga ulangan rejimda hamda qisqa tutashgan rejimlar uchun hisoblash talab etiladi.



Aktiv-induktiv yuklamaga ulangan rejimda ishlayotgan hamda kirishiga sinusoidal tok berilgan FMTO' o'tkinchi karakteristikasi.

Qisqa tutashish rejimida ishlayotgan hamda kirishiga sinusoidal tok berilgan FMTO' o'tkinchi karakteristikasi.

Konveyer transportining yukli va yuksiz holatlarida elektr yuritgich tezligi va quvvatining nominalda bo'lishi ortiqcha energiya yo'qotilishiga olib keladi. Teskari aloqa datchiklari yordamida texnologik jarayonidagi o'zgarishlarni elektr yuritgich boshqaruv tizimi bilan bog'lash orqali elektr yuritgichni optimal parametrlarda ishlatishini ta'minlashimiz mumkin. Bu usul har tomonlama zamonaviy, iqtisodiy va energiya tejankor usul hisoblanib, optimal parametrlarini saqlash orqali elektr yuritgich va texnologik qurilmalarni uzoq vaqt xizmat qilishiga zamin yaratadi.


NATIJALAR

Konveyerlarda yuzaga keladigan yuklamna o'zgarishi konveyerning elektr yuritgichi valiga ta'sir ko'rsatayotgan qarshilik momentiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Elektr yuritgich validagi qarshilik momenti bevosita rotor hamda stator tokiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Stator tokining o'zgarish darajasi konveyer elektr yuritgichining turli xolatlar uchun baholash imkonini beradi. Shuningdek aytish mumkinki elektr yuritgichlarda yuz beradigan avariya holatlarining deyarli 80-85%i yuklama tokining oshib ketishi

natijasida ro'y beradi. Tok bo'yicha nazorat(himoya) o'rnatilgan elektr yuritgichlarda avariya holatlarini bartaraf etish eng samarali usuldir.

Tok datchiklari blok ko'rinishidagi qurilma bo'lib, o'zi ulangan tarmoq yoki uskunaning tok kuchi qiymatini uzluksiz o'lchash hamda ma'lum belgilangan etalondagi qiymatini (signalni) ijro mexanizmlariga yoki o'lchov qurilmalariga uzatadi. Tok datchiklarining shunday turlari borki, bu turdagi datchiklar ma'lum qiymatni belgilab tok kuchining tok kuchuning shu qiymatida signal berish funksiyasini o'rnatishimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek tok datchiklari sensorli qurilmalar, boshqaruv modullari elektrik yoki optik o'zgartirgichlar vositasi sifatida ham qo'llaniladi. Tok datchikli himoya modullari juda keng qamrovda qo'llanilib, ularning asosiy avfzalliklari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Kompakt ko'rinishda (ixcham)
2. Qo'llashda xavfsiz
3. Yuqori aniqlilik
4. Ekologik toza




Holl effekti asosida ishlaydigan tok datchiklarining umumiy ko'rinishi va ulanish sxemasi

Konveyer qurilmalarining ish rejimini inobatga oladigan bo'lsak, unda yuklamaning o'zgarishi va umumiy ish vaqtida turli rejimlarda ishlatish talab etilishini ko'rishimiz mumkin. Bunday texnologik jarayonni avtomatlashtirishda tok datchiklaridan foydalanish juda samaralidir. Tok datchiklari vositasida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish asosida yuklama tokining o'zgarishiga mos ravishda konveyer tezligini boshqarish, rotorning yuklanish darajasini uzluksiz nazorat qilish, yuritgichning qizishini oldini olish hamda turli xil nonormal xolatlardan himoyalash imkoniyati yaratiladi.

MUHOKAMA

Sanoat korxonalarining konveyer qurilmalari himoyasini ta'minlash hamda texnologik jarayonni boshqarish uchun rele himoyasi qo'llanilganda boshqarish va himoyalash sxemasi birmuncha murakkablashib ketadi. Ushbu sxemani soddalashtirish va qulaylashtirish uchun datchikli qurilmalarni qo'llash har tomonlama qulaydir.

Konveyerlarda tashilayotgan yuklarning zichligi turlicha bo'lgan holatlarda konveyer hajmiga muvofiq tashilayotgan yukning umumiy vazni bir xil me'yorda bo'lmaydi. Bu holatda esa yuk vazni oshishi natijasida elektr yuritgich ortiqcha yuklanishi hamda friksion uzatmadagi yetaklovchi barabanda ishqalanish kuchining oshib ketishi yuzaga keladi. Bu jarayonda konveyerning harakatlanish tezligini oshirish kuchlanish vat ok kuchi parametrlarini optimal qiymatlarga rostlashni talab etadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun tok datchiklari qo'llanilganda, datchik o'rnatilgan tarmoqdagi yuklama tokining oshishi natijasida tok datchigi rostlash qurilmalariga signal jo'natadi. Rostlash qurilmalari signalning qiymatiga muvofiq elektr yuritgich tezligini rostlab turadi.



Konveyer elektr yuritgichining ishchi grafigi

Elektr yuritgichining ishchi grafigidan ko'rishimiz mumkinki konveyerlar elektr yuritgichlarida asosiy parametrlar uning tezligi va fazalar farqi o'zgarishiga uzviy bog'liq bo'ladi. Shuni inobatga olgan holda tok datchiklari vositasida dvigatel rotorining yuklama va aylanish momentlarini uzluksiz o'lchab turish hamda ularning turli qiymatlarda o'zgarishlarida rostlash uchun signallarni uzatish vazifasini yuklash lozim. Tok datchiklari yordamida konveyerning ish jarayonida yuz beradigan barcha texnologik jarayonlarni uzluksi nazoratda ishlash va avariya holatlarida himoyalash imkoniyati mavjud bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki kon korxonalarining asosiy tashish transporti hisoblangan tasmali konveyerlarning elektr yuritgich tizimlarini tok datchiklari vositasida

avtomatlashtirish orqali yuklarni tashish jarayonini to'la nazorat qilishimiz, konveyerlarni yukli va yuksiz holatlarda to'la boshqara olishimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek konveyerlardagi tezlikni rostdash tizimini avtomatlashtirish hamda konveyer elektr yuritgichini turli rejimlar uchun eng optimal parametrlarda ishlatish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu texnologik sxemani qo'llash orqali nafaqat qulay va sodda boshqaruv tizimiga erishish balki konveyer elektr yuritgichlarining energiya samaradorligini ham oshirish mumkin. Yuqoridagi muhokama qilingan omillarni inobatga olgan holda aytish mumkinki tok datchiklarining elektr yuritgich tizimida qo'llanilishi elektr yuritma va texnologik jarayonning yuqori unumdorlikda va havfsiz amalga oshirishini ta'minlay oladi.

REFERENCES

1. Патент РУз. №03858. Трансформатор тока/Амиров С.Ф., Халиков А.А., Шойимов Й.Ю., Хушбоков Б.Х., Балгаев Н.Э.//Расмий ахборотнома. – 2009. – №1.
2. Патент РУз. №03617. Устройство для бесконтактного измерения токов/Амиров С.Ф., Халиков А.А., Шойимов Й.Ю., Хушбоков Б.Х., Шойимов Й.Ю., Балгаев Н.Э.//Расмий ахборотнома. – 2008. – №3.
3. Шойимов Й.Ю. Анализ обобщенных приемов улучшения характеристик магнитогальванических датчиков тока//Международный научно-технический журнал «Химическая технология. Контроль и управление». -Ташкент, 2012, №3. с. 49-54.
4. Shodiyev O.A. Yuldashev E.U. Yuldasheva M.A. Jalolov I. S. KONVEYER TRANSPORTINI ELEKTR YURITMASINI TESKARI ALOQALI DATCHIKLARI VOSITASIDA BOSHQARISH
<https://ares.uz/uz/maqola-sahifasi/konveyer-transportini-elektr-yuritmasini-teskari-aloqali-datchiklari-vositasida-boshqarish>
5. Shodiyev O.A. Yuldashev E.U. Uralov J.T. No'monov A.B. KONVEYER TRANSPORTINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI VA TEXNIK YECHIMLARINI ISHLAB CHIQISH
<https://ares.uz/uz/maqola-sahifasi/konveyer-transportining-energiya-samaradorligini-oshirish-usullari-va-texnik-yechimlarini-ishlab-chiqish>
6. R.Baratov., T.Bon., Y.Chulliyev., M.Abdullayev., Y.Shoyimov. Modeling and simulation of water levels control in open canals using Simulink.//IOP Conference Series: Earth and Environmental Science ICECAE 2021 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 939 (2021) 012028 IOP Publishing. doi:10.1088/1755-1315/939/1/012028



7. Shoyimov Y.Yu., Urumbayev F.D. Application of current sensors for automatic control systems of traction chains of electric and locomotive//2nd International Multidisciplinary Scientific Conference “Ingenious Global Thoughts”, Berlin, Germany, April, 2021 <https://conferencepublication.com>.

8. Шойимов Й.Ю., Махамаджанов Р.К. Датчики тока с многовитковыми сердечниками.//«MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. Collection scientific works of the International scientific conference (7-9 May, 2021) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 2»,. ISSUE 4(38) PART 2 ISBN 978-83-949403-3-1, 439-440 стр.

9. *Sarvar* Khalikov *Ubaydulla* Boqijonov, *Humoyun* Muminov, *Nematulloch* Ikromov, *Elmurod* Yuldashev Operational Management of Substation Safety Power Supply.

10. Prokatlash jarayonidagi termal qattiqlashtirishning avtomatik boshqaruv nazorati Ibrohimxon Saydijamol o'g'li Jalolov

<https://www.ares.uz/uz/maqola-sahifasi/prokatlash-jarayonidagi-termal-qattiqlashtirishning-avtomatik-boshqaruv-nazorati>

XORIJIY TILLARINI O'QITISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ASOSIDAGI TURLI NAZARIY MODELLAR

Dostonjon Sherov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti erkin izlanuvchisi

Ibodot Xusenova

Boshlang'ich ta'lim fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlovchi turli nazariy modellar, jumladan, kognitiv, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazarlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Adabiyotlarni ko'rib chiqish o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini va til o'rganishdagi yutuqlarini rag'batlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muhimligini e'tirof etadi. Natijalar bo'limida esa har bir nazariy modelning asosiy tushunchalari va tamoyillari va ularni chet tilini o'qitishda qo'llash misollari haqida tushuncha va ta'riflar keltirilgan. Muhokama bo'limida har bir modelning kuchli tomonlari va to'siqlari taqqoslanadi hamda chet tilini o'qitishdagi ta'siri izohlangan. Mazkur izlanishning xulosa qismida xorijiy tillarni o'qitishda nazariy modellarni amaliy qo'llash bo'yicha takliflar berilgan. Tadqiqot samarali ta'lim muhitini yaratishda individual o'quvchining ehtiyojlari, imtiyozlari va qobiliyatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Maqolada sanab o'tilgan turli nazariy modellarning tahlillariga tayanib, chet tili o'qituvchilari o'quvchilarning til o'rganish natijalarini yaxshilaydigan turli va qiziqarli o'rganish tajribalarini taqdim etishlari mumkin.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, chet tillarini o'rgatish, kognitiv istiqbol, konstruktivistik nuqtai nazar, ijtimoiy-madaniy nuqtai nazar, o'quvchilarning faolligi, motivatsiya, muvaffaqiyat, samarali o'quv muhiti, individual o'quvchi, o'qitish strategiyalari.

DIFFERENT THEORETICAL MODELS THAT SUPPORT PERSONALIZED EDUCATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

ABSTRACT

This article provides an overview of different theoretical models that support personalized education in foreign language



teaching, including cognitive, constructivist, and sociocultural perspectives. The literature review highlights the importance of personalized education in promoting student engagement, motivation, and achievement in language learning. The results section provides an overview of the key concepts and principles of each theoretical model and examples of their application in foreign language teaching. The discussion section compares the strengths and limitations of each model and provides implications for foreign language teaching. Finally, the conclusion section offers suggestions for practical applications of the theoretical models in foreign language teaching. The study highlights the importance of considering the individual learner's needs, preferences, and abilities in creating effective learning environments. By drawing on the strengths of different theoretical models, foreign language teachers can provide diverse and engaging learning experiences that enhance students' language learning outcomes.

Keywords: personalized education, foreign language teaching, cognitive perspective, constructivist perspective, sociocultural perspective, student engagement, motivation, achievement, effective learning environments, individual learner, instructional strategies.

KIRISH

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim chet tillarini o'qitishda o'quvchilarning turli ehtiyojlari va qobiliyatlarini qondirish vositasi sifatida ilmiy va amaliy sohaga kirib bormoqda (Chen & Li, 2019; Mo & Schweers, 2020). Ta'limdagi bunday yondashuv o'quvchilarning individual qiziqishlari, o'rganish uslublari va maqsadlarini hisobga olgan holda o'rganish tajribasini ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi (Kitching, 2017). Demakki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarga o'zlarining motivatsiyasini rag'batlantiradigan va natijada til bilish darajasini oshiradigan mazmunli o'rganish tajribasi bilan shug'ullanish imkonini beradi (Dörnyei, 2017).

Chet tillarini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limga qiziqish ortib borayotganiga qaramay, ushbu yondashuvni darslarda samarali qo'llashda qiyinchiliklar ham mavjud (Anderson va Spek, 2018). Bunday qiyinchiliklarni asosan o'quvchilarning individual ehtiyojlarini standartlashtirilgan o'quv dasturiga kiritish yoki ularning taraqqiyotini to'g'ri baholashni qiyin deb bilgan jarayonda kuzatish mumkin (Nikolov va Djigunovich, 2019). Shu sababli, o'qituvchilarga samarali o'qitish amaliyotini rivojlantirishga yordam berish uchun shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlovchi nazariy modellarni har tomonlama tushunishga ehtiyoj mavjud degan xulosa paydo bo'ladi.

Ushbu maqolaning maqsadi esa ayni chet tillarini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlovchi nazariy modellar haqida umumiy ma'lumot berishdir. Xususan, ushbu maqola kognitiv, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazarlarni va ularning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga aloqadorligini o'rganishga qaratilgan. Bu orqali mazkur kichik tadqiqotda o'qituvchilarga shaxsga yo'naltirilgan ta'limning nazariy asoslari va uning amaliy qo'llanilishi haqida chuqurroq tushuncha berishga harakat qilamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, maqolada muhokama qilinadigan uchta nazariy model kognitiv, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazar hisoblanadi. Kognitiv nuqtai nazar alohida o'quvchilarning diqqat, xotira va idrok kabi aqliy jarayonlarini va bu jarayonlarning ularning ta'lim natijalariga qanday ta'sir qilishini tadqiq etsa (Anderson, 2016), konstruktivistik nuqtai nazar o'rganishni faol jarayon sifatida qaraydi va bunda o'quvchilar o'zlarining oldingi bilimlari va tajribalariga asoslanib, o'z tushunchalarini shakllantiradilar (Vygotskiy, 1978). Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazar ta'limning ijtimoiy va madaniy kontekstlariga, jumladan, til va muloqotning o'quvchilar shaxsiyati va o'rganish tajribasini shakllantirishdagi rolga e'tibor qaratadi (Lantolf & Thorne, 2006).

ADABIYOTLAR TAHLILI

❖ Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ta'rifi va ahamiyati

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - bu o'rganish tajribasini individual o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirishga qaratilgan o'qitishga yondashuvdir (Kitching, 2017). Mazkur yondashuv o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ta'sir qiluvchi o'ziga xos ta'lim uslublari, imtiyozlari va kelib chiqishi borligini o'zida aks ettiradi. Shu sababli, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning individual farqlarini o'z ichiga oladigan va ularning motivatsiyasi hamda bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradigan o'quv muhitini yaratishga imkon beradi (Dörnyei, 2017).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning til bilimi va kognitiv rivojlanishini oshirishi mumkin (Chen & Li, 2019; Mo & Schweers, 2020). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularning ta'limdagi faol ishtirokini ta'minlaydi va ularga o'z bilim olish jarayonlarini samarali tashkillashtirish imkonini beradi. Demak, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim chet tillarini o'qitishda juda muhim va bu jarayibdada o'quvchilarning turli til va madaniy kelib chiqishini inobatga olish kerak bo'ladi.

❖ Kognitiv yondashuv va uning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga aloqadorligi

Kognitiv qarashlar individual o'quvchilarning aqliy jarayonlarini va ularning ta'limdagi roliga ahamiyat beradi (Anderson, 2016). Bu nazariyaga ko'ra, o'rganish diqqat, xotira va idrok kabi turli kognitiv jarayonlar orqali ma'lumotni olish, saqlash va qayta tiklashni o'z ichiga oladi. Shuning uchun shaxsga yo'naltirilgan ta'lim samarali o'rganish tajribasini ishlab chiqish uchun individual o'quvchilarning kognitiv jarayonlari va o'rganish uslublarini hisobga olishi kerak (Nikolov va Djigunovich, 2019).

Masalan, vizual o'rganishga moyil o'quvchilar ko'rgazmali qurollar va taqdimotlar orqali o'rganishni afzal ko'rishlari mumkin, boshqalari esa ma'ruzalar va muhokamalar orqali o'rganishni afzal ko'radigan eshitish qobiliyati orqali o'rganishga moyil o'quvchilarni darslarda kuzatamiz (Anderson va Spek, 2018). Qisqacha aytganda, o'quvchilarning individual ta'lim uslublarini aniqlash orqali o'qituvchilar o'zlarining xohishlariga mos keladigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tajribasini ishlab chiqishlari va ularning o'qishga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishlari mumkin.

❖ Konstruktivistik nuqtai nazar va uning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga aloqadorligi

Konstruktivistik yondashuv o'rganishni faol jarayon sifatida qaraydi va bunda o'quvchilar o'zlarining oldingi bilimlari va tajribalariga asoslanib, dunyo haqidagi tushunchalarini tasavvur qiladilar (Vygotskiy, 1978). Shuning uchun shaxsga yo'naltirilgan ta'lim individual o'quvchilarning oldingi bilimlari va tajribalarini hisobga olishi va ularning o'rganishini osonlashtirish uchun ularga moslanishi kerak (Kitching, 2017).

Misol keltiradigan bo'lsak, chet tilini o'rgatishda o'qituvchilar individual o'quvchilarning til ko'nikmalari darajasini aniqlashlari va ularni kelgusi o'qitish uchun asos sifatida ishlatishlari mumkin. Bunday yondashuv o'quvchilarga oldingi bilimlarini yangi tushunchalar va til tuzilmalari bilan bog'lash imkonini beradi, natijada bu ularning tilni tushunishi, shuningdek, avvalgi va kelgusi bilimlarini eslab qolishini rag'batlantiradi (Mo & Schweers, 2020).

❖ Ijtimoiy-madaniy istiqbol va uning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga aloqadorligi

Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazar ta'limning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini va ularning o'quvchilarning shaxsiyati va o'rganish tajribasiga ta'siriga e'tibor qaratib (Lantolf & Thorne, 2006), til va muloqot o'quvchilarning madaniy o'ziga xosligini va chet tilini o'rganish qobiliyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Buning natijasida esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning individual madaniy kelib chiqishini hisobga olishi va ularni o'rganish uslubida inobatga olinishi lozim (Chen va Li, 2019). Ushbu yondashuv o'quvchilarga til o'rganishni o'zlarining madaniy o'ziga xosliklari bilan bog'lash imkonini beradi, ularning o'rganishga qiziqishi va motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarda xilma-xillik va inklyuziyaga hurmatni rivojlantiradigan madaniy jihatdan sezgir o'quv muhitini yaratishi mumkin (Dörnyei, 2017).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kognitiv, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazarlar chet tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning nazariy asoslarini ta'minlaydi. Ushbu istiqbollarni o'qitish amaliyotiga kiritish orqali o'qituvchilar individual o'quvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan va ularning til va madaniy kompetensiyalarini rag'batlantiradigan samarali va mazmunli o'rganish tajribasini ishlab chiqishlari mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qidiruv strategiyalari va ilmiy ishlarni tanlash mezonlari: ushbu maqola uchun adabiyotlarni ko'rib chiqish bir nechta onlayn ma'lumotlar bazalari, jumladan ERIC, JSTOR va Google Scholar yordamida o'tkazildi. Qo'llaniladigan qidiruv so'zlari "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim", "chet tilini o'qitish", "kognitiv nuqtai nazar", "konstruktivistik nuqtai nazar" va "sotsiomadaniy nuqtai nazar" kabi kalit so'zlarni o'z ichiga oladi. Qidiruv so'nggi 10 yil ichida chop etilgan va ingliz tilida yozilgan maqolalar bilan cheklangan.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish: dastlab jami ellikka yaqin ilmiy ishlar to'plandi, biroq kiritish va chiqarib tashlash mezonlari qo'llanilgandan so'ng yigirmadan ortiq maqola ko'rib chiqish uchun tanlab olindi. Maqolalar mavzuga mosligi tahlil qilinib, turli nazariy nuqtai nazarlar asosida ma'lumotlar sintezlanib, tizimlashtirildi.

Tadqiqot chegaralari: ushbu tadqiqot chegarasi faqat uchta nazariy nuqtai nazarga tor yo'naltirilganligidir. Gumanistik va xulq-atvor nuqtai nazarlari kabi boshqa nazariy istiqbollar ushbu sharhga kiritilmagan. Bundan tashqari, tadqiqot so'nggi 10 yil ichida chop etilgan va ingliz tilida yozilgan maqolalar bilan cheklangan bo'lib, boshqa tillardagi tegishli maqolalar yoki mavzuga hali ham tegishli bo'lgan eski maqolalar chiqarib tashlangan yoki e'tibordan chetda qolgan bo'lishi mumkin.

Shunga qaramay, mazkur tadqiqot chet tillarini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning kognitiv, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazarini har tomonlama ko'rib chiqadi va

bu ushbu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

NATIJALAR

Demak, yuqorida ta'kidlaganimiz kabi adabiyotlarni o'rganish chet tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlovchi uchta asosiy nazariy modelni aniqladi: kognitiv, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazar.

Kognitiv nuqtai nazar tilni o'rganishda diqqat, xotira va muammolarni hal qilish kabi aqliy jarayonlarning rolini ta'kidlaydi (Anderson, 2016). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kontekstida bu istiqbol o'quv materiallari va faoliyatini o'quvchilarning bilim olish qobiliyatlari va o'rganish uslublariga moslashtirish muhimligini e'tirof etadi (Anderson va Spek, 2018). Shu bilan bir qatorda, konstruktivistik nuqtai nazar o'rganishni faol va ijtimoiy jarayon sifatida ko'rib chiqadi, bunda o'quvchilar atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir qilish orqali dunyo haqidagi o'z tushunchalarini quradilar (Dörnyei, 2017). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kontekstida bu yondashuv o'quvchilarga mazmunli va tegishli amaliy mashg'ulotlar orqali o'z o'zlashtirish jarayonlarini tashkil etish imkoniyatini berish muhimligini ta'kidlaydi (Kitching, 2017). Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazar esa tilni o'rganishdagi ijtimoiy va madaniy omillarning rolini tadqiq etadi, masalan, boshqalar bilan o'zaro munosabat, madaniy kontekst va tildan muloqot va ijtimoiylashuv uchun foydalanish (Lantolf & Thorne, 2006). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kontekstida bu nazariya ta'limni o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy kelib chiqishiga moslashtirish va haqiqiy muloqot hamda o'zaro ta'sir qilish imkoniyatlarini ta'minlash muhimligini isbotlaydi (Mo & Schweers, 2020).

Kognitiv nuqtai nazardan tadqiqotchilar moslashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llaydilar, ular o'quvchilarning o'zlashtirishlashiga qarab o'qitishning qiyinligi va tezligini moslashtira oladi (Gao va Braun, 2021). Konstruktivistik nuqtai nazardan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim loyihaga asoslangan ta'lim va so'rovnomaga asoslangan ta'lim orqali qo'llaniladi, natijada esa bu o'quvchilarga tadqiqot va hamkorlik orqali o'z bilimlarini egallash imkonini beradi (Hsu & Wang, 2019).

MUHOKAMA

A. Nazariy modellarni solishtirish

Kognitiv, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan uchta nazariy modellar o'quvchilarga shaxsiy ta'lim berishning umumiy maqsadiga ega. Ammo, ular o'zlarining asosiy

tamoyillari, tahminlari va belgilangan maqsadga erishish uchun o'z qarashlari bilan farqlanadi.

B. Sanab o'tilgan modelning kuchli tomonlari va to'siqlari

Kognitiv nazariyada bilim va ko'nikmalarni egallashda o'quvchining psixik jarayonlarining ahamiyatiga urg'u berilib, bu tilni o'rganishda xotira, diqqat va idrokning rolini kuchaytiradi. Bunday modelning o'ziga xos tomoni shundaki, u kognitiv psixologiya bo'yicha yaxshi tashkil etilgan tadqiqotlarga asoslangan. Lekin, ba'zi olimlar bu modelni individual jarayonlarga qaratilganligi va til o'rganishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va madaniy omillarga e'tibor bermasligi uchun tanqid ham qilishadi.

Konstruktivistik yondashuv o'rganishni faol, konstruktiv va ijtimoiy jarayon sifatida ko'radi. Bu o'quvchining yangi ma'lumotlar haqidagi tushunchasini shakllantirishda oldingi bilimlari, tajribasi va e'tiqodlariga urg'u beradi. Mazkur modelning o'ziga xosligi shundaki, u o'quvchining o'quv jarayonidagi majburiyati va mustaqilligini alohida e'tiborga oladi. Shunga qaramay, ayrim izlanuvchilar bu modelni aniq ko'rsatma roliga e'tibor bermasligini, shuningdek, o'quvchining oldingi bilimlarining cheklanganligini ham sanab o'tishadi.

Til o'rganishni shakllantirishda ijtimoiy va madaniy kontekstlarning muhimligini ta'kidlovchi ijtimoiy-madaniy qarashlar o'rganishda vositachilik qilishda o'zaro ta'sir, hamkorlik va tildan foydalanish rolini oldingi o'ringa qo'yadi. Bu modelning "tashrif qozog'i" shundaki, u o'quvchilarning xilma-xilligini va til o'rganishning ijtimoiy va madaniy jihatlarini hisobga olish muhimligini takrorlaydi. Shu bilan birga, bu modelni o'quvchining individual mas'uliyatiga e'tibor bermasligi va ijtimoiy-madaniy omillarning roliga ortiqcha e'tibor berishini tanqid qiluvchi tadqiqotchilar talaygina.

D. Modellarning chet tillarni o'qitishga ta'siri

Sanab o'tilgan turli nazariy modellar chet tillarini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni loyihalash va amalga oshirish haqida tushuncha beradi. O'qituvchilar ushbu modellardan o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini va yutuqlarini rag'batlantiradigan o'quv muhitini yaratish uchun foydalanishlari mumkin. Misol uchun, o'qituvchilar o'quvchilarning xotirasini va til materiallarini tushunishni kuchaytirish uchun ishlab chiqish (elaboration) va izlash amaliyoti (retrieval practice) kabi kognitiv strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Shuningdek, ular o'quvchilarning yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam berish uchun loyihalash va so'rovnomaga asoslangan o'rganish kabi konstruktivistik strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Yana aytishimiz mumkinki, ustozlar o'quvchilarning ijtimoiy va

madaniy kompetentsiyasini rivojlantirish uchun hamkorlikda o'rganish va tildan foydalanish kabi ijtimoiy-madaniy strategiyalardan foydalana oladilar.

E. Kelgusi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar

Kelajakdagi tadqiqotlar mazkur nazariy modellarning turli tillarni o'qitish kontekstlarida va turli o'quvchilar o'zlashtirish samaradorligini o'rganishi mumkin. Tadqiqotlar, shuningdek, turli modellarni o'zlarining kuchli tomonlaridan foydalanadigan gibrid yondashuvlarni yaratish uchun birlashtirish imkoniyatlarini o'rgana oladi. Bundan tashqari, tadqiqot xorijiy tillarni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlashda texnologiyaning rolini o'rganishi ham mumkin, chunki raqamli vositalar moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan o'rganish tajribasi uchun imkoniyatlarni taqdim etadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola chet tillarini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlovchi turli nazariy modellar, jumladan, kognitiv, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazarlarni ko'rib chiqdi. Adabiyotlarni o'rganish o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini va til o'rganishdagi muvaffaqiyatlarini rag'batlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muhimligini ta'kidlaydi. Natijalar bo'limida har bir nazariy modelning asosiy tushunchalari va tamoyillari va ularni chet tilini o'qitishda qo'llash misollari haqida umumiy ma'lumot berildi.

Ushbu kichik tadqiqotning ahamiyati uning s ta'limni loyihalash va amalga oshirish bo'yicha tushunchalar berish orqali chet tillarini o'qitish sohasiga qo'shgan hissasidir. Tadqiqot samarali ta'lim muhitini yaratishda individual o'quvchining ehtiyojlari, imtiyozlari va qobiliyatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Turli nazariy modellarning o'ziga xos tomonlariga tayanib, chet tili o'qituvchilari o'quvchilarning til o'rganish natijalarini yaxshilaydigan turli va qiziqarli o'rganish tajribalarini taqdim eta oladilar.

Ushbu izlanish natijalariga asoslanib, biz xorijiy tillarni o'qitishda nazariy modellarning bir nechta amaliy mashg'ulotlarini taklif qilamiz. Birinchidan, o'qituvchilar o'quvchilarning oldingi bilimlari, ko'nikmalari va o'rganish uslublarini baholashda diagnostik yondashuvdan foydalanishlari va shunga mos ravishda o'qitishni moslashtirishlari mumkin. Ikkinchidan, o'qituvchilar kognitiv, konstruktiv va sotsial-madaniy yondashuvlar kabi turli nazariy modellar tamoyillariga mos keladigan turli ta'lim strategiyalaridan foydalanishlari mumkin. Uchinchidan, o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishlari va tajribalarini aks ettiruvchi, real hayotda tildan foydalanish

imkoniyatlarini ta'minlaydigan haqiqiy va mazmunli til materiallaridan foydalanishlari mumkin.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot chet tillarini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muhimligini ta'kidlaydi va samarali o'quv muhitini loyihalash va amalga oshirish haqida tushuncha beradi. Turli nazariy modellarning o'ziga xosligiga tayanib, chet tili o'qituvchilari o'quvchilarning til o'rganish natijalarini yaxshilaydigan turli va qiziqarli o'quv tajribalarini yaratadilar.

REFERENCES

1. Anderson, J. R. (2016). *Cognitive psychology and its implications* (8th ed.). Worth Publishers.
2. Anderson, J., & Speck, B. (2018). *Implementing personalized learning: Strategies and tools that work*. ASCD.
3. Anderson, L. W., & Speck, B. W. (2018). Using self-reported learning styles to adapt instruction. *The Journal of Experimental Education*, 86(2), 226-239.
4. Chen, H., & Li, L. (2019). Personalized learning in foreign language education: A review of the literature. *Journal of Language Teaching and Research*, 10(2), 407-414.
5. Chen, Y., & Li, X. (2019). Personalized learning and teaching in Chinese foreign language education. *Frontiers of Education in China*, 14(4), 559-581.
6. Dörnyei, Z. (2017). *Motivational dynamics in language learning*. Multilingual Matters.
7. Dörnyei, Z. (2017). *The psychology of language learning: An introduction*. Routledge.
8. Eshonkulova, S., Abduramanova, D., & Makhmudov, K. (2021). *English for Chemistry*.
9. Gao, X., & Brown, C. M. (2021). Exploring personalized language learning in mobile environments: A literature review. *Language Learning & Technology*, 25(1), 1-23.
10. González-Lloret, M., & Ortega, L. (2014). *Technology-mediated TBLT: Researching technology and tasks*. John Benjamins Publishing Company.
11. Hsu, Y. C., & Wang, C. C. (2019). Gamification design for language learning: A review of literature. *Educational Technology & Society*, 22(2), 207-220.
12. Kissau, S., & Ritter, M. (2016). Digital game-based language learning in foreign language teacher education. *Journal of Educational Technology Development and Exchange (JETDE)*, 9(1), 1-14.
13. Kitching, K. (2017). Personalised learning in primary education: A case study. *Education Today*, 67(4), 34-39.

14. Kitching, K. (2017). *Personalized learning: A guide for engaging students with technology*. Corwin.
15. Lantolf, J. P., & Thorne, S. L. (2006). *Sociocultural theory and the genesis of second language development*. Oxford University Press.
16. Makhmudov, K. (2023). Bridging cultures through English language education: a comprehensive model for intercultural communication competence development. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 03 (119), 204-208.
17. Mo, D., & Schweers, C. W. (2020). Personalized language learning: A review of the literature. *Language Learning & Technology*, 24(1), 1-28.
18. Mo, M., & Schweers, C. W. (2020). A review of personalized learning in foreign language education. *RELC Journal*, 51(3), 425-439.
19. Nikolov, M., & Djigunovic, J. M. (2019). Cognitive and affective factors in foreign language learning. *Multilingual Matters*.
20. Nikolov, M., & Djigunovic, J. M. (2019). Individual differences in language learning: What can technology do? *Language Learning & Technology*, 23(1), 1-14.
21. Reinders, H., & Wattana, S. (2019). Digital games and language learning: An overview. In H. Reinders (Ed.), *Digital games in language learning and teaching* (pp. 1-15). Palgrave Macmillan.
22. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GUMANITAR FANLARNI INTEGRATSION O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

Zuxra Umarova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti (PhD)

Sabina Abdusamatova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang‘ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o‘qitish texnologiyasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, boshlang‘ich, fan, gumanitar, integratsiya, o‘qitish, texnologiya, omil.

TECHNOLOGY OF INTEGRATED TEACHING OF HUMANITIES IN PRIMARY CLASSES

ABSTRACT

The article analyzes the technology of integrated teaching of humanities in primary classes.

Keywords: education, primary, science, humanities, integration, teaching, technology, factor.

KIRISH

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta‘lim maktabgacha va ta‘limning keyingi bosqini o‘zaro bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi. Shu sababli keyingi paytlarda boshlang‘ich ta‘limning vazifalarini yanada aniqlashtirish va uni takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda [1]. 2017 yilga qadar boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga alifboni o‘rgatishdan iborat edi va bu vazifa to‘liq maktabgacha ta‘lim bosqichiga o‘tkazildi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘limning birinchi va asosiy bosqichi hisoblanadi. Aynan boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarni ta‘limning keyingi bosqichlariga tayyorlash vazifasi amalga oshiriladi. Bularning barchasi boshlang‘ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o‘qitish texnologiyasi omillarini aniqlab olish zaruriyatini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitish texnologiyasining eng muhim omillari quyidagilardan iborat:

- 1) yangi o'quv adabiyotlarining yaratilayotganligi;
- 2) o'qitishning yangi metodlari ishlab chiqilayotganligi;
- 3) boshlang'ich ta'limga xalqaro ta'lim dasturlarining joriyo etilayotganligi

[2].

1. Yangi o'quv adabiyotlari omili. Mazkur omil muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda boshlang'ich sinflarda "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Tasviriy san'at", "Musiqqa madaniyati" va "Jismoniy tarbiya" gumanitar fanlarini integratsion o'qitish uchun tayan vazifasini bajaradi. Shu jihatdan yangi o'quv adabiyotlarining yaratilayotganligi va ularda mavzularning o'zaro bog'liqligiga e'tibor berayotganligi muhim hisoblanadi. Shuningdek, yangi o'quv adabiyotlari yangicha asosdagi metodikaga, ya'ni o'quvchilarni faoliyatga tayyorlashga uslubisha asosan yaratilmoqda. Shu sababli yangi o'quv adabiyotlari boshlang'ich sinflarda integratsion o'qitishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitish texnologiyasida yangi o'quv adabiyotlari omili muhim ahamiyatga ega. Chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga binoan boshlang'ich sinf o'quv adabiyotlari yangi metodikaga asosan tayoyrlanib amaliyotga kiritildi. Bu yangi metodikaning asosini mavzularning o'zaro mantiqiy bog'liqligi, o'quv fanlarining metodik jihatdan uyg'unligi va darsliklar matnlarining amaliyotga yo'naltirilganligi tashkil etadi. Shu sababli mazkur metodikaga asosan boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitish texnologiyasi bo'yicha yangi o'quv adabiyotlari omiliga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur masala nazariy va metodik jihatdan muhim ahamiyatga egadi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida ana shu metodikani chuqur o'zlashtirish va unga asosan boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Yangi metodlar omili. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning yangi metodlarini muntazam ishlab chiqish jarayoni ham kechmoqda. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilar bilan individual ishlash, amaliy to'garaklar imkoniyatlaridan foydalanish va o'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun keng imkoniyatlar berishga qaratilmoqda. Shu sababli bu metodika boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitishning muhim omillaridan hisoblanadi. Misol uchun, o'quvchilar bilan individual ishlash ularga

gumanitar fanlarni chuqurlashtirib o'qitish imkonini beradi va bunda qo'shimcha ma'lumotlarni berish muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitish texnologiyasida yangi metodlar omili muhim o'rin tutadi. Bunday yangi metodikani aniqlash uchun tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini o'rganish, boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha yaratilayotgan yangi tadqiqotlardan xabardor bo'lish va yangidan qabul qilinayotgan ta'limga oid meyoriy-huquqiy hujjatlar mazmunini o'zlashtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida haftalik pedagogik amaliyot imkoniyatlaridan yoki to'garaklar mexanizmlaridan foydalanish, ular vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunda talabalarning faol bo'lishi taqoza etiladi.

3. Xalqaro ta'lim dasturlari omili. Boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitishda xalqaro ta'lim dasturlari qoidalaridan ham foydalanish muhim omillardan hisoblanadi. Bu borada TIMSS va PISA xalqaro ta'lim dasturlari o'quv fanlarini o'zaro bog'liqlikda o'qitish bo'yicha muhim metodik tavsiyalarga ega. TIMSS xalqaro ta'lim dasturi Matematika o'quv fanini o'qitishda mazkur fanga kiruvchi geometriya, trogonometriya va algebra fanlarining mavzularini uyg'unlashtirilgan tarzda qabul qilishga asosiy e'tiborni qaratadi. Shu sababli keyingi paytlarda boshlang'ich sinflar uchun Matematika darsligi yangidan tayyorlanib, unda ta'kidlangan fanlarning mavzulari bo'yicha dastlabki tushunchalar berish nazarda tutildi. PISA xalqaro ta'lim dasturi o'quvchilarning matnni o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanishni tavsiya etadi. Shu ma'noda mazkur dasturdan foydalangan holda boshlang'ich sinf gumanitar fanlarni integratsion o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitishning muhim ilmiy omillari mavjud. Mazkur omillardan oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitish texnologiyasining ana shu omillari amaliy jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun keng imkoniyatlarni beradi. Bu omillarni o'zlashtirish va o'zlashtirganlarni tajriba-sinovlardan o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Umuman boshlang'ich sinflarda gumanitar fayenlarni integratsion o'qitish texnologiyasi omillarini o'zlashtirish uchun talabalarning faolligi, shaxsiy tashabbuskorligi va amaliy harakatchanligi katta ahamiyatga ega. Shu sababli bu masalada oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tushunchalar berish maqsadga muvofiq bo'ladi [3].

Kezi kelganda ta'kidlash joizki, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari muhim imkoniyatlarga ega. Bunday imkoniyatlarning asosiylari quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- a) maktablarning zamonaviy jihozlanganligi;
- b) professional boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mavjudligi;
- d) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishi talab darajasida ekanligi.

XULOSA

Maktablarning zamonaviy jihozlanganligi omili boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion shaklda o'qitish uchun keng imkoniyatlarni beradi. Misol uchun, maktablardagi zamonaviy kompyuter vositalari asosida o'quv fanlarini o'zaro bog'liqlikda o'qitish amaliy jihatdan samarali hisoblanadi va bunda o'quvchilarning faolligiga erishish muhim ahamiyatga ega.

Professional boshlang'ich sinf o'qituvchilari omilidan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu omil boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitishning eng muhim asoslaridan biri bo'lib, undan oqilona foydalanish taqoza etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga bo'lgan qiziqishi bu boradagi amaliy omillardan biridir. Chunki o'quvchilarning qiziqish darajasi o'quv fanlarini o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Mazkur omil ham boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitish shakllarini tanlashda muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitish texnologiyasi omillari nazariy va amalshiy xususiyatlarga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www.ziyonet.uz.
2. Jabbrova O., Umarova Z., Boboxodjayeveva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. –Toshkent, 2021
3. Umarova Z. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi. –Toshkent, 2021



INGLIZ TILIDA BIOTEXNOLOGIYAGA OID TERMINLARNING TUZILISHI VA TASNIFI

Feruza Rustambekovna Adambaeva

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali

feruza.adambaeva@mail.ru

Nilufar Azimovna Sadullayeva

O'zbekiston milliy universiteti

nilufar_sadullaeva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Biotexnologiyaning rivojlanishi bilan ushbu sohaning terminologik apparati ham asta-sekin shakllanmoqda. Biotexnologik terminologiya hali shakllanish bosqichida bo'lib, yangi terminologiyani o'rganish bilan bog'liq tegishli lingvistik tadqiqotlarni amalga oshiradi; chunki ular atamashunoslik jarayonlarining mohiyatini ochib berish va maxsus lug'atning shakllanish qonuniyatlarini ko'rsatish imkonini beradi. Biotexnologiya sohasidagi atamalar mazmunini chuqurroq tushunish uchun ularni tasniflash shaklida tizimlashtirish zarur. Maqolada ingliz tilidagi biotexnologiyaga oid terminlarning tasnifi keltirilgan. Biotexnologik sohada qo'llanilayotgan har bir so'z biotexnologiya sohasiga xizmat qiluvchi terminologiya tizimining elementiga aylanadi va biotexnologik faoliyat yo'nalishiga qarab, yagona terminologik tizimga birlashuvchi terminologik tizimlar majmuasini hosil qiladi. Biotexnologiya sohasida vujudga kelgan umumiy ilmiy, asosiy va tegishli terminologiyaga oid atamalar guruhlarini ajratib ko'rsatilgan. Boshqa terminologik tizimlardan o'zlashtirilgan va asl ma'nosini saqlab qolgan asosiy atamalar, yasama va qo'shma atamalar (iboralar), biotexnologiyaga yondosh sohalar terminologiyalaridan o'zlashgan, ammo semantikasini qisman o'zgartirgan atamalar terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi nuqtai nazaridan o'rganilgan. Atamalarni tasniflash orqali tizimlashtirish biotexnologiya sohasidagi leksik birliklarning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: biotexnologik terminologiya, tasnif, umumiy ilmiy atamalar, asosiy atamalar, soha atamalari, bir komponentli atamalar, ko'p komponentli atamalar

ABSTRACT

With the development of biotechnology, the terminological apparatus of this field is gradually forming. Biotechnological



terminology is still in the formative stage, and appropriate linguistic research is carried out in connection with the study of new terminology; because they make it possible to reveal the essence of terminological processes and show the laws of formation of special vocabulary. For a deeper understanding of the content of terms in the field of biotechnology, it is necessary to systematize them in the form of classification. The article focuses on the structure and the classification of terms related to biotechnology in English. Each word used in the biotechnological field becomes an element of the terminological system serving the field of biotechnology and, depending on the direction of biotechnological activity, forms a set of terminological systems that merge into a single terminological system. The groups of terms related to the general scientific, basic and related terminology that have arisen in the field of biotechnology are distinguished. Basic terms, derived and complex terms (phrases) borrowed from other terminological systems and retained their original meaning, terms borrowed from the terminology of fields related to biotechnology, but partially changed their semantics, were studied from the point of view of the formation and development of terminology. Systematization through the classification of terms helps to gain a deeper understanding of the content of lexical units in the field of biotechnology.

Keywords: biotechnological terminology, classification, general scientific terms, basic terms, proper terms, one-component terms, multi-component terms

KIRISH

Biotexnologiya sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantirish faqat ingliz-amerika hamjamiyatining ustuvor yoʻnalishi boʻlmasada, soha terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishida ingliz tilining oʻrni nihoyatda kattadir. Biotexnologiyaning rivojlanishi bilan ushbu sohaning terminologik apparati ham asta-sekin shakllanmoqda. Shubhasiz biotexnologiyani oʻz ichiga olgan bilimlarning yangi sohalarida paydo boʻladigan atamalarni oʻrganish va tavsiflash zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning dolzarb yoʻnalishlaridan biridir.

Biotexnologiya terminologiyasi bu sohaning yuqori darajadagi innovatsionligi va dinamikligi tufayli hali ham shakllanish bosqichida ekanligi soha atamalarining tasnifini ishlab chiqish, tahlil qilish, tematik guruhlarni ajratish va maxsus leksikani tartibga solish zarurati yuzaga keltiradi [1]. Atamalarni tasniflash orqali tizimlashtirish biotexnologiya sohasidagi leksik birliklarning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Darslarning multimedia imkoniyatlaridan foydalanib o'tilishi talabalarga bir qancha qulayliklar tug'diradi. Chunki, shu fanga mavzulashtirilgan ovozli dasturlar, rasmi ishlanmalar, harakatli yozuvlar (taqdimotlar), multiplikatsiya ko'rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar bir tomondan talaba uchun yangilik bo'lsa, ikkinchi tomondan ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o'ziga jalb qiladi va mavzuni yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi.

Multimedia vositalarining amaliy tomoni, ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun audio, video ko'rinishdagi ma'lumotlar bazasini va animatsion taqdimotlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

Multimedia – bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interfaol dasturiy ta'minot ostida boshqariladigan video va audio effektlarning o'zaro bog'liqligi bo'lib, matn, tovush, grafika, foto, videoni birlashtiradi. Sifatli multimedia ilovalari ishlab chiqishga yo'naltirilgan turli-tuman, bir biridan farqli texnologik usullar mavjud.

Multimedia vositalari - bu texnik va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi. Agar talabalar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada

saqlash 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Multimedidan foydalanish axborotni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishga imkon beradi, bu pedagog tomonidan ta'lim oluvchiga kompyuter vositasida o'quv axborotlarini yetkazib berishda juda ham muhimdir.

Yaratilayotgan ko'pchilik elektron ta'lim resurslari axborotlarning turli-tuman ko'rinishlari bilan ishlashga yo'naltirilgan. Ular tasvirlar, tovush, animatsiya, video bo'lishi mumkin. Bunday ma'lumotlar bilan ishlash dasturlarga AudioMASTER, Adobe Premiere, Adobe Photoshop, Adobe Flash, 3D Max kabi dasturlar kiradi.

O'quv audio (tovush) materiallarini yaratish va ishlov berish. Audio – tovush texnologiyasiga ta'luqli bo'lib, tashuvchilarga yozilgan tovush, bundan tashqari tovush bilan ishlash tizimi va texnologiyalari tushuniladi. Multimediali axborotning audio komponenti tovushli ma'lumotlarni uzatish uchun xizmat qiladi. Multimedaning audio komponenti tarkibiga ko'ra musiqaviy tovush va nutq tovushiga klassifikatsiyalanadi. Tovushli fayllarga maxsus dasturlar yordamida ishlov berish mumkin. Quyida ulardan ba'zi birlari keltiriladi.

AudioMASTER. Bu har qanday audiofayllar bilan ishlashga imkon beradigan AMS Software ishlab chiqaruvchisining dasturiy ta'minotidir. U oddiy, intuitiv interfeysga ega. AudioMASTERda musiqani tahrir qilish, mikrofondan ovozni yozib olish, kompozitsiyalarga turli effektlarni qo'llash, iPhone yoki Android telefonida kerakli tovushlardan yuqori sifatli ohanglarni tezda tayyorlash, ohanglarni ixtiyoriy formatga o'zgartirish mumkin.

Dasturning afzalliklari: qulay interfeys; audio fayllarni qirqish, birlashtirish, aralashtirish, videodan audio yozib olish va ajratib olish mumkin; ovoz effektlarini qo'shish mumkin.

Sound Forge. Sound Forge Sony Creative Software kompaniyasining professional ravishda foydalanishi uchun yo'naltirilgan raqamli tovush tahrirlovchisidir. Sound Forge tovush fayllarini tez va yuqori aniqlik bilan tahrirlash va tovush fayllarini yaratish imkonini beradi. Sound Forge yordamida audioni tahlil qilish va tahrirlash (kesish, bo'laklarga qirqish, filtrlarni joylashtirish, effektlar va hokazo) tovushli tuynuklar hosil qilish, raqamli remasterning ishlab chiqish va eski yozuvlarni tozalash, mediafayllarni akustik obrazlarini yaratish mumkin.

Audio va video konverter dasturlar. Ko‘pincha audio va video fayllar bilan ishlash jarayonida bir xil fayllar formati biz ishlatayotgan dasturga tushmasligi mumkin. Shunda bu faylni dasturga tushadigan formatga o‘tkazish uchun konvertor dasturlardan foydalaniladi. Audio va video konverterlarning asosiy vazifasi bu video yoki audio fayllarning formati-kengaytmalarini o‘zgartirishdan iboratdir. Quyida foydalangan ba’zi konvertorlar imkoniyatlari keltiriladi.

Movavi Video Suite. Bu dastur - video bilan ishlash uchun ko‘p funksiyali “kombayn” dasturdir. Barcha Apple mahsulotlarini qo‘llab-quvvatlaydi, iTunes orqali o‘zgartirilgan videofayllarni yuklab olish imkoniyati mavjud. Dasturning interfeysi to‘q fonda yaratilgan, ammo konvertordan foydalanish juda oddiy va qulay.

Asosiy afzalliklari:

- turli formatdagi fayllarni qo‘llab-quvvatlash va konvertatsiya qiladi: 3GP, MP3, MP4, AVI, MPG, WMV, MPEG, FLV, HD, DVD, M2TS va boshqalar. Bundan tashqari, dastur bu vazifani tezda bajaradi;
- 50 dan ortiq mashhur qurilmalarni qo‘llab-quvvatlaydi: Apple TV, Archos, BlackBerry, Cowon, Creative Zen, Dell Axim X51 Family, Explay Flash Player Family, Google Nexus One, HP, HTC Touch, iPad, iPhone va boshqalar;
- videofayllar hajmini oshirish qobiliyati;
- yangi boshlovchilarga qanday parametrlarni o‘rnatish kerakligini ko‘rsatadigan sozlash ustasi mavjud;
- o‘zida video pleyri mavjud;
- videodan keraksiz qismlarni olib tashlash mumkin;
- ommaviy konvertatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi (bir nechta kliplarni bittaga birlashtirish mumkin).

Video-Master konverter dasturi. Ushbu dastur turli formatdagi videofayllar bilan ishlash uchun eng qulay dasturlardan biri. Alohida videolarni ham, bir nechta videolarni ham bir vaqtda o‘zgartirishga imkon beradi. Dastur videoni tahrirlashning qulay imkoniyatiga ega: hech qanday maxsus bilimga ega bo‘lmasdan ham uning sifatini yaxshilash mumkin. Masalan, yorqinlikni, to‘yinganlikni, qismlarga bo‘lish kabi amallarini bajarish mumkin.

Asosiy afzalliklari:

- videolarni qo‘llab-quvvatlash va juda ko‘p formatga o‘zgartirish;
- videoni kesish, ulash, kadrlarni aylantirish, chetlarini qirg‘ish va hk.;
- rang bilan ishlash mumkin (to‘yinganlik, yorqinlik va boshqalar);
- videoni tezlashtirish, sekinlashtirish, sifatni yaxshilash mumkin (avtomatik filtrlar);

- har qanday pleyrda ijro etish uchun to‘liq DVD-disk yaratish qobiliyati;
- GIF faylini (animatsiya) yaratish mumkin;
- dastur barcha mashhur Windows-da ishlaydi: XP, 7, 8, 10 (32 | 64 bit).

FormatFactory dasturi. Agar fayl formatini o‘zgartirish kerak bo‘lsa, ko‘pchilik foydalanuvchilar aynan FormatFactory dasturiga murojaat qilishadi. Buning sababi, ushbu dastur konvertor dasturlari, instrumentlari va foydalanuvchilarga qulay standart interfeysi bo‘yicha eng ommabop hisoblanadi.

Format Factoryda audio yoki video formatni o‘zgartirish oson amalga oshiriladi. Jumladan, dastlab oynaning o‘ng tomonidagi tegishli (Audio, Video, Foto kabi) bo‘linga o‘tiladi. Keyin uning ichidagi lozim bo‘lgan fayl formati tanlanib o‘g‘irilishi kerak fayl mos papkadan yuklanadi va oynaning yuqori qismidagi “Start” piktogrammasi bosiladi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Masalan tovush fayl formatini almashtirish kerak bo‘lsa, audio treklarni ajratib olish audio yorliq yordamida va keyinchalik masalan, mp3 formatiga o‘tkazilishi mumkin.

Shuningdek saundtrekni boshqasiga almashtirish va turli xil video yoki audio fayllarni birlashtirish imkoniyatlari ham mavjud. Bunda mal’lumotnoma piktogrammasi yordamida media fayl haqida batafsil ma’lumot olish ham mumkin.

Shuningdek brouzer orqali mediafayllarning formatini o‘zgartirish uchun onlayn konvertorlardan ham foydalanish mumkin: Jumladan:

1. <https://convertio.co/>. Bu saytda audio va video formatlardan tashqari boshqa ommaviy formatlarni ham mosiga konvertatsiya qilish mumkin.

2. <https://www.online-convert.com/>. Bu saytda ham audio va video formatlardan tashqari boshqa ommaviy formatlarni almashtirish mumkin. Jumladan ushbu manzilda <https://audio.online-convert.com/ru/convert-to-mp3> audio fayl formatini almashtirish mumkin.

Video texnologiyalarni ta’minlovchi kompyuter vositalari. Video (inglizcha “video” dan - qarayman, ko‘raman) - bu kompyuter monitorlarida vizual va audiovizual materiallarni yozib olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va ko‘paytirish texnologiyalari to‘plamidir.

Video texnologiyasining apparat vositalari uchun umumiy qabul qilingan standartlar ishlab chiqilmagan, shuning uchun boshqaruv funksiyalari (video kontroller), video signalni qayta ishlashni tezlashtirish (tezlatgichlar), video kadrlarni suratga olish (“video qamrovlar”) va ma’lumotni siqish (kodeklar) ham alohida, ham birlashtirilgan

ko'rinishda amalga oshiriladi. Videoma'lumotlar bilan ishlash uchun funksional jihatdan yanada xilma-xil jihozlarga ega bo'lish kerak.

Videomontaj dasturiy vositalari. Montaj - bu filmni alohida elementlardan - kadrlardan "yig'ish" jarayoni. Asosiy video montaj vazifalari - syujetlarning keraksiz qismlarini olib tashlash, alohida-alohida video materiallari bo'laklarini birlashtirish, ular orasidagi o'tishlarni yaratish, maxsus effektlarni va titralarni qo'shishdan iborat.

Video montajda kompyuter (PC) dan foydalanish uchun turli dasturlar mavjud:

- bu albatta har bir foydalanuvchining xohishiga va imkoniyatlarga bog'liq;
- yangi boshlanuvchilar uchun muhim va yuqori sifatli natijalar, shuningdek, o'zlashtirishning soddaligi VideoMONTAJga mos keladi;
- agar bepul dasturiy ta'minot lozim bo'lsa, - Avidemux yoki Lightworks kabi dasturlar zarur, bular uchun foydalanish qoidalarini bilish lozim;
- yuqori sifatli va bepul videomontaj uchun Camtasia Studio yoki VSDC Free Video Editor video muharrirlari lozim;
- agar professional darajada shug'ullanish uchun - Vegas Pro va Final Cut kabi dasturiy ta'minot zarur. Ular Gollivuddan kam bo'lmagan eng yaxshi video tahrirlashni taqdim etadi.

XULOSA

Yuqorida ko'rib chiqilgan multimedia vositalarining amaliy tomoni, ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun audio, video ko'rinishdagi ma'lumotlar bazasini va animatsion taqdimotlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Raqamli va axborot texnologiyalari fanidan multimediali materiallar, videodarslar aynan yuqorida ko'rib chiqilgan dasturlar yordamida yaratildi.

REFERENCES

1. Aripov M., Tillaev A. Methods of teaching computer science and information technology in higher education on the basis of web technologies. Bulletin of the National University of Uzbekistan. 2010, 1, Tashkent. P. 29-32.
2. Aripov M., Fayziyeva M. Using adaptive web systems for education process in the preparation of web programmers. International Journal of Engineering and Applied Sciences (IJEAS). – India|USA|Sweden, 2015. Volume-2, Issue-3. P. 114-117.



3. Tillaev A.I. General rules of preparation of video lectures and the organization of the educational process on their basis, Bulletin of the National University of Uzbekistan. 2013, 1, P. 165-167.
4. Tillaev A.I. Teaching and using web pages to create a multimedia e-textbook. Proceedings of the international scientific-practical conference "Actual Problems of Applied Mathematics and Information Technology - Al-Khwarizmi 2014". Samarkand. 2014, P.144-145.
5. Tillaev A.I. Creation and use of pedagogical software with the use of information technologies. Abstracts of the international conference "Modern problems of applied mathematics and information technologies - al-Khorezmi 2018", 2018. Tashkent, P. 208.
6. Fayziyeva M. Creating an information and educational environment using web-technology. International scientific review of the problems of the technical sciences, mathematics and computer science. Volume-1, P. 17-20.
7. Tillayev A.I. Create an e-textbook for the Animation Program course. Proceedings of the International Scientific-Practical Conference "Modern problems of applied mathematics and information technology". Tashkent. 9– 10 November 2019 y., P. 264.
8. Tillayev A.I. Use of multimedia software in teaching information technology. Proceedings of the International Scientific-Practical Conference "Modern problems of applied mathematics and information technology". Tashkent. 9– 10 November 2019 y. P. 261-262.
9. Zenkin A.A. Cognitive computer graphics/ed. Pospelov D.A ..-M .: Nauka, 1991.- P.192.
10. Kirmayer G. Multimedia. - M .: Malip, 1994.
11. Tillaev A.I. Improving the teaching of "Information Technology" in higher education on the basis of multimedia technologies. // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. London, United Kingdom. ISSN 2515-8260, Volume 7, Issue 2, 2020, p. 972-976.
12. Tillaev A.I. General rules for creating electronic textbooks on the topic of information technology.// European Journal of Molecular & Clinical Medicine. London, United Kingdom. ISSN 2515-8260, Volume 7, Issue 2, 2020, p. 977-981.
13. Aripov M.M., Tillayev A.I. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash usullari. Samarqand Davlat Universiteti Ilmiy axborotnomasi. Samarqand. SamDU. ISSN 2091-5446, 2020.yil, 6-son (124), 86-90 b.
14. Tillaev A.I. Use of multimedia technologies in the educational process. Abstracts of the international conference



“Modern problems of applied mathematics and information technologies al-Khwarizmi 2021”. – Fergana, Uzbekistan. 2021. P. 229.

15. Tillaev A.I. Creation of multimedia applications and their use in teaching the discipline "digital and information technologies". Abstracts of the international conference “Contemporary mathematics and its application”. – Tashkent, Uzbekistan. 2021. P. 103-104.

16. Tillaev A.I. Creating and using electronic textbooks with multimedia software. Abstracts of the international conference “Contemporary mathematics and its application”. – Tashkent, Uzbekistan. 2021. P. 153-154.

17. Tillayev A.I. Kompyuter grafikasi. Uslubiy qo‘llanma. –T.: “Universitet”, 2021. 140 b.

18. A.I.Tillayev. Raqamli va axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. . –T.: “Firdavs-Shoh”, 2022. – 200 b.

19. Tillayev A., Axmedova Q. Multimedia texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Universitet”, 2021. 180 b.

20. Tillaev, A. I. General rules for creating and using multimedia electronic textbooks on "Digital and information technology" in higher education. Academic Research in Educational Sciences, 3(4) (2022), P. 112–116.

21. Tillaev, A. I. Creating Multimedia Applications and Using Them in the Teaching of “Digital and Information Technology” in Higher Education. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding (IJMMU) ISSN 2364-5369, Vol 9, No 4, April 2022. P. 266-271.

22. Tillaev, A. I. (2022). About Synchronic and Asynchronous Organizational Forms of Distance Learning Based on Web-Technologies. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, vol. 8, May 2022, pp. 1-5.

FARG‘OGA VODIYSINING KATTA QAYRAG‘OCH PO‘STLOQXO‘RI

D. Sultonov, F. To‘xtasinov, O. G‘ofurova, M. Teshajonova, M. Sodiqova

Farg‘ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Katta qayrag‘och po‘stloqxo‘ri - *Scolytus scolytus* (Fabricius, 1775) polifag hasharot, u Yevroosiyoda, shuningdek, O‘zbekistonning barcha hududlarida keng tarqalgan [2,3,4]

O‘zbekistonda meva po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izini o‘rganishga oid ma‘lumotlar o‘ta qisqa bo‘lib, bu borada tadqiqotlar deyarli olib borilmagan. Shundan kelib chiqib, 2011 yildan meva po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izining Farg‘ona vodiysida tarqalishi, bioekologik xususiyatlari, ozuqa spektrini o‘rganishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda [2].

Kuzatuv va tadqiqot ishlari Farg‘ona viloyatining Farg‘ona shahri, Farg‘ona, O‘zbekiston, Bag‘dod, Quva, Yozyovon, Toshloq tumanlari, Namangan viloyatining Mingbuloq, To‘raqo‘rg‘on tumanlarida olib borildi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona, *Scolytus scolytus*, meva po‘stloqxo‘r qo‘ng‘izi, bioekologik xususiyatlar, tadqiqotlar.

KIRISH

Farg‘ona viloyatining janubiy-g‘arbiy hududlarda (Farg‘ona, Quvasoy shaharlari, Farg‘ona, Bag‘dod, Furqat tumanlari) sada qayrag‘och va dala qayrag‘ochda va bir qancha mevali daraxtlarda ham hayot kechiradi. Asosan sernam joylarda – anhor, soy, hovuz, zovurlar bo‘ylarida, ko‘p qavatli binolarning quyosh nuri kam tushadigan tomonlarida o‘sgan daraxtlarda ko‘plab uchraydi.

Qo‘ng‘izining uzunligi 3,2-5,5 mm atrofida bo‘lib, tanasi yerga biroz yopishgan. Mustahkam xitin qoplami yaltiroq. Jag‘ining old tomoni, boshi, orqaning yelka tomoni, o‘rtasi va orqa ko‘kraklari qora va mo‘ylovi, usti, oyog‘i hamda qorin tomoni qo‘ng‘ir-qizil, qattiqqanotlari esa to‘q qizg‘ish rangli, yaltiroq bo‘ladi. Peshona qismi yassi va mayda chiziqlar bilan qoplangan, ust tomoni qisqa, qizg‘ish-qo‘ng‘ir rangdagi tuklar bilan qoplangan. Ko‘zining keyingi tomonida ko‘ndalang burmalari bor. Yelka tomonida mayda nuqtalari bo‘lib, ushbu nuqtalar yelkaning tepa markaziy sohasida va yon sohalarda ko‘p, ular orasida nisbatan siyrak joylashgan. Qattiqqanotlarining ustki tomonida parallel tarzda oldindan orqaga yo‘nalgan uncha chuqur bo‘lmagan chiziqlar o‘tgan. Chiziqlar orasida kichik nuqtachalarni ko‘rish mumkin. Qattiqqanotlarning asosi chuqurlashgan, oxiri esa silliq, qirrasiz. Qorin bo‘limining oxiri kichraygan va pastga bukilgan, 3-4 qorin segmentlarida do‘nglik bor. Qorin bo‘limi uzun va siyrak, oxirgi qorin segmentining chetlari tillarang tuklar bilan qoplangan.

Oldingi oyoq tuklari qisqaroq, o'rta va orqa oyoq tuklari nisbatan uzun. Peshonasida sariq tuklari bo'lib, erkagida botinqiragan, kalta va siyrak bo'lib, urg'ochisiniki esa uzun, qalin, bo'rtib turadi. Erkak hamda urg'ochi qo'ng'izlarning qorin qorin bo'laklarida o'tkir uchli bo'rtmalari bor. Urg'ochi qo'ng'iz tanasining erkagiga nisbatan biroz keng va uzun bo'lishi, peshonasining do'ngligi, qorinning oxirgi segmentida tuklarning bo'lmasligi bilan farq qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ayrim manbalarda uni bir oilaga kiruvchi o'simliklar bilan oziqlanuvchi oligofaglar qatoriga kiritilgan. Lekin boshqa oilaga mansum o'simliklarda uchrashi ham tadqiqotlarda tasdiqlangan [4].

Bizning kuzatuvlarimizdan shu ma'lum bo'ldiki Farg'ona vodiysida katta qayrag'och po'stloqxo'ri 7 oila, 9 turkum, 12 turga mansub o'simliklarda doimiy yoki vaqtincha oziqlanadi va rivojlanadi.

Quyida katta qayrag'och po'stloqxo'ri ozuqa o'simliklari ro'yxati keltirilgan.

ULMACEAE: Ulmus densa Litv., *U. campestris* L.

ELAEAGNACEAE: Elaeagnus angustifolia L., *E. orientalis* L

ACERACEAE: Acer negudno L.

LEGUMINOSAE: Gleditschia triacanthus L.


JUGLANDACEAE: Juglandis regia L.

ROSACEAE: Armeniaca vulgaris Lam., *Malus suversii* (Ldb) M. Roem., *Malus domestica* Borkh., *Cerasus vulgaris* Mill.

SALICACEAE: Salix exelsa S. G. Gmel.

Meva po'stloqxo'ri singari katta qayrag'och po'stloqxo'rining hayotiy siklida, rivojlanishida ro'yxatda keltirilgan o'simliklarning barchasi ham bir xil ekologik qiymatga ega emas. Ularning aksariyatida mazkur hasharotlar to'liq hayotiy siklini o'tkazsa, ayrimlarida esa ular uchun vaqtincha yashash va oziqlanish joyi vazifasini bajaradi (1 rasm).

1 rasm. *S. scolytus* ozuqa o'simliklarining pog'onalar bo'yicha taqsimlanishi



Katta qayrag'och po'stloqxo'rining birinchi tartibli ozuqa o'simliklari qatoriga 5 oilaga (*Ulmaceae*, *Elaeagnaceae*,



Aceraceae, Leguminosae, Juglandaceae) 7 turga (*Ulmus densa* Litv., *U. campestris* L., *Elaeagnus angustifolia* L., *E. orientalis* L., *Acer negundo* L., *Gleditschia triacanthus* L., *Juglandis regia* L.) mansub o'simliklar kirib, ikkinchi pog'ona o'simliklari 2 oila (*Rosaceae, Salicaceae*) va 5 turdan (*Armeniaca vulgaris* Lam., *Malus suversii* (Ldb) M. Roem., *Malus domestica* Borkh., *Cerasus vulgaris* Mill., *Salix exelsa* S. G. Gmel.) iborat (1 rasm).

Yosh daraxtlarning tanasida va shoxlarida, yirik daraxtlarning butoqlar tubida va shoxlarida uchraydi. Po'stloqqa kirib olgan qo'ng'iz o'ziga yo'l yasaydi. Asosiy yo'lni faqat tikkasiga yuqoriga qarab ochib ketadi. Uning uzunligi 30-70 millimetr, eni esa 3 millimetrni tashkil etadi. Asosiy yo'lga 70 tagacha lichinka yo'llari tarqaladi. Lichinkalar ozuqa o'simligining po'stlog'i ostida qishlaydi. Mart oyida ($T=11,2^{\circ}\text{S}$) g'umbakka aylanib, aprel oyining boshlarida ($T=14,9^{\circ}\text{C}$; 03-12.IV.2013, Farg'ona sh.) qo'ng'izlar uchib chiqadi. Qo'ng'izlar oziqlanib voyaga yetgach, oyning ikkinchi va uchinchi yarmida ($T=17,1^{\circ}\text{S}$, 18-23.IV.2013, Farg'ona sh.) tuxum qo'yadi. 7-10 kun ichida tuxumdan lichinkalar chiqadi ($T=17,3^{\circ}\text{S}$, 25-30.IV.2013, Farg'ona sh.). 6-9 kun ($T=20,6^{\circ}\text{S}$, 01-06.V.2013, Farg'ona sh.) davomida oziqlanib, o'zining lichinka yo'llarini hosil qiladi. Lichinkalar 9-10 kunda g'umbakka aylanadi ($T=23,1^{\circ}\text{S}$, 08-14.V.2013, Farg'ona sh.). May oyi oxirida birinchi avlod qo'ng'izlar uchib chiqadi ($T=21,7^{\circ}\text{S}$, 22-28.V.2013, Farg'ona sh.). Qo'ng'izlar jadal rivojlanib, 4-6 kunda tuxum qo'yadi ($T=21,7^{\circ}\text{S}$, 27.V-01.VI.2013, Farg'ona sh.). Havo haroratining yuqoriligi tuxumlarning ham rivojlanishini tezlashtiradi, ya'ni 3-4 kunda tuxumlardan lichinkalar chiqadi ($T=26,5^{\circ}\text{S}$, 30.V-05.VI.2013, Farg'ona sh.). Lichinkalar 5-7 kunda ($T=28,5^{\circ}\text{S}$, 05-12.VI.2013, Farg'ona sh.) voyaga yetib, 7-9 kunda ($T=26,6^{\circ}\text{S}$, 13-21.VI.2013, Farg'ona sh.) g'umbakka aylanadi. G'umbaklik davri 6-7 kun ($T=27,3^{\circ}\text{S}$, 19-28.VI.2013, Farg'ona sh.) davom etib, ikkinchi avlod qo'ng'izlarining uchib chiqishi iyunning uchinchi dekadasida sodir bo'ladi (20-29.VI.2013, Farg'ona sh.). Ikkinchi avlod qo'ng'izlari 5-6 kunda tuxum qo'yadi ($T=26,8^{\circ}\text{S}$, 29.VI-05.VII.2013, Farg'ona sh.). Po'stloq ostidagi tuxumlardan 3-4 kunda lichinkalar chiqadi (03-09.VII.2013, Farg'ona sh.). Lichinkalar oziqlanib, 5-6 kunda ($T=27,6^{\circ}\text{S}$, 09-15.VII.2013, Farg'ona sh.) voyaga yetadi, 8-9 kundan so'ng ($T=29,4^{\circ}\text{S}$, 17-24.VII.2013, Farg'ona sh.) g'umbakka aylanadi. G'umbaklar 6-7 kun rivojlanadi. Iyulning oxiri va avgustning dastlabki kunlarida uchinchi avlod qo'ng'izlarining uchib chiqishi kuzatildi ($T=28,7^{\circ}\text{S}$, 26.VII-03.VIII.2013, Farg'ona sh.). Havo haroratining pasayishi natijasida to'rtinchi avlod qo'ng'izlarini chiqishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uchinchi avlod qo'ng'izlari avgust oyining birinchi o'n kunligida tuxum qo'yadi ($T=28,4^{\circ}\text{S}$, 02-09.VIII.2013, Farg'ona sh.). Tuxumlardan 7-8 kunda lichinkalar



chiqadi ($T=25,5^{\circ}S$, 09-17.VIII.2013, Farg‘ona sh.). Lichinkalar 8-10 kun davomida oziqlanib, g‘umbakka aylanadi ($T=25,9^{\circ}S$, 18-28.VIII.2013, Farg‘ona sh.). Sentabr oyining o‘rtalarida oxirgi, ya’ni, to‘rtinchi avlod qo‘ng‘izlar voyaga yetadi ($T=20,8^{\circ}S$, 09-17.IX.2013, Farg‘ona sh.). Hammasi bo‘lib bir mavsumda to‘rt avlod berib urchiydi [Sultonov, Axmadjonova, 2015; 239-241].

2 rasm. S. scolytus qo‘ng‘izlarining uchib chiqish davrlari.

Izoh: □ – qishlovdan chiqqan qo‘ng‘iz, ■ – I, II, III, IV avlod qo‘ng‘izlari

Апрел			Май			Июн			Июл			Август			Сентябр		
1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
□					■			■			■		■				■
					I			II			III						IV


Qo‘ng‘iz lichinkalari juda ko‘payib ketishi tufayli po‘stloqning ichki qavatini ilma-teshik qilib yuboradi. Bunday holatda po‘stloq tanadan ajraladi, keyinchalik daraxt quriydi.

Katta qayrag‘och po‘stloqxo‘rining ozuqa o‘simligida egallagan yaruslarini o‘rganish maqsadida uning birinchi va ikkinchi pog‘onali ozuqa o‘simliklarida oziqlanishi taqqoslanib, tahlil qilindi. Tahlil natijalari quyidagi rasmda ifoda etilgan (3 rasm). Kuzatuv olib borilgan daraxtlarning tanasi 4 ta yarusga ajratilib, daraxt balandligi belgilab olindi. 10 sm^2 yuzadagi po‘stloqxo‘rlar teshikchalari bo‘lmasa rangsiz qoldirildi, teshikchalar soni 0-10 ta bo‘lganda (+) – juda kam, 10-30 ta bo‘lsa (++) – kam, 30-60 ta (+++) – o‘rta va 60 tadan ko‘p bo‘lganda (++++) yuqori ko‘rsatkich deb hisoblandi.

3 rasm. Katta qayrag‘och po‘stloqxo‘rining birinchi pog‘onali o‘simliklarda yaruslar bo‘yicha zichligi.

I-Ulmus densa Litv., II-U. campestris L., III-Elaeagnus angustifolia L., IV-E. orientalis L., V-Acer negudno L., VI-Gleditschia triacanthus L., VII-Juglandis regia L.






3 rasmdan ko‘rinib turibdiki, katta qayrag‘och po‘stloqxo‘rining 1 pog‘onali o‘simliklarida birinchi yaruslarida po‘stloqxo‘rlar juda kam ($10\text{ sm}^2=0-10\text{ ta}$) bo‘lib, balandlik oshgan sari zichlik ortib boradi. Daraxtlarning ikkinchi yarusida teshikchalar soni kam ($10\text{ sm}^2=10-30\text{ ta}$) va o‘rtacha ($10\text{ sm}^2=30-60\text{ ta}$) bo‘lishi qayd etildi. Keltirilgan o‘simlik turlarining ko‘plab sonligilarida o‘tkazilgan kuzatuvlar ularning uchinchi yaruslarida po‘stloqxo‘rlar sonining juda ko‘p ($10\text{ sm}^2=60\text{ tadan ko‘p}$) bo‘lishini ko‘rsatdi. To‘rtinchi yarusning pastki qismlarida teshikchalar soni kam yoki o‘rtacha sonli bo‘lib, uchki ingichka shoxchalarda deyarli uchramasligi ma‘lum bo‘ldi (2013, Farg‘ona vil.).

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar ikkinchi pog‘onali o‘simliklarda quyidagicha o‘z ifodasini topgan (4 rasm).

4 rasm. Katta qayrag‘och po‘stloqxo‘rining ikkinchi pog‘onali o‘simliklarda yaruslar bo‘yicha zichligi.

I-*Armeniaca vulgaris* Lam., II-*Malus suversii* (Ldb) M. Roem., III-*Malus domestica* Borkh., IV-*Cerasus vulgaris* Mill.



4 rasmdan ma‘lum bo‘ladiki, katta qayrag‘och po‘stloqxo‘rining ikkinchi pog‘onali o‘simliklarida birinchi yaruslarida po‘stloqxo‘rlar deyarli uchramaydi ($10\text{ sm}^2=0$). Daraxtlarning ikkinchi yarusida teshikchalar soni kam ($10\text{ sm}^2=10-30\text{ ta}$) va o‘rtacha ($10\text{ sm}^2=30-60\text{ ta}$) bo‘lishi qayd etildi. Ikkinchi pog‘onali o‘simliklarda o‘tkazilgan kuzatuvlar ham daraxtlarning uchinchi yaruslarida po‘stloqxo‘rlar sonining juda ko‘p ($10\text{ sm}^2=60\text{ tadan ko‘p}$) bo‘lishini ko‘rsatdi. To‘rtinchi yarusning pastki qismlarida teshikchalar soni juda kam sondan o‘rtacha miqdorgacha bo‘lishi qayd etildi. Uchki ingichka shoxchalarda deyarli uchramaydi (2013, Farg‘ona vil.).



Bu qo'ng'izlar qayrag'ochni bevosita zararlash bilan cheklanmay, balki qayrag'ochlar uchun xavfli bo'lgan "Golland kasalligi" ni ham tarqatadi [3].

XULOSA

Katta qayrag'och po'stloqxo'ri Yevroosiyoda, shuningdek, O'zbekistonning barcha hududlarida keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida ko'proq zarar keltiradi. Farg'ona viloyatining janubiy-g'arbiy hududlarda keng tarqalgan.

Farg'ona vodiysi sharoitida 7 oila, 9 turkum, 12 turga mansub o'simliklarda doimiy yoki vaqtincha oziqlanib, rivojlanishi kuzatildi. Uning birinchi tartibli ozuqa o'simliklari qatoriga 5 oila, 7 turga mansub o'simliklar kirib, ikkinchi pog'ona o'simliklari 2 oila va 5 turdan iborat. Birinchi pog'onali o'simliklar (daraxtlar) ning barcha yaruslarida uchrab, ikkinchi pog'onali o'simliklarda esa daraxtning asosan o'rta yaruslarida oziqlanadi va hayot kechiradi.

Ushbu po'stloqxo'r Farg'ona vodiysi sharoitida 4 bo'g'in berib rivojlanadi, uning oxirgi bo'g'in qurtlari qishlab chiqadi.

REFERENCES

1. Hamrayev A.Sh., Devenport K.F. Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida (O'zbekiston) qishloq xo'jalik zararkunandalari va kasalliklarini aniqlash va ularga qarshi kurash. O'zRFA Zoologiya instituti, Tadqiqot markazi, Bonn. Toshkent. 2004. 82-85-betlar.
2. Султонов Д. Фарғона водийси шароитида катта қайрағоч пўстлоқхўрининг ҳаёт циклига оид янги маълумотлар. // "Илм-заковатиимз сенга, она – Ватан!" мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. Фарғона. 2014. 141-142 б.
3. Султонов Д., Аҳмаджонова С. Жанубий Фарғона шароитида катта қайрағоч пўстлоқхўрининг (Coleoptera, Scolytidae) биоэкологик хусусиятлари. Фарғона водийси: табиати-аҳолиси-хўжалиги янги тадқиқотларда (геоэкологик жиҳатлари). Илмий-амалий конференция материаллари. Фарғона. 2015. 239-241 б.
4. Султонов Д., Зокиров И. Фарғона водийси шароитида мевали дарахтларнинг пўстлоқхўрлар (Scolytidae) билан зарарланиш хусусиятлари. // "Илм-заковатиимз сенга, она – Ватан!" мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. Фарғона. 2011. 34-35 б.
5. Эсонбаев Ш., Анорбаев А.Р., Сулаймонов О.А., Машарипов У.А., Аблазова М.А. Мевали ва манзарали дарахт танаси зараркунандалари. Тошкент. 2019. 31-44 б.



CONTENTS

1. Ziyayev, Z. M., Elmurodov, A. B., Xakimov, A. E., & Baboev, S. K. (2023). YUMSHOQ BUG‘DOYNING AGROEKOLOGIK RAQOBAT NAV SINOVIDA MAHSULDORLIK HAMDA SIFAT KO‘RSATKICHLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 5–11.
2. Odilova, S. S. (2023). XROMLI OQOVA SUV VA CHIQINDI ERITMALARINI ELEKTROKIMYOVIY TOZALASH USULLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 12–18
3. Esmati, N. (2023). TOPONIMLARINING LUG‘AVIY-MA‘NOVIY TASNIFI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 19–29.
4. Ziyayev, Z. M., Elmurodov, A. B., & Xakimov, A. E. (2023). TURLI MINTAQALARDAN KELITIRILGAN YUMSHOQ BUG‘DOY NAV-NAMUNALARINING DON SIFAT KO‘RSATKICHLARI TAHLILI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 30–34.
5. Хофманн, И. С., & Назаров, С. Х. (2023). ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ СО ЗНАЧЕНИЕМ «ВРЕМЯ» В НЕМЕЦКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 35–42.
6. Файзуллаев, Ш. Р., Рахимбердиев, М. Р., Мусаев, Н. М., Кожаметов, Б. Т., & Коландаров, М. Ж. (2023). АРАЛАШ ТОЛАЛИ ИПЛАРДАН ТАЙЁРЛАНГАН КУЙЛАКБОБ МАТОЛАРНИ КОМПЛЕКС БАҲОЛАШ. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 43–52.
7. Nazarov, S. D. (2023). O‘ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTNING BARQARORLIGINI TAMINLOVCHI OMILLAR TAHLILI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 53–57.
8. Raximova, U. Z. (2023). BIR TURDAGI TOVAR ZAXIRALARINI BOSHQARISHNI OPTIMALLASHTIRISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 58–62.
9. Rakhimova, M., & Umarova, D. (2023). EFFECTIVE TECHNIQUES IN TEACHING LISTENING AND SPEAKING SKILLS. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 63–68
10. Baratova, N., & Aminova, S. (2023). TEACHING LISTENING COMPREHENSION IN ENGLISH THROUGH INNOVATIVE CLUSTER APPROACH IN PEDAGOGIC EDUCATION. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 69–73.
11. Berdiyev, G. I., & Sheralieva, F. N. (2023). O‘ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 74–77.
12. Alikulov, X. A. (2023). ZAMONAVIY EKOLOGIK XAVFLARNI BOSHQARISH BO‘YICHA TARTIB-QOIDALARNING IJTIMOYIY-MADANIY JIHATLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 78–85.
13. Abbasova, M. S., & Murodullayeva, Z. N. (2023). O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY ISHNI TASHKIL ETISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 86–90
14. Shukurov, I. A. (2023). AHOLINING KUNLIK DAROMADLARI, O‘RTACHA KUNLIK ISH HAQI VA ISHSIZLARNING O‘RTACHA YOSHI O‘RTASIDAGI BOG‘LANISHNING KO‘P OMILLI KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 91–96.



CONTENTS

15. Navro'zova, G. N. (2023). FAROSAT ILMU: FALSAFIY TAHLIL. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 97–105.
16. Stanikzai, M. J. (2023). DEVELOPMENT OF METAL – ORGANIC FRAMEWORKS, SURFACE ABSORBENT OF BIOLOGICAL POLLUTANTS, INCLUDING HEAVY METALS. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 106–111.
17. Uralov, J. B., & Saurova, K. E. (2023). FINGERPRINT AUTHENTICATION ALGORITHM AND METHODS OF ITS IMPROVEMENT. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 112–116.
18. Koshanova, N. M., & Ismoilova, N. S. (2023). DUNYONING BARQAROR RIVOJLANISHIGA GENDER ASSIMETRIYASINING SALBIY TA'SIRI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 117–125.
19. Нурмурзаев, З. Н., Жураев, К. Д., & Гайбуллаев, Ш. О. (2023). ТОНКОЙГОЛЬНАЯ АСПИРАЦИОННАЯ ЦИТОЛОГИЯ ПОД УЛЬТРАЗВУКОВЫМ КОНТРОЛЕМ В ДИАГНОСТИКЕ ЗАБРЮШИННЫХ ОБРАЗОВАНИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ 85 СЛУЧАЕВ. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 126–133.
20. Istamov, M. F., Xamzayev, A. A., Kayumov, U. E., & Fayziyev, A. I. (2023). NASOS AGREGATLARI VALLARINING O'QIY NOMUTANOSIBLIGINI BARTARAF ETISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 134–139.
21. Xabibullayeva, N. X., & Zulxaydarov, J. A. (2023). AYOLLAR O'RTASIDA O'ZBEKISTON CHEMPIONATI 2022-YILGI MAVSUM BIRINCHI DAVRA VAHSLARIDA “SEVINCH”, “SO'G'DIYONA” VA “BUNYODKOR” JAMOALARINING TEXNIK USULLARI ANIQLIGI TAHLILI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 140–146.
22. Abduraimov, B. M. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA ELEKTRON XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 147–153.
23. Фахриддинова, С. Ф. (2023). МЕТОДЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ ОДНОМЕРНЫХ ВРЕМЕННЫХ РЯДОВ. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 154–158.
24. Усанов, К. Х. (2023). РЕГУЛЯРИЗАЦИЯ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧИ КОШИ ДЛЯ СИСТЕМЫ УРАВНЕНИЙ ТЕОРИИ УПРУГОСТИ В БЕСКОНЕЧНОЙ ОБЛАСТИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 159–162.
25. Yusupova, M. O., Babajanova, K. A., Udabboev, R., & Xudoyberganova, N. (2023). ALMASHINGAN MOCHEVINA BIRIKMALARI. SINTEZI, XOSSALARI VA QO'LLANILISH SOHALARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 163–170.
26. Akmalova, G. F. (2023). DARSDAN TASHQARI VAZIYATLARDA O'TKAZILADIGAN PSIXOLOGIK USULLAR MAZMUNI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 171–176.
27. Ганиева, З. С. (2023). МОДЕЛИРОВАНИЕ ВЕРОЯТНОСТНЫХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ В СИСТЕМЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ МАТЕМАТИКИ WOLFRAM|ALPHA. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 177–183.
28. Tojiyeva, G. N. (2023). O'ZBEK TILIDA SHAXS MA'NAVIYATI TUSHUNCHALARINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR TASNIFI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 184–191.



CONTENTS

29. Адилова, Д. Ж. (2023). ОСОБЕННОСТИ ПОСТРОЕНИЯ ТОЛКОВОГО СЛОВАРЯ РУССКОГО РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 192–195.
30. Isroilova, H. A. (2023). KIMYO FANINI HAYOT BILAN BOG'LAB O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 196–201.
31. Matniyazova, H. X., Nabiyev, S. M., Mavlonova, G. D., Muxitdinova, M. M., Karshibayeva, D. N., & Salohiddinova, M. M. (2023). TURLI SUV REJIMI SHAROITIDA MAHALLIY VA HORIJIIY SOYA NAVLARINING MORFOLOGIK BELGILARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 202–207.
32. Мирзороҳимов, О. Қ., & Рискипулатова, Д. (2023). ХУСУСИЯТҲОИ ПСИХОЛОГИИ БАЧАҲОИ ШАШТ - ҲАФТ СОЛА ВА ДАРСҲОИ ПЕДАГОГӢ БА ТАЪЛИМИ ОНҲО. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 208–215.
33. Xudayberganov, A. S., Muzaffarov, M. J., & Kitaybekov, S. M. (2023). AHOLINING OVQATLANISH HOLATINI VAHOLASHDA STEPS TIZIMINING AFZALLIKLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 216–220.
34. Xolbekova, M. B., Amirov, S. K., & Javxarov, O. Z. (2023). TO'LA QIYMATLI OZIQLANTIRISH – YUQORI MAHSULDORLIK GAROVI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 221–227.
35. Наркузиева, Г. З. (2023). ОБОГАЩЕНИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА – ОДНА ИЗ ОСНОВНЫХ ЗАДАЧ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 228–231.
36. Djurayeva, M. A. (2023). DEVELOPING NOTE-TAKING SKILLS IN CONSECUTIVE INTERPRETING. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 232–236
37. Mirzamakhmudova, S. T., & Safarov, K. S. (2023). DETERMINATION OF THE GERMINATION OF MEDICINAL GALEGA – GALEGA OFFICINALIS L. SEEDS. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 237–241.
38. Karimova, N. N. (2023). NEW APPROACHES TO DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF PROFESSIONAL EDUCATION TEACHERS. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 242–247.
39. Abidova, R. (2023). THE PROBLEM OF GRATITUDE SPEECH ACT IN COMMUNICATION. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 248–251.
40. Maulenberganova, B. B., & Ziyaeva, S. A. (2023). THE SPECIFICS OF TRANSLATING AUTHOR'S INDIVIDUAL METAPHORS IN LITERARY TRANSLATION (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATIONS OF FRANCIS SCOTT FITZGERALD'S "THE GREAT GATSBY" INTO RUSSIAN). *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 252–258.
41. Turayev, O. S., Dolimov, A. A., Tursunmurodova, B. T., Baboyeva, S. S., Tureshov, P. A., Seytmusayev, A. I., Ziyayev, Z. M., & Kushanov, F. N. (2023). O'ZBEKISTONDA BUG'DOY TADQIQOTLARINING KELGUSI ISTIQBOLLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 259–266.

CONTENTS

42. Abduraimov, B. M. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA ELEKTRON XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 267–273.
43. Temirov, S. A. (2023). YORUG'LIK INTERFERENSIYASINI O'RGANISHDA "PHET"DA TUZILGAN DASTURLARDAN FOYDALANISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 274–277.
44. Ashurova, S. Y. (2023). MODULAR – COMPETENT APPROACH CONTENT IN PROFESSIONAL EDUCATION. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 278–284.
45. Ganieva, A. Z. (2023). THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF THE FORMATION OF THE CONTENT AND ARCHITECTURE OF MANAGERIAL COMPETENCIES OF THE LEADER. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 285–290.
46. Mustanov, I. S., & Madatov, I. A. (2023). MAKSIMAL DEFORMATSIYA MODULIGA ERISHISH UCHUN ARALASHMANING OPTIMAL TARKIBINI ANIQLASH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 291–300.
47. Murodov, N. O. (2023). OLIY TA'LIMNI BOSHQARISH KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMINI ISLOH QILISH VOSITASI SIFATIDA. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 301–306.
48. Elmurodov, A. B., Xakimov, A. E., & Ziyayev, Z. M. (2023). SINTETIK GEKSAPLOID BUG'DOY GENOTIPLARINING BOSHLANG'ICH MANBA SIFATIDAGI AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 307–311.
49. Aliqulov, Y. O., Ergashev, O. R., Shavqiyev, J. S., & Saitjanov, S. A. (2023). G. HIRSUTUM L. TURIGA MANSUB G'O'ZANING NAV VA TIZMALARDA BA'ZI MORFO-XO'JALIK BELGILARINING KO'RSATKICHLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 312–317.
50. Jabborova, O. M., & Umarova, N. T. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIM MALAKASINI TALIS XALQARO DASTURI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 318–323.
51. Махмудов, О. А. (2023). СВИДЕТЕЛЬСТВА АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ ОБ ЭВАКУАЦИИ ИЗ ЛЕНИНГРАДА И ЖИЗНИ ЭВАКУИРОВАННЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 324–328.
52. Montallana, C. L., Tesado, J. C., Pagliawan, D. L., & Soniedo, F. C. (2023). DOCUMENTING EASTERN VISAYAN INDIGENOUS TOYS AS EDUCATIONAL ALTERNATIVES TO ADDICTIVE MODERN GADGETRY. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 329–339.
53. Musayev, U. S. (2023). JAMIYAT HAYOTINING IJTIMOIIY-MA'NAVIY MUHITIGA TA'SIR ETUVCHI G'OYAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLAR. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 340–344.
54. Qudaybergenov, A. A. (2023). YIRIK NASOS STANSIYALARIDA SUV UZATISH JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 345–350.
55. Shoyimov, Y. Y., Tog'ayev, A. S., No'monov, A. B., & Shodiyev, O. A. (2023). KONVEYER TRANSPORTI ELEKTR YURITGICHINI HIMOYALASHDA TOK DATCHIKLARINING AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 351–357.



CONTENTS

56. Sherov, D., & Xusenova, I. (2023). XORIJIY TILLARINI O'QITISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ASOSIDAGI TURLI NAZARIY MODELLAR. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 358–367.
57. Umarova, Z., & Abdusamatova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA GUMANITAR FANLARNI INTEGRATSION O'QITISH TEXNOLOGIYASI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 368–371.
58. Adambayeva, F. R., & Sadullayeva, N. A. (2023). INGLIZ TILIDA BIOTEKNOLOGIYAGA OID TERMINLARNING TUZILISHI VA TASNIFI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 372–380.
59. Matrasulova, Z. P., & Rahimov, X. (2023). BIR ASARNING TURLI XIL TARJIMAVIY TALQINLARI ("FAUST" TRAGEDIYASI MISOLIDA). *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 381–386.
60. Hazratqulova, E. I. (2023). PSIXOLINGVISTIKA BO'LIMIDA PSIXOLOGIYA VA LINGVISTIKANING O'ZARO BOG'LIQLIK DARAJASI VA UNING AHAMIYATI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 387–390.
61. Рустамов, Н. С. (2023). ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ГЕНБАНКЛАР ВА ГЕНЕТИК РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 391–397.
62. Хайитов, И. Б., Хайитов, Ж. Б., & Хакбердиев, Х. Р. (2023). СПОСОБ ОЦЕНКИ РЕЗЕРВНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ У БОЛЬНЫХ С ЭХИНОКОККОЗОМ ПЕЧЕНИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 398–405.
63. Рустамов, Н. С. (2023). ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ГЕРМОПЛАЗМАНИ ЎЗARO АЙИРБОШЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 406–409.
64. Khujaev, O. K., & Jumanazarov, A. D. (2023). LARGE VOLUME ECG SENSOR DATA CLASSIFICATION AND ASSOCIATION RULES. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 410–416.
65. Xalmanov, D. X. (2023). ELEKTROTEKNIKA FANLARIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 417–428.
66. Shukurov, I. A., & Jabborova, N. (2023). TURISTIK FIRMALAR FAOLIYATINING EKONOMETRIK TAHLILI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 429–434.
67. Хайитов, Ж. Б., Бурибоев, Э. М., & Ниязова, О. А. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФАКТИЧЕСКОГО ПИТАНИЯ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ СПОРТСМЕНОВ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 435–440.
68. Mamutov, Q. T. (2023). МАКТАВ JISMONIY TARBIYA FANI MAZMUNINING TIZIMLI TAHLILI VA UNI GIMNASTIKANI SOG'LOMLASHTIRUVCHI ELEMENTLARI BILAN BOYITISH IMKONIYATLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 441–449.
69. Tursunova, G. X. (2023). O'ZLIKNI ANGLASHDA FAN VA TA'LIM SOHASINING INNOVATSON TA'SIRI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 450–456.



CONTENTS

70. Расулов, З. П. (2023). ТРЕНЕРЛАР КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДАГИ АСОСИЙ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК КОМПОНЕНТЛАР. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 457–463.
71. Makhamadiev, M. B., & Makhamadiev, A. B. (2023). THE IMPORTANCE OF LEARNING ENGLISH LANGUAGE IN UZBEK CLASSES. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 464–467.
72. Narmanov, A. X. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING NUTQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK NAZARIY ASOSLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 468–472.
73. Ziyadullayeva, D. X. (2023). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'SMIRLARDA YETAKCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 473–476.
74. Abdullayev, A. S., & Mirnafasov, S. M. (2023). HARBIY OLIY O'QUV YURLARIGA KIRUVCHI ABITURIYENTLARINI PSIXOLOGIK TESTLOVCHI TIZIM ISHLAB CHIQISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 477–481.
75. Farahi, M., & Rahmani, A. (2023). BCH CODES AND ITS APPLICATION BY POLYNOMIAL. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 482–491.
76. Teshajonova, M., Sodikova, M., Gafurova, O., Tukhtasinov, F., & Sultonov, D. (2023). FUNDAMENTALS OF ORNAMENTAL PLANT PROTECTION. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 492–495.
77. Muratova, N. B., & Umarova, M. E. (2023). MUTTASIL VA MUNFASIL HARFLARNING QO'LLANISH O'RNI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 499–496.
78. Ziyadullayeva, D. X. (2023). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'SMIRLARDA YETAKCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 500–505.
79. Amanova, G. A. (2023). TALABANING KOGNITIV FAOLIYATI TUZILISHI VA TURLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 506–511.
80. Tillayev, A. I. (2023). RAQAMLI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA MULTIMEDIA DASTURIY VOSITALARIDAN FOYDALANISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 512–518.
81. Sultonov, D., To'xtasinov, F., G'ofurova, O., Teshajonova, M., & Sodiqova, M. (2023). FARG'OGA VODIYSINING KATTA QAYRAG'OCH PO'STLOQXO'RI. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 519–524.